Ключевые слова: лингвокультурология, антропоцентрическая теория, этнолингвистика, фольклор, загадки, культуроспецифичные слова, реалии.

LINGUOCULTUROLOGY AS A SCIENCE AND ITS SIGNIFICANCE IN THE STUDY OF FOLKLORE

Abstract. Today, the need to learn a language is increasing. The theoretical and practical study of the language, its wide application, created the basis for the emergence of various scientific directions. The development of the new anthropocentric theory laid the foundation for new scientific directions such as ethnolinguistics, sociolinguistics, cognitive linguistics, and linguistics. Linguistics studies the relationship between language and culture, how culture is expressed in language, and how language presents and transmits cultural information.

This article discusses the formation of linguistic and cultural studies, the opinions of scientists who have conducted research in this field, and the schools of linguocultural studies. The role of linguoculturology

in the study of language and culture, its specific features are shown. Also, the importance of cultural linguistics in the study of folklore is revealed on the example of riddles.

Keywords: *linguoculturology, anthropocentric theory, ethnolinguistics, folklore, riddles, culture-bound words, realias.*

Kirish. Lingvokulturologiya til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni, madaniyatning tilda qanday ifodalanishini va til madaniy ma'lumotni qanday taqdim etishi va uzatishini o'rganishga qaratilgan. Ashurova va Galiyevalarning ta'kidlashicha, lingvokulturologiya til birliklari semantikasining chuqur darajasi bilan shug'ullanadi, til ma'nolari va umuminsoniy va milliy madaniyatlar tushunchalarini o'zaro bog'laydi [3]. Antropotsentrik paradigma sotsiolingvistika, etnolingvistika, gender tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi yangi fanlararo lingvistik yo'nalishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Madaniy tilshunoslik XXI asrning yangi ilmiy tendensiyasi hisoblanadi. Til nafaqat muloqot vositasi, balki millatning madaniy ifodasi hamdir. U insonga "barcha narsaning o'lchovi" maqomini beruvchi va tilda "inson omili"ni o'rganishga qaratilgan yangi antropotsentrik paradigmaning rivojlanishi tufayli paydo bo'ldi [2].

Olimlar lingvokulturologiya yoki lingvomadaniyatshunoslikni turlicha ta'riflar bilan ifodalashgan. Masalan, V.N.Teliya lingvokulturologiyani "zamonaviy madaniyat doirasida til va madaniyat o'rtasidagi aloqadorlikni, milliy o'zlikni anglash va uning belgi ifodasini tadqiq etish va tavsiflashga qaratilgan tadqiqot" deb ta'riflaydi. V.V.Vorobyevning ta'kidlashicha, bu "madaniyat va til o'rtasidagi korrelyatsiyalar va ularning faoliyatidagi o'zaro ta'sirlarni o'rganuvchi yaxlit ilmiy fan" dir. Ko'plab rus va yevropa olimlari madaniy lingvistika ustida ish olib borganlar, shuningdek, bir qator lingvomadaniyatshunoslik maktablari ham faoliyat olib borgan.

Lingvokulturologiya fanlararo fan hisoblanadi. V.A. Maslova hozirgi kunda to'rtta lingvomadaniy maktablar mavjudligini ta'kidlaydi. Bular quyidagilar:

Y.S. Stepanov lingvokulturologik maktabi

N.D.Arutyunova maktabi (turli asr va xalqlarga oid matnlar asosida umuminsoniy madaniyat modellarini o'rganuvchi maktab)

V.N. Teliya maktabi (Frazeologik birliklarni lingvomadaniy tahlil qilish bo'yicha Moskva maktabi)

V.V. Vorobyev lingvomadaniyatshunoslik maktabi

Shuningdek, bu sohaning rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyay, A.Vejbiskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Til – madaniyatning quroli, vositasidir. U xalq madaniyati vositasida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi. Demak, til "bizning hayot tarzimizni tavsiflovchi ijtimoiy meros qilib olingan malaka va g'oyalarni majmuyi sifatida madaniyatdan tashqarida mavjud bo'lolmaydi. Til inson faoliyatlarining biri sifatida madaniyatning tarkibiy qismi hisoblansa-da, tafakkur shakli va muloqot vositasi sifatida madaniyat bilan bir qatorda turadi. Tilshunoslikda XX asrning oxirlariga kelib "til madaniyat bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, balki uning o'zi madaniyatdan o'sib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir" degan faraz qabul qilina boshlandi. Ayni paytda til madaniyatning yaratilish vositasi, rivojlanishi, saqlanishi (matnlar ko'inishida) va uning tarkibiy qismidir. Chunki til vositasida madaniyatning moddiy va ma'naviy asarlari yaratiladi. Ana shu g'oya asosida ming yillar davomida shakllangan lingvokulturologiya fanning yangi, maxsus sohasi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi [7].

Lingvokulturologiyaning eng asosiy xususiyatlaridan biri uning fanlararo har tomonlama bog'liqlik jihatidir. Fanlararo aloqadorlik ikki yoki undan ortiq fanlarning umumiy nazariy qoidalar, tushunchalar va tahlil usullari asosida o'zaro bog'liqligini anglatadi. Lingvokulturologiya ham ichki, ham tashqi fanlararo bog'liqlik xususiyatiga ega. Uning etnolingvistika, kognitiv tilshunoslik, mamlakatshunoslik, lingvokonseptologiya, til tarixi kabi lingvistik fanlar bilan munosabatida ichki aloqalar kuzatiladi [3]. Ular orasida etnolingvistika alohida ahamiyatga ega. Biz etnolingvistika sohasiga e'tibor qaratsak, til va etnik madaniyat o'rtasidagi aloqalarni o'rganadi. Etnolingvistikaning tadqiqot obyekti xalq og'zaki ijodi namunalari hisoblangan qo'shiqlar, latifalar, ertaklar, topishmoqlar, shuningdek, diniy va mifologik marosimlar bilan belgilanadi. Uning asosiy maqsadi til birliklarida aks etgan etnik madaniyat va dunyoqarashni qayta tiklashdan iboratdir.

Madaniyatni bilish tegishli tilni bilish demakdir. Adabiyot va Folklor - bu madaniyat va millatning haqiqiy portreti. Demak, badiiy matn til o'rganuvchilarga maqsadli tilni o'rganishda katta yordam beradi va o'zining leksik unsurlari, sintaktik qonuniyatlari va diskurs funksiyalariga ega. U o'quvchini muqarrar ravishda boyitadigan metafora, idioma kabi boshqa adabiy vositalarga ham boy. Folklor xalq ertaklari, qo'shiqlar, maqollar, topishmoqlar kabi turli xil janrlarni o'z ichiga oladi. Ular orasida topishmoqlar eng

qiziqarlisi hisoblanadi. Topishmoq – bu ikki ma’noli yoki yashirin mazmunli, yechilishi kerak bo’lgan jumboq shaklida berilgan bayonot yoki savoldir. Topishmoqlar har bir xalqning ijtimoiy hayotiga asoslanadi. Ularda odamlar va ularni o’rab turgan olam metaforik va ramziy til orqali tasvirlanadi. Topishmoqlar insonlarni narsalarga yangicha yoki boshqacha nazar bilan qarashga undaydi va, shubhasiz, aqlni charxlashda muhim ahamiyatga ega. Topishmoqlar muayyan millatning tarixiy, madaniy, lisoniy va ijtimoiy jihatlarni o’zida mujassam etadi [5].

Topishmoqlarda xalqning kundalik hayoti, yurish- turishi, yashash tarzi, ishonch- e’tiqodi, tasavvurlari va olamga qarashi aks ettirilgan. Shu bilan birga, topishmoqlarda tarixiy voqealar, ijtimoiy-siyosiy masalalar, sinfiy munosabatlar ham o’z ifodasini topgan. Masalan, bit haqidagi “Abdullaxon- beustixon”, “Osmoni resmon, Mulla Abdurahmon-beustixon” topishmoqlarining birinchisida Buxoro xoni Abdullaxon, ikkinchisida Qo`qon xonligida xalqqa zulm o`tkazgan Abdurahmon oftobachi ko`zda tutilgan. Ayrim topishmoqlarda sotsial-sinfiy munosabatlar yanada yorqinroq aks etgan. Masalan igna haqidagi “*Hammaga to`n tikadi, o`zi yalang`och*” topishmog`i xuddi shunday chuqur ijtimoiy mazmunli jumboqlardandir. Topishmoq mazmunidan boy va amaldorlar uchun ertayu kech mehnat qilib, o`zi yalang`och qolgan kambag`al hunarmand nazarda tutilayotganini anglash mumkin.

Zamonaviy topishmoqlarda ham har bir millatga xos bo’lgan madaniyatni ifodalovchi xususiyatlar mavjud. Masalan, “Quyosh” haqidagi ushbu topishmoqni misol qilamiz:

Bir parcha patir

Olamga tatir

Bu yerda quyosh patirga qiyoslanadi, patir o’zbek millatiga xos bo’lgan non turidir. Nonning o’zbek xalqi uchun qay darajada muqaddasligi, doimo dasturxon to’rida bo’lishi, hamma baham ko’rishi quyoshning butun olamga baham ko’rilishi bilan taqqoslangan.

Topishmoqlarning qadimiy shakli hisoblangan *chistonlarda*, ayniqsa, millat madaniyati yaqqol ochib berilgan. Quyida shoira Uvaysiy qalamiga mansub Anor chistonini misol keltirishimiz mumkin.

Ul na gumbazdir eshigi tuynugidin yo`q nishon,

Necha gulgunpo`sh qizlar manzil aylabdir makon,

Sindurib gumbaz ichini qizlar holidin olsam xabar,

Yuzlarig`a parda tortig`liq, turarlar bag`ri qon

Bu yerda o’zbek millatiga xos bo’lgan ibo, hayoni ifodalovchi ayollar yuzidagi parda anor donachalarini o’rab turgan pardaga qiyoslangan, anorni ifodalayotgan gumbaz ham milliylikni, madaniyatni ko’rsatadi.

Shuningdek, ingliz topishmoqlarida ham o’ziga xos madaniyatni ifodalovchi turlari juda ko’p, ayniqsa, qadimiy topishmoqlar, anglo-sakson topishmoqlari bunga yaqqol misol bo’la oladi. Zamonaviy topishmoqlarda ham bunday xususiyatlar mavjud.

What is a turkey’s least favorite holiday?

Answer: Thanksgiving. (Shukronalik kuni) [9]

Inglizlarning Shukronalik bayrami haqida tushunchaga ega kishi bu topishmoqqa javobni topa olishi juda oson, bu yerda kurkaning yoqtirmaydigan bayrami haqida so’ralgan. Chunki ushbu bayramda milliy taom sifatida kurka pishiriladi. Quyidagi topishmoqda ham shunga o’xshash tasvirni ko’rish mumkin:

Question: What is a monster’s favorite dessert?

Answer: I-Scream [9]

Bu yerda mulohaza Helloven bayrami haqida boradi. Ingliz madaniyatiga ko’ra bu bayramda insonlar turli qo’rqinchli qiyofalarda yurishadi. Topishmoqda maxluqning sevimli shirinligi so’raladi va javobda bu so’z o’yini tarzida ifodalanadi, yozilishida “men baqiraman” degan ifoda berilgan, biroq og’zaki talaffuz qilinganda [ais kri:m] “muzqaymoq” kabi talaffuz qilinadi. Topishmoqning bunday turi “Pun” deb yuritiladi. Yangi zamonaviy topishmoqlarda madaniy bo’yoqdorlik jihatlari kuplab uchraydi.

What’s Santa’s favorite candy? Jolly Ranchers

Ushbu topishmoqda Rojdestvo bayramini nishonlaydigan mamlakatlarning milliy realligini aks etgan. Bunda Santaning sevimli shirinligi tavsiflangan. Topishmoqni topuvchi kishi Santaning yoqimli shirinligi haqidagi ma’lumotga ega bo’lsa, javobni topish juda oson, Lekin Sharqiy yoki Osiyo xalqlari uchun bu noma’lum bo’lishi mumkin. Ushbu topishmoqlar Rojdestvo, Yangi yil bayramlarini o’rganishda juda foydali bo’ladi, agar o’qituvchi ularni o’qish faoliyatidan oldin bersa, o’quvchilar yoki talabalar javob topishga harakat qilishsa, topishmoq o’qish matni nima haqida ekanligini va matndan olingan ma’lumotlarga ishora qiladi.

Xulosa. Madaniy tilshunoslik yoki lingvokulturologiya tilni madaniyat bilan bog‘laydigan yangi tendensiyadir. Unda madaniyat va tilning o’zaro bog‘liqligi, tilni o’rganishda yoki ifodalashda bevosita madaniyatning ham inson ongiga singishi nazarda tutiladi. Ayniqsa, bugungi kunda tilni o’rganish

LINGUISTICS

mobaynida turli asarlarning o'rganilishi, ularning dunyo tillariga tarjima qilinishi, madaniyatlarning ham almashinuviga sabab bo'lmoqda. Bu o'rinda xalq og'zaki ijodi turlarining ham salmoqli hissasi bor. Folklarning muhim janrlaridan biri bo'lgan topishmoqlar esa, aynan xalqlarning madaniy nuqtasini ifodalaydi. Bunga yuqorida misollar keltirildi. Folklarning bu janri bolalar ongini o'stirishda muhim o'rin tutadi. Topishmoqlar ilmiy mazmunga ko'ra ma'lum tarbiyaviy vazifani ham bajaradi.

ADABIYOTLAR:

1. Bert Peeters, *On Linguoculturology and Cultural Linguistics*, Belgium, 2019.
2. Collie, J and Stephen S, *Literature in the language classroom: A resource book for ideas and activities*. Cambridge University Press, 1990.
3. Ashurova D.U., Galiyeva M.R., *Cultural linguistics*, Tashkent 2019.
4. Husainova Z. "O'zbek xalq topishmoqlari" Toshkent. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
5. Kasimova Rano Rakhmatulloevna, Saloyeva Mahbuba Asror qizi, *Interaction of culture and language in Teaching English as second language (Through riddles)*, Buxoro-2023, 321b.
6. Taylor E. K. *Using folktales*. Cambridge University Press. 2000.
7. Qilichova O'yon, *Tilshunoslikda lingvokulturologiya fanining kelib chiqishiga oid qarashlar, Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: "Xitoyshunoslik" fakulteti iqtidorli yoshlarning ilmiy anjumani*, Volume 2, 41b.
8. В. А. Маслова, *Лингвокультурология*, Москва, 2001.
9. <https://www.womansday.com/life/a40640764/thanksgiving-riddles/>
10. <http://funnyriddles.co.cc>

PERIFRAZA TILNING MILLIY ICHKI IFODASI SIFATIDA

Ahmadova Umidaxon Shavkat qizi,

Buxoro davlat universiteti,

O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

u.s.ahmadova@buxdu.uz

uaxmadova477@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-6395-9812>

Annotatsiya. Maqolada perifrazalar nutqni ta’sirli va maqsadli yo‘naltirishda muhim vosita vazifasini bajarishi, nutq adresat uchun aniq va tushunarli, shuningdek, jozibador va emotsional-ekspressiv kuchga ega ekanligi xususida so‘z boradi. O‘zbek tilining qadimiy va boy til ekanligini ko‘rsatuvchi perifrazalardan, ayniqsa, hunarmandchilik sohasi va shu sohaga aloqador birliklarni perifrazalash orqali o‘zbek tilining til xususiyatlari, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan milliylik, madaniylik belgilari ochib berilgan hamda tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, nutq, xalq, madaniyat, muloqot, til, leksema, sema, uslub, ijtimoiy-kasbiy, milliy-etnik, lingvokulturologiya, tilshunoslik, perifraza, tasviriy ifoda, nutqiy muloqot, sotsial, hunarmandchilik.

ПЕРИФРАЗ КАК НАЦИОНАЛЬНОЕ ВНУТРЕННЕЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЯЗЫКА

Аннотация. В статье указывается, что перифразы являются важным инструментом эффективной и целенаправленной речи, что речь ясна и понятна адресату, а также обладает притягательной и эмоционально-выразительной силой. Из перифраз, показывающих, что узбекский язык является древним и богатым языком, особенно путём перифразирования ремесленной отрасли и связанных с ней единиц, выявлены и проанализированы языковые особенности узбекского языка, признаки национальности и культуры, характерные для узбекского народа.

Ключевые слова: общество, речь, народ, культура, общение, язык, лексема, sema, стиль, социально-профессиональный, национально-этнический, лингвокультурный, языкознание, перифраз, образное выражение, речевое общение, социальное, ремесло.

PERIPHRASE AS A NATIONAL INTERNAL EXPRESSION OF THE LANGUAGE

Abstract. The article points out that periphrases are an important tool for effective and targeted speech, that the speech is clear and understandable for the addressee, as well as has attractive and emotional-expressive power. From the periphrasis showing that the Uzbek language is an ancient and rich language, especially by periphrasing the craft sector and the units related to this sector, the linguistic features of the Uzbek language, the signs of nationality and culture characteristic of the Uzbek people have been revealed and analyzed.

Keywords: society, speech, people, culture, communication, language, lexeme, sema, style, socio-professional, national-ethnic, linguo-cultural, linguistics, periphrasis, figurative expression, speech communication, social, craft.

Kirish. Kishilik jamiyati vakillari qadimdan o‘zaro muloqot jarayonida muayyan narsa, buyum, hodisa, tushuncha yoki voqelikni biror nom bilan atash, ular haqida oddiy (soddagina) ma’lumot berish bilan chegaralanib qolmasdan, balki ularning muhim xususiyatlarini bo‘rttirib tasvirlash, o‘xshashlariga qiyoslash, o‘ziga xos alohida belgilari asosida ifodalashga harakat qilishganki, bu, odatda, muloqot vakillariga ko‘tarinki kayfiyat, nutqlariga esa ko‘rk bag‘ishlagan. Mutaxassislarning fikricha, shu asnoda tilning tasviriy vositalari shakllangan va takomillashib borgan. Chiroyli, jozibador, purma’no, yoqimli nutq barcha zamonlarda ham inson zotini o‘ziga jalb eta olganligi, shunday nutq egalari xalq orasida voizlar, notiqlar, suxandonlar sifatida qadrlanib kelinganligi hech birimizga sir emas. Taniqli olim Narzulla Jo‘rayev ta’kidlaganidek: «Sivilizatsiya dunyoning turli mintaqalarida turlicha yuz berib, muayyan hududlar aholisi dunyoqarashi va turmush tarziga chuqur o‘rnashgan. Sivilizatsiya, jumladan, Yunonistonda nafosat, Hindistonda din, Ovrupada moddiy texnika taraqqiyoti, Turonda esa axloq tarzida vujudga kelgan. Yurtimizda axloq benihoya serqamrov, qiyosi yo‘q tushuncha sifatida ardoqlanib kelingan. Ma’nili va

bejirim gapira bilish, nutqdagi ma'qul va noma'qul so'zlarni ilg'ay olish, so'zning orqa-o'ngini, munosib o'rini farqlay bilish, nutq odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqining ma'naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan» [3].

Aslida, ikki yoki ko'proq kishilarning bir-biriga axborot yetkazishi va bir-biridan axborot qabul qilish jarayoni bo'lgan muloqot o'zbek jamiyatida odob-axloq me'yorlari, xushmuomalalik, hilmlik, hamsuhbatining ko'nglini asrash, so'zini avaylab ishlatish, suhbatdoshning yoshi, ijtimoiy ahvoli, ruhiyati, muloqot o'rni, vaqti kabi o'nlab jihatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilgan. Ana shunday shirin suhbatgina tinglovchiga ham, so'zlovchiga ham estetik zavq berib, nutqiy muloqot ishtirokchilarining saviyasini, tarbiyalanganlik darajasini belgilaydi. Vaholanki, fransuz yozuvchisi Antuan Ekzyuperi yozganidek: «Muloqot bu shunday ne'matki, u orqali inson lazzatlanadi» [2, 37].

Shirin suhbat, yoqimli muloqot yoki go'zal nutqning yuzaga kelishini bevosita tilning rang-barang imkoniyatlari ta'minlaydiki, shunday imkoniyatlardan biri tasviriy vositalardir. Jahon tilshunosligida ham murakkab lingvistik hodisa sanalgan tasvirlash vositalarining tabiatiga qiziqish XXI asr boshlariga kelib yuqori darajaga ko'tarildi. Dunyo tillari orasida o'zbek tili nutqiy ifoda vositalariga o'ta boy tillardan biridir. Ana shunday tasviriy vositalardan biri serqirra tabiatga ega perifrastiklardir.

Tadqiqot metodi. Dunyo tilshunosligida perifrastikologiyani ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishda ularning hosil bo'lish yo'llari, mavzuviy guruhlari, semantik-struktur turlari, periferik birikmalarning tipologik xususiyatlari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa har bir ijtimoiy qatlam nutqida foydalanishda alohidalik kasb etadigan lingvomadaniy birlik bo'lgan perifrastiklarni nutqni bezovchi tasviriy vosita sifatida sotsial jihatdan tadqiq etish muhimligi va uning xususiyatlarini chuqur o'rganishga imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimizda til va xalq madaniyati yuksalishi yanada kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda o'zbek tilshunosligi muammolarini jahon tilshunosligida erishilgan yutuqlar asosida chuqur hal qilishga e'tibor ortmoqda. Ayniqsa, mamlakat xalqaro axborot hamjamiyatining intellektuallashuvida muloqot etikasini boyituvchi manba sanalmish sotsial-ijtimoiy perifrastik birliklarning til-nutq-madaniyat aloqadorligida o'rganilishiga ehtiyoj sezilmoqda. «Istiqlol yillarida ona tilimiz tom ma'noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi» [12]. Shu jihatdan til, shaxs va jamiyat munosabatlari muammolari yechimi sifatida sotsial perifrastik birliklar ayniqsa, hunarmandlar nutqi bilan aloqador bo'lgan sotsiopragmatik hamda lingvomadaniy xususiyatlari nutq etikasini boyituvchi manba sifatida milliy tilimizning leksik-semantik-funksional xususiyatlarini tadqiq qilish zaruratini belgilaydi.

Muhokama. Ma'lumki, perifrasta ko'p funksiyali hodisa sanaladi. Hunarmandlar nutqi perifrastikasining mohiyatini til va nutq farqlanishida ochib berish, leksik-semantik, uslubiy-funksional, ijtimoiy-kasbiy, milliy-etnik, lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega. O'zbek tilida hunarmandchilik sohasi perifrastiklarining kontekstual qo'llanilishi, kasbiy farqlanishi, muloqotda so'zlovchi va tinglovchi nutqining eshitimlilik darajasi, ruhiy holat bilan bog'liqligi ijtimoiy, lingvokulturologik, psixolingvistik aspektida asoslanishi orqali milliy tilimizning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini ochib berish mumkin. Perifrastikning nominativ ma'lumot berish xususiyatiga egaligi, stilistik qurilma sifatida – perifrastalanayotgan so'z, perifrastalayotgan komponent, perifrastalangan uch a'zoli tarkibiy qismlari lingvistik dalillanishi tilning va ushbu hodisaning serqirra ekanligidan dalolat beradi. Hunarmandchilik sohasiga oid bo'lgan perifrastik birliklar muloqot etikasini boyituvchi manba bo'lib, mamlakat xalqaro axborot hamjamiyatining intellektuallashuvida, sotsiolektlar, professiolektlar nutqini to'ldirishda ijtimoiy rol, mavqe, vaziyat kabi nutqiy omillarni aniqlanishi muhimdir.

Perifrastalar o'zbek tilshunosligida ham, turkiyshunoslikda ham garchand alohida ilmiy tadqiqot obyektini sifatida o'rganilgan bo'lsa-da, mazkur hodisaning lingvistik xususiyatlari to'la ma'noda o'z yechimini topmagan. Zero, perifrastalar badiiy tasvir vositalaridan biri sifatida og'zaki nutqimizda ham, yozma nutqimizda ham nihoyatda ko'p qo'llaniladiki, bu ona tilimizning boyligini, ma'no imkoniyatlari benihoya kengligini ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Perifrastalar nutqimizni ta'sirchan, aniq, mantiqan pishiq, jozibador va betakror bo'lishi uchun xizmat qiladi. So'z ma'nolarining kengayishi va ko'chgan holda qo'llanilishi tilning, ayniqsa, lug'at tarkibining boyligini oshiruvchi omillardan biridir. Odatda, nutqda ko'chma ma'noli so'zlarni qo'llash o'sha tilning lug'at zaxirasi naqadar boyligini ko'rsatuvchi, uslub ravonligini ta'minlash imkoniyatlari behad kengligini, ifoda mazmundorligini ta'minlovchi, obrazlilik yaratishga xizmat qiluvchi muhim vositalar xilma-xilligini xarakterlaydi.

Ma'lumki, so'z ma'nosining ko'chish yo'llariga metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik kabilar kiradi. Tasviriy ifodalar hosil bo'lishida ushbu usullarning ahamiyati katta. Masalan, *oq oltin* – paxta (metafora usulida), *o'zbek romanchiligi maktabining asoschisi* – Abdulla Qodiriy (metonimiya usulida),

charm qo'iqop ustasi – bokschi (sinekdoxa usulida), *fazogir* – kosmonavt (vazifadoshlik usulida) kabilarda muayyan narsa-predmet va unga xos belgining nomi boshqa narsa-predmetga va undagi belgiga nom sifatida ko'chirilgan. Shunga ko'ra, tasviriy ifodalar hosil bo'lgan. Tasviriy ifodalar ko'proq ot va sifat turkumlariga mansub bo'ladi. Bunday ifodalar ba'zan ikki predmetga bitta tasviriy ifoda (*aql gimnastikasi* – matematika, shaxmat; *qora oltin* – neft, ko'mir, *asr mo'jizasi* – kompyuter, internet) yoki bitta predmetga ikkita tasviriy ifoda tarzida (*zangori ekran, oynayi jahon* – televizor, *oq xalat sohiblari, salomatik posbonlari* – shifokorlar, *tafakkur ozuqasi, aql chirog'i* – ilm) qo'llanilishi mumkin.

Tilda shunday so'zlar borki, ular yakka qo'llanish xususiyatiga ega emas, ular birikma tarkibidagina qo'llanilib, perifrazalar hosil bo'lishi uchun asos vazifasini o'taydi. Shunday so'zlardan biri «*ahl*» so'zidir. Bu so'z bir soha, kasb yoki doira odamlari, bir joyda yashovchi kishilar hamda yig'inlarda qatnashuvchi shaxslar ma'nosini ifodalovchi so'z sifatida talqin etiladi. Masalan: *ahli ilm, ahli donish, qalam ahli, ishq ahli, ijod ahli*. Ayrim so'zlarning ko'chma ma'nosini qayd etish, albatta, ularning o'zlari tashkil etgan birikma bilan keltirishni talab etadi. Masalan, «*oltin*» kimyoviy element, sariq-qizg'ish tusli qimmatbaho nodir metall, zar, tilla ma'nosida qo'llaniladigan ushbu so'z orqali yasalgan perifrazalar: *oltin bosh* – yaxshi idrok etadigan boshga nisbatan; *oltin vodi* – noz-ne'matlarga boy bo'lgan joy; *oq oltin* – paxta; *qora oltin* – neft; *oltin odam* – qadri baland kabi. Rang semasini bildiruvchi leksik birliklardan ham perifrazalar hosil qilishda unumli foydalanish mumkin. Masalan: *oq oltin* – paxta, *oq tayson* – bokschi, *oq xalatli fidoyilar* – shifokorlar, *qora metall* – neft, *qora xonim* – qozon, *zangori ekran* – televizor, *zangori olov* – gaz, *moviy gumbaz* – osmon, *kumush tola* – ipak, *yashil boylik* – tabiat, *oltin boshq* – bug'doy, *ko'k qozon* – osmon kabilar.

Perifraza – murakkab tabiatli hodisa. Garchi u atash xususiyatiga ko'ra so'z varianti (mantiqiy ma'nodoshi) yoki muayyan leksema paradigmasida turuvchi hosila hisoblansa-da, tuzilish xususiyati hamda muayyan tushuncha, voqea-hodisa, belgi, shaxs yoki narsani obrazli ifodalashiga, shuningdek, tarkibi birdan ortiq so'zdan iboratligiga ko'ra so'z ta'rifiga mos kelmaydi (perifrazalarda so'zlardagi kabi ko'pma'nolilik xususiyati ham mavjud emas).

Zero, perifraza qadim zamonlardan to hozirgi kungacha tilshunoslarni doimiy qiziqtirib kelayotgan murakkab bir tuzilma, nutqda bir-biri bilan chambarchas bog'liq va o'zaro ta'sir qiladigan turli vazifalar hamda xususiyatlarga ega bo'lgan butunlik sifatida hamon aniq va yagona ilmiy asosli ta'rifga ega emas. Perifraza ko'p funksiyali hodisa sifatida matndagi so'zlarni almashtira oladi, muayyan birlikni bir vaqtning o'zida nomlaydi, ob'ektni tavsiflaydi va, ko'pincha, uni baholaydi. Demak, perifraza *nomlovchi, xarakterlovchi, tavsiflovchi*, shuningdek, *baholovchi* nominatsiya sifatida nafaqat obyekt haqida, balki nominatsiya mavzusi haqida ham ma'lumot berish xususiyatiga ega. Shu boisdan unga tugal ta'rif berish, tilning muayyan sathi doirasidagina tadqiq etish yoki hozirgacha o'rganilgan boshqa nutqiy hodisalar sirasiga kiritish, shu asosda perifrazaning konseptual o'zagini belgilash va yagona tasnifini berish mushkul.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, hozirga qadar amalga oshirilgan tadqiqotlarda perifrazalar bir necha sathlarda o'rganilgan. Jumladan:

1) leksikologiya tarkibida: Bir guruh olimlar perifrazaning nominativ xususiyatiga tayanib uni to'g'ridan-to'g'ri tilning atash xususiyatiga ega bo'lgan birliklari qatoriga joylashtirishadi. Masalan, Yu.Skrebnev perifrazani «yuqori emotsiyali leksika» («visokoemotsionalnaya leksika»), «tavsifli nominatsiya» («opisatel'naya nominatsiya»), «metonimik tavsiflangan nominatsiya» («nominatsiya kak metonimicheskoye opisaniye») sifatida belgilaydi [11, 96]. Fikrimizcha, uzoq yillar o'zbek maktablarining «Ona tili» darsliklari tarkibida «Tasviriy ifoda» mavzusining leksikologiya sirasida berilishi ham shu bilan bog'liq.

Y.Rapayeva «Perifrazaning tuzilishi va tiplari» maqolasida shunday yozadi: Perifrazani nominativ birlik sifatida tavsiflash uning ko'p qirrali mohiyati doirasini toraytiradi va perifrazalarning «obrazli ifodalash» xususiyatining o'ziyoq uni leksik birliklar, ya'ni so'zdan chetga chiqaradi [8]. Darhaqiqat, perifrazalarning atash ma'nosi ularning birgina xususiyati bo'lib, perifrazani faqat shu nominativ xususiyati asosida tavsiflash mohiyatga bir tomonlama yondashishdan boshqa narsa emas.

2) frazeologiya tarkibida: Perifraza, aslida, iboraning bir ko'rinishi bo'lib tavsiflovchi ibora sifatida mavjuddir. Perifraza haqida «nutq jarayonida «boshqa ibora yoki so'zning ma'nosini tavsiflab uzatish» xususiyatiga ega alohida frazeologik birlik hisoblanadi» yoxud «ob'ekt yoki hodisaning nomini ularning muhim xususiyatlari tavsifi bilan almashtirishdan iborat bo'lgan aylanma» yoki «boshqa ifoda yoki so'zning ma'nosini tavsiflovchi, keng tarqaladigan ibora» mazmunidagi ta'riflarga tez-tez duch kelamiz [9].

Fikrimizcha, perifraza leksemadan ham, frazemadan ham farqlanuvchi, biroq ularga yondosh, alohida nutqiy hodisadir.

3) stilistika tarkibida: Tilshunoslikda perifraza «stilistik qurilma», «nutqiy stilistik moslama», «ekspressivlikni oshirish uchun ishlatiladigan og'zaki aylanish», «stilistik asbob», «obyekt yoki harakatning

bitta soʻzli nomini tavsifli verbal soʻz bilan almashtirishdan iborat stilistik-semantik shakl» sifatida talqin etilgan bir qator tadqiqotlar mavjud [5].

Yuqoridagi taʼriflarda perifriza matn tuzilishida ekspressivlikni taʼminlovchi eng muhim birlik tarzida talqin etilgan.

Perifrazalar uslubiy vosita sifatida nutqqa koʻtarinkilik, obrazlilik baxsh etadi, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqib, lugʻat tarkibini boyitib boradi. Nutq jarayonida takrorlardan, qaytariqlardan qochish imkonini beradi, notiqni soʻzamollikka, tinglovchini esa falsafiy mushohada etishga undaydi. Shuningdek, tasviriy ifodalar faqat jozibadorlik va obrazlilik, nutqni boyitish, uning mazmunini kuchaytirish uchungina emas, balki jamiyatning olgʻa qadam qoʻyishiga toʻsqinlik qilayotgan illatlarni fosh qilish, ulardan kulish va ularga qarshi kurashga chaqirish maqsadida ham ishlatiladi. Binobarin, tasviriy ifodalar predmet, voqea-hodisalarning oʻz nomi orqali yuzaga chiqmagan muhim xususiyatlarini tasvirlab, boʻrttirib, izohlab va toʻldirib koʻrsatishda muhim nutqiy vosita hisoblanadi.

Maʼlumki, xalqning milliy-etnik xususiyatlari, avvalambor, uning tilida namoyon boʻladi. Tilshunos S.Muhamedova qayd etgani kabi «... til, avvalo, millatni millat qiluvchi vosita, u millatning koʻzgidir. Zero, tilimizda bizning qiyofamiz, maʼnaviyatimiz aks etadi, til millat vakilining maʼnaviyatini namoyon qiladi» [6]. «Til ajdodlardan meros buyuk xazina, avlodlarni bogʻlovchi maʼnaviy koʻprik hisoblanadi. Har qanday tilda u mansub boʻlgan xalqning maʼnaviyati, ruhiy olami, aql-idroki, orzu-umidlari, yuksak insoniy fazilatlarini oʻz ifodasini topadi. Dunyoda yetti mingga yaqin til bor, ularning hammasini oʻzlashtirish qiyin. Ammo tilning moʻjizaviy qudrati shundaki, kishi oʻzi uchun mutlaqo begona tildagi soʻzlashuv yoxud qoʻshiqni tinglaganda, shu millat haqida maʼlum tasavvurga ega boʻladi» [10]. Milliy-etnik xususiyat til orqali namoyon boʻlar ekan, birinchi navbatda, tilning leksik tarkibida koʻzga tashlanadi.

Kishilik jamiyati taxminan ikki million yillik murakkab tarixga ega boʻlib, jahondagi har bir elat, xalq, millat asrlar silsilasining muayyan davrlarida shakllanib, oʻziga xos ijtimoiy taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtganki, bu bevosita oʻzbek millatiga ham tegishli. Til birliklarining milliy-etnik, lingvomadaniy talqinida muhim oʻrin tutadigan bu masala nafaqat ilmiy, balki milliy mentalitet, milliy madaniyat, milliy davlat, milliy suverenitet masalalari bilan bevosita aloqador ijtimoiy, siyosiy, sotsial xarakter kasb etgan masaladir. Til xalqning bebaho mulki, nodir va nozik boyligi ekanligi maʼlum. Unda xalqning dunyoqarashi, ruhiyati, takomil tadriji, asrlarga tengdosh tarixi, xullas, millatning butun boʻy-bastiyu aqliy-maʼnaviy olami qatnashida quyosh aks etganidagi oʻz tajassumini topadi.

Tilning muhtasham xazinasida hunarmandchilik sohasi deb umumlashtiriladigan muhim bir qatlam borki, u xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, tegishli hududning geografik va iqlim xususiyatlari, qisqasi, butun xalqning milliy, etnik jihatlari haqida ishonchli maʼlumotlar beradi. Nutqda hunarmandchilik sohasiga oid perifrastik birliklarni milliylik omilining qay darajada ifodalanishi, madaniy-estetik darajalarga koʻra, etno-hududiy tiplariga koʻra tasniflab tadqiq qilish mumkin.

Dunyoda turli-tuman kasblar, bir-biridan turfa hunarlar borki, ularning har biri oʻziga xos ish qurollaridan, oʻz kasbi, hunari mohiyatidan kelib chiqadigan atamayu professionalizmlardan, kasb-hunariga mohiyatan bogʻliq til hamda nutq birliklaridan foydalanadi. Birgina hunarmandchilik sohasining oʻzi oʻz ichida sohalarga boʻlinadi. Masalan, zardoʻzning asosiy quroli – zar-ip, tikuvchilik – igna, ip, tikuv mashinasi, kulolchilik esa loy, shirin tuproq, rassomlarniki – boʻyoq, rang va hokazo.

Aytish joizki, har bir soha vakillarining, hunar egalarining, oʻziga xos sotsial qatlamlarning nutqini «tanitib turuvchi» terminlari, atamaları bilan birga perifrazalari ham boʻladi. Jumladan: dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar, tibbiyot xodimlari, pedagoglar, matbuotchilar, diniy soha vakillari, ijodkorlar, quruvchilar, olimlar nutqi perifrazalari va boshqalar.

Xulosa. Perifrazalarning ijtimoiy kasbiy tasnifga koʻra turlari xususida mulohaza yuritayotganda ikki jihatni farqlab olish muhim deb hisoblanadi. Birinchisi – muayyan sotsial obyekt haqida aytilgan perifrazalar hamda ikkinchisi – ijtimoiy kasb, hunar, soha vakillarining nutqida keng yoki alohida qoʻllaniluvchi perifrazalar. Masalan, *turizmning bir boʻlagi – hunarmandchilik sohasi* haqida aytilgan perifriza boʻlsa, *bezaklar toji – tillaqosh* zargarlik mahsulotlari kasbiy perifrazasi hisoblanadi.

Hunarmandchilik sohasida *xalqimizning oʻlmas qadriyati* – kashtadoʻzlik, *amaliy bezak turi, sanʼat turi* – kashtachilik, *qushdan nusxa oladigan* – kashtachi, *bezak sanʼati turi* – kashta; *zar ustalari* – zardoʻzlar, *bezak yaratadigan soha* – zardoʻzlik, *nozik did hunari* – zardoʻzlik, *oʻt ichidan chiqqan qaqnus qush* – zardoʻzlik sanʼati, *momomeros kasb* – zardoʻzlik; *oshxona sultoni* – oshpaz, *oshxona sohibi* – oshpaz, *dasturxon sehergarlari* – oshpazlar, *oshpaz ijodi mahsuli* – taom, *azaliy kasb turi* – oshpazlik; *bagʻri otash moʻjiza* – tandir, *tandir ustasi* – tandirsoz, *xamir ustasi* – novvoy, ***quyosh parchasi yaratuvchilari*** – novvoylar, ***dasturxonimiz fayzi*** – non, *tongni uygʻotgan neʼmat* – non, *inson rizqi* – non, shuningdek, *dunyoni koʻrish sanʼati* – miniatyura, *kichik oʻlchamlar moʻjizasi* – miniatyura, *insonning jonli soyasi* – portret, *sayyohlar shoh bekati* – mehmonxona, *sirli naqshlar sanʼati* – yogʻoch oʻymakorligi, *shohlar bayoni*

san'ati – miniatyura kabilar hunarmandchilikka oid perifrazalar bo'lib, ularda milliylik, madaniylik omili aks etgan.

Hunarmandlar nutqi perifrazalari serqirralik tabiatiga ega bo'lib, so'zlovchining muayyan voqelikka qanday munosabat bildirishiga ko'ra yoki yozuvchining o'z asarida ifodalayotgan obrazlar xarakterini ochib berishda ham ijobiy, ham salbiy, ba'zan neytral ma'nolarni yuzaga chiqarishda, shuningdek, nutqda ifodalanayotgan perifraza nutq egasining (yoki asar qahramonining) madaniyatlilik belgisi, estetik didi yoki tarbiyalanganlik darajasini ko'rsatib turadi.

Perifrazalar jamiyat ahlining barcha ijtimoiy qatlamlari doirasida ham badiiy, publitsistik, ham ilmiy, ham so'zlashuv uslublarining badiiy-estetik, effekt beruvchi, ta'sir qiluvchi asosiy vositasiga aylangan. Perifrastik birliklar ko'magida nutq odobi, muomala madaniyati yuksaladi. Ushbu birlik nutqning rang-barangligi, ta'sirchanligi, eshitimlilikini, badiiyligini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G'. *Hozirgi o'zbek tilining adabiy uslubi haqida // O'zbek tili va adabiyoti. 1992, № 5-6. – B. 38-36.*
2. *Antuan de Sent-Ekzyuperi. Planeta lyudey (Nora Gal tarjimasi). 1963. – B. 37.*
3. *Jo'rayev N. Agar ogohsen... – Toshkent: Sharq, 1998. – 253 b.*
4. *Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Samarqand: SamDU, 1994. – 72 b.*
5. *Квятковский А.П. Поэтический словарь. – Москва: Сов. Энциклопедия, 1966. – 376 с.*
6. *Muhammedova S. Til millat ko'zgusidir // <http://www.biznes-daily.uz/ru/mening-mulkim/43174-til-millat-kuzgusidir>.*
7. *Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. –Toshkent: Fan, 1977. – 172 b.*
8. *Rapaeva Ю. В. Структура перифразы и её типы. – Уфа: Лето, 2013. – С. 90-91.*
9. *Розенталь Д.Е., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов (Пособие для учителя). – Москва: Просвещение, 1985. – 399 с.*
10. *Saidova Q. Til – millat qalbi // Guliston, 2013. – 15-b (Elektron resurs). <http://n.ziyouz.com/books/jurnallar/guliston/Guliston%20-%202013-5.pdf>*
11. *Скребнев Ю.М. Очерк теории стилистики (Учебное пособие для студентов и аспирантов филологических специальностей). – Горький, 1975. – 175 с. – С. 96.*
12. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. Manba: <http://lex.uz/docs/4561730>*
13. *Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov X. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 248 b.*
14. *Ahmadova U. Sh. Perifraza turlari va ularning matndagi o'rni //Til, ta'lim, tarjima xalqaro jurnali. –Toshkent. – 2020. – T. 4. – S. 81-87.*

DISKURS ATAMASI TILNING AJRALMAS BO‘G‘INI SIFATIDA

*Subxonova Madina Otabek qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti,
Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi
madinasubxonova2@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy tilshunoslikning faol tushunchasi bo‘lgan diskurs atamasi mazmuni, uning kelib chiqishi, turli sohalarda uni o‘rganishga bo‘lgan turli yondashuvlar, g‘arb va sharq olimlarining diskurs tushunchasini tahlil qilishdagi xulosalarini o‘zida jamlaydi. Shuningdek, diskurs atamasining tilshunoslikdagi ahamiyati va uning turlari haqida ham alohida to‘xtalib o‘tilgan. Bundan tashqari, diskurs matn lingvistikasining ilmiy nazariyasiga ilk bor “diskurs tahlil” atamasi shaklida kiritilishi hamda strukturaviy tilshunoslikdan olingan “diskurs” tushunchasi tobora kengroq ilmiy talqin qilinib, hamda terminologik polisemantik bo‘lib shakllanishining bosqichlari keng yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: diskurs, diskurs tahlil, nutq, matn, fikr, dialog, og‘zaki diskurs, yozma diskurs, zamonaviy tilshunoslik, matn lingvistikasi, strukturaviy tilshunoslik.

ТЕРМИН ДИСКУРС КАК НЕОТЪЕМЛЕМАЯ ЧАСТЬ ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье обобщено содержание термина «дискурс», который является активным понятием современной лингвистики, его происхождение, различные подходы к его изучению в разных областях, а также выводы западных и восточных ученых, анализирующих понятие «дискурс». Также отдельно обсуждается значение термина дискурс в лингвистике и его виды. Кроме того, выделены этапы первого внедрения дискурса в научную теорию лингвистики текста в виде термина «дискурс-анализ» и становления понятия «дискурс», взятого из структурной лингвистики в терминологическое многозначное, имеющее более широкое значение. Широко освещена научная интерпретация дискурса.

Ключевые слова: дискурс, дискурсивный анализ, речь, текст, мысль, диалог, устная речь, письменная речь, современная лингвистика, лингвистика текста, структурная лингвистика.

THE TERM DISCOURSE AS AN INTEGRAL PART OF LANGUAGE

Abstract. This article summarizes the content of the term discourse, which is an active concept of modern linguistics, its origin, various approaches to its study in various fields, and the conclusions of Western and Eastern scholars in analyzing the concept of discourse. The significance of the term discourse in linguistics and its types are also discussed separately. In addition, the stages of the first introduction of discourse into the scientific theory of text linguistics in the form of the term “discourse analysis” and the formation of the term “discourse” derived from structural linguistics with an increasingly broader scientific interpretation and terminological polysemantic formation are widely covered.

Keywords: discourse, discourse analysis, speech, text, thought, dialogue, oral discourse, written discourse, modern linguistics, text linguistics, structural linguistics.

Kirish. Tilshunoslikning zamonaviy bo‘g‘imlarida til tizimining kognitiv talqini chuqur izlanishdadir. Ushbu yo‘nalishni nazariy jihatdan o‘rganish, terminologik bo‘limini shakllantirish, nutqda vujudga keladigan kommunikativ jarayonlarning tuzilishini tavsiflash va har tomonlama tahlil qilish hozirgi zamon tadqiqotchilarining muammoli masalalaridan biri sifatida tadqiq qilinmoqda. Ushbu tadqiqotlar orasida o‘tgan asrning 60-yillari oxiridan boshlab nutq atamasining yangilangan nusxasi kognitiv tilshunoslik elementi sifatida foydalanila boshlandi.

Dastlab antropolog Dell Humes 1960-yillar boshlarida diskurs termini ifodasi va uning ahamiyati bilan shug‘ullana boshlagan. U izlanishlari asosida o‘tgan asrning o‘rtalarida diskurs tushunchasini lingvistik atama sifatida tilshunoslik bo‘limiga kiritgan. Ushbu olim tadqiqotlariga ko‘ra, diskurs kishilarning og‘zaki nutqda bir-birilari bilan muloqotga kirishishidir. Dell fikriga ko‘ra, diskurs bu faqatgina muloqotdir, ammo diskurs nafaqat muloqot, balki matn bilan ham o‘zaro uyg‘unlikda sodir bo‘ladigan holat ekanligini unutmash kerak. Bundan tashqari amarikalik tilshunos Z.Xarris “diskurs tahlil” atamasini 1952-yilda matn lingvistikasi nazariyasida keltirib o‘tadi. Tilda sintaksisdan bir pog‘ona yuqori bo‘lgan tizim mavjudligini,

matn tushunchasi ham shu tizimga mansub, degan fikr ilgari surilgan. Diskurs tahlili, uning fikricha, tilning qoliqlarini (strukturasini,) gapdan ko'ra kengroq elementlarda ko'rib chiqadi. U nutqni "muayyan vaziyatda bir (yoki bir nechta) shaxs tomonidan yozilgan yoki aytilgan bayonotlar ketma-ketligi" deb ta'riflagan. Ushbu yondashuvdan so'ng strukturaviy lingvistikadan keltirilgan tushuncha, ya'ni "diskurs" atamasi yanada keng ko'lamda tahlil maydoniga ko'tarildi va 20-asr yakuniga kelib terminologik polisemantik darajasiga yetdi. Shuningdek, 1970-yilga kelib "diskursiv tahlil" yagona fan darajasiga ko'tarildi. V.E.Chernyavskaya nutq tushunchasini matn tushunchasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqib, quyidagi ta'rifni beradi: "Diskursni situatsion kontekst bilan chambarchas bog'langan matn(lar) sifatida tushunish kerak". V. Z. Demyankov esa "Diskurs – bir nechta gapdan yoki gapning mustaqil qismidan tashkil topgan matnning ixtiyoriy bo'lagi" deb izoh beradi. Tilshunos Y.S.Stepanov quyidagi ta'rifni beradi: "Diskurs – ma'lum grammatik va leksik sxemalar qo'llanishi natijasida o'ziga xos mentalitet yoki mafkurani ifodalovchi tildan foydalanish tizimidir". Professor Karasik: "Diskurs - bu matn va kommunikativ vaziyatning birligi", deydi va nutqni o'rganishning uchta yondashuvini asoslaydi. Zamonaviy lingvopragmatikaning dolzarb muammolaridan biri "diskurs" tushunchasining *nutq, matn, fikr, dialog* kabi tushunchalar bilan munosabatini aniqlashdir.

Hozirgi vaqtda Yevropa tilshunosligida nutqni o'rganishda D.Shifrin tomonidan aniqlangan uchta asosiy yondashuv mavjud. Birinchi yondashuv nutqni "jumladan yuqorida yoki gap ustidagi til" deb ta'riflaydi. Ikkinchi yondashuv nutq funksiyalarini tahlil qilish tilning funksiyalarini keng ijtimoiy-madaniy kontekstda o'rganish bilan shartlanadi, deb taxmin qiladi [diskurs tahlili, albatta, qo'llaniladigan tilni tahlil qilishdir]. Uchinchi variant shakl va funksiyaning o'zaro ta'sirini ta'kidlaydi: "nutq sifatida nutq". Bu ta'rif shuni ko'rsatadiki, nutq "gapdan ko'ra ko'proq" lingvistik tuzilish birliklarining ibtidoiy to'plami emas, balki tildan foydalanishning funksional jihatdan tashkil etilgan, kontekstualashtirilgan birliklarining ajralmas to'plamidir.

Asosiy qism. Zamonaviy yondashuvlar nuqtayi nazaridan, diskurs murakkab kommunikativ hodisa bo'lib, matnga qo'shimcha ravishda matnni tushunish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha lingvistik omillarni (fikrlar, dunyo haqidagi bilimlar, qabul qiluvchining maqsadlari, munosabatlari) o'z ichiga oladi. "Diskurs" atamasi lingvistika sohasida ham juda ko'p qo'llaniladigan atamalardan biriga aylangan. Tarixiy jihatdan bu atama birinchi marta amerikalik tilshunos Z. Xarrisning 1952- yilda nashr etilgan "Diskurs tahlili" deb nomlangan maqolasida ishlatilgan. "Diskurs" atamasining to'liq ko'lamini so'nggi yigirma yil ichida tilshunoslikda ommalashib bordi. Tilshunos olim A.Pardaev talqinicha, diskurs bu so'zlovchi va tinglovchining o'zaro fikr almashish, bir-biriga ta'sir ko'rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan o'zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda amaliy foydalanish jarayoni hisoblanadi. Diskurs bu – jarayon, insoniy faoliyat turi.

U lisoniy va yuzlab nolisoniy omillarning mushtarak shaklda bir maqsad yo'lida voqelanishidir. Boshqa bir manbada diskurs lotincha "discursus" - muhokama so'zidan olingan bo'lib, hissiy, bevosita, intuitiv, ya'ni muhokama talab bilimdan farqli o'laroq, muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil - isbotli bilim demakdir. Sodaroq qilib aytganda, bu ta'rifda diskursning muhokama qilish, suhbat qilish ma'nosi ilgari suriladi. O'zbek tilshunosligida diskurs mavzusidagi maxsus tadqiqotlar tilshunos Sh.Safarov tomonidan amalga oshirilgan.

Tilshunos matn va diskurs muammolari to'g'risida quyidagilarni qayd etadi: "agarda matn va diskursning har ikkalasi ham inson lisoniy faoliyatining natijasi bo'lsa, ularni faqatgina zohiriy – formal ko'rsatkichga asosan "og'zaki" va "yozma" sifatлари bilan farqlash imkoniga gumonim bor. Xuddi shuningdek, ularning birini moddiy ko'rinishli hodisa, ikkinchisini bu xususiyatdan xoli ko'rinishda tasavvur qilish qiyin masala. Axir bularning ikkalasi ham natijali faoliyat mahsuli bo'ladigan bo'lsa, erishilgan natija moddiy ko'rinish olishi kerakku?"

Maqsadli ifodalanadigan kommunikativ mazmun va so'zlovchi istagi bilan bog'liq bo'lmagan holda tinglovchi idrokida (qabulida) hosil bo'ladigan informativ mazmun bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, ular o'zaro qorishib, birikib, muloqotning samaraliligini ta'minlovchi omilga aylanadilar. Kommunikativ va informativ mazmunlar uygunligi muloqot tizimi makrobirligining yaxlitligini ta'minlaydi. Hozirgi paytda bunday yaxlitlik xususiyatiga faqatgina diskurs ega ekanligi e'tirof etilmoqda.

Y.S.Kubryakova qaydicha, «tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti davrida diskursning umumiy qabul qilingan biror bir ta'rifi mavjud emas» Tilshunoslikda diskurs bir gapdan ham uzunroq til birligiga ishora qiladi. Diskurs so'zi lotincha dis- "uzoqda" ma'nosidagi prefiksdan va "yugurish" ma'nosini bildiruvchi "currere" o'zagidan olingan. Shuning uchun nutq "qochish" deb tarjima qilinadi va suhbat qanday o'tishini anglatadi.

Xulosa. Nutqni o'rganish - bu ijtimoiy kontekstda og'zaki yoki yozma tildan foydalanishni tahlil qilishdir. Diskurs tadqiqotlari nutqda tilning shakli va funksiyasini uning kichik grammatik qismlari, masalan, fonema va morfemalardan tashqari ko'rib chiqadi. Gollandiyalik tilshunos Teun van Deyk

rivojlanishda muhim rol o'ynagan ushbu tadqiqot sohasi tilning katta birliklari, jumladan, leksemalar, sintaksis va kontekst suhbatlarga qanday ma'no qo'shishi o'rganadi. "Kontekstdagi diskurs "chekish ta'qiqlanadi" yoki "to'xta" kabi faqat bir yoki ikkita so'zdan iborat bo'lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, nutqning bir qismi, ba'zi romanlarda bo'lgani kabi, yuz minglab so'zlardan iborat bo'lishi mumkin. Oddiy diskurs hajmi yuqoridagi kabi ikki o'lchov o'rtasida joylashgan.

ADABIYOTLAR:

1. *Definition and Examples of Discourse: Glossary of Grammatical and Rhetorical Terms* By Richard Nordquist Updated January 30, 2020
2. *Hinkel va Fotos* 2001
3. *Definition and Examples of Discourse: Glossary of Grammatical and Rhetorical Terms* By Richard Nordquist Updated January 30, 2020
4. Subxonova, M. (2022). Роль языка и культуры в лингвокультурологическом анализе английских и узбекских пословиц. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 8(8). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5895
5. Subxonova, M. (2023). Diniy diskursda metaforik birliklar talqini va funkcionalligi. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(19). извлечено от <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/137>
6. Subxonova, M. (2022). Lingvomadaniy birliklarning dostlik haqidagi ingliz va o'zbek maqollarida ifodalanishi. *центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 23(23). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8213
7. Otabekovna, S. M. (2023). *Metaphoric expressions in different religious texts. "England" modern psychology and pedagogy: problems and solution*, 10(1).
8. Subxonova, M. (2024). *Badiiy tarjimada diniy diskurs elementlari. центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 49(49). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/12467
9. Madina Subkhonova. (2024). *The Concept of Religious Discourse and Aspects of its Study in Linguistics. Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, 2(5), 493-496. <https://doi.org/10.5281/>
10. Otabekovna, S. M. (2022). *Comparative Analysis of Proverbs and Sayings in English and Uzbek Expressing Youth and Senility. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(5), 114-119.

PEOPLE'S ATTITUDE TO ENGLISH AND THEIR KNOWLEDGE

Sayfullaeva Umida Ulmaskulovna,
Senior teacher Samarkand State
Architecture and Construction University
Foreign languages department
Sayfullaeva-Umida@mail.com

Abstract. The article explores people's attitudes toward learning and proficiency in English as a global means of communication. It analyzes sociological data on the prevalence and importance of the English language across various domains, including education, technology, business, tourism, and aviation. Particular attention is given to the social and cognitive benefits of English proficiency and its role in professional activities. The necessity of learning English is substantiated as a means to enhance cross-cultural interaction and improve the global competitiveness of specialists. The study highlights the correlation between English language skills, career advancement, and integration into the global information environment.

Keywords: English language, global communication, sociolinguistics, professional competence, language prevalence, cognitive benefits, cross-cultural interaction, career advancement.

ОТНОШЕНИЕ ЛЮДЕЙ К АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ И ИХ ЗНАНИЯ

Аннотация. В статье рассматривается отношение людей к изучению и владению английским языком как средством глобальной коммуникации. Проведён анализ социологических данных о распространённости и значимости английского языка в различных сферах, включая образование, технологии, бизнес, туризм и авиацию. Особое внимание уделено социальным и когнитивным преимуществам владения английским языком, а также его роли в профессиональной деятельности. Обоснована необходимость изучения английского языка как средства для укрепления межкультурного взаимодействия и повышения глобальной конкурентоспособности специалистов. В исследовании подчёркивается взаимосвязь между знанием английского языка, карьерным ростом и интеграцией в глобальное информационное пространство.

Ключевые слова: английский язык, глобальная коммуникация, социолингвистика, профессиональная компетенция, распространённость языка, когнитивные преимущества, межкультурное взаимодействие, карьерный рост.

INGLIZ TILIGA BO‘LGAN MUNOSABAT VA BILIM DARAJASI

Xususiy nutqdagi maqto'vlar mavzusi haqida yana bir oz fikr bildirsak. Holms, Brown, Wolfson kabi xorijiy sotsiolingvistlarning fikricha {Holms, Brown D.F., 1987; Wolfson, 1984}, ingliz til madaniyatiga xos bo'lgan muhim jihat - bu retsipient/adresat ayollarning tashqi ko'rinishi, qobiliyatlari va shaxsiy narsalarini, shuningdek, erkak adresatlarning tashqi ko'rinishi va qobiliyatini maqtash hisoblanadi. Ayollarga aytiladigan iltifotlarning asosiy mavzusi ularning tashqi ko'rinishi bilan bog'liq bo'ladi. Erkakning tashqi ko'rinishi va qobiliyatlarini baholash ularni maqtashning kalitidir.

Yuqoridagi (1) va (2) kontekstdagi maqto'v mavzulari adresat xotinlarning shaxsiy fazilatlarini bilan bog'liq bo'ladi: birinchi holatda, erkak o'z xotinining mo'ynali paltosini, ikkinchidan, uning aktyorlik mahoratini yuqori baholaydi.

Xususiy diskursda iltifotlarda muloqotni tashkil etish ularning odob-axloq tabiati bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Muloqotni tashkillashtirishga kelsak, adresantlarning motivlariga e'tibor berish kerak bo'ladi.

Motiv harakatlarning psixologik asosini ifodalaydi va o'ziga xos vosita vazifasini bajaradi. Uning orqasida doimo muayyan ehtiyojlarni qondiradigan ehtiyoj mavjud [Leontyev A.N., 1975]. Xususiy

diskursda, adresantlarning motivlari, bizning fikrimizcha, adresatlarning harakatlari, mahorati, aql-zakovati yoki xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan qadr-qimmatni ifodalash istagini o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu bayonot ularning hissiy holatini yaxshilashga qaratilgan. Demak, bunda motiv amalga oshadi va maqsadli harakatga aylanadi [Leontyev A.N., 1975].

Bizning fikrimizcha, ingliz til madaniyatidagi samimiy va nosamimiy iltifotlar o'rtasidagi eng muhim motivatsion farq shundaki, samimiy iltifotlar adresantlari o'zlari minnatdorchilik bildirishni boshlaydilar, hech kim va hech narsa ularni bunga majbur qilmaydi, nosamimiy iltifot esa, har doim ham adresantning haqiqiy hissiy holatini aks ettirmaydigan sof rasmiy bayonotdan iborat. Nosamimiy iltifotni aytayotganda, adresant adresatga nisbatan ijobiy emas, balki salbiy his-tuyg'ularni boshdan kechirishi yoki umuman befarq bo'lishi mumkin.

Keling, quyida ikkita maqtozni tahlil qilaylik (bularning biri xususiy diskursdan, ikkinchisi institutsional diskursdan olingan) va ulardagi muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi motivatsion farqlarni aniqlaymiz:

Yuqoridagi xususiy diskurs misolida, murojaat qiluvchi ayol maqtoiv obyektini sifatida o'z sevgilisining tashqi ko'rinishi va xarakterli xususiyatlarini tanlaydi:

Alice took hold of me by my hair. "You've a nice body, do you know that? Hairy, but not too hairy. I never could bear animated hearthrugs."

I felt as if I were choking. "God, you are lovely. You - I don't know what to say, you're so beautiful."

...

"Oh, God," she said, "you're so good. You're so good to me. You're so kind. There was never anyone so good to me before. I'm alive now, all of me's alive." (Braine. *Room at the Top*) (3).

Tarjimasi:

Elis mening sochlarimdan ushlab oldi. "Sizning chiroyli tanangiz bor, buni bilasizmi? Tukli, lekin juda tukli emas. Men hech qachon jonlantirilgan kamin to'shaklariga chiday olmadim."

O'zimni bo'g'ilyotgandek his qildim. "Xudo, sen go'zalsan. Sen... Nima deyishni bilmayman, sen juda chiroylisan".

"Yo Xudo," dedi u, "siz juda yaxshisiz. Siz menga nisbatan munosabating juda iliq. Siz juda mehribonsiz. Ilgari hech kim menga bunchalik mehribon bo'lmagan. Ayni vaqtda men tirikman, butun badanim tirik". (Miya. *Yuqori qavatdagi xona*) (3).

Bu holat samimiy muhit bilan bog'liq. Oshiq bo'lgan ayolning asosiy maqsadi sherigiga bo'lgan sevgisini yana bir bor izhor etish, uning hissiy holatini yaxshilash va shaxsiy munosabatlarni mustahkamlash istagi bo'lishi mumkin. Bu yerda adresat adresantdan ijobiy his-tuyg'ularni ko'rsatishni so'ramaydi. Ayol adresant erkak adresatdan farqli o'laroq, na ma'naviy, na moddiy jihatdan uning hukmronligi ostida emas. Shuning uchun uning harakatlarida g'arazli va xudbinona maqsadlar yo'q; u sevgilisining go'zalligiga chin dildan mahliyo bo'lgan, uni nafaqat tashqi ko'rinishi, balki qilayotgan g'amxo'rliqi va mehribonligi uchun ham qadrlaydi.

Keling, endi institutsional (sudga oid) kontekstdagi iltifotni tahlil qilaylik. Iltifot sud majlisidan ko'p o'tmay sud zalida sodir bo'ldi. Iltifot adresanti advokat Uinter (Winter) bo'lib, unga mahbus Gladstoun nominal ravishda murojaat qilgan, ammo haqiqiy adresat advokat Rumpole, Uinter/Winter esa uning yordamchisi edi:

... Winter continued, cheeringly. "I've seen them all at work, and Mr. Rumpole's cross-examination was top hole! I mean, he had D. I. Arthur right on the ropes."

Oswald gave a look of pity. "I'm sorry, dad. I know you tried really hard."

"Thank you." (Mortimer. *The Second Rumpole's Omnibus*) (4).

Tarjimasi:

..Uinter/Winter quvnoq ohangda davom etdi. "Men ularning barchasini ish jarayonida ko'rganman va shuni aytishim mumkinki, janob Rumpolening o'zaro/ ikki tomonlama tekshiruvini a'lo darajada edi/ juda zo'r edi! Aytmoqchimanki, D.I. Artur to'g'ri yo'da. (ishni yaxshi olib borayapti.

Osvald unga achinish ila boqdi. "Uzr, ota. Sizning juda ko'p harakat qilganingizni bilaman.

"Rahmat." (Mortimer. *Rumpolening ikkinchi to'plami*) (4).

Agar bo'ysunuvchi o'zining yuqori maqomiga ega bo'lgan rahbarning kasbiy faoliyatiga aralasha, bu xushomad qilishga urinish bo'lishi va nutq xatti-harakatlarining ijtimoiy normalarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu holatda uning motivatsiyasi xo'jayinning ishini yaxshilashga bo'lgan samimiy istak emas, balki unda yaxshi taassurot qoldirish, uning ishonchi va iltifotini qozonish istagiga qaratilgan. Bunday xatti-harakatlar, bo'ysunuvchining samimiy emasligini ko'rsatishi mumkin, chunki u yuqori maqomli adresatlar uchun qabul qilingan iltifotlarning tematik normalarini buzadi. Ingliz madaniyatida yuqori maqomga ega bo'lgan kishilar uchun maqtoivlar ularning xatti-harakatlari va kasbiy fazilatlarini bilan bog'liq

bo'lishi odatiy holdir, pastroq maqomdagi odamlar uchun esa maqtovlar ularning tashqi ko'rinishi va shaxsiy jihatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin (qarang Wolfson, 1983: 91-92). Diskursda ushbu madaniy qoidalarni buzish salbiy qabul qilinishi mumkin.

Ingliz til madaniyatida iltifot oluvchi adresantlarning (nutq turidan qat'iy nazar) ko'zlagan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat bo'ladi: 1) *adresatga muloyimlik motivlari* yoki u bilan uyg'un munosabatda bo'lish istagi bilan xushomad qilish yoki rag'batlantirish niyati; 2) *adresatga aniq harakatlar uchun minnatdorchilik bildirish*; 3) *adresant suhbatdoshga nisbatan nomaqbul deb hisoblagan xatti-harakatlari uchun adresatidan kechirim so'rash istagi*.

Maqtovlarda ishlatiladigan muloqot strategiyalari ularning asosiy vazifasi bilan belgilanadi (yuqoriga qarang). Adresant adresatning ego holatini yaxshilashga intiladi, shu bilan birga adresat iltifotni qabul qilish, rad etish yoki uni qabul qiluvchiga qaytarish huquqiga ega. Komplimentlarga bo'lgan turli xil reaksiyalar juda ko'p va ular adresatlarning madaniy xususiyatlariga bog'liq: iltifotlarga javob, shuningdek, millatning madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Masalan, R. Gerbert va H. Streyt shuni ta'kidlashadiki, Janubiy Afrikal aholisi ularga aytilgan deyarli barcha maqtovlarni qabul qilishadi, garchi ularning o'z i buni juda kamdan-kam bildiradilar. Bundan farqli o'laroq, amerikaliklar ko'p maqtovlar/iltifot bildirishadi/ aytishadi va shu bilan birgalikda ularning deyarli barchasini rad etadilar [Herbert, Straight, 1989].

Suhbatda, ham xususiy, ham institutsional diskursda iltifotni etkazish usuli ularning odob-axloq tabiati va asosiy vazifasi bilan belgilanadi. Shaxsiy suhbatlarda qarindoshlar yoki yaqin do'stlar bir-biri bilan muloqot qilganda, maqtovlar/iltifotlarni istalgan vaqtda va istalgan joyda aytilishi mumkin. Bu yerda asosiy shart, adresat haqiqatan ham ma'qullash yoki hayratga loyiq, deb hisoblagan narsaning mavjudligi bo'lishi mumkin. Adresantlarning adresatlar bilan munosabatlarni mustahkamlashga bo'lgan qiziqishi ularni odatdagi salomlashish o'rniga iltifotlardan foydalanishga olib keladi. Bunday hollarda, odatda, iltifot obyektini adresatning tashqi ko'rinishiga aylantiradi:

"Hello, *Eva*," I said. "Hello, *Alice*. **You look most seductive**, I must say."

"That's **very kind of you**," she said. "Actually, I feel terrible." (Braine. *Room at the Top*) (5).

Tarjimasi:

"Salom, *Eva*", dedim men. "Salom, *Elis*. Aytishim kerakki, **siz juda jozibali ko'rinasiz**."

"Siz **juda mehribonsiz/iltifotlisiz**", dedi u. "Aslida o'zimni dahshatli his qilyapman." (Miya. *Yuqori qavatdagi xona*) (5).

Iltifotning adresat tomonidan aynan iltifot sifatida qabul qilinishi uchun u tashqi ko'rinishida osongina tanib olinishi kerak. Shuning uchun, iltifot ko'pincha nutqning standart ifodasi ko'rinishida bo'ladi. Bizning ma'lumotlarga ko'ra, ingliz til madaniyatidagi maqto-iltifotlarning aksariyati (74% dan ko'prog'i) beshta asosiy sintaktik tuzilmalardan iborat bo'lgan formuladan foydalanadi (ularning qo'llanilishi 50, 4% dan 1,47% gacha). Shu bilan birga, barcha iltifotlarning yarmidan ko'pida quyidagi struktura mustahkam mujassamlashtirilgan:

"You + to be + adjective (noun)":

"No, there's not," I said. "**You're wonderful**." (Conroy. *The Prince of Tides*) (6).

"**You are nice!**" he said.

"Well," she answered, "we thought you looked overcast and dared me offer you a chocolate." (Lawrence. *Sons and Lovers*) (7).

"Jim, how did it go?" asked the Judge.

"He's all right today, Judge."

"**You're a prince**, Jim. We couldn't have a thing like that happen at California." (Wilder. *Heaven's My Destination*) (8).

Tarjimasi:

"Yo'q, yo'q", dedim. "**Siz ajoyibsiz**." (Konroy. *To'lqinlar shahzodasi*) (6).

"**Siz zo'rsiz!**" dedi u.

- *Xo'sh*, - deb javob berdi u, - biz sizni tund ko'rinasiz deb o'ylagandik va sizga shokolad taklif qilishga jur'at etdik. (Loren. *O'g'illar va oshiqlar*) (7).

- Jim, *xo'sh*, qanday o'tdi? — so'radi sudya.

— Bugun u yaxshi/bugun u o'zini yaxshi ko'rsatdi, sudya.

"**Siz shahzodasiz**, Jim. Biz Kaliforniyada bunday voqea sodir bo'lishiga yol qoymas edik." (Vaylder. *Maqsadim jannat*) (8).

Xulosa. Ingliz til madaniyatidagi iltifotlarning bunday rasmiylashtirilgan tabiati ularning ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlar, ayniqsa, amerikaliklar uchun katta ijtimoiy ahamiyatini va muloqotda kelishuvni yaratish yoki saqlash uchun kommunikantlar tomonidan foydalanish muhimligini ko'rsatadi [Wolfson, 1983].

Ushbu tadqiqot o'zbek xususiy nutqida maqtovlarning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish orqali, ularning ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va insonlararo munosabatlarni tartibga solishda muhim o'rin egallashini namoyon etdi. Maqtovlar ijtimoiy uyg'unlikni saqlash, ijobiy baho berish va murakkab qudrat munosabatlarini boshqarish vositasi sifatida madaniy jihatdan shakllangan odob-axloq mexanizmlari ekanligi ko'rsatib berildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida maqtovlarning tuzilishi va funksiyasi ijtimoiy-madaniy normalar hamda vaziyat kontekstlari bilan uzviy bog'liq. Bu til, madaniyat va ijtimoiy muloqotning o'zaro aloqasini ochib beradi va muloqot amaliyotining shakllanishida qanday ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Mazkur topilmalar nafaqat o'zbek nutqini chuqurroq anglashga, balki turli tillarda va madaniy kontekstlarda odob strategiyalarini qiyosiy o'rganishga ham hissa qo'shadi. Kelgusida ushbu tadqiqot davom ettirilib, maqtovlarning qabul qilinishi yoki ularning muayyan institutsional yoki raqamli muloqot kontekstlaridagi ishlatilishi bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi mumkin. Bu o'zbekcha muloqotning rivojlanayotgan tabiati bo'yicha yanada chuqurroq ma'lumot beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров // Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М., 1979.
2. Карасик В.И. О категориях дискурса // Языковая личность: социолингвистические и эмотивные аспекты. Волгоград – Саратов, 1998.
3. Карасик В.И. Язык социального статуса. М., 1992.
4. Комина Н.А. Анализ дискурса в интеракционной социолингвистике // Тверской лингвистический меридиан. Вып. 1. Тверь, 1998. Электронная версия.
5. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. М., 1975.
6. Ревзина О.Г. Язык и дискурс // Вестник МГУ. Сер.9. Филология. 1999. № 1.
7. Рыжова Л.П. Французская школа анализа дискурса // Тверской лингвистический меридиан. Вып. 1. Тверь, 1998. Электронная версия.
8. Herbert R. K. Sex-based differences in compliment behavior // *Language in Society*. 1990. Vol.19. № 2.
9. Herbert R., Straight H.S. Compliment-rejection versus compliment-avoidance: listener-based versus speaker-based pragmatic strategies // *Language and communication*. 1989. Vol.9. № 1.
10. Holmes J. Paying compliments: a sex-preferential politeness strategy // *Journal of Pragmatics*. 1988. Vol.12. № 6.
11. Holmes J., Brown D.F. Teachers and students learning about compliments // *TESOL Quarterly*. 1987. Vol.21. № 3.
12. Manes J. Compliments: a mirror of cultural values // *Sociolinguistics and language Acquisition*. Rowley, London, 1983.
13. Manes J., Wolfson N. The compliment formula // *Conversational routine*. The Hague, 1981.
14. Wolfson N. An empirically based analysis of complimenting in American English // *Sociolinguistics and language Acquisition*. Rowley, London, 1983.
15. Wolfson N. Pretty is as pretty does: a speech act view of sex roles // *Applied Linguistics*. 1984. Vol.5. № 3.
16. Wolfson N., Manes J. The compliment as a social strategy // *Papers in Linguistics*. 1980. Vol.13. № 3.
17. Niyazova GG. Concept of discourse in Modern Linguistics // *International journal of Trend in Scientific Research and Development*. ID: IJTSRD57377: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470.2023.
18. Niyazova G.G. Diskursiv tahlilda gender munosabatlarning voqelanishi // *Ijodkor o'qituvchi jurnali* // 2023. 29-son
19. Niyazova G.G. Publitsistik va xususiy muloqotlarning diskursiv xususiyatlari // *Euroasian journal of social sciences, philosophy, and culture* // *Innovative Accademy Research Support Center*. 2023. Vol. 3. Is. 4.
20. Niyazova G.G. Badiiy tilning gender aspektida o'rganilishi // *O'zbekiston Milliy Axborot agentligi O'zA ilm-fan bo'limi. Elektron jurnal*. 2023. № 01 (39).
21. Niyazova G.G. Detektiv asarlar tilining pragmatic tahlili // *O'zbekiston til va adabiyot*. 2023. Vol.3.

**HOZIRGI AMERIKA VA O'ZBEK ROMANCHILIGIDA ANTROPOSENTRIK
YONDASHUV****G'aniyeva Orzigul Xayriddinovna,***Buxoro davlat universiteti**Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasida dotsenti,**filologiya fanlari bo'yicha fan doktori(PhD)**o.x.ganiyeva@buxdu.uz***Ashurova Nigina Aziz qizi,***Buxoro davlat universiteti magistranti**n.a.ashurova@buxdu.uz*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy Amerika va o'zbek adabiyoti, xususan, romanchiligida antroposentrizm yondashuvining qo'llanilishi hamda uning ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif antroposentrizm tarixini chuqur nazariy tahlil qilgan holda uning adabiyotdagi o'rnini o'rganadi va turli misollar bilan mavzuni yoritadi. Shaxsiy identitet, ichki ziddiyatlar va hayot mazmuniga e'tibor qaratib, inson – bosh omil ekanligi va buning adabiyot bilan qanday bog'liqligini izohlaydi. Shuningdek, maqolada Amerika va o'zbek romanchiligida antroposentrik yondashuvning umumiy va farqli jihatlari ham tahlil qilinadi. Antroposentrizm adabiy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, u insonning zamonaviy talqiniga bevosita ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Kalit so'zlar: antroposentrizm, Amerika adabiyoti, o'zbek adabiyoti, ekzistensializm, modernizm, postmodernizm, inson, shaxsiy identitet.

**АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИЙ ПОДХОД В СОВРЕМЕННОЙ АМЕРИКАНСКОЙ И
УЗБЕКСКОЙ РОМАНИСТИКЕ**

Аннотация. В данной статье анализируется применение антропоцентрического подхода и его значение в современной американской и узбекской литературе, в частности, в романистике. Автор, углубившись в теоретический анализ истории антропоцентризма, изучает его роль в литературе и раскрывает тему через различные примеры. Особое внимание уделяется личной идентичности, внутренним конфликтам и смыслу жизни, подчёркивая, что человек является главным фактором и объясняя, как это связано с литературой. Кроме того, в статье рассматриваются общие и отличительные черты антропоцентрического подхода в американской и узбекской романистике. Антропоцентризм остаётся неотъемлемой частью литературной культуры, оказывая непосредственное влияние на современное понимание человека.

Ключевые слова: антропоцентризм, американская литература, узбекская литература, экзистенциализм, модернизм, постмодернизм, человек, личная идентичность.

**ANTHROPOCENTRIC APPROACH IN CONTEMPORARY AMERICAN
AND UZBEK NOVELS**

Abstract. This article analyzes the application and significance of the anthropocentric approach in contemporary American and Uzbek literature, particularly in novel writing. The author delves into a theoretical analysis of the history of anthropocentrism, examining its role in literature and illustrating the topic with various examples. Special attention is given to personal identity, internal conflicts, and the meaning of life, emphasizing that humans are the central element and explaining how this relates to literature. Additionally, the article explores the commonalities and differences in the anthropocentric approach between American and Uzbek novel writing. Anthropocentrism remains an integral part of literary culture, directly influencing the modern interpretation of humanity.

Keywords: anthropocentrism, American literature, Uzbek literature, existentialism, modernism, postmodernism, human, personal identity.

Kirish. Ma'lumki, inson azaldan o'zining aqliy, ma'naviy, ijodiy va axloqiy qobiliyatlari bilan ajralib turgan holda yer yuzidagi eng oliy mavjudot hisoblanadi. U o'z hayotini anglaydigan va uni mazmunli qilishga intiladigan yagona tirik jon bo'lib, uning oliyligi nafaqat u yarata oladigan kashfiyotlar, balki uning

yaxshilik qilish, jamiyat va tabiatga g'amxo'rlik ko'rsatish qobiliyatida ham yotadi. Bu oliy maqom insonni mas'uliyatli yashashga va dunyoni yanada obod qilishga undaydi. Shu sababli ham insonning mukammalligi falsafiy, diniy va ilmiy qarashlarda chuqur asoslanib, adabiyotda tasvirning bosh mavzusi darajasiga olib chiqilishi bejiz emas. Jumladan, insonni olamning markazi deb hisoblaydigan falsafiy kategoriya sifatida shakllangan antroposentrizm tushunchasi so'nggi bir necha asrlardan buyon badiiy adabiyotda muhim o'rin tutib kelmoqda.

“Antroposentrizm” so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, “antropos” – “inson”, “centron” – “markaz” tarjimalarini bergan holda “insonni markazga qo'yish” degan ma'noni anglatadi. Mazmunan, bu qarash insonni tabiatning yoki olamning eng asosiy, markaziy va oliy mavjudoti sifatida ko'radi. Antroposentrizmga ko'ra: inson — barcha mavjudotlarning eng oliy va muhimidir; barcha narsalar va voqealar inson manfaatlarini, ehtiyojlari yoki qadriyatlarini asosida baholanadi; tabiat inson ehtiyojlariga xizmat qilishi uchun yaratilgan deb talqin qilinadi.

Tadqiqot materiallari va metodologiya. Mavzuni yoritish maqsadida bir qator jahon, Amerika va o'zbek adabiyoti, asosan, romanlari tahlil qilindi va ushbu jarayonda madaniy-tarixiy, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Antroposentrizmning falsafiy asosi miloddan avvalgi V-IV asrlarda Qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan va uning ildizlari qadimgi dunyo falsafasi va diniy qarashlardan boshlanadi. Protagor antroposentrik qarashni asoslovchilardan biri bo'lib, “Inson barcha narsalarning o'lehoivi” degan mashhur fikrni ilgari surdi. Bu g'oya insonni olamning markazi sifatida ko'rsatdi. Aristotel esa tabiatni inson ehtiyojlari uchun xizmat qiladigan tizim sifatida tasvirlab, antroposentrizmni yanada rivojlantirdi. Ushbu davrda falsafa insonni barcha mavjudotlardan ustun qo'yayotgan edi. Yunon mutafakkirlari insonni aqliy va ijodiy imkoniyatlari bilan tabiatning eng oliy maxluqi sifatida talqin qilishgan. Antroposentrizm dinlar orqali ham keng tarqalgan, chunki ko'pchilik dinlar insonni ilohiy yaratilish markazi sifatida talqin qiladi. Miloddan avvalgi II-I ming yilliklarda Yaqin Sharqdagi diniy tamaddunlar hisoblanmish Misr, Mesopotamiya va Isroil dinlarida insonning yaratilishi va uning tabiat ustidan hukmronligi ta'kidlangan. VII asrda paydo bo'lgan Islomda ham insonning oliy o'rni ta'kidlanadi. Qur'onda inson yer yuzining xalifasi sifatida yaratilgan deb aytiladi (Baqara surasi, 2:30).

Uyg'onish davrida Leonardo da vinchi va Mikelanjelo kabi ijodkorlar o'z ishlarida inson tanasi va uning imkoniyatlarini mukammallik namunasi sifatida aks ettirdilar. Piko della Mirandolaning “Inson qadr-qimmatini haqida nutq” asarida insonning cheksiz imkoniyatlari va erkinligi haqida so'z yuritilgan. Yangi davrda Dekart insonni ongli mavjudot sifatida tabiatdan ajratib ko'rsatdi va uning ustunligini isbotlashga harakat qildi. Ilmiy inqilob davrida Galiley va Nyuton misolida tabiat qonunlarini tushunish orqali insonning tabiatni boshqarish imkoniyati kengaydi. Yevropada Enlightenment, ya'ni Aqliy uyg'onish davri hisoblangan XVIII asrda esa inson ongini va aql-idrokini ulug'lash antroposentrizmning eng yuqori cho'qqilaridan biriga aylangan edi.

Antroposentrik yondashuv, ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab adabiy jarayonlarda keng o'rin oldi. Modernizm va postmodernizm oqimlari ushbu yo'nalishni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Insonni faqat ijtimoiy mavqesi yoki zohiriy qiyofasi bilan emas, balki ichki ruhiyati va shaxs sifatidagi murakkabligi bilan tadqiq qilish adabiy yondashuvlar markaziga aylandi. Adabiyotda antroposentrizm insonning ichki dunyosini, his-tuyg'ularini va shaxsiy kechinmalarini tasvirlashga asoslanadi. Antroposentrizm insoniy his-tuyg'ularni markaziy o'ringa qo'yish orqali adabiyotda jamiyatdagi dolzarb masalalarni, inson va texnologiya, inson va tabiat, hamda individ va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarni yoritishga imkon beradi.

Jahon adabiyotida antroposentrik yondashuv insonni asar markaziga qo'yadigan va barcha voqea va hodisalarni inson nuqtayi nazaridan baholaydigan yondashuvdir. Bu yondashuvga ko'ra, inson barcha mavjudotlarning markazi sifatida qabul qilinadigan hamda uning his-tuyg'ulari, aqliy va ruhiy holatlari adabiy asarlarda bosh mavzu sifatida tasvirlanadi. Antroposentrizm insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va hayotiy tajribalariga diqqat qaratadi va bu yondashuv orqali insonning dunyoga bo'lgan munosabatlari chuqur o'rganiladi.

Antroposentrizm inson qalbi va ongiga diqqat qaratadi. Masalan, Fyodor Dostoyevskiyning asarlarida insonning ruhiy kechinmalari va murakkab psixologik olami keng o'rganiladi. Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” asarida Raskolnikovning ichki azoblari va o'zini o'zi tushunishga bo'lgan urinishlari antroposentrik yondashuvning yorqin namunasi. “Ulysses” asarida Jeyms Joys antroposentrik yondashuv orqali inson ongining murakkabligini “ong oqimi” usulida ko'rsatadi. Bu usul orqali inson o'z dunyosida qanday fikrlash jarayonlarini kechirishi batafsil ochib beriladi.

Antroposentrik yondashuv ekzistensializm falsafasi, ya'ni insonning mavjudlik muammosida ham o'z aksini topgan. Misol uchun, Albert Kamyuning “Begona” romanida Merso obrazi orqali inson va uning

mavjudlik mazmuni haqida chuqur savollar qo'yiladi. Bu asar orqali Kamyu inson hayoti, uning mazmuni va o'lim haqida savollarni ko'taradi.

Lev Tolstoy va Charlz Dikens kabi yozuvchilar o'z asarlarida inson va jamiyat munosabatlarini o'rganadi. Masalan, Tolstoyning "Anna Karenina" va Dikensning "Umidlar hikoyasi" asarlarida shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab aloqalar inson hayotining markazida turadi.

Postmodernizm davrida insonning o'zligini anglash va tushunish markaziy mavzuga aylanadi. Jumladan, Milan Kundera va Gabriel Garsia Markesning asarlari inson o'zligini anglash va unga nisbatan ijtimoiy ta'sirlarni o'rganishga qaratilgan.

Antroposentrizm orqali jahon adabiyoti insonning barcha mavjudotlar orasida markaziy rol o'ynashini va uning ichki olamining chuqur tasvirlanishini namoyish etadi. Ushbu yondashuv insoniyatning ma'naviy o'sishi, o'zini anglash va hayot mazmunini qidirishga qaratilgan asarlarda eng yuqori darajada namoyon bo'ladi. Bu yondashuv adabiyotni inson hayotini va ichki olamini aks ettiruvchi chuqur ilmiy va badiiy manba sifatida qarashga yordam beradi.

Zamonaviy Amerika adabiyotida antroposentrik yondashuv turli uslublarda ifodalanib, asosan shaxsiy izlanishlar, psixologik kechinmalar va texnologiya bilan munosabatlar orqali namoyon bo'ladi.

Modernizm davrida Amerika yozuvchilari insonning jamiyat bilan ziddiyati, ichki kurashlari va ekzistensial masalalariga diqqat qaratdi. Masalan, Ernest Xeminguey asarlarida insonning ichki kuchi va bardoshi ko'rsatiladi. "Chol va dengiz" asarida bosh qahramonning tabiat bilan kurashi uning insoniy qudratini aks ettiradi. Uilyam Folkner insonning ichki ruhiy murakkabliklarini va o'zini anglash jarayonini tasvirlaydi. "Shovqin va g'azab" romanida vaqt va ongning subyektiv tasvirlanishi bunga misol bo'la oladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Amerika adabiyotida postmodernizm oqimi kuchaydi. Postmodern asarlar insonni global texnologiyalar, axborot oqimi va iste'molchilik jamiyati orasidagi kurashchi sifatida ko'rsatadi. Masalan, Don DeLillo va David Foster Wallace asarlarida insonning jamiyat va texnologiya bilan o'zaro munosabatlari, atrofdagi dunyoga bo'lgan ishonchi va shubhalari ifodalanadi. "White Noise" romani bunga yorqin misol bo'lib, u yerda insonning texnologiyaga to'la dunyodagi o'rni aks ettirilgan.

Postmodernizm davrida insonning individualligi va ijtimoiy murakkabliklari ko'proq metaforik va fragmentar uslubda yoritiladi. Masalan, Kurt Vonnegutning "Slaughterhouse-Five" asarida inson ongining vaqt va makonga bo'lgan subyektiv qarashida murakkabligi o'rganiladi. Don DeLillo kabi yozuvchilar shaxsning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini, texnologik rivojlanish va globalizm fonida anglashga urindi.

Amerika yozuvchilari Ekzistensializm va shaxsiy identitet, ya'ni insonning o'zligini izlash masalalariga ham e'tibor qaratgan. Cormac McCarthyning "The Road" asarida insonning qiyin sharoitlarda o'zini topish va ma'naviy yo'qotishlar jarayoni ifodalanadi. Ushbu asarda inson tabiiy va insoniy qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyatlar orqali chuqur tahlil qilinadi.

Sharq adabiy an'analari ham antroposentrizmni o'ziga xos tarzda rivojlantirdi. G'arb falsafasi insonniko'proq individ sifatida o'zini anglashga urg'u bersa, Sharq falsafasi va madaniyati uni tabiat va jamiyat bilan uyg'unlikda tasvirlaydi. Hozirgi kunda Amerika va o'zbek romanchiligida bu ikki yondashuv bir-biridan farqlanadi, ammo ba'zi jihatlari bilan birlashadi.

O'zbek adabiyotida ham oxirgi yillarda inson ichki dunyosiga diqqat ko'proq qaratilmoqda. O'zbek yozuvchilari inson kechinmalari, jamiyatdagi o'rni, milliy qadriyatlar va identitet masalalariga chuqurroq yondashmoqda. Yozuvchilar asarlarida insonning ichki muammolari, milliy va diniy qadriyatlar orasidagi qarama-qarshilik, globalizatsiya ta'siri kabi masalalar yoritiladi. Bugungi o'zbek yozuvchilari insonni global muammolar, jumladan, ekologik, ijtimoiy va texnologik o'zgarishlar kontekstida tasvirlaydi.

O'zbek adabiyotida antroposentrik yondashuv insonning milliy identiteti, ma'naviy qidiruvlari va an'anaviy qadriyatlar bilan munosabatlarini ifodalash orqali o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Shuningdek, o'zbek adabiyotida ushbu yondashuvning namoyon bo'lishi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Jadid adabiyoti: Jadid adabiyoti o'zbek adabiyotida insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qilgan. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va Fitrat kabi yozuvchilar inson erkinligi, milliy o'zlik, insonning ijtimoiy o'rni haqida yozib, insonni jamiyat va uning an'analari, qadriyatlari doirasida tahlil qilganlar. Masalan, "O'tgan kunlar" romanida Abdulla Qodiriy o'z zamonasidagi shaxs va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berib, insonning sevgi, izzat va erkinlikka intilishlarini markaziy mavzu sifatida ko'rsatadi.

2. Sovet davri adabiyoti: Bu davr adabiyotida ijtimoiy mavzular ustuvor bo'lsa-da, inson ruhiyati va shaxsiyati ham qisman antroposentrik yondashuv orqali aks etgan. Oybek, Mirtemir, Said Ahmad va Shukur Xolmirzaev asarlarida inson, uning dardlari va ichki kechinmalari jamiyat va davr qiyinchiliklari bilan bog'liq holda tasvirlangan. Masalan, Oybekning "Qutlug' qon" romanida inson ruhiyatining ijtimoiy ziddiyatlar va hayotiy sinovlar ostida qanday shakllanishi, ruhiy kurashlari namoyon bo'ladi.

3. Mustaqillik davri adabiyoti: O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, o'zbek adabiyotida insonning o'zligini anglash, milliy o'zlikni va ichki dunyoni kashf etish yondashuvlari kuchaydi. Odam va uning qadri, o'zligini anglash mavzulari o'rtaga chiqdi. Ushbu davrda inson shaxsiyatining ma'naviy o'sishi, milliy qadriyatlar va zamonaviylik orasidagi ziddiyatlar yoritiladi. Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam, Tohir Malik, Nurulloh Muhammad Raufxon va Oydin Hojjeva kabi yozuvchilarning asarlarida insonning o'zligini izlash, ma'naviy va ruhiy o'sishi markaziy o'ringa qo'yiladi. Isajon Sultonning asarlarida insonning ma'naviy izlanishlari tasvirlanadi. Tohir Malikning "Shaytanat" romanida qahramonlar milliy qadriyatlar va ma'naviy tamoyillar orasida tanlov qilish zaruriyatiga duch keladilar. Bu yerda insonning ichki kechinmalari va milliy qadriyatlar bilan ziddiyati orqali antroposentrik yondashuv o'z aksini topadi. Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarida Bobur shaxsining ruhiy va ichki kechinmalari orqali insonning o'zligini anglashga bo'lgan intilishi, tarixiy va ma'naviy qadriyatlarni tushunishga urinishlari yoritilgan. Bu kabi asarlar o'zbek adabiyotida inson shaxsiyatini, uning izlanishlarini va ichki ruhiyatini markazga qo'ygan antroposentrik yondashuvning yorqin misollaridan biridir.

4. Yosh avlod yozuvchilarining yondashuvlari: Hozirgi o'zbek adabiyotida yosh yozuvchilar tomonidan yozilgan asarlarda ham inson va uning ichki dunyosiga qiziqish ortgan. Ularning asarlarida insoniy iztiroblar, baxtni izlash, shaxsiy rivojlanish, ma'naviy o'sish va o'zligini anglash jarayonlari tasvirlangan. Bu davr yozuvchilarining asarlarida individning ichki dunyosi va shaxsiyati, his-tuyg'ulari adabiy asar markazida joylashgan.

O'zbek adabiyotida antroposentrik yondashuv inson shaxsiyatining murakkabligini, ichki dunyosining rang-barangligini va jamiyat bilan o'zaro bog'liqligini aks ettiradi. Ushbu yondashuv orqali o'zbek adabiyotida insonni atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirda, ma'naviy o'sishda va ichki kechinmalar orqali shaxsiy rivojlanishda ko'rsatishga intilish kuchaygan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, hozirgi Amerika va o'zbek romanchiligida antroposentrizm turli madaniy va falsafiy an'analar asosida rivojlangan. Amerika romanchiligida insonning ichki dunyosi va individualligi ko'proq chuqurlashtirilgan bo'lsa, o'zbek romanchiligida insonning ma'naviy qiyofasi, milliy va ijtimoiy mas'uliyati yoritilgan. Ushbu farqlar har ikki adabiyotning o'ziga xosligini ta'minlab, ularni global adabiy jarayonda o'ziga xos qirralari bilan boyitadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ganieva Orzigul Khayriddinova, & Ashurova Nigina Aziz Qizi. (2023). *Indirect characterization in Jamaica Kincaid's «Mr. Potter»*. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(12), 51–56. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue12-10>

2. Ganieva O. K. *Depiction of relations between a person and society in American realistic literature* // *Scientific Bulletin of Namangan State University*. – 2020. – T. 2. – №. 8. – C. 215-220.

3. Khayriddinova G. O. "East of eden" romanida qahramonlar xulq-atvoriga jamiyat fikrining ta'siri // *Scientific reports of Bukhara state university*. – C. 146.

4. Ganiyeva O. K. H., Rajabova Z. T. *The Analysis of Loneliness theme in of Mice and Men* // *Miasto Przyszłości*. – 2023. – T. 31. – C. 157-159.

5. Ganieva O. K. H., Aminova N. B. *John Steinbeck's "discontent" over the social problems* // *Gospodarka I Innowacje*. – 2022. – T. 23. – C. 146-148.

6. Khayriddinova G. O., Jahonovna C. M. *Description of the relationship between people and society in John Steinbeck's „The Grapes of Wrath”* // *IEJRD-International Multidisciplinary Journal*. – T. 6. – C. 75-78.

7. Ganieva O. K. H., Aminova N. B. *Family relationships in John Steinbeck's novel "East of Eden"* // *Евразийский журнал академических исследований*. – 2023. – T. 3. – №. 5 Part 4. – C. 247-249.

8. Ganieva Orzigul Khayriddinova, & Turayeva Dilorom Rustamjonovna. (2023). *Description of Perseverance in Eudora Welty's Short Story "A Worn Path"*. *Miasto Przyszłości*, 42, 722–725. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2171>

9. Bakhtiyorovich, Sadullaev Feruz. «Peculiar features of Henry James's early novels.» (2022).

10. Sadullayev F. B. *Inner characterization of the main character in the novel "The Wings of the Dove" by Henry James* // *Conferencea*. – 2022. – C. 132-135.

11. Sadullaev Feruz Bakhtiyorovich, & Safarova Dildora Kabilovna. (2023). *The Literary Significance of "The Jolly Corner" in Henry James's Oeuvre*. *Miasto Przyszłości*, 42, 726–729. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2172>

12. Садуллаев Ф. Б. *XX аср ақш модерн адабиётининг тарихий ҳамда ижтимоий негизлари* // *Scientific reports of Bukhara state university*. – C. 171.

13. Садуллаев, Феруз Бахтиёрович. «XX аср ақимодерн адабиётининг тарихий ҳамда ижтимоий негизлари.» *Scientific reports of bukhara state university*: 171.
14. Садуллаев Ф. Ҳенри Жеймс ижодида инсон руҳиятасвирининг бадиий-эстетик вазибалари // *Social sciences*.
15. Khayriddinova, G. O. "Description of Parental Influence in "East of Eden" by John Steinbeck." *International journal of inclusive and sustainable education* 1.4 (2022): 94-97.
16. Ganieva O. K., Sadullayev F. B. *The Role Of Female Characters in the novel "The Grapes Of Wrath" by John Steinbeck* // *Актуальные вопросы современного образования*. – 2020. – С. 5-8.
17. Bakhtiyorovich S. F., Kabilovna S. D. *The Literary Significance of "The Jolly Corner" in Henry James's Oeuvre* // *Miasto Przyszłości*. – 2023. – Т. 42. – С. 726-729.
18. Sadullayev F. B. *Inner characterization of the main character in the novel "The wings of the dove" by Henry James* // *Conferencea*. – 2022. – С. 132-135.

**СТРУКТУРНЫЕ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕРМИНОВ
ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

*Сулайманов Баходир Курбанович,
Азиатский университет технологий
Sulaymanov_Baxodir@mail.com*

***Аннотация.** В статье проводится сопоставительный анализ терминологической системы государственного управления в русском и узбекском языках. Исследование охватывает лексические инновации, вызванные социальными изменениями, и влияние процессов неологизации, таких как заимствования и калькирование, на структуру терминологии. Особое внимание уделено морфологическим и синтаксическим особенностям терминов, включающим аффиксацию, универбацию и сложение, которые обеспечивают языковую экономию и выразительность. Анализ показывает, как метафоризация и метонимические переносы обогащают государственную лексику образными ассоциациями, усиливая её функциональную и экспрессивную значимость. Сравнение с узбекской терминологией раскрывает особенности адаптации и интеграции понятий, указывая на схожие и отличные пути развития языков под влиянием современных социокультурных факторов.*

***Ключевые слова:** терминология, государственное управление, русский язык, узбекский язык, неологизация, заимствования, калькирование, универбация, аффиксация, метафоризация, метонимия.*

**STRUCTURAL AND FUNCTIONAL FEATURES OF PUBLIC ADMINISTRATION
TERMINOLOGY IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES**

***Abstract.** This article presents a comparative analysis of the public administration terminology system in Russian and Uzbek languages. The research covers lexical innovations driven by social changes and the influence of neologization processes, such as borrowing and calquing, on terminology structure. Special attention is given to the morphological and syntactic features of terms, including affixation, univerbation, and compounding, which ensure linguistic economy and expressiveness. The analysis demonstrates how metaphorization and metonymic transfers enrich administrative vocabulary with vivid associations, enhancing its functional and expressive value. Comparison with Uzbek terminology reveals the unique features of adaptation and integration of concepts, highlighting similar and divergent paths in language development under the influence of modern socio-cultural factors.*

***Keywords:** terminology, public administration, Russian language, Uzbek language, neologization, borrowing, calquing, univerbation, affixation, metaphorization, metonymy.*

**DAVLAT BOSHQARUVI TERMINOLOGIYASINING TUZILMAVIY VA FUNKSIYAVIY
XUSUSIYATLARI RUS VA O'ZBEK TILLARIDA**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada rus va o'zbek tillarida davlat boshqaruvi terminologiyasi tizimining qiyosiy tahlili taqdim etiladi. Tadqiqot ijtimoiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan leksik innovatsiyalar va terminologiya tuzilishiga ta'sir qiluvchi neologizatsiya jarayonlari, jumladan, o'zlashtirish va kalkalashni qamrab oladi. Ajoyib va aniq ifodalashni ta'minlovchi affiksatsiya, univyerbatsiya va murakkab tuzilmalarni o'z ichiga olgan terminlarning morfologik va sintaktik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Tahlil, metaforizatsiya va metonimik o'tishlarning davlat lug'atini tasvirli assotsiatsiyalar bilan boyitishini ko'rsatib, uning funksional va ekspressiv ahamiyatini oshiradi. O'zbek terminologiyasi bilan taqqoslash tushunchalarning moslashuvi va integratsiyasi xususiyatlarini ochib beradi hamda zamonaviy sotsiokultural omillar ta'sirida tillarning rivojlanishidagi o'xshash va farqli yo'llarni yoritadi.*

***Kalit so'zlar:** terminologiya, davlat boshqaruvi, rus tili, o'zbek tili, neologizatsiya, o'zlashtirish, kalkalash, univyerbatsiya, affiksatsiya, metaforizatsiya, metonimiya.*

Введение. Современные изменения в общественно-политической сфере отражаются на терминологической системе государственного управления в русском и узбекском языках. Лексика данной области активно развивается под влиянием процессов заимствования, калькирования, а также внутренних морфологических преобразований, направленных на создание точных, лаконичных и

семантически насыщенных терминов. В русском языке это проявляется в появлении новых единиц, включая заимствованные конструкции, а также аффиксальные и сложные лексемы, обеспечивающие адаптацию внешних концептов к особенностям государственного дискурса.

Узбекский язык, с одной стороны, демонстрирует схожие механизмы в лексическом обновлении, активно воспринимая новые понятия и модели управления, с другой — сохраняет характерные черты, отражающие национально-специфические аспекты государственного языка. Применение различных методов образования терминов, таких как универбация, префиксация и метафоризация, позволяет обоим языкам структурировать систему понятий госуправления, где терминология выполняет роль не только информационного, но и социального маркера.

Исследование терминологической системы в русско-узбекском сравнении предоставляет возможность глубже понять закономерности лексической адаптации под влиянием глобальных и культурных факторов.

Литературный обзор. Современные изменения в терминологии государственного управления в русском и узбекском языках, как указывают последние исследования, обусловлены процессами глобализации и интеграции, что требует разработки унифицированного и точного понятийного аппарата для административных нужд. Стремление к лексической унификации поддерживается высокой частотой заимствований, которые, согласно Корпусу Национального русского языка, составляют до 65% новообразованных терминов. В исследованиях А.Н. Мороховского и Н.Н. Холодовой подтверждается, что лексемы административного дискурса проходят глубокую морфологическую и синтаксическую адаптацию, что создает систему, способную поддерживать коммуникацию на межгосударственном уровне [1].

В русском языке терминологическая адаптация выражается через префиксально-суффиксальные изменения, обеспечивая более лаконичное и компактное выражение управленческих концептов, что значительно повышает их эффективность в профессиональной среде. Согласно О.Е. Аристовой, до 58% административных терминов претерпевают структурные изменения, делая их более удобными для использования и восприятия [2]. Узбекский язык, напротив, прибегает к универбации и сложению, позволяя формировать экономичные и упорядоченные конструкции, что подчеркивает стремление к точности и доступности в терминологии государственного управления [3].

Существенное влияние цифровизации в последние годы нашло отражение в увеличении частоты новых терминов, таких как «электронное правительство», и аналогичных лексем в узбекском языке. В исследовании Т. Хасанова подчеркивается, что цифровая терминология стала доминировать в государственных дискурсах обеих стран, создавая новые понятийные конструкции и предоставляя язык административного управления новым социальным и экономическим процессам [4]. Термины, связанные с цифровизацией, занимают до 34% среди новообразований в узбекском языке, что указывает на стремительное развитие этого направления.

Анализ применения метафорических переносов в государственном управлении показывает, что в русском языке подобные конструкции занимают до 27% и позволяют создавать более объемные, образные выражения, которые, однако, в узбекском языке подвергаются строгой адаптации к функциональным и политическим реалиям. В исследованиях В.Г. Гак и Л.И. Чежеговой подчеркивается, что, несмотря на активное использование метафор в русском дискурсе, узбекская терминология стремится к большей конкретности, избегая многозначности и двусмысленности [5].

Морфологическая деривация остается ведущим методом для образования новых терминов в обоих языках. Исследования показывают, что морфологические изменения создают структурную устойчивость терминологии, позволяя построить систематизированный понятийный аппарат, что особенно важно для упрощения восприятия и использования административных терминов [6]. В русском языке деривационные процессы составляют до 49% среди способов адаптации заимствований в государственном управлении, а в узбекском - около 36%, что подтверждает их роль в формировании управленческой лексики.

Сравнительный анализ административной терминологии двух языков подтверждает, что несмотря на общее направление адаптационных процессов, русский и узбекский языки сохраняют свои культурные особенности. Например, по данным Т. В. Федоровой, русский язык использует более экспрессивные и стилистически окрашенные лексемы, что позволяет передавать сложные административные концепты в краткой форме, в то время как узбекская лексика строится на логически упорядоченных структурах, ориентированных на точное отражение функций управления [7].

Актуальная проблема унификации и стандартизации государственного дискурса приобретает особое значение на фоне укрепления двусторонних отношений России и Узбекистана. По результатам анализа, проведенного Е.А. Хромовым, более 69% административных текстов содержат термины, которые нуждаются в унификации для облегчения перевода и межгосударственной коммуникации [8]. Принятие унифицированных правил для цифровых и управленческих терминов создает возможности для более эффективного взаимодействия государственных структур, что способствует формированию единой понятийной базы.

В доступной литературе лексические изменения в языке государственного управления в русском и узбекском языках подтверждают высокую адаптивность и динамичность терминологических систем, что указывает на необходимость более детального изучения структурных и семантических различий. Современные исследования в данной области способствуют разработке гибкого и точного понятийного аппарата, который необходим для поддержания межгосударственного взаимодействия и обеспечения прозрачности административных процессов.

Материалы и методы. Исследование выполнено на основе актуальных текстов и официальных документов, отражающих современную терминологию государственного управления в русском и узбекском языках. Материалы включали тексты законодательных актов, государственные доклады, научные публикации и специализированные статьи, а также данные онлайн-ресурсов, где широко представлены управленческие термины, требующие лексического и семантического анализа. Были проанализированы 500 текстов административного характера, включая документы государственного управления, законодательные акты и материалы из официальных сайтов. Выборка охватила 250 ключевых терминов, что позволило выявить основные принципы их заимствования, калькирования и адаптации в каждом языке.

Методология основана на использовании комплекса качественных и количественных методов. На первом этапе проведён контент-анализ отобранных текстов для выявления новых терминов, заимствованных из иностранных языков или созданных на основе калькирования. В рамках этого анализа выделялись ключевые структурные единицы, такие как префиксальные и суффиксальные новообразования, сложные слова, а также термины, образованные методом универбации. На втором этапе применён сравнительный анализ, позволивший сопоставить методы адаптации терминов в русском и узбекском языках, выявить морфологические и семантические различия, а также проанализировать особенности интеграции терминов в каждую из лексических систем. Статистический анализ частотности лексем проводился с использованием корпусных данных, что позволило определить активность их употребления в официальных текстах. Для уточнения уровней структурной адаптации и функциональной значимости терминов был выполнен морфологический и семантический анализ, включающий изучение моделей префиксации, суффиксации и словосложения в обоих языках.

Результаты и обсуждение. В процессе анализа терминологии были выявлены основные категории управленческих понятий, отражающие технологические и организационные изменения в сфере управления. В русском языке наибольшее распространение получили заимствования, адаптированные через калькирование, а также неологизмы, создаваемые путём универбации и сложения. Так, например, термин *электронное правительство*, калькированный с английского *e-government*, получил широкое распространение в государственном дискурсе и используется для обозначения цифровых платформ, обеспечивающих взаимодействие граждан с государственными структурами. В узбекском языке аналогичный термин передается как *raqamli boshqaruv*, что дословно переводится как «цифровое управление». В отличие от русского варианта, узбекский термин фокусируется на цифровом аспекте процесса управления, что связано с акцентом узбекской терминологии на непосредственном процессе.

Другим значимым термином является *цифровое расслоение*, представляющий собой кальку с английского *digital divide* и описывающий социальное неравенство в доступе к цифровым ресурсам. В узбекском языке этот термин передается как *ijtimoiy tengsizlik*, что дословно переводится как «социальное неравенство», указывая на восприятие цифрового расслоения как одной из форм социального неравенства. Эта семантическая особенность подчёркивает культурный акцент узбекского языка на социальных аспектах цифровизации, где проблемы доступа рассматриваются как часть более широкой социальной повестки.

Анализ частотности показал, что в русском языке около 78% управленческих терминов представляют собой заимствования, главным образом из английского языка, которые прошли адаптацию через различные морфологические изменения. В узбекском языке процент заимствований значительно ниже — около 52%, что связано с традиционным уклоном в сторону калькирования и

создания новых слов путём сложения. Это объясняет различия в терминах, отражающих социальные и технологические аспекты: если русский язык активно заимствует готовые структуры, то узбекский создаёт новые лексемы, опираясь на внутренние ресурсы языка и стремясь сохранить национальные лексические особенности.

В категории терминов, связанных с иерархией и организацией власти, выделяются такие выражения, как *вертикаль власти* в русском языке и *hokimiyat vertikasi* в узбекском. Русский термин «вертикаль власти» получил распространение в политическом дискурсе и используется для описания системы управления, основанной на строгой иерархии подчинения и централизации власти. В узбекском варианте термин *hokimiyat vertikasi* сохраняет структуру оригинала, но подчеркивает местные традиции восприятия иерархии в управлении, в которой большая роль отводится социальным и культурным факторам.

Таблица 1.

Сопоставление управленческой терминологии в русском и узбекском языках

Категория терминов	Русский язык	Узбекский язык	Частотность употребления в русских текстах (%)	Частотность употребления в узбекских текстах (%)
Термины цифровых технологий	Электронное правительство	Raqamli boshqaruv	88	62
	Цифровое расслоение	Ijtimoiy tengsizlik	73	51
	Онлайн-услуги	Onlayn xizmatlar	85	60
Иерархия и функции управления	Вертикаль власти	Hokimiyat vertikasi	70	65
	Административный ресурс	Ma'muriy resurs	77	58
	Исполнительная власть	Ijro hokimiyati	80	70
Социальные аспекты	Социальное неравенство	Ijtimoiy tengsizlik	82	68
	Инновации в управлении	Boshqaruvdagi innovatsiyalar	66	54
Экспрессивные термины	Рычаги влияния	Ijtimoiy ta'sir vositalari	64	55
	Пакет инициатив	Takliflar to'plami	63	48

Анализ терминов показал, что в сфере цифровых технологий и государственного управления оба языка демонстрируют высокий уровень адаптации новых понятий. Термин *электронное правительство*, использующийся для обозначения цифровой системы взаимодействия государства с гражданами, стал более популярным в русском языке, что подтверждается частотностью его употребления в 88%. В узбекском языке термин *raqamli boshqaruv* используется реже (62%), что можно объяснить его частичным совпадением с другими управленческими понятиями и отсутствием точного соответствия в языке.

Особенности социального аспекта государственного управления, такие как *цифровое расслоение*, акцентируют внимание на различиях в восприятии терминов: если в русском языке термин воспринимается как явление цифровизации, то в узбекском он описывается с уклоном на социальное неравенство. Это различие отражает особенности культурного контекста, где узбекский язык традиционно фокусируется на социальном аспекте терминологии, что позволяет ему более гибко отражать общественные изменения.

Важную роль в узбекской терминологии играют методы создания сложных слов, которые позволяют точно передавать смысловые нюансы. Примером является *ijtimoiy ta'sir vositalari*, аналог русского термина *рычаги влияния*. Эта лексема позволяет отразить динамику влияния на общественные процессы и показывает, как узбекский язык интегрирует сложные понятия через структурные синонимы.

Закключение. Сопоставление терминологии государственного управления в русском и узбекском языках выявило ключевые различия, отражающие структурные и культурные особенности каждой лексической системы. Русский язык, ориентированный на международные заимствования и калькирование, интегрирует новые термины через морфологические преобразования, что соответствует потребности в унифицированном административном дискурсе. Узбекский язык, предпочитая внутренние ресурсы и сложные слова, адаптирует управленческую лексику с акцентом на социальные аспекты, что сохраняет национальную специфику.

Полученные данные подчеркивают значимость унификации терминов в условиях растущего сотрудничества, что будет способствовать взаимопониманию и стандартизации административных понятий в двух странах.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Мороховский А.Н., Холодова Н.Н. Адаптация заимствований в русском и узбекском языке: лексико-семантические процессы // *Лингвистический вестник*. – 2018. – №4. – С. 78-85.
2. Аристова О.Е. Морфологические изменения в терминологии государственного управления // *Вопросы филологии*. – 2020. – №5. – С. 102-108.
3. Каримов М.Х. Универбация и сложение в узбекской административной лексике // *Вестник языкознания*. – 2019. – №3. – С. 25-30.
4. Хасанов Т. Влияние цифровизации на терминологию государственного управления // *Современные исследования языка*. – 2021. – №2. – С. 46-53.
5. Гак В.Г., Чежегова Л.И. Метафора и экспрессия в языке государственного управления // *Язык и общество*. – 2020. – №6. – С. 29-35.
6. Влахов С.Г. Морфологическая деривация в русском и узбекском языке: сравнительный анализ // *Вестник филологических наук*. – 2019. – №7. – С. 40-47.
7. Федорова Т.В. Культурные особенности административной лексики русского и узбекского языков // *Международный журнал лингвистики*. – 2021. – №4. – С. 58-64.
8. Хромов Е.А. Проблемы унификации и стандартизации терминологии в государственном управлении России и Узбекистана // *Административный дискурс*. – 2020. – №5. – С. 67-73.

KORPUS LINGVISTIKASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI XUSUSIDA

Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'li,

Buxoro davlat universiteti, filologiya fanlari doctori (DSc)

n.b.ataboyev@buxdu.uz

Astanova Gulnora Maqsudovna,

Buxoro davlat universiteti magistranti

g.m.astanova.@buxdu.uz

Annotatsiya. Korpus tilshunosligi hozirgi kundagi taraqqiyotiga qadar bir qancha davrlarni bosib o'tgan. Korpus tilshunosligi fan sifatida 70- yillarning oxirlarida paydo bo'lgan, lekin uning asosi hisoblangan tilshunoslikning tadqiqot usullari XII asrdan buyon ma'lum bo'lgan. Korpuslarning rivojlanishida matn hajmi va matnlarni tanlash prinsiplari bir qancha davrlarni qamrab oladi. Dastlab, elektron shakldagi korpuslarning vujudga kelishigacha bo'lgan davr XIII asrdan to 1960 –yillarning boshlarigacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: korpus, matn, statistik tahlil, konkordans, indeks, lug'at.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКИ

Аннотация. Корпусная лингвистика прошла несколько этапов, чтобы достичь нынешнего уровня развития. Хотя как отдельная область она появилась в конце 1970-х годов, методы исследования, лежащие в её основе, были известны с XII века. Развитие корпусов охватывало различные периоды, особенно с точки зрения объёма текстов и принципов их отбора. Первоначально это была доэлектронная эпоха, охватывающая период с XIII века до начала 1960-х годов, что заложило основу для создания электронных корпусов.

Ключевые слова: корпус, текст, статистический анализ, конкорданс, индекс, словарь.

CORPUS LINGUISTICS DEVELOPMENT STAGES

Abstract. Corpus linguistics has gone through several stages to reach its current level of development. Although it emerged as a distinct field in the late 1970s, the research methods foundational to corpus linguistics have been known since the 12th century. The development of corpora has spanned various periods, particularly in terms of text volume and selection criteria. Initially, the pre-digital era, covering the period from the 13th century to the early 1960s, laid the groundwork for the creation of electronic corpora.

Keywords: corpus, text, statistical analysis, concordance, index, dictionary

Kirish. Korpus so'zining lisoniy ma'nosi dastavval tor doirada qo'llanilgan, ya'ni diniy, adabiy janrdagi ma'lum bir yozuvchi ishlarining tarkibi alifbo tartibida(concordance) joylashtirilganligi korpus deb atalgan. "Corpus"ning bu ma'noda ishlatilishi elektronlashtirilgan koruslar vujudga kelgungacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Korpuslar bu davr mobaynida diniy, adabiy va leksikografik tadqiqotlar uchun shakllangan va bu jarayon uzoq muddat va ko'p mehnat qiladigan qo'l mehnatini talab qilgan.

Korpuslar elektron tarzda shakllantirilganga bo'lgan davrda, so'z va iboralar qaerda foydalanilganligini ko'rsatuvchi o'ziga xos ko'rsatkichdan foydalanilgan. Shunday "concordance"larning dastlabkilaridan biri bu Bibliya ("Muqaddas kitob")ga asosan yaratilganidir. Bu "concordance"da barcha so'zlar alifbo tartibida joylashtirilgan va ular qo'llangan joylar ko'rsatib borilgan, bu esa o'z navbatida bir so'zning qanday ma'nolarda qo'llanganligini o'rganish imkonini beradi. A.Kruden bu Bibliya "concordance"ni lug'at yoki indeks deb ataydi [2].

Asosiy qism. Texnologiyaning rivojlanishi korpus lingvistikasining odim qadam qo'yishiga turtki bo'ldi, ya'ni tadqiqotchilar, tilshunoslar juda ko'p vaqtini so'zlarni saralab chiqishga sarflamaydigan bo'lishdi. Bu davr dastlabki shaxsiy kompyuterlar yaratilishi (1976) bilan bog'lanadi. Korpus tilshunosligining rivojlanishi tillarning real hayotda qo'llanilish imkoniyatlari va til foydalanuvchilarining tilni qay yo'sinda qo'llashlarini doimiy ravishda o'rganib, tadqiq qilish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon tilshunoslarning turli tomonlardan nazar solishlari bilan yanada mukammallashib boradi.

Birinchi avlod korpuslari. Kompyuter texnologiyalari rivoji natijasida, XX asr 60 yillarining boshlarida dastlabki elektron korpuslar paydo bo'ldi. Birinchi elektron korpus "Brown Korpus" ("The Brown

Corpus”) AQShning Rod Island shtatidagi aynan shu nomdagi Universitet nomi bilan atalgan. Uning nomi rasmiy ravishda “korpus” atamasini o‘z ichiga olgan. G. Kuchera va N. Frensis boshchiligidagi bir guruh olimlar 1961 va 1964 - yillar oralig‘i davrida korpus yaratish ustida ish olib bordilar [13].

Korpus ingliz tilining Amerika variantidagi yozma nutqning quyidagi o‘n besh janrini taqdim etadi: gazeta maqolalari, ilmiy ishlar, e‘lonlar, xobbilar haqidagi kitoblar, diniy adabiyot, biografiya, insho, badiiy kitoblar, adabiyot (detektivlar, sarguzashtlar va g‘arbliklar, ilmiy va ommabop adabiyotlar, romantik romanlar, feletonlar).

“The Brown Corpus” boshqa korpuslar uchun andoza vazifasini o‘tadi: nafaqat hajmi, shuningdek undagi janrlar va yozuv usullari qamrov doirasi bilan ham. 1970- yillarning o‘rtalarida “The Brown Corpus” ning nashr qilinishi, boshqa shu kabi korpuslarning vujudga kelishiga turtki bo‘ldi, dastavval, Buyuk Britaniyada keyinchalik boshqa mamlakatlarda. Masalan, 1976 - yilda Lankaster, Oslo va Bergen universitetlarining birgalikda jamlangan korpusi (The Lansaster-Oslo-Bergen (LOB)) nashr qilindi (1961-1978) [16].

1990 yillarning boshlarida turli xil janrdagi 500 ta matnli yozma nutqlardan iborat bo‘lgan eng kamida bir million so‘zlik korpus yaratildi. Shuningdek, har bir matn eng kamida 2000 ta so‘zdan tarkib topgan. Bunday korpuslarning bir qanchasini sanab o‘tish mumkin: “The Australian corpus of English, ACE (1986)”, “The Wellington corpus of new Zealand English”, “The Wellington Written English, WWE (1986)”, “Corpus of American English speech of the universities of Freiburg and Brown, the Freiburg-Brown Corpus, FROWN (1991-1992)”, “Corpus of British English speech of the universities of Freiburg, London, Oslo and Bergen, The Freiburg London-Oslo / Bergen corpus, F-LOB, (1991-1992)”, “Kolhapur corpus of Indian written English, The Kolhapur corpus Indian English (1978). Bularning barchasi umumlashib birgalikda “Brown corpus family” deb nomlangan [18]. Bu korpuslar orasidagi yagona farq korpuslarda jamlangan matnlar yozma ingliz tilining turli variantlaridan olingan: Amerika, Britaniya, Avstraliya, Yanga Zellandiya va hindiy ingliz tili.

Ikkinchi avlod korpuslari, megakorpuslar. 1990 - yillarning oxiridan boshlab korpus tilshunosligi rivojlanishining ikkinchi davrida. 2000 - yillarga qadar. uchinchi avlod konkordenslari ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan (WordSmith 0.4 (1996), MonoConc (2000), AntConc (2005)). Ushbu dasturlar har qanday skriptdagi katta hajmdagi matnlarni qayta ishlash, shuningdek, murakkab statistik tahlilni bajarish imkoniyati bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, XXI asrning boshlarida konkordans dasturlari yuqori funktsionalligi bilan ajralib turadi: bitta dastur tezda kalit so‘zlar ro‘yxatini, kelishuvlarni tuzish, chastota tahlili va kollokatsion tahlilni amalga oshirishga qodir [11].

Shunday qilib, 1990- yillarning boshidan beri texnik imkoniyatlar olimlarga katta hajmli korpuslarni tuzish va rivojlantirishga imkon berdi. Ushbu korpuslarning maqsadi tilning yozma va og‘zaki nutqda namoyon bo‘ladigan, shu bilan tilning barcha xilma-xilligini aks ettiradigan keng ko‘lamli shakllarini qamrab olish edi. Og‘zaki korpuslarni prosodik, fonetik, morfologik, leksik, sintaktik va diskursiv darajada avtomatik ravishda belgilash mumkin bo‘ldi. Bundan tashqari, konkordanslarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash bo‘yicha bir qator dasturlar paydo bo‘ldi.

G. Kennedi [5], P. Beyker, A. Xardi, T. Makenery [1] 80 - yillarning oxiridan boshlab rivojlangan korpuslarni ikkinchi avlod korpuslari yoki mega-korpuslar deb nomlaydi, chunki ularning hajmi 100 millionga yaqin foydalaniladigan so‘zlarni qamrab oladi. Ushbu korpuslarga an‘anaviy ravishda Longman Corpus Network, Longman Corpus Network (1991), Bank of English, The Bank English, BoE (1993), British National Corpus, BNC (1994), The American National Corpus, ANC (2008) kiradi.

1980 - yillarning oxirida ishlab chiqilgan eng ulkan loyihalardan biri Collins Birmingham University International Language Database (Kollins Birmingem Universitetining Xalqaro Til Ma‘lumotlar Bazasi) yoki COBUILD korpusi edi. Korpus J. sinkler boshchiligidagi bir guruh olimlar tomonidan yaratilgan. Loyiha Birmingem matnlar to‘plami (The Birmingham Collection of Texts) deb nomlanib, 20 million so‘zdan foydalangan yozma va og‘zaki matnlarni o‘z ichiga olgan. Asosiy korpus hajmi 7,3 million foydalanilgan so‘zlarni (keyingi o‘rinlarda «token»), “zaxira korpus” deb nomlangan korpus hajmi esa 13 million foydalanilgan so‘zlarni (keyingi o‘rinlarda “token”) tashkil etdi. Korpusning 75% yozma matnlardan iborat, 25% - og‘zaki matnlardan. COBUILD korpusida 1960 -yillardan 1982 -yilgacha nashr etilgan matnlar mavjud. Yozma nutq asosan prozaik badiiy matnlar bilan ifodalanadi. Korpus tarkibida og‘zaki kodlangan nutq mavjud bo‘lib, unda faqat umumiy bo‘lmagan maxsus lug‘at ishlatiladi. Og‘zaki nutqning 75% - 16 yoshdan katta erkaklarning nutqi, 25% - ayollarning nutqidir. Korpusning 20% ni ingliz tilining amerikancha variant (American English) tashkil etadi.

S. Yoxanssonning so‘zlariga ko‘ra, COBUILD loyihasi bir qancha sabablarga ko‘ra o‘z davri uchun katta yutuq bo‘lgan:

- 1) korpus hajmi 20 million (foydalanilgan soʻzlar) dan oshdi;
- 2) manbalar qisqa parchalar emas, balki toʻliq matnlar edi;
- 3) u eng koʻp nomoyon boʻlgan turli janrdagi ogʻzaki va yozma nutq matnlarini oʻz ichiga olgan.

COBUILD oʻz davrining eng yirik korpusiga aylandi va Kollinz inglizcha lugʻatining asosini tashkil etdi, The Collins COBUILD Dictionary of English (1987) [14].

1980 - yillarning oxirlarida D.Sammers boshchiligidagi guruh boshlagan yana bir mega-korpus - The Longman Corpus Network. Ushbu korpus tarmogʻi hozirda beshta asosiy korpusdan tashkil topgan tijorat maʼlumotlar bazasidir:

- 1) The Longman Corpus of Learners' English (10 million token);
- 2) The Longman Written American Corpus (100 million token);
- 3) Ogʻzaki Amerika ingliz tilidan nutqlarining Longman korpusi, The Longman Spoken American Corpus (5 million token);
- 4) Yozma ingliz tilining qoʻshma korpusi, Logman va Lansaster universiteti nashriyoti, The Longman / Lancaster English Language Corpus (30 million token)
- 5) Longman ogʻzaki Britaniya ingliz tili korpusi, The Spoken British Corpus (10 million token) [9].

G. Kennedining yozishicha, Longman korpus tarmogʻi (The Longman Corpus Network) ning har bir qismi maʼlum maqsadlar uchun yigʻilgan boʻlsa-da, birlashtirilgan korpus turli xil matnlarni turlicha aks ettiruvchi, mahalliy va mahalliy boʻlmagan ingliz tilida soʻzlashuvchilar tomonidan yaratilgan nutq janrlarini qamrab olgan kuchli manbaga aylangan. Ushbu turdagi korpus ingliz tilining kommunikativ grammatikasi boʻyicha lugʻatlar va darsliklar yaratishda ishlatilgan. Keyinchalik, ogʻzaki ingliz tilining korpusi ham Britaniya milliy korpusi (British National Corpus, BNC)ning soʻzlashuv qismiga kiritildi [12].

Oʻz davrining yana bir shuhratparast loyihasi 1996 - yilda S. Grinbaum boshchiligidagi London Universitet Kollejiida ishlab chiqilgan ingliz tilining milliy variantlari korpusi - The International Corpus of English (ICE) edi. Loyihaning maqsadi ingliz tilining mintaqaviy versiyalari matnlarini toʻplash edi. Subkorpuslarga ingliz tilining mintaqaviy variantlarining ogʻzaki va yozma matnlari kiradi. Bu mintaqalar: Britaniya (ICE-GB), Sharqiy Afrika, Hindiston, Yangi Zelandiya, Singapur, Kanada, Gonkong, Yamayka, Filippin, AQSh, Kamerun, Fidji, Irlandiya, Keniya, Malta, Malayziya, Pokiston, Syerra-Leone, Shri-Lanka, Trinidad va Tobago. Respondentlar ingliz tilida soʻzlashadigan maktabda oʻrta maktab maʼlumotiga ega 18 yoshdan katta shaxslar yedi. Barcha subkorpuslarda matnlarning 60% ini yozma matnlar va 40% ogʻzaki transkriptlardan iborat. Dialogik nutq subkorpusi ogʻzaki nutqning quyidagi janrlarini oʻz ichiga oladi: shaxsiy suhbatlar (shaxsiy uchrashuvlar va telefon orqali suhbatlar) va ommaviy (darslar, radio va televideniadagi suhbatlar, televidenie va radio intervyular, parlament muhokamalari, biznes muzokaralari, garovlar). Monolog nutq subkorpusi ikki qismga boʻlinadi. Birinchisi, spontan nutq bayonotlarini oʻz ichiga oladi (sharhlar, namoyishlarda va sudda chiqish). Ikkinchi qismda varaqdan oʻqilishi mumkin boʻlgan tayyorlangan nutqlar kiritilgan (televidenie va radio yangiliklari, televizion va radio suhbatlar (tok-shoular).

Shunday qilib, ikkinchi avlod korpuslari hajmi kamida yuz million token boʻlgan korpuslar boʻlib, ularning maqsadi yozma va ogʻzaki nutqning barcha turlarini namoyish etishdir. Tuzuvchilar aholining turli qatlamlari uchun ogʻzaki va yozma nutqning iloji boricha koʻproq janrlari va uslublarini taqdim yetishga intildilar. Odatda, bu TEI talablariga muvofiq onlayn tarzda toʻplangan va yetiketlangan korpuslar. Milliy korpuslar monitorga aylandi va matnlarni tanlashning vakillik prinsiplari asosida va ikkinchi avlod korporatsiyalariga xos boʻlgan qoidalar asosida tuzildi.

1990-yillarda British National Corpus yangi korpus naʼmunasi sifatida ishlatilgan. 1987- yildan 2004-yilgacha boʻlgan davrda korpuslarni yigʻish, metamarkuplarni tuzish, shuningdek matnlarni avtomatlashtirilgan tarzda belgilash dasturlari ishlab chiqildi.

Uchinchi avlod korpuslari yoki gegakorpuslar. 2010- yil boshlari katta texnik imkoniyatlarning paydo boʻlishi bilan ajralib turadi: toʻrtinchi avlod konkordenslari - BNCweb (2009), CQPweb (2012), SketchEngine (2013), Wmatrix (2013) ishlab chiqilgan boʻlib, ular uchinchi avlod konkordenslariga oʻxshashdir. 4-avlod konkordenslari quyidagi muammolarni hal qilish uchun ishlab chiqilgan:

- shaxsiy kompyuterlarning cheklangan quvvati;
- shaxsiy kompyuter operatsion tizimlarining mos kelmasligi;
- korpuslarni kengaytirishda qonuniy cheklolar.

Xulosa. Konkordenslarning toʻrtinchi avlodi on-layn rejimda ishlaydi va kichik xususiy korpusni BNC korpusi yoki Internetdagi matnlar bilan kontrast tahlil qilishga imkon beradi. M. Devis toʻrtinchi avlod konkorderlarini gibrid korpuslar deb ataydi, chunki ularning interfeysi morfemik, leksik, sintaktik va frazal darajalarda korpus yaratish va chastota tahlilini oʻtkazish uchun oʻziga xos umumiy maydon hisoblanadi [3].

Korpuslar hajmining o'sish tendensiyasi 2000- yillardan keyin ham davom yetdi. A. Mauranen [10] S. Kubler va X. Zinsmayster [6] ushbu avlodni "korpus qanchalik katta bo'lsa, shuncha yaxshi" shiori bilan tavsiflaydi va L. Flauerdyu birinchi bo'lib bu davrni gigakorpuslar avlodi davri deb atadi [4].

Ayni paytda bir nechta yangi korporatsiyalar (SOSA, Google Books Ngram) paydo bo'ldi va ularning hajmi bir necha milliard tokenni tashkil yetdi. Korpuslarning katta hajmi chastotali tadqiqotlarni keng ko'lamda o'tkazishga va uch, to'rt va undan ortiq so'zlardan iborat kollokatsiyalarni o'rganishga imkon berdi.

ADABIYOTLAR:

1. Baker P., Hardie A., McEnery T. *Glossary of Corpus Linguistics*. –Edinburg: Edinburg University Press, 2006. 192 p
2. Cruden, A. *A Complete Concordance to the Holy Scriptures of Old and New Testament*. - London: Fleming H. Revell Company, 1737. 756 p.
3. Davies M. *Corpora: an introduction* // *The Cambridge handbook of Corpus Linguistics* / ed. by D. Biber, R. Reppen. Cambridge University Press, 2015. P. 11–31.
4. Flowerdew L. *The argument for using English specialized corpora to understand academic and professional language* // *Discourse in professions: perspectives from Corpus Linguistics* / ed. by U. Connor, T. Upton. 2004. P. 11–33
5. Kennedy G. *An Introduction to Corpus linguistics*. –London and New York: Addison Wesley Longman limited, 1998. 315 p.
6. Kuebler S., Zinsmeister H. *Corpus Linguistics and Linguistically Annotated Corpora*. London: Bloomsbury Publishing, 2015. P. 10. 320 p.
7. Lamel L., Cole R. *Spoken Language Corpora* // *Survey of the State of the Art in Human Language Technology*. New York // 1997. P. 338–391.
8. Laurence A. *A critical look at software tools in corpus linguistics* // *Linguistic Research*. -Tokyo, № 30 (2) // 2013. P. 141–161.
9. Leech G. *A brief users' guide to the grammatical tagging of the British National Corpus*. [Online] Available from: <http://www.natcorp.ox.ac.uk/docs/gramtag.html>
10. Mauranen A. *Speaking professionally in L2* // *Variation and change in spoken and written discourse: Perspectives from Corpus Linguistics* / ed. by J. Bamford, S. Cavalereri, G. Diani. 2013. P. 5–31.
11. McEnery T., Hardie A. *Corpus Linguistics: Method, theory and practice*. -New York: Cambridge university press, 2012. P. 35. 312 p.
12. *The British National Corpus*. [Online] Available from: <http://www.natcorp.ox.ac.uk>
13. *The Brown Corpus*. [Online] Available from: https://www1.essex.ac.uk/linguistics/external/clmt/w3c/corpus_ling/content/corpora/list/private/brown/brown.html.
14. *The history of COBUILD*. [Online] Available from: <https://www.collinsdictionary.com/cobuild/>
15. *The International Corpus of English*. [Online] Available from: <http://www.ucl.ac.uk/englishusage/projects/ice.htm>
16. *The LOB Corpus*. [Online] Available from: <http://www.helsinki.fi/varieng/CoRD/corpora/LOB/index.html>.
17. *Wikipedia*. [Online] Available from: https://en.wikipedia.org/wiki/Corpus_linguistics
18. Xiao R. *Well-known and influential corpora* // *Corpus Linguistics: An International Handbook* / ed. by A. Ludeling, M. Kyto. -Berlin, (1) // 2008. P. 383–457. 776 p.

IMOM G'AZZOLIYNING "MUKOSHAFAT-UL QULUB" ASARINING TIL KORPUSI VA LINGVISTIK TADQIQI

Barnoyeva Zarina Sayfiddinovna,
Buxoro davlat universiteti stajor-tadqiqotchisi
barnoyevazarina072@gmail.com
0000-0001-5631-1156

Annotatsiya. Ushbu maqolada Imom G'azzoliy asarlarining bugungi kundagi dolzarbligi, asosan, muallifning diniy, falsafiy va axloqiy merosini chuqur o'rganish. Korpus tuzilishida asl manbalarni aniqlash, nusxalarni qiyoslash va asarlarni mavzulari bo'yicha tuzish haqida fikr yuritilgan. Imom G'azzoliyning buyuk mutafakkir, tolmas sayyoh, go'zal tarbiya sohibi ekanligiga urg'u beriladi. Zero, ilm odobdan boshlanadi. Odobi yo'qning hech narsasi yo'q, hatto, ilmi ham. G'azzoliyning purhikmat bilimlari bugungi kunimizda ham mavqeyini yo'qotmagan.

Kalit so'zlar: korpus lingvistikasi, teglash, G'azzoliyning falsafiy qarashlari, ishonchli ilm, Junayd Bag'dodiy, borliq, haqiqatga erishish, yomonlik, gunohkor banda.

ЛИНГВИСТИКА И ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ИМАМА ГАЗАЛИ «МУКОШАФАТ-УЛ КУЛУБ»

Аннотация. Произведения Имама Газали в данной статье актуальны и в сегодняшние дни, в основном, в углубленном исследовании религиозного, философского и нравственного наследия автора. В структуре корпуса предусмотрено выявление первоисточников, сравнение копий и организация произведений по их темам. Подчеркивается, что имам Газали – великий мыслитель, неутомимый путешественник, обладатель хорошего воспитания, потому что наука начинается с манер. У человека без манер нет ничего, даже знаний. Прекрасные знания Газали не потеряли своего значения и сегодня.

Ключевые понятия: корпусная лингвистика, тегирование, философские взгляды аль-Газали, достоверная наука, Джунаид Багдади, существование, постижение истины, зло, грешный раб.

THE LINGUISTIC CORPUS AND LINGUISTIC RESEARCH OF IMAM GHAZALI'S «MUKOSHAFAT-UL QULUB»

Abstract. In this article, the relevance of Imam Ghazali's works today is mainly an in-depth study of the author's religious, philosophical and moral heritage. In the structure of the corpus, it is thought about identifying the original sources, comparing the copies, and organizing the works according to their themes. It is emphasized that Imam Ghazali is a great thinker, an indefatigable traveler, and the owner of a good upbringing. Because science begins with manners. A person without manners has nothing, not even knowledge. Ghazali's excellent knowledge has not lost its importance even today.

Keywords: corpus linguistics, tagging, al-Ghazali's philosophical views, reliable science, Junayd Baghdadi, existence, attainment of truth, evil, sinful servant.

Kirish. Imom G'azzoliyning ijodiy merosi ham diniy, ham falsafiy sohalarda juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning asarlari o'rta asrlardagi islomiy tafakkurga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning asarlari nafaqat islom olamida, balki butun jahonda o'qib-o'rganilgan. Imom G'azzoliyning asarlari islomiy bilim, axloq va diniy tafsirlar, shuningdek, ruhiy tarbiya va sufiylik bilan bog'liq masalalarni qamrab oladi.

Imom G'azzoliyning eng mashhur asarlaridan biri "Ehyo ul-Ulum ad-Din" ("Ilmlar ehyosi") bo'lib, u dinni, axloqni va insonning ichki ruhiy dunyosiga oid ta'limotlarni o'rganishni targ'ib qiladi. Shuningdek, u "Mukoshafat-ul kulub" (Kalblar kashfiyoti) asarida qalblarning da'vosi va kashfiyoti, faylasuflarning ba'zi fikrlarini tanqid qilgan va falsafa bilan din o'rtasidagi ziddiyatlarni tahlil qilgan.

Imom G'azzoliyning asarlari dunyo miqyosida katta qiziqish uyg'otgan. G'arbda uning asarlari lotin tiliga tarjima qilingan va Yevropada ham o'qib-o'rganilgan. G'arbda u ko'pincha "Algazel" nomi bilan tanilgan va uning asarlari musulmon sharqining ruhiy va axloqiy qadriyatlarini Yevropada tanitishga hissa qo'shgan.

Jahon olimlari uning fikrlarini falsafa, axloq, siyosat va din sohalarida tahlil qilishgan. Uning ruhiy tarbiyaga oid asarlari, ayniqsa, insonning axloqiy kamolotga erishishiga oid qarashlari dunyo hamjamiyatida e'tiborga molik deb topilgan.

O'zbekistonda Imom G'azzoliyning merosi juda yuqori baholanadi. Uning asarlari o'zbek falsafasi va diniy ta'limotlariga katta ta'sir ko'rsatgan. O'zbekiston olimlari uning asarlarini chuqur tahlil qilishib, o'zbek ma'naviy merosini boyitishga hissa qo'shganlar. Jumladan, sufiylik va axloq masalalari, ruhiy tarbiya, insonning ma'naviy kamolotiga oid fikrlar o'zbek tadqiqotchilarining diqqat markazida bo'lib kelgan.

«Mukoshafat-ul Qulub» G'azzoliyning necha asrlar ilgari yoqqan yuzlab mash'alalaridan bir donasidir. Bu mash'ala sochgan mangu so'nmas ziyo dastalari zamonlar osha so'ngsizlik sari oqib borgusidir. Inson nasli to qiyomatgacha mavjud bo'larkan, bu asar ham insoniyat uchun mangu ziyo manbai bo'lib, azob-uqubatlar, g'am-tashvishlar va behuzurliklar ichida iztirob chekayotgan shaxslar, siymolar va millatlarga huzur-halovat va baxt-saodat yo'llarini ko'rsatajak. [1]

Asosiy qism. Imom G'azzoliyning ijodiy merosi va uning O'zbekistondagi ta'siri haqida ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ayrim tadqiqotlar uning asarlarini zamonaviy sharoitlarda qayta tahlil qilishga qaratilgan. Uning fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Imom G'azzoliy mualliflik korpusini (asarlar to'plamini) tuzish masalasi juda muhim va murakkab ilmiy vazifa hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat asarlarni aniqlash va to'plash, balki ularni asl manbalardan tahlil qilish, turli davrlar davomida kiritilgan o'zgartishlar va nufuzli nusxalar o'rtasidagi farqlarni o'rganishni talab qiladi. G'azzoliyning mualliflik korpusini to'g'ri tuzish va tizimlashtirish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar va imkoniyatlar o'rganilishi mumkin.

1. Asl manbalar va nusxalarni aniqlash.

Imom G'azzoliyning asarlari turli vaqtlarda, turli geografik hududlarda va turli tillarda yozilgan. Asarlarning asl nusxalarini aniqlash muhim vazifalardan biri bo'lib, bu ishda quyidagi qadamlar asosiy ahamiyatga ega: Hujjatli manbalar bilan ishlash: Asarlarning asl nusxalarini arxivlar va kutubxonalarda izlash, ularni tahlil qilish muhim. Asl nusxalarni topishga harakat qilish, qolganlari bilan qiyoslash zarur. Nusxa xatolarini tekshirish: Turli davrlar davomida asarlar qayta ko'chirilgan bo'lishi mumkin, shuning uchun nusxalar orasida xatolar yoki o'zgarishlarni tekshirish lozim[8].

2. Asarlar haqiqiylikni tasdiqlash.

G'azzoliyning ismiga nisbat beriladigan asarlar orasida ba'zi muhaqqiqlar tomonidan shubha ostiga olingan asarlar ham bor. Shunga ko'ra, mualliflik korpusini tuzishda quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi:

Matnli tanqid va uslubiy tahlil: G'azzoliyga taalluqli deb hisoblangan har bir asarni uning boshqa asarlari bilan uslub, mazmun, va mantiqiy yo'nalishlar jihatidan qiyoslash muhim. Bunda lingvistik tahlil va stillashtirish nazariyalari yordam beradi.

Hadis va tafsir ilmiga oid bilimlarni qiyoslash: G'azzoliy asarlarining ma'lumotlari va dalillari uning boshqa mashhur asarlari bilan muvofiq kelishi kerak.

3. Asarlarning mavzuviy tizimlanishi.

G'azzoliyning asarlari turli sohalarini qamrab olgan, jumladan, fiqh, aqida, axloq, falsafa va sufiylik. Mualliflik korpusini tuzishda asarlarni mavzular bo'yicha guruhlash muhim ahamiyatga ega:

Diniy va huquqiy asarlar: G'azzoliyning shariat va fiqh sohasida yozgan asarlari.

Falsafiy va tanqidiy asarlar: Uning falsafa va mutafakkirlikka oid tanqidiy ishlari, jumladan, "Tahofut al-Falasifa".

Axloq va ruhiy tarbiya: G'azzoliyning sufiylik va ichki ruhiy tarbiyaga oid asarlari, "Ehyo ul-Ulum ad-Din" kabi.

4. Turli tillardagi tarjimalar va sharhlar.

Imom G'azzoliyning asarlari turli tillarga tarjima qilingan va turli xalqlar tomonidan sharhlangan. Mualliflik korpusini tuzishda turli tillardagi tarjimalarni ham to'plash va qiyoslash kerak. Bu tarjimalar orasidagi tafovutlar va asarlarning sharhlari muallifning asl maqsadini tushunishga yordam beradi.

5. Zahiriy va botiniy ma'nolar tahlili.

G'azzoliy asarlarida zahiriy (tashqi) ma'nolar bilan birga botiniy (ichki) ma'nolarga ham katta e'tibor bergan. Asarlarning ruhiy-axloqiy qismi alohida tahlilni talab qiladi, chunki ulardagi botiniy ma'nolar yuzaki o'qishda tushunarsiz bo'lishi mumkin. Mualliflik korpusini tuzishda zahiriy va botiniy ma'nolarni ayrim hollarda alohida guruhlash mumkin.

Imom G'azzoliyning asarlari korpusini tuzishda asl manbalarni aniqlash va tanlab olish juda murakkab jarayon bo'lib, u to'g'ri va metodologik yondashuvni talab qiladi. Korpusni tuzishda ilmiy standartlarga asoslangan aniq qadamlar bo'yicha ishlash muhim. Quyida bunday jarayon uchun reja beriladi.

1. Loyiha rejasi va maqsadlarni aniqlash.

Asosiy maqsad: Imom G'azzoliyning mualliflik korpusini to'g'ri va ishonchli tarzda shakllantirish, uning asarlarini asl manbalar asosida tanlash va ularning haqiqiylikni tasdiqlash.

Muddatlar va bosqichlar: Korpus tuzish jarayonini bir necha bosqichlarga bo'lish, shuningdek, muddatlarni belgilash. Bu bosqichlarga quyidagi vazifalar kiradi.

2. Manba topish:

Kutubxona va arxivlar bilan ishlash

Asl manbalarni izlash birinchi va eng muhim qadamlardan biri. Bu ishda jahon bo'ylab kutubxonalar va arxivlar bilan ishlash zarur:

Islom olamidagi yirik kutubxonalar: Islom tarixi va diniy merosga boy hududlardan manbalarni izlash, jumladan, Qohiradagi Al-Azhar kutubxonasi, Turkiyaning Suleymaniya kutubxonasi, Eron, Saudiya Arabistoni, va Marokashdagi kutubxonalar.

G'arb kutubxonalari: Imom G'azzoliy asarlarining tarjimalari va nusxalari ham G'arb kutubxonalari mavjud, jumladan, Britan muzeyi, Fransiya Milliy kutubxonasi, Vatikan arxivlari va boshqalar.

O'zbekiston va Markaziy Osiyo kutubxonalari: G'azzoliyning asarlari va ularga oid sharhlar Markaziy Osiyoda ham saklanib kelgan. O'zbekiston Milliy kutubxonasi va Samarqanddagi qadimiy manbalar arxivlari muhimdir.

3. Manbalarni klassifikatsiya qilish va tahlil qilish.

Nusxalarni qiyoslash va tasniflash

Asl nusxalarni aniqlagandan keyin ularni qiyoslash va klassifikatsiya qilish kerak:

Xronologik tartibda tasnif: Asarlarni yozish vaqti bo'yicha yoki G'azzoliyning hayotining turli bosqichlariga mos tartibda joylash.

Manba turlari: Har bir asarning qo'lyozma yoki chop etish nusxalarini turli xil kutubxona va hujjatlardan qiyoslash.

Nusxa xatolarini aniqlash: Qo'lyozma nusxalarni bir-biri bilan qiyoslab, ularda paydo bo'lgan xatolarni aniqlash. Mazmun va til jihatidan farqlarni o'rganib, asl matnni qayta tiklashga harakat qilish.

4. Asarlarning haqiqiylikni tasdiqlash.

Tanqidiy tahlil va tasdiqlash. Haqiqiy asarlarni aniqlash uchun Imom G'azzoliyning boshqa mashhur asarlari bilan qiyoslash hamda uning yozuv uslubi va mazmunga oid ma'lumotlardan foydalanish kerak.

Matnli tanqid: Asarlarning lingvistik va uslubiy jihatdan tahlili, ularning G'azzoliyning asl uslubiga mosligini tekshirish.

Olimlar tavsiyasi: Asarlar haqida turli davrlarda yozilgan tavsiyanomalar va sharhlarni o'rganish. Ularning turli tadqiqotchilar tomonidan tasdiqlanganligiga ishonch hosil qilish.

Tarixiy kontekst: Asarlar yozilgan davr va ijtimoiy-sharoitlar bo'yicha ularning haqiqiylikni tarixiy faktlar bilan qiyoslab o'rganish.

5. Turli davrlardagi tahrir va o'zgarishlarni aniqlash.

Nusxa va tahrirlarni solishtirish

Turli vaqtlarda kiritilgan tahrirlar va o'zgarishlarni topish uchun nusxalarni chuqur o'rganish zarur.

Tarixiy tahrirlar: Asarlarning turli tahrirlarini qiyoslab, qaysi o'zgarishlar Imom G'azzoliy davrida, qaysilari keyingi vaqtlarda kiritilganini aniqlash.

Asarlar manbasini tekshirish: Turli muhaqqiqlar tomonidan berilgan ma'lumotlarni va sharhlarni qiyoslab, qaysi nusxa yoki tahrir haqiqiy bo'lishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish.

6. Mualliflik korpusining yakuniy tuzilishi.

Yakuniy manba to'plamini tayyorlash va nashr etish

Asl manbalarni aniqlab, tahrir va haqiqiylikni tasdiqlagandan keyin, mualliflik korpusini to'plash va uni tuzish zarur.

Yakuniy tuzilma: Imom G'azzoliyning aniqlangan va haqiqiy deb topilgan asarlarini birlashtirib, ularni tizimli tarzda joylashtirish.

Nashrga tayyorlash: Korpus to'plamini nashrga tayyorlash, manbalar haqida ilmiy izohlar berish va tadqiqotlar ilova qilish.

7. Qo'shimcha ilmiy izlanishlar va sharhlar.

Tadqiqot va targ'ibot. Har bir asarni ilmiy tahlil qilish, unga tegishli ta'riflar, izohlar va qo'shimcha ma'lumotlar qo'shish.

Imom G'azzoliyning mualliflik korpusini lingvistik teglash — bu uning asarlaridagi har bir so'z yoki iborani tilshunoslik jihatidan belgilab chiqishni anglatadi. Bu jarayonda so'zlar morfologik, sintaktik va semantik jihatdan teglanadi, ya'ni har bir so'zning grammatik roli, ma'nosi va tuzilishi aniqlanadi.

Teglash jarayoni, odatda, kompyuter yoki qo'lda amalga oshiriladi va u quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Morfologik teglash

Har bir soʻzning grammatik kategoriyalarini, yaʼni ularning soʻz turkumlarini (ot, feʼl, sifat va h.k.), shakllarini va grammatik maʼlumotlarini aniqlash.

Namunaviy morfologik teglash:

- ك ل ا م (soʻz, nutq) — ot, mujtasr, maʼlum, jam boʻlmagan.
- ي قول (aytadi) — feʼl, mujtasr, hozirgi zamon, 3-shahs, mujtasr.
- مؤمن (moʼmin) — ot, mujtasr, maʼlum, jam boʻlmagan.

2. Sintaktik teglash

Soʻzlarning bir-biriga nisbatan qaysi rovida ishtirok etayotganini koʻrsatish, yaʼni soʻzlarning birikmalardagi oʻrni va funksiyasini aniqlash.

Namunaviy sintaktik teglash:

- يقول المؤمن كلاماً (Moʼmin soʻz aytadi) — subʼekt: مؤمن, feʼl: وليق, toʻldiruvchi: كلاماً.
- Bu yerda "نؤمن" subʼekt boʻlib, "كلاماً" toʻgʻridan-toʻgʻri toʻldiruvchi vazifasida kelgan.

3. Semantik teglash

Soʻzning lugʻaviy va maʼnaviy moslamalarini aniqlash, yaʼni ularning umumiy maʼnosi va kontekstidagi vazifasini belgilash.

Namunaviy semantik teglash:

- ك ل ا م (soʻz) — nutq yoki soʻzlashish maʼnosini anglatuvchi lugʻaviy birlik.
- مؤمن (moʼmin) — dindor shaxsni anglatuvchi maʼno, yaʼni diniy eʼtiqod bilan bogʻliq semantika.

Lingvistik teglash natijasidagi umumiy namuna:

Matn: يقول المؤمن كلاماً

- ي قول (aytadi) — feʼl, hozirgi zamon, 3-shahs, subʼektga bogʻliq.
- المؤمن (moʼmin) — ot, subʼekt, maʼlum shaxs.
- كلاماً (soʻz) — ot, toʻldiruvchi, maʼlum.

Bunday teglash jarayonida Imom Gʻazzoliy asarlaridagi til birliklari morfologiya, sintaksis va semantika nuqtayi nazaridan aniq tahlil qilinadi. Bu muallifning til va uslubini chuqurroq oʻrganish va ularni turli til modellariga tatbiq etishda muhim qadamdir.

Xulosa qilib shuni taʼkidlash mumkinki, Imom Gʻazzoliy asarlari bugungi kun yoshlari uchun beqiyos qiymatga ega, ayniqsa, inson oʻzini va oʻzligi anglashi uchun muhim manba hisoblanadi. Imom Gʻazzoliyning mualliflik korpusini lingvistik teglash va qidiruv parametrlarini tuzish korpusdagi asarlarning mazmunini oson va chuqur tahlil qilish uchun juda muhimdir. Lingvistik teglash morfologiya, sintaksis va semantik teglarni qoʻllab, asarlarning mazmunini toʻgʻri tushunishga yordam beradi. Qidiruv parametrlari esa korpusni samarali qidirish va maʼlumotlardan ilmiy foydalanish imkoniyatini yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Gʻazzoliy I. *Mukoshafat-ul qulub.* (Miraziz Aʼzam tarjimasi) – T.: «Adolat», 2002.
2. Блумфилд Л. Язык. – М.: «Прогресс», 1968. – М., 1967.
3. Беляева Л.И., Чижаковский В.А. *Тезаурус в системах автоматической переработки текста.* – Кишинев, 1983.
4. Захаров В.П. *Корпусная лингвистика: учебник для студентов гуманитарных вузов.* – Иркутск, 2011. – 161 с.
5. Недошивина Е.В. *Программы для работы с корпусами текстов: обзор основных корпусных менеджеров. Учебно-методическое пособие.* – Санкт-Петербург. – 2006. 26 с.
6. Рыков В.В. *Курс лекций по корпусной лингвистике.* URL: <http://rykov-cl.narod.ru/c.html>; Плузгян В. *Зачем мы делаем Национальный корпус русского языка?* [Электрон ресурс] «Отечественные записки» 2005, –№2. http://magazines.russ.ru/oz/2005/2/2005_2_20-pr.html
7. Синклер Д. *Предисловие к книге «Как использовать корпуса в преподавании иностранного языка»/ Д.Синклер [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.ruscopora.ru/corpora-info.html>, свободный;*
8. Кутузов А.Б. *Корпусная лингвистика.* – [Электрон ресурс]: Лицензия Creative commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported [Электрон ресурс] – //lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.pdf;
9. Котов Р.Г. *Лингвистические аспекты автоматизированных систем управления.* – Москва: Наука, 1977.;
10. Karimov R. *Oʻzbek va ingliz tili parallel korpusini tuzishning lingvistik va dasturiy masalalari Filol.fan.boʻyicha falsafa doktori (PhD)...dis. avtoref.* –Buxoro, 2021. –151 b.

ABU ALI IBN SINONING “TIB QONUNLARI” ASARIDA TERI KASALLIKLARINI
IFODALOVCHI LINGVISTIK BIRLIKLAR XUSUSIDA*Baxriyeva Umriniso Maxsud qizi,**Buxoro davlat universiteti**O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida tayanch doktoranti**baxriyevaumriniso1712@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarida tibbiy atamalar sifatida qo‘llaniladigan teri kasalliklari bilan bog‘liq leksik birliklar xususida so‘z yuritilgan bo‘lib, ularning lingvistik jihatdan tahlili amalga oshirilgan. Teri kasalliklar bilan bog‘liq atamalarning etimologiyasi, ularning xalq tilida va badiiy asarlarda qo‘llanilish o‘rni va izohi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Abu Ali ibn Sino, tibbiyot, tibbiy terminlar, “Tib qonunlari” asari, leksik birliklar, etimologiya.

О ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦАХ, ПРЕДСТАВЛЯЮЩИХ КОЖНЫЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ В
ПРОИЗВЕДЕНИИ АБУ АЛИ ИБН СИНЫ «КАНОНЫ МЕДИЦИНЫ»

Аннотация. В данной статье говорится о лексических единицах, относящихся к кожным заболеваниям, используемых в качестве медицинских терминов в труде Абу Али ибн Сины «Каноны медицины», и проводится их лингвистический анализ. Дана этимология терминов, связанных с кожными заболеваниями, место их употребления в народном языке и произведениях искусства, а также их объяснение.

Ключевые слова: Абу Али ибн Сина, медицина, медицинские термины, «Медицинские каноны», лексические единицы, этимология.

ABOUT LINGUISTIC UNITS REPRESENTING SKIN DISEASES IN ABU ALI IBN SINO'S
«LAWS OF MEDICINE»

Abstract. This article deals with lexical units related to skin diseases used as medical terms in Abu Ali ibn Sina's work «Canons of Medicine» and analyses them linguistically. In Abu Ali ibn Sina's work ‘Canons of Medicine’ and their linguistic analysis is carried out. The etymology of terms related to skin diseases, the place of their use in folk language and works of art, as well as their explanation are given.

Keywords: Abu Ali ibn Sina, medicine, medical terms, «Medical Canons», lexical units, etymology.

Kirish. Til jamiyatsiz, jamiyat esa tilsiz mavjud bo‘la olmaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bir soha ikkinchi soha bilan aloqadorlik hosil qiladi. Bugungi kunga kelib, o‘zbek tilshunosligida tibbiy lingvistik birliklarni har tomonlama o‘rganishga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Shu jumladan, teri kasalliklari bilan bog‘liq bo‘lgan tibbiy lingvistik birliklarni o‘rganish va tahlil qilish soha lingvistikasining asosiy talablaridandir.

Tibbiy terminlarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish ularning mohiyatini ochib berishga, mazmunini ifodalashga, izohini yoritishga yordam beradi. Tibbiy atamalarning yo‘nalishlariga ko‘ra turli sohalari mavjud bo‘lib, ularda qo‘llaniladigan terminlar ham sohalarga mutanosib ravishda turli xildir. Jahon lingvistikasida ushbu yo‘nalish bo‘yicha dastlabki ma‘lumotlar miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Jumladan, Rim faylasuflaridan biri Aulus Selsus teri kasalliklarini ularning o‘ziga xos xususiyatlaridan, teridagi ko‘rinishi va belgilaridan kelib chiqqan holda nomlagan. Keyinchalik Selsus ishini davom ettirgan venerolog sifatida Vesalius, Harvey, Sidenhem kabi olimlar nomi qayd etiladi. Miloddan keyingi davrlarda teri kasalliklari atamalariga tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashgan Davi Ellen Chabner nomi bilan bog‘lanadi.

Asosiy qism. Dermatovenerologiya tarixida Abu Ali Ibn Sinoning xizmati kattadir. Uning teridagi o‘zgarishlar va kasalliklar to‘g‘risidagi fikrlari hozirgi zamon dermatovenerologiya fanining yutuqlari qatoridan joy egallagan. Ibn Sino tibbiyot masalalarini, xususan, teridagi kasallik masalalariga falsafiy nuqtayi nazardan qaraydi. Shuningdek, asl isbot va noasl isbot masalalariga to‘xtalib, asl isbotda yondashish lozim bo‘lgan, noasl isbotda esa cheklanish zarurligi xususida o‘z qarashlarini ifodalaydi. Ibn Sino

kasalliklarni murakkab jarayon sifatida baholaydi. Odatda, kasallikning sababini davolashni tibbiyotning asl mohiyati sifatida belgilaydi.

Ibn Sino o'zining tibbiyotga oid asosiy qarashlarini izchil shaklda eng mashhur asarlaridan biri hisoblangan "Tib qonunlari"da keltirib o'tgan bo'lib, bu asar o'z davrida tibbiyot bo'yicha eng muhim manba hisoblangan. Ushbu asarda u anatomiyadan tortib, kasalliklarni davolash usullarigacha bo'lgan ko'plab masalalarni qamrab olgan. Asar Yevropada o'n asrdan ortiq davomida tibbiyot ta'limida asosiy manba sifatida xizmat qilgan. Teri kasalliklarining kelib chiqishida asab tizimi faoliyatining ahamiyati katta ekanligini ta'kidlagan. Ushbu asar Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi bilimlarini va tajribalarini o'z ichiga olgan keng qamrovli manba bo'lib, u o'z zamonida va keyinchalik Yevropada ham tibbiyot ta'limida asosiy manba sifatida xizmat qilgan.

Asarning tuzilishi: "Tib qonunlari" asari uch bo'limdan iborat:

1. Tibbiyot nazariyasi: Bu bo'limda Ibn Sino inson organizmini, uning tuzilishi va funksiyalarini, shuningdek, kasalliklarning sabablari va ularning rivojlanish jarayonlarini o'rganadi. U organizmning to'rt asosiy elementdan (yer, suv, havo, olov) tashkil topganini ta'kidlaydi va ularning muvozanati sog'liq uchun zarurligini tushuntiradi.

2. Kasalliklar: Bu bo'limda Ibn Sino turli kasalliklarni tasniflaydi, ularning belgilari, sabablari va davolash usullarini keltiradi. U ko'plab kasalliklarni o'rganib, ularni qanday davolash mumkinligini batafsil bayon etadi.

3. Davolash usullari: Ushbu bo'limda Ibn Sino turli davolash usullarini, jumladan, dori-darmonlar, dietalar va boshqa terapevtik usullarni taqdim etadi. U dori-darmonlarning ta'sirini va ularni qanday ishlatish kerakligini tushuntiradi.

Asosiy qism. Ibn Sino bu asarida tibbiyot masalalarini, xususan, teridagi kasallik masalalariga alohida to'xtalib o'tgan. U ko'pincha bemorlarni ruhiy ta'sir etish yo'li bilan davolashni lozimligini alohida ta'kidlaydi. Ibn Sinoning falsafiy qarashlarida sabab va oqibat, shakl va mazmun, tizim va vazifa, zarurat va tasodif, mahalliylik va umumiylik, maxsuslik va nomaxsuslik orasida bog'liqlik kuzatiladi. Ibn Sino organizmning individual sezuvchanligiga katta e'tibor berib, dorilarni haddan ziyod iste'mol qilishga qarshi chiqadi. Shuningdek, dori asta-sekin insonni yemirishini, doridan saqlanishni, sifatli ovqatlanishni tavsiya etadi. Ibn Sino bemorlarning dorilarga ko'nikib qolishlari mumkinligini ham ta'kidlagan, bu fikr hozirgi dermatologiyada ham o'z isbotini topgan (misol uchun psoriazni davolashda). Ibn Sino parhez taomlar, suv muolajalari, jismoniy mashg'ulotlar, uyquni uzaytirishni ayrim dermatozlarda organizmning himoya vazifasini rag'batlantiruvchi omillardan deb bilgan. Ibn Sino 32 tadan ortiq dermatozlarni batafsil bayon etgan. Jumladan, *Vitiligi*ni anjir suti surtib, quyoshda toblash orqali davolashni aytib o'tganligi, hozirgi kunda fotokimyoviy usulga asos bo'lganligini kuzatish mumkin. *Leprani moxov* nomi bilan yozib, "sher" kasalligi deb ham ataydi, bunga sabab bemorlar yuz ko'rinishi va ifodasi sherni eslatadi. Ibn Sino *zaxmni* simob bilan davolashni taklif etgan, bu usul hozirgi kunda dunyo bo'yicha keng tarqalgan. Ibn Sinoning dermatovenerologiya fani sohasidagi ko'pgina fikr va mulohazalari bugungi kunda ham o'z isbotini topib, dermatovenerologlarni ilmiy, amaliy va tarixiy nuqtayi nazardan qiziqtirib kelmoqda, uning tushuncha, ko'rsatma va nazariyalari hozirda ham o'z kuchini yo'qotgani yo'q, aksincha, yanada chuqurroq o'rganishni talab etadi.

Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari, o'z davrining eng muhim tibbiy asarlaridan biri bo'lib, u nafaqat tibbiyot, balki lingvistika, mantiqiy fikrlash, falsafa, biologiya, botanika hamda farmaseftika sohalari uchun ham asosiy va muhim sanalgan materiallarni o'z ichiga oladi. Asarni lingvistik tahlil qilishda bir necha asosiy jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

1. Leksik tahlil

• Terminologiya: Ibn Sino tibbiyot sohasida ko'plab maxsus terminlarni kiritgan. U dorivor moddalarning nomlarini, kasalliklar va ularning belgilari uchun terminlar ishlab chiqqan.

• O'zbek va arab tillaridagi ta'sir: Asarda arab tilining boy leksikasi va o'ziga xos atamalari mavjud. Bu, shuningdek, o'sha davrda arab tilining ilmiy va falsafiy terminologiyasini qanday rivojlantirgani haqida ma'lumot beradi.

2. Sintaktik tahlil

• Gap tuzilishi: Ibn Sinoning uslubi ko'pincha murakkab gaplardan iborat bo'lib, u ko'p hollarda uzun va tushunarli jumalarni ishlatgan. Bu esa o'z navbatida, fikrlarni chuqurroq ifodalash hamda o'quvchida aniq tushunish imkonini beradi.

• Qaytarish va takrorlash: U fikrlarni ta'kidlab o'tish uchun qaytarish va takrorlash usullaridan foydalanadi, bu esa o'quvchining e'tiborini jalb qiladi.

3. Semantik tahlil

- Ma'nolar: Ibn Sino asarida tibbiyot, fiziologiya, anatomiyani tushuntirishda noaniq va murakkab ma'nolarni ochib berishga harakat qiladi. U kasalliklar va ularning sabablari haqida chuqur ma'lumot beradi.
- Metaforalar va tasvirlar: U ko'plab metaforalar va tasvirlarni ishlatadi, bu esa o'quvchilarga murakkab tibbiy jarayonlarni tushunishga yordam beradi.

4. Stilistik tahlil

• Uslub: Ibn Sinoning uslubi ilmiy va falsafiy bo'lib, u ko'pincha mantiqiy va tizimli yondashuvni qo'llaydi. Uning uslubi o'z davrining ilmiy an'analariga mos keladi.

• Ritorik usullar: U turli ritorik usullarni qo'llaydi, masalan, savol-javob shaklida fikrlarni ifodalash, bu esa o'quvchining qiziqishini oshiradi.

Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarini lingvistik jihatdan tahlil qilish, uning ilmiy merosini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu nuqtayi nazardan quyida Ibn Sinoning 5-jildlik "Tib qonunlari" asarining 4-jildida keltirilgan dermatologik kasallik nomlarini ifodalovchi leksik birliklarning lingvistik tahlillari, etimologiyasi, xalq tilida va badiiy asarlarda qo'llanilish o'rni va izohi keltiriladi

“...**Qo'tir**, ko'pincha, sho'r, achchiq hamda issiqlik dorivorlarni iste'mol qilishdan kelib chiqadi. **Qo'tir** moddasi paydo bo'lish sabablari **qichima** moddalarini keltirib chiqadigan sabablarning o'zidir; lekin **qo'tir**ni kuchliroq bo'lib, **namla**, **sa'fa**, **bosh qazg'og'i** va **temiratki** sabablari yaqinroq bo'ladi.

...**Qo'tir qichimadan** manashu yo'sinda ajraladi: **qichimada**, ko'pincha, **toshma** bo'lmaydi.

... **Qo'tirning** zo'r va yomon xili **chiqiq** paydo qiladi.[1]”

“Tib qonunlari” asaridan keltirilgan ushbu matndagi **qo'tir**, **qichima**, **namla**, **sa'fa**, **bosh qazg'og'i**, **temiratki** va **chiqiq** terminlari teri kasalliklarini ifodalovchi leksik birliklardir.

Qo'tir badanda pufakchalar hosil qilib, qattiq qichishtiradigan yuqumli teri kasalligi. Masalan: *Bolang qo'tir bo'libdi shifoxonaga ko'rsat.* [2] Qadimgi turkiy tilda ham aynan shu ma'noni ifodalagan bu birlik aslida lingvistik jihatdan qoto'r tarzida talaffuz qilingan, o'zbek tilida esa ushbu so'zning ikkinchi bo'g'ini lablanmagan, tor unli i yoki lablangan, o'rta keng o' unlilari o'rniga lablangan, tor u unlisiga amashtirib talaffuz qilingan hamda ishlatilgan. Masalan: qotur – qotir. Bugungi kunda qo'tir tarzida talaffuz qilinadi.

Chiqiq. Teri kasalliklaridan yana biri bu chipqon tibbiy birligi hisoblanadi. Chipqon kasalligiga quyidagicha izohlar beriladi. “Chipqon yoki ho'pposlar, teri ostida yiringli xalta paydo bo'lishiga olib kelgan infeksiyadir. Bu tuk yoki jun ildizi infeksiyalangandan kelib chiqishi mumkin. Shuningdek, uchi o'tkir narsa sanchilishi yoki iflos igna bilan qilingan ukol ham bunga sabab bo'la oladi. Chipqon teri kasalligi bilan kasallangan bemorlarda og'riqli holatlar paydo bo'ladi va atrofidagi teri qizargan tusga kirib, issiq bo'ladi. U limfa tugunlari shishishi va isitma chiqishiga olib kelishi ham mumkin”[6] Shavkat Rahmatullayevning “O'zbek tilining etimologik lug'ati”da “tuk qopchig'i va uning atrofi yallig'lanishi natijasida hosil bo'ladigan yiringli katta chiqiq”[2] tarzida izoh beriladi. Jumladan: “*Lab-dahaningizga chipqon chiqan emas, tog'a*” (Parda Tursun) parchasi berilishi orqali fikr dalillangan. Chipqon oti qadimgi turkiy tilda chibiqan chubaqan, chipqan shakllarida talaffuz qilingan, hozirgi o'zbek tiliga bu so'zning chipqon shakli yetib kelgan va uning tarkibidagi a unlisi o unlisiga almashgan. Bu so'z asli unobi o'simligi mevasining nomi bo'lib, keyinchalik tashqio'xshashlik asosida badandagi chiqiqqa nom sifatida ko'chirilgan.

Temiratki sho'ralagan yoki qo'tirsimon teri kasalligidan biri bu temiratki hisoblanadi. Odatda xalq tabobatida echkining sutini temiratki teri kasalligini davolashda dori-darmon bo'lishi aytilgan. Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni-lug'otit-turk” asarida temrako', temrago' shaklida (Devon, I, 453), keltirilgan. Shunday ma'noni anglatgan so'z Mahmud Qoshg'ariy lug'atida **temrako'** shaklida (Devon, I, 453), E.V.Sevortyan lug'atida (ESTYA, III, 190) ko'pchilik turkiy tillarda bu so'z **temrego'**, **temirago'** shaklida, o'zbek tilida **temirätki** shaklida ishlatilishi ta'kidlangan. Bu so'z oxiridagi **-ki** qismi ot yasovchi qo'shimcha ekani aniq; ikkinchi bo'g'indagi i unlisi keyin qo'shilgan deb hukm chiqarish mumkin; **temrät-** qismi oxiridagi **-t** orttirma shakli qo'shimchasiga teng; demak, qadimgi turkiy tilda **temrä-** fe'li mavjud bo'lgan, lekin u qanday ma'noni anglatgani noaniq. Asli **temrä-** so'zi ham tub emas, balki bu fe'l **rä-** qo'shimchasi bilan yasalgan bo'lsa kerak; unda **tem** qismi ot yoki sifatga teng bo'lib chiqadi, lekin bunday so'z manbalarda ta'kidlanmagan (sho'ralash kasalligini anglatgan ot bo'lsa kerak). Devonning o'zbekcha tarjimasida **temrako'** so'zining **temiro'tki** so'zi bilan izohlanishi bu so'zni **temir o'tki** birikmasining bir so'zga birlashuvidan yuzaga kelgan deb tushinishning (“soxta etimologiya”lashning) natijasi bo'lsa kerak. K.K.Yudaxin lug'atida bu so'zning **temirötko'** shakli keltirilgan, lekin asosiy shakl **temiretki** ekani ta'kidlangan.[2]

Qichima. Qattiq qichishish va tugunchali toshmalar toshishi bilan kechadigan teri kasalliklari. **Endi Chimyon suvidan fasat qichima va bodga uchraganlarga emaye, bo'g'in og'riq, yurak kasalliklariga mubtalo bo'lganlar ham shifo ko'rayotirlar.** (*M. Mansurov, „Chimyon suvi“*) **..tiqilinch va iflos joylarda yashovchi kishilar turli terlama, qo'tir, qichima va boshqa yuqumli kasalliklarga duchor bo'ladilar.**(*N. Ismoilov, „Kasal-larni parvarish qilish“*) [7]

“...So‘galning boshi mix qalpog‘i singari katta bo‘lib, tagi ingichka bo‘lsa, uni “mix” deb, agar uzun bo‘lib bukilgan bo‘lsa uni “shox” deb ataladi.

...So‘galning “tursus” deb atalgan turi ham bo‘lib u yorilsa tagidan yiring chiqadi...”[1]

So‘gal. Inson tana-a‘zolarining qo‘l-oyoq qismida, ba‘zan badanda uchraydigan qattiq dumaloqo‘simta so‘gal teri kasalligi nomi bilan yuritiladi. Masalan, so‘zlashuv uslubida “Opamning qo‘llarida sog‘ali bor” tarzida uchraydi. Qadimgi turkiy tilda ushbu teri kasalligi so‘gul tarzida talaffuz qilingan bo‘lib, o‘zbek tilida u unlisi a unlisiga almashgan, o‘ unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan. Fanda so‘galning uchta turi mavjud bo‘lib, oddiy, yassi va uchli. Ular bir-biridan rangi bilan ham farqlanadi. odatda, o‘tkir qirrali so‘gal yorqin pushti rangda bo‘lib, chov qatlarida paydo bo‘ladi. Yassi so‘gal kulrang-sarg‘imtir rangda bo‘lib, tezda dag‘allashib ketadi.

Shuningdek, Ibn Sino *Leprani moxov* nomi bilan yozib, “sher” kasalligi deb ham ataydi, bunga sabab bemorlar yuz ko‘rinishi va ifodasi sherni eslatadi. Vikipediya onlayn lug‘atida **moxov** kasalligining ta‘rifi quyidagicha keltirilgan. “Butun organizmni, xususan, teri va nerv sistemasini hamda ichki a‘zolari zararlaydigan surunkali infeksiya kasalligi”[5] Moxov leksemasining lingvistik tadqiqiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning arab tilidan kirib kelgan leksik birlik ekanligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Moxov so‘zi arabcha “maxv” so‘zidan olingan bo‘lib, “yo‘q qilish, chetlatish” ma‘nosini ifodalaydi. o‘zbek tilida moxov so‘zi faqat kasallik nominigina ifodalamaydi. Balki, o‘zining omonimlik xususiyatini ham aks ettiradi. Jumladan:

I. Moxov – kasallik (kasallik nomini ifodalovchi birlik);

II. Rasvo, chatoq, yaramas;

III. Qarg‘ish ma‘nosini ifodalovchi so‘z.

Moxov so‘zining yuqoridagi ma‘nolarini izohlash va asoslash maqsadida quyida har biriga misol keltiriladi. Said Ahmad asarlaridan birida moxov so‘zi kasallik ma‘nosida qo‘llanilgan: “*Ha, Botir aka, hozirodamlar moxovdan hazar qilgandek mendan qochishadi*”. Gazetadanolingan ushbu misolda esa moxov leksemasining boshqa ma‘nosi aks etgan: “*Dod deganda ham gap shuki, qiyin ekin, moxov ekin*”. Yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, moxov qarg‘ish so‘z vazifasini ham bajaradi. Moxov so‘zi qarg‘ish ma‘nosini ifodalaydigano‘rinlar ham mavjud. Masalan: “*Nega jim turibsizlar, uringlar, moxov bo‘lgurni!*” Buo‘rinda “ajratmoq”, “ayirmoq”, “yakka”, “yakkalamoq” semalarini hamo‘z ichiga qamrab olganligini anglash mumkin.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, har bir millat o‘z tilining imkoniyatlari va betakror jozibasini namoyon etishga intiladi. Hozirgi yuksak kommunikatsion texnologiyalar davrida ijtimoiy va lisoniy aloqalar juda yuqori sur‘atda jadallashmoqda. Ushbu munosabatlar natijasida tillarning turli sathlarida ham, til egalarining nutqida ham xilma-xil o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, tibbiy birliklarni tilshunoslik jihatidan bog‘lab o‘rganish, tahlil qilish, zamonaviy tadqiqot usullari bilan tekshirish, bu yo‘nalishda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning ko‘lamini kengaytirish, jumladan, ona tilimizning boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o‘rganish soha taraqqiyotini ta‘minlaydi. Shu qatorda tibbiy lingvistik birliklar hamda teri kasalliklari bilan bog‘liq nomlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, odatda ular teri yuzasida hosil bo‘lish o‘rni, rangi, tusi, belgilariga qarab nomlanadi. Ularning tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiqi so‘zlarning etimologiyasi, qo‘llanilish o‘rni, xususiyatlariga bog‘liq hisoblanadi. Teri kasallik nomlarini tibbiy lingvistik birlik sifatida tahlil qilish tibbiyot va tishunoslik hamkorligi ijtimoiy zarurat ekanligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Абу Али ибн Сино Тиб қонунлари 4-жилд – Тошкент: “Шарқ”, 2020.-848 б
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 600.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. – 680 b.
4. Tibbiyot qomusiy lug‘at. Yolqin To‘raqulov muharrirligida/ Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1994. – 288 b.
5. www.wikipedia.org
6. https://hesperian.org/wpcontent/uploads/pdf/uz_la_wtnd_2015/uz_la_wtnd_2015_15.pdf

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK: O'ZBEK TILIDA "MILLAT" KONSEPSIYASINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Bo'riyeva Nilufar G'ofur qizi,

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti mustaqil izlanuvchisi
nilufar.buriyeva.87@mail.ru*

Annotatsiya. *Lingvomadaniyatshunoslik XX asrning so'nggi o'n yilliklarida madaniyatshunoslik va tilshunoslik chorrahasida vujudga kelgan tilshunoslikning nisbatan yosh bo'limidir. Lingvomadaniy tadqiqotlarning asosini tilga ma'lum bir etnik guruh madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan hodisa sifatida yondashish tashkil etadi. Millatlararo munosabatlar va millatlararo aloqalarni rivojlantirishda xalqlar dunyosining milliy va lingvistik obrazlarini o'rganish katta ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar ma'lum bir shaxsning ham, ijtimoiy guruhning ham, odamlarning yoki umuman insoniyatning xarakterini, ruhiyatini, mentalitetini va ma'naviy madaniyatini tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Muallif maqolada lingvokulturologiyaning nazariy va uslubiy asoslariga tayangan holda o'zbek tilida "millat" konsepsiyasining lingvomadaniy xususiyatlarini yoritib, tadqiqot mavzusi doirasida qiyosiy-tipologik, badiiy tahlil va chog'ishtirma metodlardan unumli foydalan holda misollar keltirgan. Lingvokulturologiya til va madaniyat haqidagi ilmiy-madaniy fikrlash jarayonida yangi tadqiqot paradigmasi hisoblanib, bu tadqiqot g'oyasining doirasini kengaytiribgina qolmay, balki uning imkoniyatlarini chuqurroq va ko'p qirrali tushunish imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *tushuncha, so'z, tilshunoslik, lingvomadaniyat, leksik ma'no, shaxs, millat.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯ: ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОНЦЕПТА «НАЦИЯ» В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *Лингвокультурология — сравнительно молодая отрасль языкознания, возникшая в последние десятилетия XX века на стыке культурологии и лингвистики. В основе лингвокультурологии лежит подход к языку как к явлению, неразрывно связанному с культурой конкретного этноса. Изучение национальных и языковых образов мира народов имеет большое значение в развитии межнациональных отношений и межэтнических контактов. Такие исследования служат основой для понимания характера, психики, менталитета и духовной культуры конкретной личности, социальной группы, народа или человечества в целом. В статье автор, опираясь на теоретические и методологические основы лингвокультурологии, освещает лингвокультурные особенности концепта «нация» в узбекском языке, приводит примеры в рамках темы исследования, эффективно используя методы сравнительно-типологического, художественного анализа и сопоставления. Лингвокультурология рассматривается как новая исследовательская парадигма в процессе научного и культурологического осмысления языка и культуры, которая не только расширяет рамки этой исследовательской идеи, но и позволяет глубоко и многогранно понять её возможности.*

Ключевые слова: *концепт, слово, лингвистика, лингвокультура, лексическое значение, личность, нация.*

LINGUOCULTURAL STUDIES: LINGUOCULTURAL FEATURES OF THE CONCEPT OF «NATION» IN THE UZBEK LANGUAGE

Abstract. *Linguocultural studies is a relatively young branch of linguistics that emerged in the last decades of the 20th century at the intersection of cultural studies and linguistics. The basis of linguocultural studies is the approach to language as a phenomenon inextricably linked with the culture of a particular ethnic group. The study of national and linguistic images of the world of peoples is of great importance in the development of interethnic relations and interethnic contacts. Such studies serve as a basis for understanding the character, psyche, mentality and spiritual culture of a particular individual, social group, people or humanity as a whole. In the article, the author, relying on the theoretical and methodological foundations of linguocultural studies, sheds light on the linguocultural features of the concept of "nation" in the Uzbek language, and gives examples within the framework of the research topic, effectively using comparative-typological, artistic analysis and comparison methods. Linguoculturology is considered a new*

research paradigm in the process of scientific and cultural thinking about language and culture, which not only expands the scope of this research idea, but also allows for a deeper and more multifaceted understanding of its possibilities.

Keywords: *concept, word, linguistics, linguoculture, lexical meaning, personality, nation.*

Kirish. Bugungi kunda lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish uchun tilshunoslik, madaniyatshunoslik va antropologiyani birlashtirgan rivojlanayotgan sohalardan biridir. Zamonaviy tilshunoslikning asosiy tarmog'i sifatida tilning madaniyat, o'ziga xoslik va ijtimoiy amaliyotlar tomonidan qanday shakllanganligi va shakllantirilishiga urg'u beradi. Lingvomadaniyatshunoslik nisbatan yangi fan bo'lib, til o'z birliklarida madaniyatni gavdalantrish, saqlash va uzatish usullarini o'rganishga qaratilgan. XXI asrda tilshunoslar tilga muloqot va bilish vositasi sifatida emas, balki millatning madaniy kodi sifatida qaray boshladilar. So'nggi yillarda tilshunoslik tadqiqotlari antropotsentrik yo'nalishga ega bo'lib, u "tilni o'rganishda inson omili" ga yo'naltirilganlikda ifodalanadi, bu til va insonning ma'naviy faoliyati, til va muloqot o'rtasidagi bog'liqlik kabi vazifalarni o'rganishda namoyon bo'ladi, binobarin til va madaniyat, til ananaviy qadriyatlarga, hayotiy muhim insoniy munosabatlarga bog'liq" [6,180].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Har bir xalq boshqa etnik guruhlarning tillari va madaniyatlari bilan o'xshashlik va farqlarni topib, o'zining "dunyo suratini" yaratadi. Filologiya fanlari doktori, professor V.V.Vorobyovning ilmiy ishlariga murojaat qilib, olim til va madaniyatning munosabati va o'zaro ta'sirini semantik maydon usuli yordamida tasvirlash faktini o'rnatganligini ko'rishimiz mumkin. U o'z tadqiqotlari asosida til madaniyati sohasining ierarxik tizimini – linguakultoremalarni keltirib chiqaradi. Til madaniyati sohasi va til madaniyatini o'rganish usuli "lingvomadaniy kompetensiya" tushunchasini asoslash yoki joriy etishga yordam berdi. V.V.Vorobyov bu tushunchani xalq uchun tarixan shakllangan va har bir shaxsda o'zining umumiy belgilari va o'ziga xos xususiyatlarida mavjud bo'lgan "dunyoning ma'lum bir manzarasi" deb talqin qiladi [3, 73]. Professor V.V.Vorobyov bilan o'xshash qarashlarni biz. pedagogika fanlari nomzodi I.V. Xarchenkovaning "Dunyoning ma'lum bir manzarasi" asarlarida ko'rishimiz mumkin Jamiyatning asosi shaxs ekanligiga asoslanib, olim kompetensiyani ma'lum bir madaniy va lingvistik jamiyatga tegishli bo'lgan ko'plab omillar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish mumkinligini ta'kidlaydi. Shaxsda ro'y beradigan til madaniyati g'oyalari va bilimlarini shakllantirish jarayonlari lingvomadaniy kompetensiyani "tilda mujassamlangan madaniyat haqidagi tizimli tashkil etilgan bilimlar to'plami" deb talqin qiladi [8]. Maqolada qiyosiy-tipologik, badiiy tahlil va chog'ishtirma, metodlardan unumli foydalanildi.

Natija va muhokama. Ma'lumki, qadriyatlar fanlararo hodisa bo'lib, falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika, etika fanlarining o'rganish predmetidir. Tilshunoslik ham qadriyatlarni o'rganish bilan bevosita bog'liq, chunki me'yor va qadriyatlarining ifodalanishi aynan tilda sodir bo'ladi. Tilda qadriyatlarni ifodalash muammosi eng dolzarb masalalardan biridir, bu bizga ma'lum bir davrning qiymat ierarxiyasidagi o'zgarishlarni kuzatish imkonini beradi. Tilshunoslar tushunchalarni va shunga mos ravishda qadriyatlarni lingvokulturologiya va lingvokognitologiya nuqtayi nazaridan o'rganadilar. Boshqacha qilib aytganda, lingvokognitiv yondashuv uchun tushuncha inson ongida sodir bo'ladigan psixik jarayonlarni tavsiflovchi tushuncha bo'lsa, lingvomadaniy yondashuv uchun esa madaniyatning asosiy elementi sifatidagi tushuncha tushuniladi.

Zamonaviy tilshunoslik lingvokulturologiya predmeti va sohasining noaniq chegaralari, uning tarkibiy bo'limlarini qurish mantig'ining noaniqligi, til-madaniyat-shaxsning morfologiyasi va dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlik, tadqiqot usullari va toifalarining o'ziga xosligi - bular va ko'plab boshqa muammolar yechimni talab qiladi. Aynan lingvokulturologiya til, madaniyat va shaxs haqidagi fanlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Ularning har birining o'z tadqiqot yo'nalishi, afzal toifalari va atamalari, usullari va manba bazasi mavjud. Maxsus lingvomadaniy nazariyalarning vujudga kelish jarayoni fanning rivojlanishidan dalolat bermoqda.

Endilikda bu soha biroz xaotik bo'lsa-da, tezlashtirilgan sur'atda harakat qilmoqda. Shubhasiz, bu jarayonda tadqiqotchilarning qiziqishlari, to'plangan material va amaliy ehtiyojlar muhim rol o'ynaydi. Lingvokulturologiya ilmiy fan sifatida nafaqat ma'lum bir xalq madaniyati va tilining o'zaro munosabati va o'zaro ta'sirini, balki ma'naviy va moddiy jihatdan umumjahon madaniyatining tarkibiy xarakterli xususiyatlarini ham o'rganadi. Tilni maxsus maqsadlarda tahlil qilishga lingvomadaniy yondashish, eng avvalo, etnolingvistika va lingvokulturologiyaning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy yo'nalish sifatida aniqlashdan iborat.

Bizga ma'lumki, lingvomadaniyatshunoslikning asosiy kontseptsiyasi ma'lum bir xalq madaniyati bilan bog'liq holda uning qadriyatlarini ifodalovchi tushunchadir [4,130]. Lingvokulturologiyaning nazariy va uslubiy asoslariga asoslanib, shunday xulosa qilish kerakki, lingvokulturologiya madaniyat va tilshunoslik

tushunchalarini o'z ichiga oladi: madaniyat bir davr taraqqiyotining ma'naviy va moddiy darajalarini tavsiflaydi, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilish xususiyatlarini aks ettiradi. jamiyat, xalq, millat va tilshunoslik ularni tilda belgilaydi va mustahkamlaydi.

Tadqiqotimiz doirasida "Millat" konsepsiyasi va uning hosilalari nafaqat etnik guruhni, balki umumiy madaniyat, an'ana va tilga asoslangan jamoani ham bildiradi. Bu o'zbek millatini aniqlashda madaniy o'ziga xoslikning ahamiyatini ko'rsatadi.

Millat konsepsiyasi umumiy tarix, til, madaniyat va an'analar kabi unsurlarni o'z ichiga oladi. O'zbek xalqi birdamlik, millatga daxldorlik tuyg'ularini shakllantiradigan o'z tarixi bilan faxrlanadi.

Masalan:

Alisher Navoiy bu holatni ilk marta o'zining yigitlik yillarida yozgan mashhur ruboiysida yuksak mahorat bilan badiiy tasvirlaganki, u hali hanuz turkiy tilli xalqlar og'zida zarbulmasal bo'lib kelmoqda. Navoiy ruboiyda oddiygina xas-hashak, tikanlardan yasalgan o'z oshyoni podshohlarning oltin qafasidan ortiq ko'rgan bulbul timsolini g'oyat yorqin ranglar orqali tasvirlagan edi:

G'uribatda g'arib shodmon bo'lmas emish,

El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.

Oltun qafas ichra gar qizil gul bitsa,

Bulbulg'a tikandek *oshiyon* bo'lmas emish [1].

(El-millat,oshiyon-vatan)

Shoir o'z asarlarida, xususan, dostonlarida vatanparvarlikni insonparvarlik, odillik, ma'rifatparvarlik, milliy mustaqillik g'oya va tushunchalari bilan bog'lab talqin etgan.

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidan shunday baytni o'qiyimiz:

Iyolu Vatan uzra to joni bor,

Kishi harb etar toki imkoni bor [2].

Ya'ni "har bir inson, u haqiqiy inson bo'lsa, to tirik ekan, o'z Vatani va oilasi (iyolu)ni imkoni boricha yovdan himoya etishga harakat qiladi". Ma'lumki, Alisher Navoiy Vatan va oilani bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalar, deb qaragan. Demak, kishi uchun o'z oilasi – Vatanidir.

Har bir lingvomadaniyatda ma'lum bir madaniyatning qadriyat ustuvorligini ochib beruvchi tushunchalarni aniqlash mumkin va ular o'z navbatida tizimlarga - lingvomadaniy dominantlar qadriyatlarda mustahkamlangan xulq-atvor normalari so'zlar, iboralar to'plami, pretsedent matnlarga birlashtiriladi.

O'zbek tilidagi "millat" tushunchasi bilan bog'liq holda millat, oila, xalq, xalq atamalarining o'ziga xos kontekstlar bilan har tomonlama lingvomadaniy tahlili:

1. Millat.

– Xalqimiz tarixi uzoq va boy.

Millat atamasi o'zbek xalqining umumiy etnik va madaniy o'ziga xosligini ta'kidlaydi. Tarixning boyligiga ishora qilib, bu ibora jamiyatni bir-biriga bog'laydigan umumiy xotira va merosni ta'kidlaydi. U tarixiy davomiylik va g'ururga berilgan madaniy qadriyatni aks ettiradi, tegishlilik va birdamlik tuyg'usini kuchaytiradi.

2. Oila.

"Oila – millat poydevori".

Oila so'zi oila tuzilmalarining jamiyatdagi asosiy rolini ko'rsatadi. Bu ibora milliy qadriyatlar, urf-odatlar, jamiyatda hamjihatlikni mustahkamlashda mustahkam oilalar muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Bu oilaviy rishtalar millatning saqlanib qolishi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega, degan madaniy e'tiqodni aks ettiradi va shu bilan shaxsiy o'zlikni milliy o'ziga xoslik bilan bog'laydi.

3. Bashar.

"Biz bir-birimizga yordam berishimiz kerak."

Bashar (xalq) jamiyatda birdamlik va o'zaro yordamga urg'u berib, kengroq gumanitar o'lchovni aks ettiradi. Bu ibora odamlarning guruh farovonligiga hissa qo'shishi haqidagi madaniy kutishni ta'kidlaydi. U jamoaviy mas'uliyatni taklif qiladi, xalqning kuchi, ayniqsa, qiyin paytlarda uning o'zaro bog'liqligi va hamkorligida ekanligi haqidagi g'oyani mustahkamlaydi.

4. Odamlar.

"Xalqimizning madaniyati kamdan-kam uchraydi".

"Xalq" atamasi jamoaviy o'ziga xoslik va madaniy o'ziga xoslik hissini anglatadi. Bu ibora ko'pincha o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan turli urf-odat va an'analarni nishonlash uchun ishlatiladi. Bu xalq merosining o'ziga xosligidan madaniy g'urur tuyg'usini va bu elementlarni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish, madaniy o'ziga xoslikni milliy o'ziga xoslik bilan bog'lash muhimligini aks ettiradi.

Xulosa. Bu atamalar O'zbek tilning madaniy qadriyatlar va ijtimoiy amaliyotlarni o'z ichiga olganligini ko'rsatadi. Millat konsepsiyasi shaxsni tarixiy va etnik o'ziga xoslik bilan bog'laydi, oila esa

jamiyatning qurilish bloki sifatidagi oilaning ahamiyatini ifodalaydi. Bashar jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi va birdamligini bildirsa, odamlar xalq madaniyatining debochasi ma’nosini bildiradi. Bu atamalar birgalikda o‘zbek madaniyatidagi milliy o‘zlikni anglash murakkabligini aks ettiruvchi boy ma’no uyg‘unligini yaratadi. Shunday qilib, lingvokulturologiya tilshunoslikning bir tarmog‘i sifatida moddiy madaniyat va tilning maxsus maqsadlardagi o‘zaro ta’irini va uning kasbiy muloqotda ishlashini o‘rganishda keng imkoniyatlar ochadi.

ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. *Mukammal asarlar to‘plami. 11-jild. T.:«Fan», 1993.*
2. Alisher Navoiyning *Saddi Iskandariy dostoni konkordansi (Tuzuvchilar: A.Quronbekov, A.Mannonov, M.Imomnazarov, D.Ahmedova, A.Nishonboyeva) T.: TDSHI, 2016. – 832b.*
3. Воробьев В.В. *Культурологическая парадигма русского языка: Теория описания языка и культуры во взаимодействия. – М.: Ин-т русск. яз. им. А.С. Пушкина, 1994. С. 73-81.*
4. Кобякова Т.И., Сунцова Н.Л. *Концепт как идентификатор культуры // Язык и право, как идентификационные коды культуры. Материалы международной научной конференции. 2017. С. 130-134.*
5. Маслова В.А. *Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.*
6. Фаткуллина Ф.Г. *Системность и антропоцентричность глагольной лексики (поле деструктивности): монография. –Уфа: РИЦ БашГУ, 2021. – 180 с.*
7. Фаткуллина Ф.Г., Никагосян А.А. *Понятие культурного кода в языкознании // Материалы V Международной научно-практической конференции «Проблемы современной филологии и аспекты преподавания гуманитарных дисциплин в техническом вузе». – Уфа: УГНТУ, 2020.С. 159-163.*
8. Харченкова И.В. *Концепция формирования лингвокультурологической компетенции студентов языковых факультетов на материале креолизованных текстов при обучении немецкому языку. 2013. URL: <http://www.elibrary.ru> (дата обращения:24.10.2024).*

INGLIZCHA KORPUSLARDA «VAQT» LINGVOMADANIY BIRLIGINING KONSEPTUAL TADQIQI

Ergashova Kamola Ikromovna,

Buxoro davlat universiteti Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrası

Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjimashunoslik mutaxassisligi magistranti

k.i.ergashova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada til va madaniyat, ularning o‘zaro bog‘liqligi, lingvokulturologiya va uning nazariy asoslari haqida ma’lumotlar beriladi. Shuningdek, mavjud inglizcha korpuslar, ularda vaqt lingvomadaniy birligining konseptual tadqiqi, ingliz madaniyatida vaqt tushunchasi, uning madaniyatlararo o‘xshash va farqli jihatlari haqida so‘z yuritiladi va vaqt lingvomadaniy birligi freym tahlil qilinadi va bir-biri bilan taqqoslanadi.

Kalit so‘zlar: til, madaniyat, korpus lingvistikasi, lingvokulturologiya, vaqt konsepti, frazeologizmlar, punktuallik, pul domeni, morfema, lingvoantropologik yo‘nalish.

THE CONCEPTUAL STUDY OF THE «TIME» LINGUOCULTURAL UNIT IN ENGLISH CORPORA

Abstract. This article provides information about language and culture, their interrelationship, linguoculturology and its theoretical foundations. Also, the existing English corpora, in which a conceptual study of the linguistic-cultural unit of time, the concept of time in English culture, its similarities and differences between cultures are discussed, and the frame of the linguistic-cultural unit of time is analyzed and compared with each other.

Keywords: language, culture, corpus linguistics, linguoculturology, concept of time, phraseologisms, punctuality, money domain, morpheme, linguoanthropological direction.

КОНЦЕПТУАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЙ ЕДИНИЦЫ «ВРЕМЯ» В АНГЛИЙСКИХ КОРПУСАХ

Аннотация. В данной статье представлены сведения о языке и культуре, их взаимосвязи, лингвокультурологии и её теоретических основах. Также рассмотрены существующие корпуса английского языка, в которых обсуждаются концептуальное исследование лингвокультурной единицы времени, понятия времени в английской культуре, были проанализированы и сравнены друг с другом его сходства и различия между культурами, а также рамки лингвокультурной единицы времени.

Ключевые слова: язык, культура, корпусная лингвистика, лингвокультурология, концепция времени, фразеологизмы, пунктуальность, денежная сфера, морфема, лингвоантропологическое направление.

Kirish. Til va madaniyat tushunchasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Ularni bir-biridan ajratish mumkin emaski, ular har ikkisi bir-birida namoyon bo‘ladi. Bu muammo bir qancha olimlar tomonidan o‘rganilyapti va u turlicha talqin qilinib kelinmoqda. “Til va madaniyat” muammosining o‘rganilishida bir qancha yondashuvlarni belgilash mumkin: birinchi yondashuv faylasuf olimlar (S.A.Atanovskiy, G.A.Brutyan, E.S.Markaryan)lar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda madaniyatning tilga bir tomonlama ta’siridan borliqning o‘zgarishi natijasida milliy-madaniy tipiklashtirish va tilda o‘zgarish yuz beradi, degan g‘oya yotadi. Ikkinchi yondashuvda esa bu ta’sirning aks tomoni, ya’ni hozirgi kungacha ochiq qolib kelayotgan va munozarali masala – tilning madaniyatga ta’siri masalasini o‘rganish maqsad qilinadi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish bu yondashuvning asosiy g‘oyasi sanaladi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish (V.Gumboldt, A.A.Potebnya) asosida Sepir-Uorfning lingvistik aloqadorlik gipotezasi, ya’ni har bir xalq borliqini o‘z ona tilisi orqali ko‘radi, his etadi, his etganini belgilaydi, degan g‘oya yotadi. Bu g‘oya keyinchalik, I.L.Vaysgerberning tilni “O‘tkinchi dunyo”, ya’ni “borliqni anglash”, muayyan “mavjudlik va tafakkur” sifatida qoraluvchi g‘oyalarida ilgari surilgan. Uning bu gipotezasi ko‘pchilik olimlar tomonidan inkor etilgan bo‘lsa-da, biroq ular boshqa usullar bilan tushuntirilishi murakkab bo‘lgan hodisalarni anglashga yordam berdi. Xususan, N.I.Tolstning etnolingvistik maktabi vakillarining ishlari, E.Barminskiy

va izdoshlarining lingvoantropologik yo'nalishdagi ishlari buning isbotidir [1,59]. Uchinchi yondashuv to'g'ridan-to'g'ri til va madaniyatning o'zaro ta'siri va aloqadorligi g'oyalarga asoslanadi. Til milliy mentalitetning spetsifik qirralarini o'zida namoyon etadi. Boshqa tomondan "madaniyat tilda" joylashgan, ya'ni u matnda to'laligicha o'z ifodasini topadi. "Lingvokulturologiya" atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N.Teliya va V.V.Vorobyov, V.A.Maslova va boshqalarning ishlarida ko'rindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboldt ga borib taqalishini ta'kidlaydilar.[4, 77]

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi so'zlar, frazeologik birliklar, so'z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko'rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o'sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan o'zining mazmun va ifoda planiga ega bo'lishi bilan farq qiladi lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko'rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. Uningcha, "lingvokulturema" tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, zero "til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch va asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko'rinishida, ya'ni so'zlar vositasida ifoda etadi"[2, 32].

Agar madaniyatshunoslik insonning tabiat, jamiyat, san'at, tarix va boshqa ijtimoiy va madaniy borliq sohalarida o'z-o'zini anglash xususiyatini o'rgatsa, tilshunoslik tilda dunyo lisoniy manzarasining mental modellari sifatida aks etuvchi dunyoqarashni o'rganadi. Lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot predmeti esa doimiy o'zaro ta'sirlashish holatida bo'lgan ham til, ham madaniyat hisoblanadi.

Ma'lumki, madaniyat tildagi frazeologizmlarda so'zlardagidan ko'ra yaqqolroq namoyon bo'ladi. Misol sifatida, ingliz va o'zbek tillaridagi hudud va kishi nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklarni keltirish mumkin. Masalan, ingliz tilida foydasiz ishga nisbatan Carry coals to Newcastle (Nyukasl – Angliya ko'mir sanoati markazi), ayyorlikni ifodalashda Cokel Yorkshire over (Yorkshir aholisi ayyorligi bilan Angliyada mashhur) frazeologik birliklari hudud nomi bilan bog'liq bo'lsa, juda ilgari paytda bo'lgan voqeaga nisbatan ishlatiladigan When queen Anne was alive, ilojisiz tanlovga nisbatan Hobson's choise kabi iboralar kishi nomlari bilan bog'liq bo'lib ingliz madaniyatini o'zida aks ettiradi.

O'zbek tilidagi frazeologizmlarda ham shu kabi holat kuzatiladi. Misol tariqasida.

Bog'dodda hammayoq tinch, so'rab-so'rab Makkani topsa bo'ladi, Xo'ja ko'rsincha, Alixo'jaXo'jaali, Alpomishdek yigit, Barchinoydek go'zal kabi frazeologik birliklar o'zida o'zbek madaniyatini aks ettirishini ko'rsatish mumkin. Demak, har bir millat o'z tili va madaniyatiga ega bo'lib, madaniyat tilda turli til birliklari (leksemalar, frazeologik birliklar)da o'z aksini topishi til va madaniyatning bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini tasdiqlaydi [3, 36-37].

Natijalar va munozara. Vaqt jamiyat va madaniyatning muhim elementidir. Turli madaniyatlarni va ularning vaqtga munosabatini tahlil qilar ekansiz ularning vaqtga bo'lgan munosabati turlicha ekanligini ko'rish mumkin. Mashhur psixolog Robert Levine AQSh, Germaniya yoki Yaponiya kabi iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar tez sur'atda ekanligini aniqladi. Chunki ular vaqtni juda qadrlashadi, chunki " vaqt - puldir". Boshqa tomondan, iqtisodi sust rivojlangan mamlakatlarda esa munosabat sekinroqdir . Yaqin Sharq, Lotin Amerikasi yoki Sharqiy Yevropa kabi madaniyatlar vaqtga nisbatan erkinroq munosabatni tarbiyalaydi. Ular ko'proq oilaviy va ijtimoiy yo'naltirilgan. Biroq, ba'zida bu yo'nalishlar unchalik aniq bo'lmasligi mumkin. Misol uchun, yaponiyaliklar vaqt va aniqlikni qadrlashiga qaramay, ular ijtimoiy munosabatlarni muhim deb hisoblaydigan tezkor hayot tarafdorlari ekanligi ma'lumdir. Shundan bilish mumkinki, odamlarning vaqtga munosabati ularning madaniy an'analari, e'tiqodlari va ijtimoiy-iqtisodiy holatiga bog'liqdir. Shuni ta'kidlash joizki, G'arb va Sharq madaniyatlarining vaqtga munosabati har xil. Xuddi shu narsa ularning vaqtlarini qanday kuzatishlariga ham tegishli. G'arb madaniyatlari (shu jumladan, Sharqiy Osiyoning ba'zi qismlari, masalan, Yaponiya) o'z vaqtlarini soat bilan o'lchaydilar. Ularning tushunchasiga ko'ra, har bir faoliyatning aniq boshlanishi va oxiri bo'lishi kerak. Boshqa tomondan, Sharq madaniyatlarida vaqtni o'lchash voqea yoki shaxs bilan bog'liq. Ya'ni ular vaqt o'zlarining hukmlariga xalaqit berishiga yo'l qo'ymaydilar. Agar ishtirokchilarning oila bilan bog'liq majburiyatlari bo'lsa, ular mamnuniyat bilan uchrashuvni uzaytiradilar yoki keyingi kunga rejalashtiradilar [5, 2].

Har bir faoliyat yoki hodisa tabiiy boshlanishi va oxiriga ega bo'lishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, agar turli madaniyatlarga mansub odamlar birgalikda rasmiy uchrashuv o'tkazish uchun kelganlarida, vaqt haqidagi turli tushunchalarga ega bo'lishadi. Vaqtni soat bo'yicha o'lchaydigan madaniyatlar barcha ishtirokchilarning o'z vaqtida bo'lishini kutishadi, voqea vaqti madaniyatlari esa unchalik qattiq bo'lmaydi. Shu sababli, vaqtni har xil tushunish madaniyatlar o'rtasidagi tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu

sababdan turli manbalardan vaqt konseptini o'rganish, tadqiqotlar o'tkazish insonlar bir – birlarini tushunishi uchun xizmat qiladi. Shunday manbalardan biri bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan korpuslardir.

Ingliz madaniyatida vaqtning umumiy lingvokulturologik xususiyatlarini tahlil qilishdan oldi, uning ifodalanishi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, shuni ta'kidlash kerakki, Britaniya ingliz tilida vaqtning ifodalashning o'ziga xos usuli bor. Ba'zi iboralar Amerika ingliz tilidagilarga o'xshash bo'lsa-da, boshqalari biroz farqlidir. Ushbu tushunchalarni tushunish nafaqat ingliz tilida so'zlashuvchilar bilan gaplashganda o'zingizni qulayroq his qilishingizga yordam beradi va umumiy ravonlikni oshiradi balki bu ajabtovur xalqning vaqtga nisbatan munosabatini ham ko'rsatib beradi. Quyidagi jadvalda siz ingliz tilida vaqtning ifodalash vositalari va ular Britaniya milliy korpusida necha marta qo'llanilganini ko'rishingiz mumkin:

N	Time expressions	
1	Time	151012
2	Hour	10756
3	Minute	8520
4	Second	40249
5	Today	25552
6	Yesterday	18779
7	Tomorrow	8819
8	Moment	20654
9	Month	14512
10	Year	72143
11	Week	31230
12	Day	59298
13	Evening	13042
14	Night	34119
15	Morning	19846
16	Afternoon	7956
17	Dawn	2316
18	Dusk	568
19	Fortnight	1408


Britaniya madaniyati punktuallik va vaqtning boshqarishga katta e'tibor beradi. Bu odamlarning vaqt haqida gapirish uslubida namoyon bo'ladi. Britaniya xalqining vaqtga nisbatan bo'lgan munosabatini yaxshiroq tushunishga yordam beradigan tushunchalarning birinchisi xushmuomalalik va bilvositalikdir. Britaniyaliklar o'zlarining xushmuomalaligi va bilvositaligi bilan mashhur. Bu ko'pincha ular vaqt haqida gapirishganida ma'lum bo'ladi. Misol uchun, "Men u yerda soat 5:00 da bo'laman (I'll be there at 5:00)" deyish o'rniga, Britaniyalik "Men u yerda taxminan beshda bo'laman (I'll be there around five) deb aytishi mumkin. Bu bilvositalik vaqt ifodalarini yanada moslashuvchan qilib ko'rsatish uchun qo'llaniladi. [6, 3]

Britaniya madaniyatida punktuallik yuqori baholanadi. Kech qolish ko'pincha qo'pol hisoblanadi, shuning uchun odamlar vaqt haqida juda aniq bo'lishadi. Misol uchun, agar kimdir "Keling, soat 2:00 da uchrashamiz" desa, ular odatda 2:15 yoki 1:45 emas, balki aynan 2:00 ni bildiradi. Shu sababdan ham, Britaniya korpusida tadqiqot qilar ekansiz, on time (715 marta), in time (3528 marta), convenient time (44 marta) so'z qurilmalari bir necha bor qo'llanilganiga guvoh bo'lasiz. Britaniya korpusini tadqiq qilar ekansiz, bu xalq ko'pincha ish va hayot muvozanati haqida gapirish uchun vaqt iboralaridan foydalanishlariga amin bo'lasiz. Misol uchun, "to'qqizdan beshgacha (nine-to-five)" atamasi odatda standart ish kuniga ishora qilish uchun ishlatiladi va bu korpusda 19 marta qo'llanilgan va xuddi shunday, "after hours" odatdagi ish jadvalidan tashqari vaqtning anglatuvchi ibora 69 marta qo'llanilgan.

Britaniya milliy korpusini tadqiq qilar ekansiz, "Time is money" iborasining 22 marta, "time is valuable" 3 marta qo'llanilganiga guvoh bo'lamiz. Bu shuni anglatadiki, ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda vaqt eng qimmat resursdir. Buning isbotini nafaqat korpusda keng qo'llanilgan shu ma'noli iboralardan, balki bu jamiyatda yashovchi shifokorlar, stomatologlar yoki advokatlar bilan muomala qilishga majbur bo'lgan har bir kishi payqashi u qadar qiyin emas. Haqiqatda ham bu jamiyat a'zolari uchun vaqt puldir. Foydaga yo'naltirilgan jamiyatda vaqt qimmatli, hatto kam bo'lgan tovardir. Bahordagi tog' daryosidek tez oquvchi, uning o'tishidan manfaat ko'rmoqchi bo'lsangiz, u bilan tez harakat qilishingiz kerakligini anglatib quyadi. Ayniqsa Amerikaliklar harakat odamlaridir. Ular bekorchilikka chiday olmaydilar. Ular uchun o'tmish tugadi, ammo hozirgi vaqtning siz olib qo'yishingiz, jo'natishingiz va

qadoqlashingiz va uni yaqin kelajakda siz uchun ishlashga majbur qilishingiz mumkin. Buni quyidagi rasmdan aniqroq ko'rishingiz mumkin.

American flow of time.



Bu serjilo mamlakatning vaqt konseptiga nisbatan lingvokulturalogik xususiyati shundaki, siz pul ishlashingiz kerak, ya'ni vaqtni pulga aylantirishingiz kerak, aks holda siz hech kim emassiz. Ularning madaniy qarashlariga asosan, siz 40 yillik daromadga ega bo'lsangiz va siz 4 million dollar ishlab olishni istasangiz, bu yiliga 100 000 dollar degani. Agar siz bunga 250 ish kunida erisha olsangiz, bu kuniga 400 dollar yoki soatiga 50 dollarga tushadi. Ushbu yo'nalish bilan amerikaliklar ularning vaqti soatiga 50 dollar turadi, deb aytishlari mumkin. Shu g'oya tamoyillar asosida vaqtni behuda sarflash (waste time), vaqni sarflash (spend time), vaqtni tejash (save time), vaqti kam bo'lish (short of time) so'z qurilmalari juda ko'p qo'llanilishini ko'rish mumkin.

Vaqtni hisoblashni faqat amerikaliklar muqaddaslashmaydi, bu tushunchalar Britaniya, umuman Anglo-Sakson dunyosi, Niderlandiya, Avstriya va Skandinaviya bilan bir qatorda vaqt va harakat haqida chiziqli tasavvurga ega ekanliklarini ko'rish mumkin. Ular, xuddi amerikaliklar kabi, qarorlar qabul qilinmasdan yoki harakatlar amalga oshirilmasdan vaqt o'tayotganidan, bo'sh ketayotganidan shubhalanadilar. Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar ham monoxromdir, ya'ni ular bir vaqtning o'zida faqat bitta ishni bajarishni afzal ko'radilar, unga diqqatni jamlash va uni belgilangan jadval doirasida qilishni afzal ko'radilar. Ular shu yo'l bilan ko'proq va samaraliroq ishlarni bajarishadi deb o'ylashadi. Bundan tashqari, protestantlik odob-axloqiga singib ketgan holda, ular ish vaqtini muvaffaqiyatga tenglashtiradilar: qancha ko'p ishlasangiz (qancha ko'p soat) shunchalik muvaffaqiyatli bo'lasiz va ko'proq pul topasiz degan tasavvurdalar.

Cheksiz imkoniyatlarni tadqiqotchilar uchun ta'minlab beruvchi korpusdagi ma'lumotlarni va vaqt so'zi bilan qo'llanilgan misollarni o'rganar ekansiz unga juda tez tugab qoladigan resurs sifatida qaralishini va buning isbotini yana bir qancha shu jamiyat yetishtirgan olimlarning vaqt haqidagi qarashlaridan bilib olasiz. Masalan, "Vaqt sekin harakatlanadi, ammo tez o'tadi (Time moves slowly but passes quickly)" deya xitob qilgan Alice Walker va "Vaqtdan unumli foydalanayotganlar birinchi bo'lib uning qisqaligidan shikoyat qiladilar (Those who make the worst use of their time are the first to complain of its brevity)" degan tushunchani ilgari surgan Jean de La Bruyère vaqtning juda tez o'tganini inson har doim ham anglamasligini aytib o'tadi. Marty Rubin esa "Kunni egalla, keyin qo'yib yubor" (Seize the day, then let it go) deganida u nafaqat vaqtdan unumli foydalanishga balki uni inson nazorati ostida ekanligiga ishora qiladi. "Vaqt - shiddatli shamol, har bir soatda u yangi narsalarni olib keladi (Time is a brisk wind, for each hour it brings something new)" deya xitob qilgan Paracelsus vaqt lingvomadaniy birliga sermahsul resurs sifatida qarab uni har on hayotimizga yangi yangi imkoniyatlar va moddiy ne'matlar tuhfa etishiga ishora qiladi. [7, 13]

Bir qator olimlar va ingliz jamiyatining bir qator muvaffaqiyatli insonlari masalan, Pope John Paul II (The future starts today, not tomorrow -Kelajak bugundan boshlanadi, ertaga emas), Charles Caleb Colton (The present time has one advantage over every other – it is our own-" Bugunning bir-biridan ustunligi bor - bu o'zimizniki), Khalil Gibran (Yesterday is but today's memory, and tomorrow is today's dream-Kechagi kun faqat bugungi xotira, ertangi kun esa bugungi orzu),

Bill Keane (Yesterday's the past, tomorrow's the future, but today is a gift. That's why it's called the present-Kecha o'tmish, ertaga kelajak, lekin bugun sovg'adir. Shuning uchun u bugun deb ataladi) kabilar vaqtga nisbatan insonlarni qarashlarini o'zgartirishni va ular hayotlarida hozirgi ya'ni yashab turgan vaqtlarini o'tmish va kelajakka bo'lgan salbiy hissiyotlari bilan o'tkazmasliklarini tavsiya qiladilar. Bu esa ingliz lingvomadaniyatida vaqt konseptiga nisbatan qarashlarni bir muncha o'zgartiradi. Vaqt insonlarning hissiy olamiga umrining salmoqli o'tishi uchun xizmat qiluvchi vosita sifatida ko'rinadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mavjud inglizcha korpuslardan olingan ma'lumotlarga asoslangan tahlillardan ko'rinib turibdiki, ingliz madaniyatida vaqt moddiylashib uning pul domeniga qiyoslangan va bu jamiyatda vaqt resurs sifatida qaraladi. Unga nafaqat moddiy boylik balki, ma'naviy boylik sifatida ham qaralib, insonning hissiy olamining muhim elementlariga ta'sir etuvchi vosita sifatida

qaraladi. Shuningdek, unga har bir jamiyatdagi turli qarashlar millatlarning urf odatlari, rivojlanish darajalari hatto, geografik joylashuvlariga ham bog'liq ekanligini xulosa qildik.

ADABIYOTLAR:

1. Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М., 1987.
2. Воробьев В.В. Лингвокультурология. Теория и методы. – М., 1997.
3. Shayxislamov, N. (2020). Nutqning paralingvistik va ekstralingvistik vositalari. Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар, 36-37
4. V.Gumboldtning til va shaxs haqidagi fikrlari to'g'risida qarang: Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A. Tanlangan asarlar.2- jildlik.– Toshkent: Akademiashr, 2012.4.
5. <https://clockify.me/blog/managing-time/time-perception>
6. <https://talkpal.ai/culture/learning-time-expressions-through-british-culture>
7. <https://www.southernliving.com/culture/quotes-about-time-passing>.

LEXICOGRAPHICAL FEATURES OF CLASSIFICATIONAL REPRESENTATION OF ENGLISH SPOKEN WORDS IN THE “ENGLISH-RUSSIAN DICTIONARY OF AMERICAN SLANG”**Faleeva Anastasiya Vadimovna,**

Senior teacher at Samarkand State Institute of Foreign Languages, PhD

faleyevanastya97@mail.ru, info@samdchti.uz

Abstract. The article analyzes the lexicographic experience of studying colloquial words and expressions using the material of “English-Russian Dictionary of American Slang”. Particular attention is paid to the lexical-semantic and stylistic classification of colloquial marks presented in the dictionary source, highlighting various shades in colloquial meanings. The orthographic and derivational features of the formation of English colloquialism are reflected with the inclusion of information on word formation using various models. When classifying etymological features, macro and micro groups are distinguished with differentiation of territorial distribution and the emergence of colloquialisms and slangisms in the territory of English-speaking countries and beyond. The socio-corporate and socio-professional divisions of colloquial words and expressions are noted with the study of age characteristics and interests of subcultures.

Keywords: slang, colloquial words, teenage slang, children's language, student slang.

INGLIZ TILIDAGI SO‘ZLARNING “ENGLISH-RUSSIAN DICTIONARY OF AMERICAN SLANG” PERSPEKTIVASIDAGI TASNIF KO‘RSATISHNING LEKSIKOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada “English-Russian Dictionary of American Slang” materialidan foydalangan holda so‘zlashuv so‘zlari va iboralarni o‘rganishning leksikografik tajribasi tahlil qilinadi. Lug‘at manbasida keltirilgan so‘zlashuv belgilarining leksik-semantik va stilistik tasnifiga, so‘zlashuv ma‘nolarida turli ohanglarni ajratib ko‘rsatishga alohida e‘tibor beriladi. Ingliz so‘zlashuv tilining shakllanishining orfografik va derivativ xususiyatlari turli modellar yordamida so‘z yasalishi haqidagi ma‘lumotlarni kiritish bilan o‘z aksini topadi. Etimologik xususiyatlarni tasniflashda makro va mikro guruhlar hududiy taqsimotning farqlanishi va ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar hududida va undan tashqarida so‘zlashuv va slangizmlarning paydo bo‘lishi bilan ajralib turadi. Submadaniyatlarning yosh xususiyatlarini va qiziqishlarini o‘rganish bilan so‘zlashuv so‘zlari va iboralarning ijtimoiy-korporativ va ijtimoiy-professional bo‘linmalari qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: jargon, so‘zlashuv so‘zlari, o‘smirlar tili, bolalar tili, talaba tili.

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КЛАССИФИКАЦИОННОГО ПРЕДСТАВЛЕНИЯ АНГЛИЙСКИХ РАЗГОВОРНЫХ СЛОВ В РАКУРСЕ “ENGLISH-RUSSIAN DICTIONARY OF AMERICAN SLANG”

Аннотация. В статье анализируется лексикографический опыт изучения разговорных слов и выражений на материале “English-Russian Dictionary of American Slang”. Особое внимание уделяется лексико-семантической и стилистической классификации разговорных помет, представленных в словарном источнике с выделением различных оттенков в colloquialных значениях. Отражаются орфографические и деривационные особенности формирования английской colloquialистики с включением сведений по образованию слова путём различных моделей. При классификации этимологических особенностей выделяются макро и микро-группы с дифференциацией территориального распространения и возникновения colloquialизмов и сленгизмов на территории англоговорящих стран и за её пределами. Отмечается социо-корпоративное и социо-профессиональное деления разговорных слов и выражений с изучением возрастных характеристик, интересов субкультур.

Ключевые слова: сленг, разговорные слова, подростковый жаргон, детский язык, студенческий сленг.

Introduction. Different types of lexicographical sources react in not similar way to the influx of colloquial words and expressions in modern English. Depending on the goals of editorial dictionaries, one

can single out the problematic included in the lexicographical source: a) the reflection of the place of colloquial stable units in twenty dictionary definitions [1, 25]; b) the inclusion of colloquialisms with a linguacultural component when explaining individual elements of a dish, stereotypes, etc. [4, 46]; c) changes in the dynamic replenishment of individual thematic groups with slangisms [3, 70]; d) the role of colloquial words and expressions in the process of studying English in the educational system of countries, which is not a sign of English-speaking changes [6, 39]; identifying the universality and interdependence of language and nations in the process of replenishing dictionaries of substandard words [5, 48]; defining various types of colloquialisms, slangisms, kentisms, vulgarisms, dialectisms in different time periods depending on a number of reasons of an anthropocentric nature [2, 115]; studying certain periods of development of the colloquial system [21, 19].

The analysis of colloquialisms and slangisms varies depending on the imposition of a number of factors of a linguistic and extralinguistic nature, the influence at the levels of the linguistic system. As a result, there is a need to study such problems as: transformational features of a sentence in spoken English [15, 135], emotional and expressive resources of the English language [13, 73], reflection of the hidden meaning of colloquialisms in individual thematic groups [14, 198], implicit indicator in conversational semantics [12, 101], derivational potential of compressive, reduplicated [16, 540] and other methods of word formation in online and printed dictionaries [25, 99], neological boom in the future of spoken English [17, 70], neologoprocesses in the English-speaking space [18, 90], disclosure of structural features of conversational models [26, 59], theoretical interpretation of the experience of studying English conversational terminology [28, 48], theoretical study of supra-levels and levels [29, 30].

Metodologiya. Maqolada nutq odobiga oid ingliz va o'zbek tilidagi adabiyotlar, ilmiy maqolalar va tahliliy manbalardan foydalanildi. Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tilida nutq odobi va muloyimlikning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatish va ularning ijtimoiy ahamiyatini aniqlashdir. Bu uslubiy yondashuv orqali tilshunoslikda mavjud fikrlarni solishtirish va nutq odobining muloqotdagi o'rnini yoritish maqsad qilingan.

Asosiy qism. Ingliz va o'zbek tillarida nutq odobi, ya'ni politeness, juda katta ahamiyatga ega. Har ikki til jamiyatida nutq odobi muloqotda o'zaro hurmatni ta'minlash, hamkorlikni mustahkamlash, va konfliktisiz aloqa o'rnatish vositasi sifatida qaraladi. Masalan, ingliz tilida "Please" va "Thank you" kabi iboralar har doim qo'llaniladi, bu esa suhbatdoshni hurmat qilishning oddiy, ammo muhim belgisidir. O'zbek tilida esa bu mazmun "Iltilmos" va "Rahmat" so'zlari orqali ifodalanadi.

Robin Lakoff - nutq odobining qoida va me'yorlari haqida o'z tadqiqotlarida shunday deydi: "Politeness is the oil that lubricates the wheels of social interaction." Ya'ni u jamiyatda muloqotning samaradorligini oshirish uchun nutq odobi aloqalarni qulay va samimiy qilishini ta'kidlaydi. Bu tamoyil

o'zbek tilida ham mavjud, masalan, o'zbek jamiyatida "hurmat bilan gaplashish" deb ataladigan tushuncha Lakoffning bu fikriga o'xshash. Nutq odobi va muloyimlik insonlar orasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni kamaytirishning muhim omillaridan biridir. Lakoffning fikriga ko'ra, odob bilan gaplashish orqali insonlar o'rtasidagi ziddiyatlarni kamaytirish va ularning ijtimoiy aloqalarini yumshatishi mumkin. O'zbek jamiyatida ham bunday fikrlar keng tarqalgan. Masalan, o'zbeklar orasida "gapi qovushdi" yoki "tinch gaplashish" kabi odatlar ko'p hollarda nizolarning oldini olishga yordam beradi. Bunday yondashuv Lakoffning nazariyasiga to'g'ri keladi.

O'zbek tilidagi muloyimlik ko'p hollarda so'z tanlash bilan bog'liq bo'lib, kishi boshqa odamlarni xafa qilmaslikka harakat qiladi. Shuningdek, gapirish ohangi va ovoz balandligi ham muloqotda muloyimlikni ifoda etuvchi vositalardan biri hisoblanadi. Bunda Lakoffning odobning aloqalarni qulay qilish haqidagi fikri yana bir bor o'z tasdig'ini topadi. Agar shaxs muloqotda hurmatli va odobli bo'lsa, bu nizo kelib chiqishini kamaytiradi va suhbatni yanada ijobiy tomonga yo'naltiradi.

Lakoffning "nutq odobi muloqotning samaradorligini oshiradi" degan fikri o'zbek jamiyatida ham keng qo'llaniladi. O'zbeklar orasidagi ijtimoiy munosabatlar ko'p hollarda muloyimlikka asoslangan bo'lib, odobli gaplashish ijtimoiy aloqalarning muvaffaqiyatini belgilab beradi. Masalan, jamiyatda muhim shaxslar, rahbarlar, yoki kattalar bilan gaplashishda kishilar doimo ehtirom va muloyimlik bilan yondashadilar.

Bu holat o'zbek jamiyatida ijtimoiy muvaffaqiyatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Agar shaxs odobli gaplashishni bilsa, u boshqa insonlar bilan osonroq til topishadi va muloqotda samarali natijalarga erishadi. Shu sababli, o'zbek tilida odob va hurmat jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida qabul qilinadi.

Penelope Brown va Stephen Levinson - ular o'zining "Politeness: Some Universals in Language Usage" (1987) kitobida nutq odobi nafaqat madaniyatga, balki kontekstga ham bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning nazariyasi "Face-threatening acts" (FTAs) tushunchasiga asoslanadi, ya'ni har bir muloqotda insonning "yuzi" yoki obro'siga ta'sir qiluvchi aktlar mavjud. Bu holat o'zbek tilida ham mavjud bo'lib, masalan, kattalarni hurmat qilish, ularning qadr-qimmatini saqlash uchun yoshlar odob va hurmat bilan gapirishga harakat qiladilar. Rasmiy muhitlarda odamlar ko'pincha yuqori darajadagi muloyimlik strategiyalarini qo'llab, boshqa tomonning ijobiy va salbiy yuzlarini himoya qilishadi. Masalan, yig'ilishlarda yoki davlat xodimlari bilan muloqotda qat'iy, lekin hurmatli uslublar qo'llaniladi.

"Give me the report" (Menga hisobotni ber) kabi buyruqli gap o'rniga, "Could you please send me the report when you have time?" (Iltimos, vaqt topganingizda hisobotni jo'nating) deyish mumkin. Ushbu yumshatilgan iltimos qabul qiluvchining salbiy yuzini hurmat qilgan holda, uning mustaqilligini tan oladi va iltimosni talab sifatida emas, taklif sifatida taqdim qiladi. Xuddi shunday, tanqid qilishni yumshatish uchun "I think you've done a great job overall, but there are a few areas that could use some improvement" (Umuman olganda, yaxshi ish qildingiz, lekin takomillashtirish kerak bo'lgan joylar bor) kabi iboralar qo'llaniladi. Bu yondashuv tanqidni maqto'v bilan muvozanatlab, suhbatdoshning ijobiy yuzini saqlashga yordam beradi.

Geoffrey Leech - "Principles of Pragmatics" (1983) kitobida Leech nutq odobi tamoyillarini aniqlab beradi va ularni "Politeness Principles" deb ataydi. Uning fikricha, bu tamoyillar muloqotda to'g'ri muvozanatni saqlashga yordam beradi va ijtimoiy munosabatlarda muhim ahamiyatga ega. Leechning bu nazariyasi o'zbek tilida ham to'liq tasdiqlanadi, chunki o'zbek muloqot madaniyatida bu omillar ya'ni "muloyim gaplashish" o'ta muhimdir.

Deborah Tannen - Tannen o'zining "You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation" (1990) kitobida nutq odobi gender farqlariga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, erkaklar va ayollar o'rtasida muloqot uslublari har xil bo'lib, ayollar ko'proq muloyim va qo'llab-quvvatlovchi nutq uslubini tanlashadi. Bu qarash o'zbek jamiyatida ham kuzatiladi, chunki o'zbek ayollari ham ko'pincha bosiq va muloyim gapirishga intiladi, bu esa jamiyatdagi gender rollarining o'ziga xosligini ko'rsatadi.

Ingliz tilida muloyim gaplashish jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy omil hisoblanadi. Masalan, "Sorry to bother you, but..." yoki "Would you mind..." kabi iboralar muloqotda muloyimlikni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbek tilida esa bu kabi iboralar "Kechirasiz, sizni bezovta qilgan bo'lsam..." yoki "Agar imkoningiz bo'lsa..." tarzida ishlatiladi.

Uilyam Shekspir o'z asarlarida nutq odobi orqali qahramonlar o'rtasidagi ijtimoiy farqlarni ko'rsatadi. "Romeo va Juliet" pyesasida, oila a'zolarining bir-biriga nisbatan gaplashish uslubi oilaviy janjal va ijtimoiy mavqe farqini aks ettiradi. Masalan, Romeo va Tybaltning to'qnashuvi davomidagi nutq odobi ijtimoiy urf-odatlarining buzilishiga olib keladi va bu voqealar Romeo va Juliet fojiasi bilan yakunlanadi. Romeo Tybaltga:

"Tybalt, the reason that I have to love thee
Doth much excuse the appertaining rage"

Bu dialogda Romeo Tybalt bilan mojarodan qochishga urinsa-da, oxir-oqibat ular o'rtasidagi nutq odobining buzilishi Romeo uchun falokat keltiradi. Bu yerda nutq madaniyatining yuksak qoidalari buzilib, janjal va fojia kelib chiqadi.

Nutq insonlararo muloqotning asosiy jihatidir, fikrlar, hissiyotlar va g'oyalarni ifodalash imkonini beradi. Biroq, o'zimizni qanday ifodalashimiz munosabatlarimiz va ijtimoiy dinamikamizga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maqollar donoligidan foydalangan holda, fikrli muloqotning ahamiyatini va sukut va yumshoq nutqning fazilatlarini ko'rib chiqamiz.

"Speech is silver, silence is golden."

Ushbu maqol nutqning ahamiyatini ta'kidlaydi, lekin ba'zi paytlarda sukut yanada qadrli ekanligini ta'kidlaydi. Bizning tezkor dunyomizda ko'pchilik har qanday sukutni so'zlar bilan to'ldirishga majbur his qiladi, bu esa ko'pincha tushunmovchilik yoki nizolarga olib keladi. Sukut san'atini amalda qo'llash, o'zimizni yanada chuqurroq eshitishimizga va ko'pincha so'zlardan ko'ra chuqurroq javob berishimizga imkon beradi. Biz qachon gapirishni va qachon sukut saqlashni tushunib yetganimizda, hurmat va tushunish muhitini yaratamiz.

"A soft answer turns away wrath, but a harsh word stirs up anger."

Bu yerda yumshoq muloqotning ahamiyati ta'kidlangan. Taktik nutq, muammoli vaziyatlarni yumshatishi va hamkorlik ruhini rivojlantirishi mumkin. Joiz bo'lgan paytlarda yumshoq javob berish, ayniqsa, mojaro paytida, yanada jiddiy nizolardan saqlanishga yordam beradi. Qattiq so'zlar esa g'azab va himoyalashni keltirib chiqarishi mumkin, shuning uchun muloqotni yaxshilik va empatiya bilan yondashish muhimdir.

"Think before you speak."

Ushbu donoligimiz, muloqotda hushyorlikni ta'minlaydi. Fikrlarimizni ifodalashdan oldin ularni o'ylab ko'rishimiz juda muhimdir. Fikrlash, tinglovchilarimizga nisbatan hurmat ko'rsatadi va xabarimizni aniq va konstruktiv tarzda yetkazishimizni ta'minlaydi. Ushbu odatni rivojlantirish orqali, biz shoshqaloqlik bilan aytilgan so'zlardan kelib chiqadigan tushunmovchilik va mojarolardan qochamiz.

"Brevity is the soul of wit."

Ushbu ibora Shekspirning "Hamlet" asaridan olingan bo'lib, qisqa va aniq nutqning kuchini ta'kidlaydi. Ma'lumotlarga boy zamonda qisqa nutq, g'oyalarimizni samarali ravishda ifodalashga yordam beradi va tinglovchilarimizni ortiqcha ma'lumotlar bilan charchatmaydi. To'g'ri tanlangan so'zlar, unutilmas ta'sir qoldirishi va fikrlarimizni aniq va ta'sirchan tarzda yetkazishi mumkin. Qisqa va mazmunli nutqni qadrlash orqali, biz tinglovchilarimizning vaqtini va diqqatini hurmat qilamiz va xabarimizning ta'sirini oshiramiz.

Til – insonlararo muloqotning kuchli vositasi bo'lib, bizning o'zaro munosabatlarimizni shakllantiradi, ijtimoiy aloqalarimizni belgilaydi va suhbatlarimiz natijalarini belgilaydi. Maqollar, ko'plab zamonaviy muammolarni hal qilishda qo'llaniladigan donolikka asoslangan xulosa va maslahatlarni taqdim etadi. Quyidagi fikrlar, nutqdagi muloyimlik va samarali muloqotning ahamiyatini ko'rsatadi.

"A gentle answer turns away wrath."

Bu maqol yumshoq muloqotning kuchini ta'kidlaydi. G'azablangan yoki tushunmovchilik yuzaga kelgan vaziyatlarda yumshoq javob berish, muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bizning nazarimizda, boshqalar bilan samimiy munosabatlar o'rnatish va ularni yaxshilash uchun yumshoq va muloyim so'zlar zarur.

"Speak softly and carry a big stick." Bu maqol, yumshoq yondashuvni saqlab, kerak bo'lganda kuchli bo'lish zarurligini ta'kidlaydi. Yumshoq muomalalar ko'pincha jiddiy munosabatlar o'rnatishga yordam beradi, shuning uchun har doim yumshoq va muloyim bo'lishni unutmasligimiz kerak.

"Treat others how you want to be treated." Boshqalarni qanday muomalada bo'lishini xohlasangiz, o'zingiz ham shunday muomala qiling." Ushbu prinsip, hurmatli va muloyim munosabatlar o'rnatishning asosiy qoidasidir. Biz boshqalar bilan mehr va sabr bilan munosabatda bo'lsak, bu, albatta, ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi.

"A kind word is like a spring day." Bu maqol, muloyim so'zlar qanday qilib boshqalarga quvonch va iliqlik olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. So'zlarning yumshoqligi va muloyimligi, o'zaro aloqalarni mustahkamlashga va iliq muhit yaratishga yordam beradi.

"You catch more flies with honey than with vinegar". Ushbu ibora, odamlar achchiq gaplar o'rniga muloyimlik va sabr bilan muomala qiladigan so'zlarga ko'proq ijobiy javob berishlarini ta'kidlaydi. Yumshoq yondashuv, muloqot ochilishi va hamkorlikka erishish imkonini beradi.

"Good manners open doors that the best education cannot." Ushbu maqol, bilimning ahamiyati mavjud bo'lsa ham, muloyim muomala ko'plab imkoniyatlarni yaratishi mumkinligini ta'kidlaydi. Yaxshi odob va hurmatli muloqot, shaxsiy va professional aloqalarimizni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillarida nutq odobi va muloyimlikning ahamiyatini ta'kidlaydi. Har ikki jamiyatda bu tushunchalar ijtimoiy munosabatlarni boshqarish va qo'llab-quvvatlashning muhim omillari sifatida qabul qilinadi. Nutq odobi orqali muloqot samaradorligi oshadi, va odamlar orasidagi o'zaro hurmat va ishonch mustahkamlanadi. Ingliz olimlari va yozuvchilarining qarashlari, xususan, Robin Lakoff, Penelope Brown va Stephen Levinson, Geoffrey Leech va Deborah Tannen tomonidan ilgari surilgan nazariyalar orqali, ingliz maqollarida aks etgan ijobiy nutq misollarida nutq odobining muloqotda muhim roli kengroq tushuniladi. Ayniqsa, Brown va Levinsonning "Face-threatening acts" nazariyasi jamiyatlarda muloqotning nafis va ehtiyotkor tarzda olib borilishi zarurligini ko'rsatadi.

Ingliz va o'zbek jamiyatlaridagi muloyimlik ifodalari o'zaro farqlarga ega bo'lsa-da, ikkisi ham mazkur tamoyillar umumiy ijtimoiy me'yorlarni ifodalaydi. O'zbek tilidagi muloyimlikning o'ziga xos tomoni shundaki, nutq odobi ko'pincha nafaqat so'zlar bilan, balki tana harakatlari va ovoz ohangi bilan ham ifodalanadi. Ingliz tilida esa maxsus iboralar orqali muloqot yumshoqligi ta'minlanadi. Bu farqlarga qaramasdan, har ikki tilda muloyim gaplashish ijtimoiy aloqa muvaffaqiyatining kaliti sifatida baholanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, har ikki madaniyatda gender, yosh va ijtimoiy maqom muloqot uslubiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ingliz va o'zbek tillarida ayollar ko'proq muloyim va ehtiyotkor tarzda gapirishadi, bu esa jamiyatdagi gender farqlarini aks ettiradi. O'zbek jamiyatida kattalarni hurmat qilish kuchli an'ana bo'lib, bu madaniyatning mustahkam ijtimoiy asoslaridan biridir.

Natijada, har ikki jamiyatda nutq odobi va muloyimlik ijtimoiy birdamlik, ishonch, va hamkorlikning asosiy omili bo'lib, ular orqali ijtimoiy munosabatlar barqarorligi saqlanadi. Nutqda muloyimlik va odobli muloqot ijtimoiy muvaffaqiyat va barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib qoladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot orqali ingliz va o'zbek jamiyatlarida nutq odobi va muloyimlikning ijtimoiy munosabatlarda muhim rol o'ynashi aniqlandi. Ingliz olimlari va yozuvchilarining qarashlari, jumladan, Robin Lakoff, Penelope Brown va Stephen Levinson, Geoffrey Leech, va Deborah Tannen tomonidan taklif etilgan nazariyalar yordamida, nutq odobi va muloyimlikning muloqot samaradorligini oshirishda asosiy omil ekanligi ko'rsatildi. Ingliz tilidagi maxsus iboralar va o'zbek tilidagi tanlovli ohang va tananing ifodasi muloqotning o'ziga xos jihatlarini namoyon etadi.

Har ikki jamiyatda ham muloyim gaplashish va odobli muloqot insonlar o'rtasidagi hurmat, ishonch va samimiyatni mustahkamlaydi. Tadqiqot natijalari nutq odobi va muloyimlikning ijtimoiy munosabatlar barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy birdamlik va hamkorlikni rivojlantirish uchun muhimligini tasdiqladi. Shu bilan birga, nutq odobi nafaqat tilshunoslik, balki ijtimoiy ahamiyatga ega hodisa sifatida har ikki jamiyatda alohida e'tiborga loyiqdir.

ADABIYOTLAR:

1. Blum-Kulka, S., House, J., & Kasper, G. (1989). *Cross-Cultural Pragmatics: Requests and Apologies*. Norwood, NJ: Ablex.
2. Brown, P., & Levinson, S. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Eelen, G. (2001). *A Critique of Politeness Theories*. Manchester: St. Jerome.
4. Fraser, B. (1990). "Perspectives on politeness." *Journal of Pragmatics*, 14(2), 219-236.
5. Ganieva, M. (2019). "Muloqotda muloyimlik va nutq odobi." *Tilshunoslik tahlillari jurnal*, 12(3), 67-73.
6. Kasikhanova, Z. (2015). "O'zbek tilida nutq odobi va madaniyatining xususiyatlari." *O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti ilmiy jurnal*, 45-55.
7. Leech, G. (1983). *Principles of Pragmatics*. London: Longman.
8. Lakoff, R. (1973). "The logic of politeness; or, minding your p's and q's." *Papers from the Ninth Regional Meeting, Chicago Linguistic Society*, 292-305.
9. Tannen, D. (1990). *You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation*. New York: William Morrow.
10. Watts, R. J. (2003). *Politeness*. Cambridge: Cambridge University Press.
11. Zohidov, S. (2004). *O'zbek tili va madaniyati: Nutq odobi*. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi. Чархий. Қиёлаб ўтди... – Тошкент: Адабиёт намуриёму, 2010. – Б.196-207.
12. Элбек. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 1999. – Б.25.
13. Юсуф, Муҳаммад. Сайланма: шеърлар, достонлар / М.Юсуф. – Т.: "Шарқ", 2014. – Б.189.

МОДАЛЬНЫЕ ФОРМЫ ИМЁН ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В РУССКОМ И
УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Хужахонова Муштарийбону Ориф кизи,
магистрант второго курса Каршинского государственного университета
Рецензент: *Хамраева Ёркиной Набижановна,*
доцент кафедры «Русский язык и литература»
Каршинского государственного университета,
кандидат филологических наук

Аннотация. Статья рассматривает модальные формы имён прилагательных в русском и узбекском языках на основе их грамматических и лексико-семантических характеристик. Проводится детальный анализ механизмов формирования модальных значений через степени сравнения, морфологическую структуру и синтаксические функции прилагательных. Исследуются различия в использовании аффиксов и категорий рода в русском языке, а также принадлежности и постпозиционных конструкций в узбекском языке. Особое внимание уделено взаимодействию модальности с морфологией и синтаксисом, что позволяет выявить специфические черты функционирования прилагательных в обеих языковых системах.

Ключевые слова: модальные формы, прилагательные, русский язык, узбекский язык, морфология, синтаксис, аффиксация, степени сравнения, лексико-семантический анализ.

MODAL FORMS OF ADJECTIVES IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES

Abstract. The article examines the modal forms of adjectives in Russian and Uzbek languages based on their grammatical and lexical-semantic characteristics. A detailed analysis is conducted of the mechanisms of forming modal meanings through degrees of comparison, morphological structure, and syntactic functions of adjectives. The differences in the use of affixes and gender categories in Russian, as well as possessive and postpositional constructions in Uzbek, are explored. Special attention is paid to the interaction of modality with morphology and syntax, allowing for the identification of specific features of adjective functioning in both language systems.

Keywords: modal forms, adjectives, Russian language, Uzbek language, morphology, syntax, affixation, degrees of comparison, lexical-semantic analysis.

RUS VA O‘ZBEK TILLARIDA SIFATLARNING MODAL SHAKLLARI

Annotatsiya. Maqolada rus va o‘zbek tillarida sifatlarning modal shakllari ularning grammatik va leksik-semantik xususiyatlari asosida ko‘rib chiqiladi. Sifatlarning modal ma‘nolarini shakllantirish mexanizmlari, taqqoslash darajalari, morfologik tuzilma va sintaktik funksiyalarining batafsil tahlili o‘tkaziladi. Rus tilida affikslar va jins kategoriyalaridan, o‘zbek tilida esa egalik va postpozitsion konstruksiyalardan foydalanishdagi farqlar o‘rganiladi. Morfologiya va sintaksis bilan modal ma‘nolarning o‘zaro ta‘siriga alohida e‘tibor qaratilib, har ikkala til tizimida sifatlarning funksional xususiyatlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: modal shakllar, sifatlar, rus tili, o‘zbek tili, morfologiya, sintaksis, affiksatsiya, taqqoslash darajalari, leksik-semantik tahlil.

Введение. Модальные формы имён прилагательных играют ключевую роль в структурировании и выражении качественных признаков объектов в русском и узбекском языках. Вопрос их формирования и функционирования требует детального анализа, поскольку обе языковые системы демонстрируют значительные различия в морфологических и синтаксических структурах, влияющих на модальность.

В русском языке модальные значения прилагательных формируются через изменения грамматических категорий рода, числа и падежа, а также степени сравнения. В узбекском языке основное внимание уделяется аффиксации и постпозиционным конструкциям, что требует иных механизмов для выражения модальности. Сложность заключается в том, что узбекский язык не

использует категории рода и падежных окончаний, которые являются базовыми для русского языка, что создаёт разнообразие в способах выражения качественных характеристик.

Цель данной статьи — провести сравнительный анализ модальных форм прилагательных в русском и узбекском языках, выявить их структурные особенности и способы реализации модальности, а также определить лексико-грамматические параметры, определяющие функционирование прилагательных в обеих системах.

Актуальность. Изучение модальных форм имён прилагательных в русском и узбекском языках является важным направлением в области сравнительного языкознания, поскольку эти формы играют ключевую роль в выражении различных оттенков качества и степени признаков. В свете растущего интереса к типологическим исследованиям языков и сравнительной грамматике, анализ модальных прилагательных приобретает дополнительное значение. Сложность заключается в том, что в узбекском языке отсутствуют такие грамматические категории, как род и падеж, которые играют центральную роль в русском языке, что требует специфических методов выражения модальных значений.

Современные исследования, включая данные последних лингвистических корпусов, демонстрируют недостаточную разработанность вопросов, связанных с модальными формами в узбекско-русской парадигме. Аналитические обзоры показывают, что в узбекском языке модальность прилагательных чаще выражается через аффиксацию и лексико-синтаксические средства, в то время как русский язык опирается на морфологические изменения. Согласно статистике публикаций в Scopus за последние годы, доля исследований, касающихся узбекской морфологии, составляет менее 12% от общего объёма работ, посвящённых тюркским языкам, что указывает на дефицит теоретических разработок в этой области.

Исследование модальных форм прилагательных в сравнительном аспекте позволяет не только систематизировать существующие лингвистические данные, но и углубить понимание взаимодействия лексических и грамматических уровней языка. Это особенно актуально для разработки более точных методов преподавания узбекского и русского языков, а также для лексикографических и переводческих проектов, где важно учитывать модальные значения прилагательных в различных культурных и языковых контекстах.

Материалы и методы. Исследование базировалось на использовании комплекса методов лингвистического анализа, включающих сопоставительный и структурный анализ грамматических и семантических особенностей модальных форм имён прилагательных в русском и узбекском языках. Материалом для исследования послужили корпуса текстов на русском и узбекском языках, включая литературные, публицистические и научные тексты, а также данные академических словарей и грамматических справочников.

В процессе исследования применялся метод морфологического анализа для выявления отличий в формировании модальных значений прилагательных в обоих языках. Для русского языка был проведён детальный анализ морфологических изменений прилагательных в рамках категорий рода, числа и падежа, а также форм степеней сравнения. Эти данные позволили установить, каким образом модальные значения реализуются через изменение грамматических категорий.

Анализ узбекского языка был сосредоточен на изучении аффиксов и других способов выражения модальности, таких как постпозиционные элементы и формы степеней сравнения, включая степень редукции и уменьшения. Для этого использовался метод компонентного анализа, что позволило детализировать взаимодействие морфологических и синтаксических элементов, участвующих в формировании модальных значений.

Исследование также опиралось на лексико-семантический анализ, что позволило выявить особенности выражения модальности через лексическое значение прилагательных в обоих языках.

Литературный обзор. Исследование модальных форм имён прилагательных в русском и узбекском языках представляет собой одну из актуальных тем в современной лингвистике. Модальные формы прилагательных обладают значительным грамматическим потенциалом, влияя на структурное и семантическое наполнение высказываний. В работах по русскому языку отмечается, что модальные значения прилагательных формируются через изменения морфологических категорий рода, числа и падежа, а также посредством степеней сравнения [1]. Основное внимание уделяется синтаксическим условиям, в которых реализуются модальные значения, что подчёркивает взаимосвязь морфологических и синтаксических компонентов [2].

Узбекский язык, в отличие от русского, не оперирует категориями рода и падежа, что определяет иные механизмы формирования модальных форм. В узбекском языке модальные значения прилагательных выражаются через аффиксацию и постпозиционные конструкции, что

характерно для агглютинативных языков [3]. Важное значение имеет система степеней сравнения, которая отличается от русской, включением формы редукции, что даёт дополнительные возможности для выражения модальности [4].

Сравнительный анализ обоих языков показывает, что в русском языке модальные формы прилагательных реализуются преимущественно через морфологические изменения, в то время как узбекский язык активно использует лексико-синтаксические средства [5]. Важной особенностью узбекского языка является наличие аффиксов, выполняющих функцию указателей на модальность, что отсутствует в русском языке. Это расширяет возможности модификации качественных признаков и позволяет выражать разнообразные модальные оттенки [6].

Исследования показывают, что в русском языке прилагательные изменяются по трём степеням сравнения, которые тесно связаны с выражением модальности. В узбекском языке система степеней сравнения более гибкая и включает в себя степень редукции, что не имеет аналогов в русском языке [7]. Это открывает дополнительные аспекты для анализа в контексте выражения модальности в обоих языках [8]. Вопросы синтаксической позиции и взаимодействия с глагольными формами также играют ключевую роль в формировании модальных значений как в русском, так и в узбекском языках [9].

Лингвистические исследования подчёркивают важность детального анализа синтаксических конструкций, участвующих в формировании модальных значений. В русском языке модальность прилагательных часто определяется их позицией в предложении, тогда как в узбекском языке большую роль играют синтаксические маркеры, такие как постпозиционные аффиксы [10]. Это позволяет говорить о различиях в грамматических стратегиях, применяемых для выражения модальности [11].

Важным аспектом является также взаимодействие модальности с лексическим значением прилагательных, что требует детального анализа на материале различных текстов [12]. Лексико-семантические особенности прилагательных в обоих языках оказывают влияние на их синтаксическую функцию, что делает модальные формы более гибкими в плане их применения [13]. Анализ степеней сравнения в обоих языках демонстрирует их влияние на модальные значения, особенно в тех случаях, когда прилагательные используются в сравнительных и превосходных конструкциях [14]. Проведённые исследования подчеркивают необходимость дальнейшего изучения модальных форм прилагательных в контексте их лексико-грамматических и синтаксических особенностей, что имеет важное значение для теоретической лингвистики и сравнительного анализа языков [15].

Результаты и обсуждение. Анализ модальных форм имён прилагательных в русском и узбекском языках выявил ряд особенностей, связанных с различиями в грамматической структуре и морфологических процессах, что делает их сравнение особенно ценным для лингвистического исследования. Как русский, так и узбекский языки имеют развитую систему выражения качественных характеристик прилагательных, однако механизмы формирования этих характеристик различаются и требуют отдельного рассмотрения. Рассмотрение различных аспектов формирования модальных значений даёт возможность углубить понимание механизмов функционирования прилагательных в обоих языках.

Морфологическая структура и роль окончания в русском языке

В русском языке модальные значения прилагательных напрямую связаны с изменением их морфологических характеристик. Это выражается через род, падеж и число, что позволяет прилагательным интегрироваться в сложные синтаксические конструкции. Исследование показало, что изменения окончания прилагательных играют ключевую роль в их взаимодействии с существительными и другими частями речи, создавая модальные оттенки значений, которые указывают на отношение говорящего к описываемому объекту. Например, прилагательные в русском языке изменяются в зависимости от грамматического рода существительного, с которым они согласуются: "красный стол" (мужской род), "красная книга" (женский род), "красное окно" (средний род). Подобные изменения обеспечивают возможность выражения модальности через грамматические связи.

Таблица 1 иллюстрирует примеры изменения прилагательных в русском языке в зависимости от рода и падежа:

Грамматическая категория	Пример прилагательного (мужской род)	Пример прилагательного (женский род)	Пример прилагательного (средний род)
Именительный падеж	Красный стол	Красная книга	Красное окно
Родительный падеж	Красного стола	Красной книги	Красного окна
Дательный падеж	Красному столу	Красной книге	Красному окну
Винительный падеж	Красный стол	Красную книгу	Красное окно
Творительный падеж	Красным столом	Красной книгой	Красным окном
Предложный падеж	О красном столе	О красной книге	О красном окне

Как показано в таблице 1, русские прилагательные имеют шесть падежных форм и изменяются по родам, что отражает их грамматическую зависимость от существительного и позволяет выразить модальные оттенки значений через согласование. Этот аспект особенно важен при выражении характеристик объектов в различных контекстах, что делает модальные формы прилагательных в русском языке более зависимыми от грамматической структуры предложения.

Аффиксация как средство выражения модальности в узбекском языке

Узбекский язык, напротив, активно использует аффиксацию для формирования модальных значений прилагательных. Это связано с агглютинативной природой узбекского языка, где грамматические значения выражаются через присоединение аффиксов к основе слова. Важным аспектом узбекской системы является возможность формирования сложных лексических форм прилагательных через аффиксы, которые не только изменяют степень качества, но и указывают на другие характеристики объекта, включая его принадлежность к определённой классу или состоянию.

Аффиксы в узбекском языке выполняют функцию маркеров, которые могут изменять степень выраженности признака, добавляя модальные значения к прилагательным. Например, аффикс "-roq" выражает сравнительную степень, а аффикс "-dor" добавляет значение обладания качеством. Применение аффиксов делает узбекский язык более гибким в формировании модальных оттенков, позволяя точнее обозначать качественные различия между объектами.

Таблица 2 демонстрирует примеры использования аффиксов в узбекском языке для выражения модальности:

Аффикс	Пример прилагательного	Перевод	Значение
-roq	yaxshiroq	лучше	Сравнительная степень
-dor	mehnatdor	трудолюбивый	Указывает на наличие качества
-siz	tuzsiz	безвкусный	Указывает на отсутствие качества
-li	yog'li	жирный	Обозначает наличие качества
-imtir	qoramtir	темноватый	Уменьшительная степень

Как видно из таблицы 2, аффиксы в узбекском языке позволяют гибко изменять степень выраженности признака и формировать модальные оттенки. Эта система обеспечивает узбекскому языку большую вариативность в выражении качественных признаков, чем в русском языке, где такие изменения часто требуют использования дополнительных слов или фраз.

Синтаксические конструкции и их роль в формировании модальных значений

Особое внимание в ходе исследования уделялось синтаксическим конструкциям, которые играют важную роль в формировании модальных значений прилагательных. В русском языке прилагательные могут занимать различные позиции в предложении, что влияет на их модальные значения. Например, прилагательное в позиции предикатива ("Этот дом красив") выполняет функцию характеристики объекта, что выражает модальность утверждения. В узбекском языке синтаксическая позиция прилагательных также играет важную роль, однако основной акцент делается на постпозиционных конструкциях, где прилагательные, как правило, следуют за существительными, что соответствует грамматической традиции агглютинативных языков.

Таблица 3 представляет примеры синтаксических конструкций, в которых прилагательные участвуют в формировании модальных значений в русском и узбекском языках:

Язык	Пример синтаксической конструкции	Перевод	Модальное значение
Русский	Дом красив	Дом красив	Утверждение качества
Узбекский	Uy katta	Дом большой	Констатация качества
Русский	Этот дом самый красивый в городе	Этот дом самый красивый	Превосходство
Узбекский	Uy eng katta	Дом самый большой	Превосходство
Русский	Книга достаточно интересная для чтения	Книга достаточно интересная	Оценка
Узбекский	Kitob juda qiziqarli	Книга очень интересная	Высокая степень качества

Как показано в таблице 3, синтаксические конструкции играют важную роль в формировании модальных значений в обоих языках. Русский язык активно использует предикативные конструкции для выражения утверждений и оценок, в то время как в узбекском языке преобладают констатации через простые предложения с прилагательными, к которым добавляются аффиксы для выражения степени качества.

Заключение. Результаты исследования подтвердили, что модальные формы имён прилагательных в русском и узбекском языках формируются по различным грамматическим моделям. В русском языке модальные значения прилагательных зависят от изменений рода, падежа и числа, что отражает синтетический характер языка. В узбекском языке основное внимание уделяется аффиксации и постпозиционным конструкциям, что объясняется агглютинативной природой языка. Важным выводом является то, что узбекский язык предлагает более гибкую систему выражения качественных характеристик через аффиксацию, что позволяет создавать более сложные модальные значения, особенно в контексте степени сравнения и уменьшительных форм.

Данное исследование открывает возможности для дальнейшего анализа механизмов формирования модальных значений в других типах языков и углубления понимания различий между синтетическими и агглютинативными языковыми системами.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Кузнецов, С. А. *Современный русский язык*. — М.: Наука, 2016. — 678 с.
2. Каримов, У. *Узбекская грамматика: синтаксис и морфология*. — Ташкент: Фан, 2017. — 342 с.
3. Нурматов, А. Т. *Лексико-грамматические особенности узбекского языка*. — Ташкент: Маънавият, 2018. — 412 с.
4. Зализняк, А. А. *Грамматическая система русского языка*. — М.: Языки славянской культуры, 2015. — 524 с.
5. Давронов, М. *Исследование модальности в узбекском языке*. — Ташкент: Издательство АН РУз, 2020. — 296 с.
6. Бархударов, Л. С. *Теория и практика грамматического анализа*. — М.: Высшая школа, 2019. — 387 с.
7. Трофимова, Н. Г. *Сравнительное исследование грамматических категорий*. — СПб.: Издательство СПбГУ, 2021. — 439 с.
8. Раджабов, Ш. *Морфология узбекского языка*. — Ташкент: Фан, 2016. — 301 с.
9. Жирков, Ю. *Модальные конструкции в тюркских языках*. — Казань: Казанский университет, 2019. — 416 с.
10. Исаев, Ш. *Лексико-грамматический анализ степеней сравнения*. — Самарканд: Университет, 2017. — 332 с.
11. Аристова, Н. С. *Модальные элементы в синтаксисе русского языка*. — М.: Наука, 2018. — 498 с.
12. Мирзоева, А. *Грамматическая семантика узбекских прилагательных*. — Ташкент: Фан, 2021. — 289 с.
13. Панов, В. А. *Функциональная грамматика и синтаксис*. — М.: Флинта, 2016. — 654 с.
14. Ходжаев, А. *Синтаксические конструкции в узбекском языке*. — Ташкент: Маънавият, 2019. — 384 с.
15. Ярцев, Е. *Грамматическая структура русского языка*. — М.: ЛКИ, 2020. — 371 с.

TRANSLITERATSIYA – LEKSIK TRANSFORMATSIYA TURI SIFATIDA

Masharipova Yulduz Otaxanovna,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
yulduz.m@urdu.uz

Annotatsiya. Tarjima jarayonida turli asliyat tili va tarjima tili ishtirokida qo‘llaniladigan leksik transformatsiyalarning asosiy turlaridan biri transliteratsiya hisoblanadi. Transliteratsiya deb milliy til atamalarini, realiyalarni ikkinchi bir tilda, mazkur tilning alfaviti, tovushlari imkoniyatidan kelib chiqqan holda ifodalanishiga aytiladi. Bunda matnni transliteratsiya qilish jarayonida transliterator shartli ravishda belgilangan qoidalar asosida har bir asliyat tili harfi yoki boshqa grafologik birlikni tarjima tili harfi yoki boshqa birlik bilan almashtiradi. Tarjimada, asosan, bu usuldan kishi ismlari, joy nomlari, geografik nomlar, lavozimlar, gazeta va jurnallar, korxonalar, tashkilot, shuningdek, mehmonxona nomlarini transliteratsiya qilishda keng foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: transliteratsiya, realiya, komponent tahlil, kishi ismlari transliteratsiyasi, geografik joy nomlari transliteratsiyasi, xos so‘zlar transliteratsiyasi

TRANSLITERATION AS A SUBTYPE OF THE LEXICAL TRANSFORMATION

Abstract. Language units are considered to be the factor causing the linguocultural approach to translation. Only these language units are lexicons that have a cultural phenomenon. It is known that the basis of translation is words and text. Therefore, they may have language units that reflect the culture. And this case creates an opportunity to learn the issues of the translation and linguocultural studies simultaneously. And comparison of the language units which belong to the different national cultures on the base of the translation forms the concept of the linguocultural approach to the translation.

Keywords: transliteration, realia, componential analysis, transliteration of personal names, transliteration of geographical places, transliteration of realias

ТРАНСЛИТЕРАЦИЯ КАК ПОДВИД ЛЕКСИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Аннотация. Транслитерация – один из основных видов лексических преобразований, используемых в процессе перевода с участием разных исходных языков и языков перевода. Транслитерация – это выражение национальных языковых терминов и реалий на втором языке, основанное на возможностях алфавита и звуков этого языка. В этом случае в процессе транслитерации текста транслитератор заменяет каждую букву или другую графологическую единицу исходного языка на букву или другую единицу переводимого языка на основе условно определенных правил. В переводе этот метод широко используется при транслитерации имён людей, названий местности, географических названий, должностей, газет и журналов, компаний, организаций, отелей.

Ключевые слова: транслитерация, реалии, компонентный анализ, транслитерация личных имен, транслитерация географических топонимов, транслитерация реалий

Kirish. Muqobili yo‘q so‘zlarni tarjima qilishning bir nechta usuli mavjud bo‘lib, eng oson yo‘li bu - so‘zlarni transliteratsiya qilish, ya‘ni so‘z talaffuzini berish, saqlash hisoblanadi. Transliteratsiya – bu realiyani bildiruvchi so‘z yoki uning ildizini tarjimada asliyat tili imlosi yoki qo‘shimchalari bilan birga bevosita qo‘llashdir. Realialar - bu muayyan bir mamlakat xalqiga xos bo‘lgan narsa, hodisalar va hokazolarni bildiruvchi so‘zlardir. Tarjimada asosan bu usuldan kishi ismlari, joy nomlari, geografik nomlar, lavozimlar, gazeta va jurnallar, korxonalar, tashkilot, shuningdek, mehmonxona nomlarini transliteratsiya qilishda keng foydalaniladi.

Shuningdek, tarjimada transliteratsiyadan asosan atoqli otlar tarjimasida foydalanilishi haqida ham quyidagi fikrlar bildirilgan: Atoqli otlar yakka shaxslarning, borliqdagi yakka predmet, voqea-hodisalarning nomini atab, odatda ular tarjima qilinmaydi. Bunday so‘zlarning tovushlari va yozilishini tarjima tilida qanday shaklda berish masalasi katta ahamiyat kasb etadi. Ikki tilning fonetik qurilishidagi farqlari qanchalik ko‘p bo‘lsa, bu masala shunchalik jiddiy bo‘ladi. Ikki tildagi alfavit tizimi umumiy bo‘lgan holda (masalan, german tillarida), tarjima jarayonida ism-familialarning tovush shaklini qayta berishdan umuman

voz kechib, bu soʻzlarning yozilishini aniq qayta berish bilan, yaʼni *transliteratsiya* bilan kifoyalanib qoladilar. Masalan, ingliz yozuvchisi U. Shekspirning familiyasi nemis tilida huddi ingliz tilidagidek „*Shakespeare*“ shaklida beriladi. [1; 119]

Boshqa tilga mansub atoqli otlarning rus tilida qayta berilishida bu soʻzlarning tovush shaklini ifodalash anʼanasi mavjud. Albatta, chet tilidagi soʻzning tovush shaklini rus alfaviti asosida qayta berish toʻliq emas, balki qisman va nisbiy boʻladi. Koʻp qoʻllaniladigan atoqli otlarni tarjima tilida berishda anʼana katta rol oʻynaydi. Anʼanaviy yozilish asl nusxa tilidagi jaranglashdan cheklangan boʻlsada, koʻp qoʻllaniladigan atoqli otlarni tarjima tilida berishda tarjimon anʼanaga rioya qilishga majbur. Biz *Xamburg* demasdan *Gamburg* deb yozamiz, *Layptsig* demasdan, *Leyptsig* deb yozamiz, *Pari* emas, balki *Parij*, *Roma* emas, *Rim* deb yozamiz va hokazo. [2; 81]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. V.N. Komissarov tarjima jarayonida turli asliyat tili va tarjima tili ishtirokida qoʻllaniladigan leksik transformatsiyalarning asosiy turlari qatoriga quyidagi tarjima usullarini kiritgan: tarjima transkripsiyasi va transliteratsiyasi, kalkalash va leksik-semantik almashtirishlar (konkretizatsiya, umumlashtirish, modulyatsiya) [3; 172].

Bunda tarjima usullari tarjima transformatsiyalari sifatida talqin etilgan. Shunday ekan, V.N. Komissarovga koʻra transliteratsiya bu - tarjima leksik transformatsiyasining bir turi hisoblanadi.

J. S. Katford transliteratsiya qilishning qoidalarini rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayoni misolida quyidagicha tushuntirgan: transliteratsiyada asliyat tili grafologik birliklari tarjima tili grafologik birliklari bilan almashtiriladi; lekin ular tarjima ekvivalentlari boʻla olmaydi, chunki ular bir xil grafik substansiya [substance] munosabati asosida tanlanmagan boʻladi.

Asliyatda:	СПУТНИК
Transliteratsiyada:	SPUTNIK

Matnni haqiqiy transliteratsiya qilish jarayonida transliterator shartli ravishda belgilangan qoidalar asosida har bir asliyat tili harfi yoki boshqa grafologik birlikni tarjima tili harfi yoki boshqa birlik bilan almashtiradi.

Transliteratsiya qoidalari transliteratsiya ekvivalentlarini belgilaydi, bunda ular tarjima ekvivalentlaridan quyidagi ikki jihati bilan farq qilishadi: birinchidan, asliyat tili harflari bilan bir xil grafik koʻrinishda (graphic substance)da boʻlishi shart emas; ikkinchidan, asliyat tili harflari yoki boshqa birliklari bilan bir xil muvofiqlikda (yaxshi transliteratsiyada) boʻlishi kerak.

Aslida, transliteratsiyani amalga oshirish jarayoni uch bosqichni oʻz ichiga oladi:

1. Asliyat tili harflari asliyat tili fonologik birliklari bilan almashtiriladi; bu yozma nutqdan ogʻzaki vositaga (spoken medium) oʻtishning oddiy (normal literate process) savodli jarayonidir.
2. Asliyat tili fonologik birliklari tarjima tili fonologik birliklariga tarjima qilinadi
3. Tarjima tili fonologik birliklari tarjima tili harflariga yoki boshqa grafologik birliklarga aylantiriladi.

Shuningdek, transliteratsiya qilishning yana bir nechta murakkab omillari mavjud. Bular berilgan asliyat tili harflari asliyat tilida bir nechta fonologik muvofiq shakllariga ega boʻlishi mumkin. Bunday holda transliteratsiya uchun asos sifatida ulardan faqat bittasi tanlanishi kerak. Misol uchun, ingliz tilidan rus tiliga transliteratsiya qilganda, biz ingliz tilidagi C harfini /k/ yoki /s/ deb transliteratsiya qilishimiz mumkin.

Ingliz tili	Rus tili
C → /k/ yoki /s/	

Shuningdek, ruscha transliteratsiya ekvivalenti uchun biz kirill alifbosidagi K va C harflaridan birini tanlashimiz kerak.

Tarjima tili fonologik birliklaridan grafologik birliklarga oʻtkazishda tanlash uchun harflar tanlovi boʻlishi mumkin; qaror oʻzboshimchalik bilan qabul qilinishi kerak. Shunday qilib, aytaylik, rus tilidagi K ni ingliz tiliga transliteratsiya qilishda biz uning fonologik tarjima-ekvivalenti /k/ = /k/ ni tanlashimiz mumkin. Keyin biz /k/ ni → K yoki → C ga oʻzgartirishdan birini tanlashimiz kerak. Biz oʻzboshimchalik bilan tanlov qilishimiz mumkin, aytaylik C ni tanlashimiz mumkin. Yoki K ni K ga transliteratsiya qilishga qaror qilishimiz mumkin va shu tariqa G ni II ning transliteratsiya ekvivalenti sifatida chiqarishimiz mumkin. [4; 68]

E.S. Aznaurovaning “Translation and practice” asarida tarjima usullari tarjima transformatsiyalari sifatida talqin etilgan. Bunda transliteratsiya oʻziga xos realiyani bildiruvchi soʻzlarni tarjima qilishda qoʻllanilishi aytilib, unga quyidagicha taʼrif berilgan: “Transliteratsiya – bu realiyani bildiruvchi soʻz yoki

uning ildizini tarjimada asliyat tili imlosi yoki qo‘shimchalari bilan birga bevosita qo‘llashdir. Shuningdek, u tarjimada leksik mosliklarning yo‘qligi realiya bilan bog‘liqligini aytgan, chunki realiyalar - bu muayyan bir mamlakat xalqiga xos bo‘lgan narsa, hodisalar va hokazolarni bildiruvchi so‘zlardir. Quyidagi so‘z guruhlari (turkumlari)ni ekvivalenti yo‘q deb hisoblash mumkinligini ta’kidlagan: 1) kundalik hayot realiyalari – biror xalqqa xos bo‘lgan narsa, hodisalar va hokazolarni bildiruvchi so‘zlar (cab, fire – place); (kabina, o‘t - joy); 2) xos nomlar va geografik nomlar (denominations); 3) murojaatlar (addresses) va tabriklar (greetings); 4) jurnal, magazine va gazetalarning nomlari; 5) og‘irliklar, chiziqli o‘lchovlar (linear measures) va boshqalar. [5; 11]

Qudrat Musayevning ta’kidlashicha, xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy vositalar xos so‘zlar, deyiladi. Muayyan bir xalq, millat va elatga xos tushuncha, narsa va hodisalarni aks ettiradigan lisoniy vositalar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi. Asarning milliy xususiyati asosan leksik va frazeologik birliklar yordamida yaratiladi. Shuningdek, tillar orasidagi tafovut odatda bir xalq moddiy hayotida mavjud muayyan tushunchalar, voqea-hodisalar, urf-odatlarining ikkinchi xalq turmush tarzida uchramasligi, shu tufayli ular nomlarining ham ayni xalq tilida tabiiy ravishda yo‘qligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, lug‘aviy ekvivalentlik munosabatida bo‘lgan ayrim ikki til juftliklari bir-birlaridan biror xususiyatlari bilan o‘ziga xos ravishda farq qilishlari mumkin. Bu holat til birliklarining milliy xususiyatini belgilash baravarida ularning tarjimada o‘zaro almashinuvlariga to‘sqinlik qiladi. [6; 89]

Xos so‘zlarni ona tiliga o‘girishda avvalo ularning muayyan kontekstlarda o‘tab kelayotgan axboriy va uslubiy vazifalarini aniqlash, so‘ngra tarjima tilida ularga har jihatdan mos, ayni paytda shu til me‘yori va madaniyati darajasidagi lisoniy vositalar tanlash zarurati tug‘iladi. Muayyan xalq turmush tushunchalarini anglatadigan ko‘pchilik xos so‘zlarning ma’nolari va o‘taydigan vazifalari mamalakatlarining o‘zaro madaniy, ma’rifiy, iqtisodiy, siyosiy aloqalari natijasida qator xalqlar vakillariga, shu jumladan tarjima tili sohiblariga ham tanish bo‘lib qoladiki, tarjimonlar bunday so‘zlarga o‘z tillarida muqobil lisoniy vositalar qidirib yurmasdan, ularni transliteratsiya yo‘li bilan talqin etaveradilar. Transliteratsiya leksik transformatsiyasidan foydalanishning asosiy sababi asliyatda qo‘llanilgan milliy xususiyatli lisoniy vositalarning tarjima tilida mavjud bo‘lmaganligi tufayli asliyatning milliy xususiyatini tarjima tili sohiblariga xos xususiyat bilan almashtirib qo‘yish yoki tarjimani umuman bunday xususiyatdan mahrum etish kabi holatlarga yo‘l qo‘ymaslikdan iboratdir. [6; 93]

Shunday qilib, transliteratsiya xalqlar turmush tushunchalarini aks ettiradigan xos so‘zlarni tarjimada talqin etishning eng samarali usullaridan bo‘lib, uning yordamida asliyatning milliy xususiyati siqiq holda talqin etiladi. Tarjima tilida goho asliyatdagi lisoniy vositalar ma’nolariga ma’lum darajada yaqinroq mazmunli birliklar uchrasada, ular o‘zlarining shartli muqobillaridan yo xislat-xususiyat yoki shakl-hajm-miqdor jihatalaridan farqlanadilarki, bu tafovut ularning tarjimada o‘zaro almashinuviga yo‘l qo‘ymaydi. Masalan, asliyat mansub bo‘lgan xalqqa xos pul hamda masofa-uzunlik birliklari, ro‘zg‘or ashyolari, kiyim-kechak, yegulik-ichkilik kabi ko‘pgina tushunchalarni angalatadigan so‘zlarni transliteratsiya yo‘li bilan talqin etish asarda aks etgan o‘ziga xos muhit va sharoitning kitobxon ko‘z oldida ochiq-oydin jonlanishini ta’minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shunday qilib, transliteratsiya leksik transformatsiyasi realiya mavzusi bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Chunki realiyalar bu biror xalqqa xos bo‘lgan narsa, hodisalarni bildiruvchi so‘zlar, geografik nomlar va xos nomlar, tabriklar va murojaatlarni bildiruvchi so‘zlar hisoblanadi. Realiyalar - xos so‘zlar deb ham ataladi. Ular faqat bir xalqqa tegishli bo‘lgan milliy so‘zlarni izohlab kelishadi. Natijada tarjima tilida ularga ekvivalent topish muammo bo‘ladi. Tarjimon esa bu muammoga leksik transformatsiya turi transliteratsiya orqali yechim topadi.

Mazkur maqolada o‘zbek tilidan ingliz tiliga transliteratsiya leksik transformatsiyasi vositasida tarjima qilingan leksik birliklarni lingvokulturologik tahlil qilishga harakat qildik. Lingvokulturologik tahlilda asosan chog‘ishtirma, transformatsion va komponent tahlil metodlari qo‘llaniladi. Bunda ikki qardosh bo‘lmagan tillar qiyoslanganda **chog‘ishtirma** metoddan foydalanilsa, tarjimada murakkab gaplar sodda gaplar shaklida tarjima qilinganligi yoki uning aksi kuzatilganligi **transformatsion metod** asosida aniqlanishi mumkin. **Komponent tahlil metodida** esa asliyat matni madaniy til birliklari va tarjima matni so‘zlarining komponent ma’nolari orasidagi o‘xshashlik va farqli jihatlarini oson tushunilishi uchun ularni jadval ustunlarida alohida ajratib ko‘rsatgan holda taqdim etilishi tushuniladi. Aynan mazkur metoddan lingvokulturologik tadqiqda unumli foydalaniladi. Chunki turli xalqlar madaniyatiga doir so‘zlar tarjimasini ularning asliyat tili muqobili bilan qiyoslash maqsadida jadval ustunlariga joylagan holda tahlil qilish tilshunos uchun qulaylik yaratadi. Shuningdek, bunda so‘zning tarjimada berilgan varianti asliyat matnidagi ekvivalentining aynan muqobili bo‘la olganmi yo‘qmi, ya’ni, so‘zlarning komponent tahlilini amalga oshirish uchun juda qulay hisoblanadi.

Mildred L. Larson ta'kidlaganidek, komponentli tahlil tilning ma'lum sohalarida qo'llanilib, u qo'llaniladigan sohaları uchun juda foydali bo'lishi mumkin. Masalan, tarjima va uning lingvokulturologik tahlili bunga misol bo'la oladi. Chunki tarjima jarayonida asliyat va tarjima tili so'zlarining umumiy va qarama-qarshi xususiyatlarga asoslangan bir-biri bilan aloqasi bo'lishi mumkinligi, aynan komponent tahlilni amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan belgilar orasidagi kontrastni ko'rsatadigan ba'zi nolingvistik xatti-harakatlarni ifodalaydi. Bunga realiya misol bo'la oladi. Chunki ular faqat ma'lum bir mamlakat xususiyatlarini bildiruvchi madaniy so'zlarni bildiradi. [7; 90]

So'zlarning madaniy ma'nosi tarjimadagi eng qiyin muammolardan biri bo'lib, u asosan madaniyatlar o'rtasidagi farqlarda topiladi. Muayyan madaniyatning odamlari narsalarga o'z nuqtayi nazaridan qarashadi. Tarjima jarayonida asliyat matni til birligining ekvivalentiga o'xshab ko'ringan ko'plab so'zlar aslida tarjima tilida uning muqobil varianti bo'la olmasligi mumkin. Chunki har bir til tizimi o'zining maxsus ma'nolariga ega. Misol uchun, cho'chqa so'zi yahudiy madaniyatida juda salbiy ma'noga ega, ammo Papua-Yangi Gulnea madaniyatlarida cho'chqa juda ijobiy ma'noga ega, chunki cho'chqalar madaniyatning juda muhim qismidir. Amerika madaniyatida bu so'z ko'pchilikda neytral hisoblanadi. Bu farq madaniy o'zgarishlarga va cho'chqalarning jamiyatdagi roliga asoslanadi. [7; 149]

Komponent tahlilda so'zlarning ma'no komponentlarini oson ajratib olish uchun ular jadval ko'rinishida taqdim etiladi. Mildred L. Larson tarjima muammolariga sabab bo'luvchi turli xil tillar tizimi o'rtasidagi farqni ko'rsatish uchun asliyat tili va tarjima tili olmosh so'z turkumini solishtirgan. Bunda avvalo til tizimlari yaxshilab o'rganiladi va keyin olmosh shakllari vazifasiga ko'ra jadval ustunlariga joylashtiriladi. Shunday qilib, tarjimada leksik to'plamni ko'rsatish uchun avvalo so'zlar jadvallarga kiradi, jadvaldagi ustunlar esa so'zlar orasidagi kontrastning asosi bo'lgan ma'no komponentlarini alohida ko'rsatish uchun qo'yiladi. Mazkur maqolada komponent tahlil uchun quyidagicha ko'rinishdagi jadval qo'llaniladi, chunki so'zlarning ma'no komponentlarini leksik jadval ustunlariga qarash orqali oson ajratish mumkin.

Til birlikining ma'nosini bir-biriga yaqin, o'xshash bo'lgan boshqa bir til birliklari ma'nolarini o'rganish orqali aniqlash mumkin. Bunda so'zlar orasidagi muhim farqlar yoki qarama-qarshiliklardan tashqari hech qanday ma'noni anglash imkoniyati bo'lmaydi. Ammo bir-biriga bog'liq bo'lgan so'zlarni guruhlash va keyin bu so'zlar orasidagi kontrastni tizimli ravishda ko'rib chiqish orqali ma'noni aniqlash mumkin. Shunday qilib, umumiy ma'no komponentlari va qarama-qarshi ma'no komponentlarini yanada aniqroq tasvirlash mumkin. Bunda leksik birlik turli yo'llar bilan o'zaro bog'lanib, turli xil semantik to'plamlarda uchrashi mumkin. [7; 87]

Realiya bilan ishlashda tarjimaning pragmatik tomoniga ham alohida e'tibor berish kerak bo'ladi. Bunda, avvalo, asl nusxada berilgan voqea-hodisalar va ular bilan bog'liq tasvirni to'g'ri ko'rsatish uchun asliyat tilida tasvirlangan hayot davrining tenorini va mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini bilish kerak bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida keltirilgan fikrlarni realiyalar tarjimasi bilan bog'lash mumkin. Chunki realiyalar xos so'zlar hisoblanib, ularning boshqa so'zlardan asosiy farqi shundaki, realiyalar faqat ma'lum bir joyga xos bo'lgan so'zlarni bildirib keladi. Shu nuqtayi nazardan, tarjimada ularning tarjimasini transliteratsiya qilish orqali berish juda muhim omil sanaladi. Tarjimada transliteratsiya bilan birga transkripsiya usuli haqida ham eshitamiz. Transkripsiya va transliteratsiya – tarjima tili harflari yordamida asliyatning leksik birliklari shaklini qayta tiklash hisoblanadi. Transkripsiyada begona tildagi so'zning tovush shakli qayta tiklanadi. Transliteratsiyada esa so'zning grafik shakli, ya'ni, harfiy tarkibi qayta tiklanadi. Bugungi kunda transkripsiyaning ayrim transliteratsiya elementlarini o'z ichiga olgan shaklidan unumli foydalanilmoqda. Shu o'rinda aytish joizki, asosli transliteratsiya milliy tillar boyishiga keng yo'l ochadi, kitobxon tasavvurini boyitib, asliyat milliy bo'yog'ini kitobxon ko'z oldida aynan jonlantiradigan ifodalarni vujudga keltiradi. Shuningdek, tillarning lug'at zahirasini kengaytiradi. Misol uchun, o'zbek tili lug'ati tarkibida ko'plagan o'zga xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy vositalarni uchratish mumkin. Shubhasiz, ular transliteratsiya leksik transformatsiyasi vositasida o'girilgan bo'ladi. Endilikda, o'zbek tilining milliyligini o'zida saqlovchi jummalarni chet tillarida ham uchratish mumkin. Misol uchun, o'zbek romanchiligining durdonasi bo'lmish "O'tkan kunlar" asarining ingliz tiliga Kerol Yermakova, Mark Eduard Riz va Ilhom To'xtasinovlar tomonidan qilingan tarjima variantlari o'zbek tilining dunyoga tanilishiga imkon yaratishdi, bu bilan ular o'zbek tili milliy til birliklarini ingliz tilida ham jaranglashiga o'zlarining ulkan xissalarini qo'shishdi. Chunki, tarjima tilida o'zbek tilining madaniy til birliklari transliteratsiya leksik transformatsiyasi orqali o'girilganligiga guvoh bo'lishingiz mumkin. Tarjimonlar uddaburonlik bilan o'zbek xalqi turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy vositalarni uning milliyligini saqlagan holda ingliz kitobxoniga taqdim etishgan. Misol uchun, "O'tkan kunlar" romanida kelgan realiyalar va ularning tarjimasiga yuzlansak:

Asliyat matni (Abdulla Qodiriy): “Uxlab ketalmadi. Ko‘ynakchan egniga **choponini** yopinib o‘rnidan turdi, hujradan chiqib Otabek darichasi ostig‘a yana kelib o‘lturdi.” [8; 22]

Tarjima matni (Kerol Yermakova): Sleep evaporated without a trace. Throwing his **chapan** over his nightshirt, Khasanali rose from his bed, abandoned his room and went to crouch once again by Atabek’s door. [9; 26]

Tarjima matni (Mark Eduard Riz): His sleeplessness persisted. Wearing only a long shirt, Hasan Ali again put on his **robe**, left his room, and resumed his position outside Otabek’s small window, standing guard under it. [10; 42]

Tarjima matni (Ilhom To‘xtasinov): Dream completely evaporated. Putting on his **chopon** over his shirt, Hasanali got out of his sleeping place, left his room and sat down in front of Otabek’s room. [11; 24]

Asliyat matnida kelgan “chopon” so‘zi o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan kiyinish madaniyatining qadimdan kelayotgan bir turi hisoblanadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “chopon”ga shunday ta‘rif berilgan: “kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan uzun milliy kiyim; to‘n”. Shuningdek, uning “beqasam chopon”, “paxtali chopon”, “zarbof chopon” kabi turlari ham mavjudligi aytib o‘tilgan. [12; 506] Tarjima matnlarida Kerol Yermakova “chapan” deb transliteratsiya qilgan bo‘lsa, Mark Eduard Riz “robe” deb uning ma‘nosini umumlashtirib bergan. Ilhom To‘xtasinov esa “chopon” deb milliylikni saqlagan holda o‘g‘irgan. Bu yerda Mark Eduard Riz tarjimasidagi “robe” so‘zi o‘zbek tilida “xalat” degan ma‘noni anglatadi. Ingliz tilida “robe” so‘ziga “a long loose outer piece of clothing, especially one worn on very formal occasions or at a special ceremony, as a sign of rank” (uzun, yumshoq materialdan bo‘lgan, asosan tantanali yoki maxsus marosimlarda odamlarning martabasini belgilovchi ustki kiyim) deb ta‘rif berilgan. Shuningdek, uning “a long loose piece of clothing that you wear over your night clothes or after a bath” (tungi kiyim yoki dush qabul qilgandan keyin kiyiladigan uzun yumshoq kiyim turi) degan ta‘rifi ham mavjud bo‘lib, uning “bathrobe” (hammom xalati), “dressing gown” (asosiy kiyimlar ustidan kiyiladigan, ustki kiyim) kabi sinonimlari bor. [13] Ammo bu sinonimlar ro‘yxati va keltirilgan ta‘riflarning hech birida “ichiga paxta solib, qavib tikilgan” degan izoh keltirilmagan. Inglizlarning kiyinish madaniyatida paxtadan qavib tikilgan xalatni uchratish qiyin, chunki ularda bunday xalat mavjud emas. Shunday ekan, o‘zbek o‘quvchisi chopon va xalat orasida qanchalik farq mavjudligini anglay oladi. Ammo bu tafovutni ingliz kitobxonini ham o‘zbek o‘quvchisidek tushuna oladi deyolmaymiz, bu tushunmovchilik esa xalqlar orasidagi kiyinish madaniyatining ulkan tafovuti mavjudligi bilan izohlanadi.

O‘zbek tilidagi xos so‘zlarning ingliz tiliga tarjimasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Quyidagi jadvallarda o‘zbek romanchiligining durdonasi bo‘lmish “O‘tkan kunlar” asarining ingliz tiliga Kerol Yermakova, Mark Eduard Riz va Ilhom To‘xtasinovlar tomonidan amalga oshirilgan tarjima variantlarida uchragan realiyalar ro‘yxati berilgan:

Asardagi transliteratsiya leksik transformatsiyasiga uchragan kundalik hayot realiyalari – biror xalqqa xos bo‘lgan narsa, hodisalar va hokazolarni bildiruvchi so‘zlar ro‘yxati hamda ularning asliyatda va tarjimadagi ifodalanishi

Abdulla Qodiriy	Kerol Yermakova	Mark Eduard Riz	Ilhom To‘xtasinov
Fotiha	Fatiha	Fatiha	Fatiha
Dutor	Dutar	Dutar	Dutor
Nisholda	Nishalda	Nishaldah	Nisholda
Palov	Pilaf	Plov	Pilaf
Paranji	Paranja	Paranji	Paranji
Dasturxon	Dastarkhan	Dasturkhon	Dasturxon
Ota	Ata	Ota	Ota
Adras	Adras	Adras	Adrass
Saroy	The caravanserai	Serai	Caravanserai
Omin	Amen	Amen	Omen
Ko‘rpa	Kurpach	Korpacha	Kurpacha
Varaqi	Puff-pastry pies	Varaqi	A meat pie
O‘rda	The fortress	An orda	Orda
Taqsir	Taksyr	Taksir	Chief
Nikoh	Nikhoh	Nikah	Recitation
Yanga	Matchmaker	Yanga	Sister-in-law
Mahr	The property	Mahr	Mahr

LINGUISTICS

Salovot	The prayers honouring the prophet	Salawat	Prayer
Hoji	Hadji	Hajji	Khoji
Qipchoq	Kipchaks	Qipchaqs	Qipchoks
Qora chopon	Karachapan	Qora Chopan	Qorachopons
Ichkari	Ichkari	Ich Kari	The room
Xuftan	The final evening prayers	Khuftan	Night time prayer
Navo	Navo	Navo	Navo

Asardagi transliteratsiya leksik transformatsiyasiga uchragan geografik nomlarni bildiruvchi soʻzlar roʻyxati hamda ularning asliyat va tarjimadagi ifodalanishi

Abdulla Qodiriy	Kerol Yermakova	Mark Riz	Ilhom Toʻxtasinov
Margʻilon	Margilan	Margilan	Margilon
Toshkand	Tashkent	Tashkent	Tashkent
Samarqand	Samarkand	Samarqand	Samarkand
Buxoro	Bukhara	Bukhara	Bukhara
Eron	Iran	Iran	Persia
Andijon	Andizhan	Andijon	Andijan
Qoʻqon	Kokand	Qoqan	Kokand
Oʻris	Russian	Russian	Russian
Oʻris Shahar	Urus city	The city of Shamai	Russian town
Shamay	Shamay	Shamai	Shamai (Semipalat)
Oʻrisning Shamayi	Russian Shamay	Shamai	Russian Shamai
Turkiston xonligi	Turkestan Khanate	Turkistan	Turkistan khanate
Fargʻona	Fergana	Ferghana	Ferghana
Beklarbegi madrasa	Beklarbegi madrasah	Beklarbegi Madrassa	Madrassah, "He is a Bek of the Beks"

Tarjimada transliteratsiya qilingan kishi ismlari

Asliyat tili	Tarjima tili		
Abdulla Qodiriy	Kerol Yermakova	Mark Riz	Ilhom Toʻxtasinov
Otabek	Atabek	Otabek	Otabek
Yusufbek hoji	Yusufbek-hadji	Yusufbek hajji	Yusufbek Khoji/hoji
Oʻzbek oyim	Uzbekayim	Uzbek Oyim	Ozbekoyim
Rahmat	Rakhmat	Rahmat	Rahmat
Homid	Hamid	Hamid	Homid
Homidboy	Hamid-bai	Hamidboi	Homidboy
Hasanali	Khasanali	Hasan Ali	Hasanali
Ziyo shohichi	Ziya-shakhichi	Ziyo Shohichi	Ziyo Shohichi
Mirzakarimboy	Mirzakarim-bai	Mirza Karimboi	Mirzakarimboy
Oftob oyim	Oftobayim	Oftob Oyim	Oftoboyim, Oftob Oyim
Kumushbibi	Kumush-bibi	Kumush Bibi	Kumush Bibi, Kumushbibi
Zaynab	Zainab	Zainab	Zaynab
Oybodoq	Aibadak	Oibadak	Oybodok
Sorabek oyim	Sarabekayim	Sorabek Oyim	Sorabek-oyim
Toʻybeka	Toibeka	Toibeka	Toybeka
Akram hoji	Akram-hadji	Akram Hajji	Akram Khoji
Qutidor	Kutidor	Qutidor	Qutidor
Azizbek	Azizbek	Azizbek	Azizbek
Musulmon choʻloq	Musulman Kul-the-Lame	Muslim Choʻloq	Lame Musulman
Amiri Umarxon	Amir Umarchan	Umar Khan	Amiri Umarchon
Musulmonqul	Musulman Kul	Musulmanqul	Musulmonqul
Sherali	Sherali Khan	Sher Ali	Sheralihon

LINGUISTICS

Murodxon	Murad Khan	Murad Khan	Murad khan
Salimsoqbek	Salimsakbek	Salimsoqbek	Salimsoqibek
Xudoyor	Khudayar	Khudayar Khan	Khudoyor
Normuhammad qushbegi	Nar Muhammad Kushbegi	Nur Muhammad Qushbegi	Normuhammad Qushbegi
Gulsinbibi	Gulsun	Gulsin Bibi, Gulsin	Gulsinbibi, Gulsin
Xonimbibi	Khanym-bibi	Khanum Bibi	Xonimbibi, Xonbibi
Savra	Savra	Sevara	Sora
Muhammadrahim	Muhammed Rakhim	Muhammad Rahim	Muhammadrahim
Yo'ldosh	Yuldash	Yuldosh	Yuldosh
Anorgul	Anargul	Anorgul	Anorgul

Xulosa va takliflar. Tarjima jarayoni bu asliyat matniga mos va teng bo'lgan tarjima matnini yaratishdir. Bunda tarjimon, avvalo, asliyat matnini tushunishi va tarjimada unga mos va teng bo'lgan matnini qayta yaratishi lozimdir. Aynan mana shu joyda tarjimon tarjima transformatsiyalariga ehtiyoj sezadi. Chunki tarjimaning muvofiqligi turli leksik va grammatik transformatsiyalar orqali amalga oshiriladi.

Tarjima transformatsiyalari deganda, asliyat birliklarining tegishli ma'noda tarjima birliklariga o'girilishi tushuniladi. Transformatsiya – tarjima metodi, tarjima usuli deb ham ataladi. Mazkur maqolada biz tarjima transformatsiyasining aynan leksik transformatsiya turiga kiruvchi transliteratsiya usuli haqida fikr yuritdik va “O'tkan kunlar” romanining ingliz tiliga tarjima variantlaridan misollar keltirdik.

Xulosa qilib aytganda, asliyat tili muhitini tarjima tilida yaratishda muqobil ekvivalentlariga ega bo'lmagan lisoniy vositalar tarjimada transliteratsiya leksik transformatsiyasi yordamida beriladi. Natijada, tarjima tili lug'at tarkibidan o'rin olmagan, unda mavjud muqobiliga ega bo'lmagan vositalar ba'zi hollarda kitobxonning asliyatda bayon etilgan fikr haqidagi tasavvurini ta'minlay olmaydi. Buni oldini olish maqsadida esa tarjimonlar ushbu so'zlar izohini muqovaning pastki qismida berib ketishadi va bu bilan ular tarjima tili kitobxonni tasavvurida paydo bo'lishi mushkul bo'lgan tushunchani unga to'liq aks ettirishga erishadilar.

Shunday qilib, transliteratsiya leksik transformatsiyasi milliy qadriyatlarni anglatuvchi leksik birliklarni tarjima qilish usuli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. I. G'ofurov, O. Mo'minov, N. Qambarov. *Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma.* - Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2012. – B. 119.
2. Zohid Jumaniyozov. *Tarjimaning nazariy va amaliy asoslari.* –Toshkent, 2018. B. 81-82.
3. V.N. Komissarov. *Translation theory.* 1990. 172 p.
4. J. C. Catford. *A linguistic theory of Translation.* Oxford University Press. 1965. 68 p.
5. E.S. Aznaurova, Kh. I. Abdurakhmanova, I.M. Demidova, M.T. Iriskulov, N.V. Phomenko, M.A. Sabirova, S.T. Takhirjanova, M.K. Khudaiberganova. *Translation theory and practice. «O'qituvchi».* Tashkent. 1989. 10 p.
6. Q. Musayev. *Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik.* T.: O'zbekiston Respublikasi FA. “Fan” nashriyoti, 2005. – B. 89, 93.
7. Mildred L. Larson. *Meaning-based translation: a guide to cross-language equivalence.* -2nd ed. Copyright 1998 by University Press of America, Inc. Lanham, New York, Oxford. 88 p.
8. Abdulla Qodiriy. *O'tkan kunlar. Roman. “Sharq”.* Toshkent 2018. – B. 22.
9. Abdulla Qadiri. *Days Gone By. Translated by Carol Ermakova. Karimov foundation. Nouveau Monde editions,* 2018. Paris. 26 p.
10. Abdulla Qodiriy. *O'tkan kunlar (Bygone Days). Translated by Mark Reese. Published by Muloqot Cultural Engagement Program. Nashville TN. 2018. 42 p.*
11. Tukhtasinov I.M., Muminov O.M., Khamidov A. Abdulla Qodiriy. *The Days Gone By. Novel.* – T.: «Mashhur-Press», 2017. – B. 24.
- 12 E. Begmatov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov, T. Mirzayev (rahbar), N. To'xliyev, E. Umarov, D. Xudoyberganova, A. Hojiyev. *The Explanatory dictionary of the Uzbek language. State scientific publishing house «National encyclopedia of Uzbekistan».* Tashkent. 506 p.
13. *E-version of the Oxford Advanced Learner's Dictionary.*

FRANSUZ TILIDA GRAFOSTILISTIK VOSITALARNING PSIXIK HOLATLARNI KO'RSATIB BERISHIDAGI ROLI (Badiiy asarlar misolida)

Islomov Dilshod Shomurodovich,
Buxoro davlat universiteti doktoranti
d.s.islomov@buxdu.uz
<https://orcid.org/0000-0001-8793-8031>
<https://buxdu.academia.edu/DilshodIslomov/>

Annotatsiya. Mazkur maqolada fransuz tilidagi badiiy asarlarda grafostilistik vositalarning o'rni, ahamiyati, uslubiy va semantik xususiyatlari to'g'risidagi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari keltirilgan va ularga munosabat bildirilgan. Shu bilan birga, badiiy asarlardan olingan misollar tahlilga tortilgan, ularning psixik holatlarni ko'rsatib berishi, inson ruhiyatiga bo'ladigan ta'siri, insonning tashqi muhitda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqea-hodisalarga bo'lgan ijobiy va salbiy munosabati dalillangan.

Kalit so'zlar: orfografiya, stilistika, grafostilistika, psixik holat, diskurs, semantika, ruhiy holat, tinish belgilar, grafologiya, grafologik tasnif, hissiyot, psixik hodisa, lingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, sotsiolingvistika.

РОЛЬ ГРАФОСТИЛИСТИЧЕСКИХ ПРИЁМОВ В РЕПРЕЗЕНТАЦИИ ПСИХИЧЕСКИХ СОСТОЯНИЙ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ (на примере художественных произведений)

Аннотация. В данной статье представлены научно-теоретические взгляды учёных на роль, значение, стилистические и семантические особенности графостилистических средств во франкоязычных художественных произведениях, а также комментарии к ним. При этом на примерах из художественных произведений были проанализированы проявления их психических состояний, влияние на психику человека, положительные и отрицательные реакции на изменения внешней среды и событий.

Ключевые слова: орфография, стилитика, графостилитика, психическое состояние, дискурс, семантика, пунктуация, графология, графологическая классификация, эмоция, психический феномен, лингвистика, психолингвистика, нейролингвистика, социолингвистика.

THE ROLE OF GRAPHOSTYLISTIC DEVICES IN REPRESENTING MENTAL STATES IN FRENCH (exemplified by works of fiction)

Abstract. This article presents the scientific-theoretical views of scientists on the role, importance, stylistic and semantic features of graphostylistic tools in French-language works of art, and comments on them. At the same time, the examples taken from the works of art were analyzed, their manifestation of mental states, their influence on the human psyche, positive and negative reactions to the changes in the external environment, and events were proved.

Keywords: orthography, stylistics, graphostylistics, mental state, discourse, semantics, punctuation, graphology, graphological classification, emotion, mental phenomenon, linguistics, psycholinguistics, neurolinguistics, sociolinguistics.

Kirish. Yozuvning inson ruhiy hayotning individual xususiyatlari bilan aloqasi haqidagi ilmiy nazariyalar ilk marotaba antik davrda ifodalangan bo'lsa-da, yozuv va shaxs o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi birinchi batafsil asar mashhur italiyalik shifokor Kamillo Baldi (1622) tomonidan yozilgan.

Abbe Jan Hippolyte Michon (1807-1881) zamonaviy grafologiyaning otasi hisoblanadi. Michon yozuvining o'ziga xos xususiyatlarini to'pladi va katalogladi ular shaxsiy fazilatlar o'rtasida qat'iy yozishmalar o'rnatishga harakat qildi. Olimning eng asosiy asarlaridan biri 1875- yilda nashr etilgan "Grafologiya tizimi" asosan 5 qismdan iboratdir [1, B, 85].

- 1) Falsafiy grafologiya
- 2) Grafik anatomiya
- 3) Grafologik terminologiya
- 4) Grafik fiziologiya


5) Grafologik tasnif

“Grafologik tasnif” nomli asari o‘z navbatida 8 ta tasnif, 83 ta buyruq, 98 ta turkum va 360 ta nuans (yoki turni) o‘z ichiga olgan. Bundan ko‘rinib turibdiki olimning lingvistik, grafologiya, falsafa, terminologiya kabi fanlar ustida olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari alohida ahamiyatga molik. Shu bilan birga grafologiyani inson ruhiyati bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganib, uni isbotlab bergan ilk olimlardan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Grafologiya – shaxs va yozuv o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Bu fanning o‘tmishiga nazar soladigan bo‘lsak, uning tarixi qariyb 300 yilga borib taqalishini ko‘rishimiz mumkin. Qadimgi hujjatlar va manbalarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, bu fan bilan Neron va Konfutsiy ham shug‘ullangan. Grafologiya haqida birinchi kitob 1630 - yilda italyan tilshunos olim, professor Kamillo Baldo tomonidan nashr qilingan. Uning izdoshi fransuz psixologi, olim va rohib Flandren yangi fanni boshqa fanlardan ajratib ko‘rsatish maqsadida ikkita yunon so‘zlaridan foydalangan, ya‘ni «grafo» yozmoq va «logos» (mahno, fan), so‘zlarini qo‘llash orqali tilshunoslikda yangi bo‘limni paydo bo‘lishida asosiy davogar bo‘ldi [4,B, 52].

Insonning ichki kechinmalarini ko‘rsatib beruvchi, uning hayotiy yo‘lini ko‘p jihatdan belgilab beradigan, vatanparvarligini ham namoyon qiladigan “his-tuyg‘u”dir. *His-tuyg‘ular* – insonning tashqi muhitda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, voqea-hodisalar, qolaversa, jamiyatda bo‘lib o‘tadigan bayramlar, insonlar o‘rtasidagi muloqotlar, ta‘ziya marosimlarga nisbatan o‘zicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir. Bu hissiyot hayotiy jarayonlar natijasida, turli xildagi to‘siqlardan o‘tish, eng yaqin insonidan ayrilib qolish, turli xil psixik holatlarga tushishi natijasida rivojlanib boradigan psixik hodisa desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Muhokama. XVIII-XIX asrlardan keyin intellektuallashtirish nuqtayi nazari tarafdori, nemis faylasufi, psixolog Iogann Fridrix Gerbart- hissiyotlarning organik ifodalanishlari- bu psixik hodisalarning oqibati haqidagi dalildir va bunda tasavvur fundamental psixologik dalil hisoblanadi, degan fikrni ilgari surgan. Yana bir mashhur nemis psixologi va tilshunos olimi Vilgelm Vundt fikricha esa, psixik jarayonlar ma‘lum organik o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. U.Jeyms va K.Langelarning fikricha, tashqi hodisalarga fiziologik reaksiyalar natijasida his-tuyg‘ular yuzaga kelishi mumkin degan nazariyani ilgari surishgan[1,B, 85].



Hissiyotning hozirgi zamon tarixi
1884-yil U.Jeymsning “Hissiyot nima?” maqolasi chop etilishidan boshlandi.


U.Jeyms va undan mustaqil ravishda K.Lange hissiyot nazariyasini ishlab chiqqan.

Ularning fikricha, tashqi hodisalarga fiziologik reaksiyalar natijasida his-tuyg`ular yuzaga kelishi mumkin.

Organik va emotsional jarayonlarning nisbatiga **uolter kennon** qarama-qarshi fikr bildirdi.

Aniqlashiga ko'ra (1920), insonda sun'iy tarzda hosil qilinadigan organik o'zgarishlar har doim ham hissiyotli kechinmalar birgalikda kuzatilmaydi.

Filipp bardning (1930) ko'rsatishicha, haqiqatda, tana o'zgarishlari va ular bilan bog'liq bo'lgan hissiyotli kechinmalar deyarli bir vaqtda paydo bo'ladi, bosh miya tuzilishidagi barcha qismlardan esa hissiyotlar bilan talamusning o'zi emas, balki, gipotalamus va limbik tizimning markaziy qismlari bog'lanadi.



Insonda sodir bo'ladigan ichki kechinmalar va his-tuyg'ularni so'z va so'z birikmalari yordamida nutqga chiqarilishi lingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, sotsiolingvistika kabi fanlarda keng o'rganiladi. Bu esa bizga psixologiya fanining lingvistika, sotsiologiya, falsafa va hattoki tibbiyot kabi fanlar bilan naqadar bog'liqligini ko'rish mumkin.

Natijalar. Tibbiyot fani bilan bog'liqligini ko'radigan bo'lsak, dunyo shifokorlari turli emotsional holatlarda insonning 1 minutda nafas olishning o'zgarishi quyidagi misollarda keltirib o'tilgan.

Xursandlikda - 17 marta

Faol xafalikda - 9 marta

Qo'rqishda - 64 marta

Jahl chiqqanda - 44 marta

Yuqoridagi misollarda shuni ko'rishimiz mumkinki inson turli xil ruhiy holatlarda 1 minut ichida nafas olishlar soni turlicha bo'lishi dunyo shifokorlari tomonidan fanda tasdiqlangan. Mazkur statistika insonning muloqot jarayoniga, so'zlashish uslubiga, qolaversa, og'zaki nutqda fonostilistik vositalarning ishtirokiga, yozma nutqda esa grafostilistik vositalarning ishtirokiga ta'sir qilmasdan qo'ymaydi albatta. Bu esa inson ruhiyatining psixologiyada, tilshunoslikda, fonostilistikada, grafostilistikada naqadar o'z o'rniga ega ekanligi yoxud bir-biri bilan uzviy bog'liq ekanligini aniq va ravshan ko'rishimiz mumkin.

Masalan:

Elles descendaient le matin. Bonjour, papa, disaient-elles. Je les prenais sur mes genoux. Oh mon dieu! Pourquoi ne sont-elles pas toujours restées petites?

(Honore de Balzac, Le pere Goriot. Paris 1983)

Yuqoridagi misolda otaning ko'zi oldida yugurib yurgan va ba'zida uning tizzasiga o'tirib oladigan farzandlari vaqtning tez o'tishi natijasida bir pasda ulg'ayib qolganidan hayratlanishi, ajablanishi tasvirlangan. Mazkur frazada undov va so'roq kabi grafostilistik vositalar orqali hayratlanish va ajablanish kabi psixik holatlarning inson ruhiyatiga bo'lgan ta'sirini ko'rish mumkin.

“Que veux-tu que je fasse de cela?

- Mais, ma chérie, je pensais que tu serais contente. Tu ne sors jamais, et c'est une occasion, cela, une belle! [...].”

Elle le regardait d'un oeil irrité, et elle déclara avec impatience:

“Que veux-tu que je me mette sur le dos pour aller là? [].”

(Guy de Maupassant. “La Parure”, dans Contes du jour et de la nuit. Paris 1984)

Yuqoridagi misollarda esa erkak kishi ayolini kasal bo'lib ko'chaga chiqmay, uyda zerikib, siqilib va tushkunlikka tushib qolganini ko'rib o'zi ham tushkunlikka tushib qolganini, shu bilan birga, ayoliga ozgina bo'lsa ham xursandchilik hadya qilish uchun turli xil rollarga kirishini ko'rishimiz mumkin. Bu misolda inson ruhiyatidagi o'zgarishlarni ko'rsatib berish uchun grafostilistik vositalarning naqadar mahorat bilan ishlatilganini ko'rish mumkin.

Les yeux brûlaient, on voyait seulement les tous des bouches noires, chantant la Marseillaise[...]. Au dessus des tête, [...] une hache passa, portée toute droite; et cette hache unique, qui était comme l'étendard de la bande, avait dans le ciel clair, le profil aigu d'un couperet de guillotine.

“ – *Quels visages atroces!*” *balbutia madame Hennebeau.*

(*Émile Zola, Germinal, Paris 1983, p.333-334*)

Yuqoridagi misolda fransuz yozuvchisi gunohkor insonlarni jazolash sahnasi atrofida yig'ilgan odamlarning yuziga qarab “ - Qanday dahshatli yuzlar!” deb bildirgan fikrida va insonlar yuzida qo'rquv, achinish, hayratlanish kabi psixik holatlarni bildirish maqsadida ishlatgan tinish belgilarning o'rni va ahamiyatini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Ils se mirent à marcher côte à côte, rêveurs et tristes.

Morissot repris: “ Et la pêche? hein! quel bon souvenir!” M.Sauvage demanda[...]

“- Si on y allait?”

- Où ça?

- À la pêche, donc.”

(*Guy de Maupassant. “Deux amis”, dans Boule de suif, Paris 1991, p 103-105.*)

- Oh! Là là! ce que tu es vieux jeu! cria Zorba en se bouchant les oreilles de ses grosses pattes.

- Ah! Mon pauvre grand-père, dit-il, comme je te comprends! Il m'arrive souvent de me dire: “ Ah! misère! Si au moins toutes les jolies femmes pouvaient mourir en meme temps que moi!”.

Et ils s'en vont, ils s'en vont...

(allons, ma mère, ils s'en vont!)

Ah! ma Noussa,

Ah! ma Noussa,

Vaï!

“Et en beuglant “Vaï!” je me jette sur Noussa et je l'embrace.

Mazkur misollarda yozuvchilar tinish belgilarning badiiy asarlarda qo'llanilishi orqali xursandchilik, mamnuniyat, tushkunlik, xafa va achinish kabi psixik holatlarni ko'rsatib o'tgan. Tilshunoslikda, psixologiyada, psixolingvistikada, sotsiolingvistika, pragmlingvistikada va boshqa sohalarning og'zaki va yozma nutq diskurslarida fono-grafostilistik vositalarning yozuvchilar, notiqqlar tomonidan mahorat bilan qo'llaganlarini ko'rish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, inson ongi, tafakkuri rivojlanib borayotganini barcha sohalarda, xususan, tilshunoslikda, psixologiyada, psixolingvistikada sohalarida aniq ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda tilshunos va psixolog olimlarning olib borayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari taqsiqga loyiq. Ayniqsa, Abbe Jan Hippolyte Michon, Iogann Fridrix Gerbart, Vilgelm Vundt, Uolter Kennon, Filipp Bard kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari psixolingvistikada nihoyatda muhim manbalardan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur maqoladagi ilmiy nazariyalar, berilgan misollar va tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, inson hayotidagi har bir kunni, to'satdan sodir bo'ladigan voqea-hodisalarni psixik holatlarsiz qabul qilish, tafakkur qilish, unga og'zaki va yozma tarzida munosabat bildirish inson tabiatiga xos emas desak, mubolg'a bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR:

1. *Émilie de Vars, Histoire de la graphologie, Libr. Baschet, Paris, 1877 (2^e éd.).*
2. *Adrien Varinard, J.-H. Michon, fondateur de la graphologie — Sa vie et ses œuvres, Bibliothèque graphologique, Paris, 1884.*
3. *N. Boymurodov “Amaliy psixologiya” Toshkent “Yangi asr avlodi” 2008*
4. *Z. Nishonova, Z. Qurbonova “Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya” “Tafakkur bo'stoni” Toshkent-2011.*
5. *Shomurodovich I. D. The emergence of psycholinguistics, the scientists'scientific-theoretical views and its connection with other sciences //journal of multidisciplinary bulletin. – 2023. – T. 6. – №. 5. – C. 213-218.*
6. *Shomurodovich I. D. À propos du terme phonopsychologie //Conferencea. – 2023. – C. 45-47.*
7. *Shomurodovich I. D. Le role de l'emotion en phonopsychologie //Conferencea. – 2023. – C. 77-79.*
8. *Islomov D. His-tuyg'uning paydo bo'lishi, uning asosiy holatlari psixolog olim kerroll ellis izard talqinida //Farg'ona davlat universiteti. – 2024. – №. 2. – C. 96-96.*
9. *Islomov D. Tilshunoslikda fonopsixologiya atamasining kirib kelishi //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2024. – T. 47. – №. 47.*

ЯЗЫКОВАЯ ИГРА В РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Разакова Маишхура Камолиддиновна,
соискатель кафедры “Методика начального образования”
Узбекско-Финляндского педагогического института
razakovamashxura77@gmail.com

Аннотация. В статье рассматривается языковая игра как лингвистический феномен. Языковая игра выступает как определенный тип речевого поведения говорящих, основанный на преднамеренном (сознательном, продуманном) нарушении системных отношений языка, то есть на изменении речевой нормы с целью создания неканонических языковых форм и структур. Выявлено, что языковая игра речетворческая деятельность, допускающая свободное использование разнообразных приемов. Языковая игра отражает творческое начало человека, проявляющаяся в речи с целью создания нестандартного высказывания, активизирует скрытые потенции языка, заставляет размышлять о противоречивых явлениях его функционирования.

Ключевые слова: ludic функция языка, языковая игра, языковая аномалия, языковая норма, ассоциативный контекст, словотворчество, валентность слова.

NUTQ FAOLIYATIDA NUTQIY O'YIN

Annotatsiya. Maqolada til o'yini lingvistik hodisa sifatida ko'rib chiqiladi. Til o'yini tilning tizimli munosabatlarini ataylab (ongli, o'ylangan) buzishga, ya'ni kanonik bo'lmagan til shakllari va tuzilmalarini yaratish uchun nutq normasini o'zgartirishga asoslangan so'zlovchilarning nutq xatti-harakatlarining ma'lum bir turi sifatida ishlaydi. Til o'yinlari turli usullardan erkin foydalanish imkonini beruvchi nutqiy-ijodiy faoliyat ekanligi ma'lum bo'ldi. Til o'yini odamning ijodkorligini aks ettiradi, nutqda nostandart bayonot yaratish maqsadida namoyon bo'ladi, tilning yashirin imkoniyatlarini faollashtiradi va uning faoliyatining qarama-qarshi hodisalari haqida o'ylashga majbur qiladi.

Kalit so'zlar: tilning kulgili vazifasi, til o'yini, til anomaliasi, til normasi, assotsiativ kontekst, so'z yasalishi, so'z valentligi.

LANGUAGE PLAY IN SPEECH ACTIVITY

Abstract. The article examines language play as a linguistic phenomenon. Language play is a certain type of speech behavior of speakers based on intentional (conscious, thoughtful) violation of systemic relations of language, that is, on changing the speech norm in order to create non-canonical language forms and structures. It was revealed that language play is a speech-creative activity that allows free use of various techniques. Language play reflects the creative beginning of a person, manifested in speech in order to create a non-standard statement, activates the hidden potential of language, makes one reflect on the contradictory phenomena of its functioning.

Keywords: ludic function of language, language play, language anomaly, language norm, associative context, word creation, word valence.

Введение. Речевая деятельность человека строится главным образом на использовании готовых коммуникативных единиц. Формируя высказывание, мы обязательно прибегаем к схемам, шаблонам, клише. А без овладения статусно-ролевыми и жанрово-ролевыми стереотипами общения, в которых языковые единицы достаточно прочно увязаны с типическими ситуациями, взаимодействие языковых личностей было бы затруднено. И все же, при справедливости приведенных рассуждений, допустимо говорить и об эстетических элементах обыденной каждодневной коммуникации. Своеобразие живого разговорного общения как раз состоит в том, что трафаретность и шаблонизация сочетается в нем с отчетливо выраженной установкой на творчество. Известный французский лингвист Ш. Балли писал: «Совершенно очевидно, что речь в самом широком смысле этого слова, то есть общенародный язык, обладает эстетическими ресурсами. Писатель, который сознательно стремится произвести тот или иной эстетический эффект, не создает каждый раз чего-то нового, а черпает основные элементы своего стиля из общенародного языка».

Результаты и обсуждение. Разумеется, смысл и функция творчества в разговорной речи отличаются от эстетических свойств художественного текста. В живой коммуникации творчество проявляется прежде всего в виде *языковой игры*.

Философы и психологи считают игру одним из фундаментальных свойств человеческой культуры. Это вид деятельности, который не преследует каких-то конкретных практических целей. Цель игры - доставить удовольствие людям, которые принимают в ней участие. Строго говоря, искусство тоже подчиняется законам игрового поведения. Языковая игра - феномен речевого общения, содержанием которого выступает установка на форму речи, стремление добиться в высказывании эффектов, сходных с эффектами художественной словесности. Подобное «украшательство» обычно носит характер остроты, балагурства, каламбура, шутки и т. д.

Языковая игра отличается от детского словотворчества. Она строится на отклонении от стереотипов при осознании неизбежности этих стереотипов. Если ребенок говорит «кошка рот заинула», «мы почайпили», «ухолодни воду» и т. п., создание им новых слов вынужденно - он просто не знает как нужно сказать. То же можно сказать о детских метафорах. Говоря «краснощекий автобус», «пушистенякая водичка» (о пеннистом следе за речным трамваем), «бутылку стошнило» (о шампанском), ребенок искренне приписывает всем этим предметам называемые свойства. Словотворчество ребенка - это творчество поневоле, творчество без установки на творчество.

Иное дело - языковая игра взрослых. Она начинается, как правило, только после овладения нормативными способами речевой коммуникации. «Когда чувство нормы воспитано у человека, - писал Л. В. Щерба, - тогда-то он начинает чувствовать всю прелесть обоснованных отступлений от нее». Если образованный человек говорит «ну побегли» или «а куды мне вещи девать?», он знает, что «побегли» и «куды» - это отступление от нормы. Но именно осознание такого отступления, нарочитое смешивание литературной нормы и областных элементов делает игру игрой.

Основная часть. Языковая игра имеет установку на комический эффект. Она воплощает в себе веселую, смеховую грань речевой деятельности человека. Но смешное в речи не должно игнорироваться как нечто несущественное, недостойное внимания ученых. Смех, как показал в своих работах М. М. Бахтин, - дело весьма серьезное. «Настоящий смех, - писал исследователь, - не отрицает серьезности, а очищает и восполняет ее. Очищает от догматизма, односторонности, окостенелости, от фанатизма и категоричности, от элементов страха или утешения, от дидактизма, от наивности и иллюзий, от дурной одноплановости и однозначности, от глупой истошности. Смех не дает серьезности застыть и оторваться от незавершимой целостности бытия».

Игра может затрагивать практически все уровни структуры языка. Так, например, разновидностью языковой игры становится искажение фонетической оболочки слова: вместо *еще* говорят *ишишо*, вместо *чай* - *цай*, вместо *бумажка* - *бамажка*. Игровые фонетические деформации слов могут иметь характер метатезы (перестановки слогов) - *очепятка* вместо *опечатка*, *наловочка* вместо *наволочка*, *мамерлад* вместо *мармелад*; протезы (использования вставных звуков) - *кроссворд* вместо *кроссворд*, *сытарик* вместо *старик* и т. п.

Деформироваться может не только фонетическая, но и морфологическая форма. Речевое балагурство может быть основано на разного типа преобразованиях грамматической формы слова: изменении родовой принадлежности существительного, нарочито неправильного образования падежных форм и т. д. Приведем примеры записей разговорной речи, приведенные в коллективной монографии московских лингвистов. «*Как поживает мой любимый друг?*» «*У них дети есть? Один деть всего*».

В игре могут создаваться формы, существование которых языковая система исключает; например, сравнительная степень существительного. «*У меня жена - ведьма, а у него - еще ведьмее*». «*Ты, конечно, орел, да я орлее*».

Языковая игра может строиться и на нарушениях, синтаксических закономерностей. Игровой эффект, к примеру, возникает при использовании непереходных глаголов в позиции переходных: «*Вы пообедали? Давайте я вас пообедаю*» (в смысле - покормлю); «*Нас всех вступают в общество охраны природы*» (в смысле - зачисляют); «*Я его раскормила, я его и похудею*» (заставлю похудеть) (примеры из книги Б. Ю. Нормана). Другой способ - абсолютное употребление глаголов, требующих обязательного распространения: «*А. Ну, как твоя жилетка? Б. Жилетка произвела!*» «*А, (уходя из дома в гости) Окинь меня!*» (в смысле - окинь взглядом).

Один из самых распространенных видов языковой игры - разрушение фразеологизмов, устойчивых языковых сочетаний. Иногда это выглядит в виде контаминации - скрещивания фразеологизмов, когда начало одной фразы присоединяется к концу другой: «*не плюй в колодец - вылетит не поймашь*», «*взялся за гуж - полезай в кузов*» и т. д. В других случаях русский

фразеологизм переиначивается на иностранный лад: «*Не по Хуану сомбреро*» (не по Сеньке шапка); «*Леди с дилижанса - пони легче*» (баба с возу кобыле легче); «*Пенс гинею бережет*» (копейка рубль бережет) и т. п.

Созданию игрового комического эффекта служит и придумывание псевдофразеологизмов, в которых фраза-сентенция строится по принципу алогизма: «*лучше переспать, чем недоест*», «*лучше быть богатым, но здоровым, чем бедным, но больным*», «*лучше синица в руке, чем утка под кроватью*», «*трудно будет - деньги высылай*», «*будете рядом - проходите мимо*», «*некрасивая, зато глупая девчонка*» и т. п.

Интересный тип языковой игры - буквализация фразеологизмов. Элементы неразложимых идиоматических сочетаний в этих случаях используются в свободном несвязном значении. В качестве иллюстрации такого рода игры можно привести начало юморески А. Дегтярева «Глубинка».

Хата Макара стояла с краю, на кисельных берегах реки Молочной. Встав как-то поутру с прокрустовы ложа и вломившись в открытую дверь, Макар подлил масла в огонь, вывел на чистую воду уток и привычно погнал куда-то телят.

Утро было ясное, как божий день. Отмахнувшись от дыма без огня, Макар покотился по наклонной плоскости вниз, к стаду.

На пастбище телята разбрелись - кто в лес, кто по дрова. Макар сел в лужу, закусил удила и просто открыл ларчик с ломаным грошем, который он ошибочно принимал за чистую монету. Послышался звон. «Откуда он? - подумал Макар и посмотрел вокруг сквозь пальцы...

Самым ярким проявлением языкового балагурства по праву считается словообразовательная игра. Она напоминает описанное К. И. Чуковским детское словотворчество (о котором мы уже вели речь и еще будем говорить). Чаще всего такой тип игры проявляется в создании окказионализмов, слов-минуток, образованным по частотным словообразовательным моделям. Вот несколько примеров из упомянутого коллективного исследования разговорной речи: «*Его надо почаще окиношивать*» (водить в кино); «*Ну, всех оспасибела*» (сказала спасибо); (разговор о приезде гостей) «*Они охалатены, опростынены. И оподушкены*»; «*Она вообще-то мегероватая*»; «*Петров уже в нашей школе петровствует*».

Окказионализмы подобного типа могут использоваться в различного рода стихотворных эпиграммах. Ярким примером здесь может служить знаменитая эпиграмма А. С. Пушкина на своего лицейского друга поэта В. К. Кюхельбекера.

Однажды Александр Сергеевич пришел в гости к своему лицейскому другу А. Дельвигу и застал его в мрачном расположении духа. На вопрос о причинах нездоровья Дельвиг поведал:

— Понимаешь, я за ужином слишком плотно покушал, а тут. Кюхельбекера черт принес: весь вечер меня одами мучил.

Пушкин тут же сочинил эпиграмму:

*За ужином объелся я,
А Яков запер дверь оплошно —
Так было мне, мои друзья,
И кюхельбекерно и тошно.*

Возникая в речи, подобные новообразования обычно тут же забываются и исчезают бесследно. Наиболее удачные из них могут повторяться в какой-либо группе языковых личностей. Самые яркие - способны просочиться в широкое словоупотребление и даже войти в словарь общенародного языка.

В начале статьи мы рассказывали о существовании в сознании языковой личности ассоциаций по формальному сходству. Иными словами, мы связываем между собой слова, схожие по звучанию. Подобная особенность речевого мышления стала основанием для классического вида языковой игры - каламбура. Каламбур строится на замене слов схожими по фонетическому звучанию. Магазин «Дары природы», к примеру, в шутку называют «Дыры природы». Вот еще несколько примеров из записей разговорной речи,

«*Там такая дверь в стиле вампир*» (ампир); «*Шампуньского купим или сухонького?*» (ср. шампанское - шампунь); «*А. Ты что делаешь? Б. Весь вечер ёжилась*» (занималась йогой); «*Где ваш смутно-финансовый отчет*», (сметно-финансовый); «*Я сегодня ездил в обманное бюро*» (обменное); «*Его эрудация - сплошная ерундация*»; «*Намученный работник*» (научный) и т.п.

На таком же принципе основана игра в «опечатки», приводимы в разных юмористических разделах газет и журналов:

«*с подлинным скверно*», «*свинная душонка*», «*бальзамовский возраст*», «*колесо оборзения*», «*дымочаццы*», «*грездидум*», «*полуфабрикант*», «*кочка зрения*», «*наперекур судьбе*», «*железобекон*», «*торт ванильный с орехами*», «*выпившийся из учебного графика*», «*кайфедра*», «*смертельная доза*»

обучения», «нагло-русский словарь», «заедание кафедры», «общежитие», «грезидент», «травительство», «крадукты», «свиноватое выражение лица», «умеренность в завтрашнем дне», «избирательный участок» и т. п.

Особо следует остановиться на каламбурах, которые строятся на явлении, сходном с феноменом народной этимологии. В этом случае слово подается в нарочито неверном значении, которое вытекает из неправильного толкования внутренней формы. Этот игровой принцип, кстати сказать, часто используется в анекдотах. В качестве примера приведем литературный анекдот XIX века.

Критик Ф. Булгарин очень любил посещать похороны своих коллег-литераторов. Однажды он оказался на похоронах Н. А. Полевого, с которым при жизни у него были весьма неприязненные, отношения. Булгарин попытался пристроиться среди друзей покойного, несших гроб. Те прогнали его, сказав: «Ты достаточно поносил его при жизни».

Вот примеры из записей разговорного общения.

«Ну вот, мы с вами и огорошены» (две женщины, купив одинаковые платья в горошек); «Буду заниматься сердцеедством» (беря печенье в виде сердца); «Я ужасная распутница» (разматывая шерсть); «Отвари потихоньку сосиску» и т. д. На нарочито неверной интерпретации производных слов построен игровой шуточный словарь, который еще в студенческие годы вместе с однокашниками-филологами придумал психолингвист Б. Ю. Норман. Он получил столь же шуточное название - «Энтомологический словарь». Начав свое существование в студенческой стенгазете, словарь вскоре перекочевал на знаменитую юмористическую 16-ю страницу «Литературки». Став предметом всенародного обозрения, словарь неожиданно для его авторов приобрел широкую популярность. Со всех концов нашей страны потоком пошли письма читателей, содержащих продолжение и подражания. Вот некоторые «толкования» из этого словаря.

Арбалет - груз годов, нажитый опыт.

Баранка - овца.

Баталия - возглас худеющей женщины.

Батисфера - сфера вмешательства отца.

Вампир - официант.

Вольтерьянец - усердный электрик.

Гладиатор - работник банно-прачечного комбината.

Гончая - чаепитие.

Заключение. Приведенные примеры хорошо иллюстрируют природу языковой игры. Шуточный, внешне несерьезный словарь тем не менее содержит богатую пищу для размышления ученых-языковедов. Психолингвист увидит в нем, во-первых, подтверждение мысли о присутствии в языковом сознании словообразовательных моделей, во-вторых, демонстрацию механизма использования языковых единиц в речи, особенности воздействия на языковое значение реального контекста и коммуникативной ситуации, в-третьих, то, что Б. Ю. Норман удачно назвал «кладбищем нереализованных возможностей» — показ путей развития языка и речи, причем из запасов и достаточно редких слов.

Языковая игра может строиться не только на эксплуатации единиц различных языковых уровней. Некоторые ее разновидности затрагивают ролевую и стилевую дифференциацию речевой деятельности. Однако и здесь игровой эффект достигается путем нарушения ролевых стереотипов и стилевых норм при осознании говорящим незыблемости этих норм и стереотипов. Одна из таких разновидностей языковой игры строится на стремлении говорящего выступать в несвойственной ему речевой манере. Человек как бы надевает речевую маску: начинает говорить как сельский житель, как бюрократ, ребенок, сюсюкающая дамочка, иностранец и т. п.

Особенно часто для подобных целей используется диалектная и просторечная языковые маски. Подражая говору сельских жителей или речи городских низов, языковая личность инкрустирует свои высказывания словечками, имеющими фонетические, морфологические и лексические признаки диалекта и просторечия. *«Ну, ня знаю, ня знаю, бряхать ня стану»; «Ну, ты вумная-а»; «Я его видел - Когда? - Вчерась»; «Нетто ты понимаешь в этом»; «Это мы сдободно можем»; «У нас там внизу вода совсем не текет»; «Можно взойтить?»; «А. Вы проспалшишь? Б. Да, но не очнумшишь. Не отдохнумши».*

Другое средство создания комизма - прием стиливого контраста. Он основан на перемещении слов и выражений из одного стиля речи в другой. Для подобных целей чаще всего используются штампы канцелярски-делового языка, газетные клише и т. д. *«Пусть нам Коля осветит, как все было. И про свадьбу, и про отпуск», «Мы постановили на воскресенье» (гостей звать), «А.*

Раскажите, как картина? Б. Надо такую резолюцию наложить: дрянь»; «Сергей Васильевич вас искал на предмет положения на стол книги».

Реже для целей языковой игры в разговорной речи используется высокий книжно-поэтический стиль. «Я завтра буду доклад вещать»; «Пойду взгляну в зеркало»; «Оказывается, он помре». Забавным примером языковой игры стал придуманный двумя видными учеными профессорами Н. А. Ипполитовой и М. Ю. Федосюком, специалистами в области культуры общения, пародийный текст, который они привели в ходе кулуарного общения на конференции по риторике.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Бортников В. И., Пикулева Ю. Б. *Русский язык и культура речи. Контрольные работы для студентов-нефилологов. Материалы.* М.: Флинта. 2021. 94 с.
2. Введенская Л. А., Черкасова М. Н. *Русский язык и культура речи: Учебное пособие для студентов.* ФГОС. М.: Феникс. 2022. 375 с.
3. Введенская Л. А., Черкасова М. Н. *Русский язык и культура речи. Учебное пособие.* ФГОС. М.: Феникс. 2022. 381 с.
4. Гак В. Г. *Языковые преобразования.* — М.: Языки русской культуры, 1998. — 768 с.
5. Гридина Т. А. *Ассоциативный потенциал слова и его реализация в речи (явления языковой игры): дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.01 / Московский педагогический университет.* — М., 1996. — 566 с.
6. Каргаполова И. А. *Лингвистические и социокультурные факторы лудического речевого поведения: дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.04 / Российский государственный педагогический университет.* — СПб., 2008. — 483 с.
7. *Культура речи. Научная речь / под ред. В. В. Химика, Л. Б. Волковой.* М.: Юрайт. 2024. 271 с.
8. Литвинова Г. М., Есакова М. Н., Кольцова Ю. Н. *Русский язык и культура речи. Нормы современного русского литературного языка. Учебное пособие.* М.: Флинта. 2023. 280 с.
9. Санников В. З. *Русский язык в зеркале языковой игры.* — М.: Языки русской культуры, 1999. — 544 с.
10. Сэпир Э. *Избранные труды по языкознанию и культурологии: пер с англ. / общ. ред. и вступ. ст. А. Е. Кибрика.* — 2-е изд. — М.: Прогресс, 2001. — 656 с.

POS TEGGLASH NAZARIYASI VA TAJRIBASI

Shabanov Obid Xamidovich,

*Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrası o'qituvchisi*

Erkinjonova Go'zal Baxtiyor qizi,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universitetining Kompyuter lingvistikasi fakulteti magistranti*

Annotatsiya. Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) lingvistikaning muhim sohalaridan hisoblanadi. Bu soha kompyuterlarga inson tilini tushunish, tahlil qilish va ishlab chiqishda yordam berishga qaratilgan. Teglash, xususan, grammatik teglash, POS teglash ham o'zbek lingvistikasida dolzarb yo'nalishlardan sanaladi. Ushbu maqolada jahonda pos teglash nazariyasi va qo'llanilib kelinayotgan tegsetlar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: teg, POS teglash, Brown korpusi, stoxastik usul, NLP.

ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА РАЗМЕЩЕНИЯ POS-ТЕГОВ

Аннотация. Обработка естественного языка (НЛП) является важной отраслью лингвистики. Эта область направлена на то, чтобы помочь компьютерам понимать, анализировать и обрабатывать человеческий язык. Тегирование, в частности, грамматическое тегирование, POS-тегирование, также считается одним из современных направлений в узбекском языкознании. В этой статье представлена информация о теории pos-тегов и тегах, которые используются в мире.

Ключевые слова: Тег, POS-тегирование, коричневый корпус, стохастический метод, НЛП.

THEORY AND PRACTICE OF POS TAGGING

Abstract. Natural Language Processing (NLP) is one of the important and promising fields in linguistics. This field is aimed at helping computers understand, analyze, and process human language. Tagging, particularly grammatical tagging and Part-of-Speech (PoS) tagging, is also considered a relevant area of research in Uzbek linguistics. This article provides detailed information about the theory of PoS tagging, the types of tagsets used internationally, and their applications. Additionally, the possibilities and prospects of PoS tagging in the Uzbek language are discussed.

Keywords: Tag, POS tagging, Brown corpus, stochastic method, NLP.

Kirish. POS teglash tabiiy tilni qayta ishlashning muhim jarayonlaridan biri bo'lib, so'zlarni ularning morfologik va sintaktik xususiyatiga ko'ra tasniflaydi. POS (Part-of-Speech) teglash so'zlarning qaysi nutq qismiga (masalan, ot, fe'l, sifat) tegishli ekanligini aniqlash jarayonidir. Bu jarayon tabiiy tilni tushunish uchun keng qo'llaniladi, masalan, matn tahlili, mashina tarjimasini va nutqni avtomatik tushunishda. Ushbu jarayon grammatik belgilash yoki so'z-toifa aniqlashtirish deb ham ataladi. POS teglash – bu tabiiy tilni qayta ishlashdagi umumiy vazifa bo'lib, matndagi so'zlarni ularning tegishli nutq qismlari bilan belgilashni o'z ichiga oladi. Bu usul so'zlarning ma'nosini aniqlash, til modellarining aniqligini oshirish hamda axborot qidirish va axborot olish vazifalarini qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaniladi.

Adabiyotlar sharhi. Tabiiy tilni qayta ishlash sohasi 1940-yillarda boshlangan. 1958-yilga kelib ba'zi tadqiqotchilar NLP (Natural Language Processing) rivojlanishidagi muhim muammolarni aniqladilar. Bu bilan yonma yon so'z turkumlarini teglash masalasi ham dolzarblashdi. 1969-yilda Brown korpusida gap bo'laklari teglari qo'llanila boshladi. Bu korpus 80 mingga yaqin gap bo'laklari to'plamidan iborat edi. Brown korpusi qoidalarga asoslangan, qo'lda tuzilgan yirik ro'yhat asosida amalga oshirilgan. Bunday qoidalarga asoslangan dastur 70% to'g'ri shlagan.

1980-yillarda ingliz tilidagi bir million so'zdan iborat Lancaster-Oslo-Bergen (LOB) korpusi morfo-sintaktik va sintaktik teglar asosida teglangan va o'z tegsetlarini joriy qilgan edi.

Keng tarqalgan tegsetlardan biri NLTK kutubxonasidagi teglar tizimi hisoblanadi. NLTK- Natural Language Toolkit Pensilvaniya universitetining kompyuter va axborot fanlari bo'limida Stiven Bird va Edvard Loper tomonidan ishlab chiqilgan. Tegsetlar tizimi Pen Tree Bank va Claws tegsetlari kabi.

“Speech and language processing”- ushbu manbalarda HMM (Yashirin Markov modellari), CRF (Shartli Tasodifiy Maydonlari) va neyron tarmoqlar asosidagi PoS teglash texnikalari haqida keng ma’lumotlar mavjud. Ushbu algoritmlar, jumladan fe’l so’z turkumini aniqlash uchun ishlatiladi. “Foundation of statistical Natural language processing” – Kristofer Manning va Hinrix Shyutze ushbu asari tabiiy tilni qayta ishlash va statistik usullar orqali PoS teglash masalalarini o’rganish uchun asosiy manba hisoblanadi. Kitobda fe’l kabi so’z turkumlarini teg qo’yish va analiz qilishda asosiy tushunchalar berilgan.

O’zbek tilshunosligida ham teglar tizimi bo’yicha bir qancha muqobil tasniflar taklif etilmoqda. B.Elov va Sh.Hamroyevaning “O’zbek tilida POS tegging masalasi: muammo va takliflar” [Elov, Hamroyeva, Abdullayeva, Uzakova, 2022: 51-68] maqolasida o’zbek tili birliklari uchun POS teg birliklari ishlab chiqilgani ta’kidlangan. O’zbek tili birliklari uchun POS teglarning umumiy keltirilgan variant esa “POS tagging of uzbek texts using hidden Markov models (HMM) and Viterbi algorithm” [Elov, Hamroyeva, Xudayberganov, Yodgorov, Yuldashev, 2023] maqolada batafsil tasnif etilgan. Shuningdek, “Agglutinativ tillar uchun pos teglash va stemming masalasi (turk, uyg’ur, o’zbek tillari misolida)” [Elov, Hamroyeva, Abdullayeva, Husainova, Xudayberganov, 2023: 6-39] nomli maqolada agglutinativ tillarni teglashda turk, uyg’ur va o’zbek tillari teg timizi qiyoslangan. “O’zbek tilidagi sodda gaplarning sintaktik teglangan bazasi orqali tahlil daraxtini qurish” [Ramatova, 2023] nomli maqolada o’zbek tili birliklarini POS teglash uchun faqat mustaqil so’z turkumlari POS teglari taklif qilingan.

Asosiy qism. So’zlar turli xil nutq qismlariga mansub bo’lishi mumkin, masalan, otlar, fe’llar, sifatlar, ravishlar va olmoshlar. Har bir nutq qismi jumlada ma’lum bir rol o’ynaydi va aniq ma’no beradi. Masalan, otlar odatda shaxslar, joylar yoki narsalarni ifodalaydi, fe’llar esa harakat yoki holatlarni bildiradi. Sifatlar ot yoki olmoshlarni tavsiflaydi. NLPda nutq qismlarini belgilash turli maqsadlarda qo’llaniladi. Odatdagi qo’llanishlardan biri so’zning ma’nosini aniqlashtirish va jumlada u o’ynayotgan rolni aniqlashdir. Masalan, “kitob” so’zi ot bo’lishi mumkin (“Men kitob o’qiyapman”) yoki fe’l (“Men mehmonxonaga joy band qilaman”). So’zning nutq qismini to’g’ri belgilash orqali tabiiy tilni qayta ishlash tizimi jumlaning ma’nosini va ichidagi so’zlar o’rtasidagi aloqalarni yaxshiroq tushunishi mumkin. Nutq qismlarini belgilashning yana bir qo’llanilishi til modellarining aniqligini oshirishdir. Til modellaridan so’zlar ketma-ketligining ehtimolini oldindan aytib berishda foydalaniladi. Matndagi so’zlarning nutq qismlarini aniq belgilash orqali til modeli matnning tuzilishi va mazmuni bo’yicha yanada aniq bashoratlar berishi mumkin. Nutq qismlarini belgilash qidiruv va axborot olish tizimlarida ham, masalan, qidiruv tizimlari va savol-javob tizimlarida qo’llaniladi. Matndagi so’zlarning nutq qismlarini to’g’ri belgilash orqali bu tizimlar so’zlar o’rtasidagi aloqalar va matnning umumiy ma’nosini yaxshiroq tushunishi mumkin.

POS teglash jarayonining asosiy maqsadi:

Nutq qismlarini aniqlash: So’zlarni lug’aviy ma’nosiga ko’ra tasniflash. *Kontekstual ma’lumotlarni o’rganish:* So’zlar orasidagi o’zaro bog’liqlikni tushunish. POS teglash nazariyasida asosiy e’tibor ikki yondashuvga qaratiladi:

Qoida asoslangan yondashuvlar: Qoida va grammatik qoidalar yordamida teglash amalga oshiriladi. So’z turini belgilashning eng qadimgi usullaridan biri — qoidaga asoslangan POS belgilashdir. Bunda, asosan, Brill usuli ishlatiladi [Bril,1992]. Qoidaga asoslangan taggerlar har bir so’zni belgilash uchun imkoniyatlarni olish uchun lug’at yoki leksikondan foydalanadi. Agar so’zda (polifunksional, omonim, ko’p ma’noli so’zlar) bir nechta mumkin bo’lgan teglar bo’lsa, qoidaga asoslangan taggerlar to’g’ri tegni aniqlash uchun qo’lda yozilgan qoidalardan foydalanadi. Qoida asosida teglashni afzalliklari qoidalar aniq yozilganligi uchun aniqlik ustun bo’ladi, lekin qoida soni ko’paygani sari tizim murakkablashib boradi. Qoidaga asoslangan belgilashda, shuningdek, so’zni va uning oldingi va keyingi so’zlarini tahlil qilib, noaniqlikni bartaraf etish mumkin. Masalan, agar so’zni oldindan kelgan so’z “article” (artikil) bo’lsa, unda so’z ot bo’lishi kerak.

Stoxastik va mashinani o’rganish usullari: Ma’lumotlarga asoslangan yondashuv, masalan, yashirin Markov modellari (HMM) so’zlar ketma-ketligini ehtimoliy modellashtiradi. Yashirin Markov modeli 1960-yillarda Baum L.E. va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan. [Baum L.E., G.R.1968:211-227]., Naive Bayes tasniflagichi matn tasniflash (masalan, spam/oddiy xatni ajratish), transfor modellar (masalan, ChatGPT). Bu yerda paydo bo’ladigan savol, qaysi model stoxastik bo’lishi mumkin? Statistika yoki ehtimollik (frekanse)ni o’z ichiga olgan model stoxastik deb atalishi mumkin. So’z turini belgilash muammosiga oid turli xil yondashuvlar stoxastik taggerlar sifatida qaraladi. Stoxastik usul afzalligi turli domenlarga oson moslashadi, ma’lumot ko’paygan sari natijalar aniqligi oshadi, ammo katta hajmdagi sifatli ma’lumotlar bazasi talab qiladi, ba’zida natijalarni tushuntirish qiyin bo’ladi (qora quti modeli).

Qoidalarga asoslangan va stoxastik usul taqqoslanishi:

<i>Xususiyat</i>	<i>Qoidalarga asoslangan</i>	<i>Stoxastik yondashuv</i>
<i>Yondashuv turi</i>	Deterministik	Ehtimollar asosida
<i>Moslashuvchanlik</i>	Past	Yuqori
<i>Ma'lumot talab qilishi</i>	Kam	Ko'p
<i>Tushuntirish qulayligi</i>	Yuqori	Past
<i>Foydalanish sohasi</i>	Ma'lum domenlarga moslashgan	Keng qamrovli

Amaliyotda POS teglashni amalga oshirish uchun quyidagi usullar keng qo'llaniladi:

1. *Qo'lda teglash:* Bu yondashuvda lingvistlar matnni qo'lda tahlil qilib, har bir so'zga tegishli teg qo'shadilar. Ushbu usul aniqroq natijalar beradi, ammo katta hajmdagi ma'lumotni qayta ishlashda samarasiz.

2. *Qoida asosida teglash:* Bu usul maxsus grammatik qoidalardan foydalanadi. Misol uchun, "to" so'zidan keyin kelgan so'z odatda infinitiv fe'l bo'ladi.

3. *Statistik yondashuvlar:* Ushbu yondashuvda ma'lumotlar to'plami asosida ehtimollar hisoblanadi. Statistik modellarda katta hajmdagi belgilangan matnlardan foydalaniladi.

4. *Gibrid tizimlar:* Qoida va statistik usullarning kombinatsiyasi. Bu usul ancha ishonchli natijalar beradi.

POS teglash jarayoni bir nechta asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Matnni oldindan qayta ishlash:

- Matnni tokenlarga ajratish;
- Kichik va katta harflarni bir xil ko'rinishga keltirish;
- Noto'g'ri belgilarni olib tashlash;

2. Leksik ma'lumotlardan foydalanish:

So'zlarning ma'nosini va nutq qismini aniqlash uchun lug'atlar va grammatik modellar qo'llaniladi.

3. Stoxastik yoki mashinani o'rganish algoritmlaridan foydalanish:

Model o'qitiladi va matndagi so'zlar teg bilan belgilanadi;

Markov modeli, chuqur o'rganish yoki neyron tarmoqlar usullari qo'llanilishi mumkin;

4. Natijani tahlil qilish va optimallashtirish:

- Dastlabki natija tekshiriladi;
- Teglash aniqligi oshiriladi.

Bundan tashqari homogroflar ham teglash jarayonida muammoli hisoblanadi. **Homogroflar-** bu yozilishi bir xil, ammo ma'nosi turlicha bo'lgan so'zlar. Bunday so'zlar jumlada ishlatilganda chalkashlikka olib kelishi mumkin, chunki kontekst asosida qaysi ma'no nazarda tutilganligini aniqlash qiyin bo'lishi mumkin. So'z turkumlarini teglash (POS) homograflarni ajratib ko'rsatish uchun qo'llaniladi, ya'ni so'zning jumladagi kontekstiga qarab unga to'g'ri ma'noni ko'rsatish imkonini beradi. POS teglash jarayonida homogroflarni ajratish bir muncha afzalliklar keltiradi.

1. *Kontekstdan foydalanish:* Agar "bass" so'zi musiqa haqida bo'lgan jumlada ishlatilsa, unda bu so'z musiqiy asbob tomonidan yaratilgan past chastotali ovozga ishora qilishi ehtimoli yuqori. Ammo "bass" baliqchilik haqida bo'lgan jumlada ishlatilsa, unda bu baliq turiga ishora qiladi. POS teglash atrofndagi so'zlar va kontekstni tahlil qilish orqali homografga mos ma'noni aniqlay oladi.

2. *So'z ma'nosini aniqlash algoritmlaridan foydalanish:* So'z ma'nosini aniqlash algoritmlari kontekstni tahlil qiladi va mashinani o'rganish texnikalaridan foydalangan holda homograflarga eng mos ma'noni tayinlaydi. Masalan, "bass" so'zi musiqa haqida gap ketayotgan matnda ishlatilsa, algoritim boshqa musiqiy terminlar yoki matn mavzusini hisobga oladi. Baliqchilik kontekstida esa baliqchilikka oid terminlar yoki mavzuga qarab tayinlaydi.

3. *So'zlarni tahlil qilish:* So'zning ma'nolarini va boshqa so'zlar bilan bog'liqliklarini ifodalaydi. Homografni jumladagi boshqa so'zlar bilan bog'lanishiga qarab tahlil qilish orqali POS teglash unga mos ma'noni topa oladi. Masalan, "bass" so'zi "gitar" va "baraban" kabi so'zlar bilan ishlatilsa, musiqiy asbobga ishora qilishi ehtimoli yuqori. Ammo "baliq ovlash" yoki "g'altak" kabi so'zlar bilan ishlatilsa, bu baliq turiga ishora qiladi.

4. *Sintaktik ishoralardan foydalanish:* Sintaktik ishoralar jumladagi so'zlarning joylashuvi va o'zaro munosabatlarini belgilaydigan qoidalardir. Jumlaning sintaktik tuzilishini tahlil qilish orqali POS teglash homografga mos ma'noni aniqlay oladi. Masalan, agar "bass" jumlada fe'l bo'lib ishlatilsa, bu so'z musiqiy

asbob tomonidan yaratilgan ovozga ishora qilishi mumkin. Ammo ot sifatida ishlatilsa, bu baliq turini anglatishi ehtimoli yuqori. Xulosa qilib aytganda, soʻz turkumini teglash homograflarni ajratib koʻrsatishda kuchli vosita hisoblanadi. Kontekst, soʻz maʼnosini aniqlash algoritmlari, soʻz maʼnosi va sintaktik ishoralar orqali POS teglash homograflarga mos maʼnoni toʻgʻri tayinlay oladi. Bu ayniqsa tabiiy tilni qayta ishlash va mashinani tarjima qilish kabi sohalarida juda muhim, chunki matnning maʼnosini toʻgʻri tushunish uchun homograflarni toʻgʻri aniqlash zarur.

POS teglash tabiiy tilni qayta ishlashning turli sohalarida keng qoʻllaniladi:

Matn tahlili: Matnning tuzilishini tushunish va tahlil qilishda;

Mashinada tarjima: Nutq qismlarini aniqlash orqali toʻgʻri tarjima qilish;

Nutqni tan olish: Kompyuterlar yordamida nutqni tushunish va qayta ishlashda;

Leksik tahlil: Soʻzlarning turli shakllarini aniqlash va ularni umumiy lugʻatga moslashtirishda qoʻllaniladi

Zamonaviy yondashuvlar POS teglash jarayonini yanada takomillashtirishga qaratilgan:

Neyron tarmoqlar: Chuqur oʻrganish usullari yordamida matnni kontekstual tahlil qilish; *Transformer modellari:* BERT va GPT kabi modellar kontekstni yanada aniqroq aniqlash imkonini beradi; *Tilga xos modellashtirish:* Har bir til uchun maxsus algoritmlar ishlab chiqiladi.

Part-of-speech (POS) teglashda soʻzlarga teg qoʻshish uchun standartlar va belgilash tizimlari lingvistika va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) doirasida maxsus ishlab chiqilgan. Ushbu standartlar turli til va ilovalar uchun moslashtiriladi. POS teglashda turli xil standartlar mavjud. Eng koʻp ishlatiladiganlari:

1. Penn Treebank (PTB) tagset: Ingliz tili uchun keng qoʻllaniladi, ammo boshqa tillarga ham moslashtiriladi. U 36 ta asosiy tegni oʻz ichiga oladi.

2. Universal POS (UPOS): Bu standart koʻplab tillar uchun umumiy teglarni belgilaydi. UD (Universal Dependencies) loyihasi doirasida ishlatiladi va 17 ta umumiy nutq qismini oʻz ichiga oladi.

3. Custom Tagsets: Har bir til yoki loyiha uchun maxsus yaratilgan teglar toʻplami.

2-chizma.

tag	Part-of-speech
abbr	Abbreviation
adj	Adjective
adv	Adverb
cm	comma
cnjadv	Adverbial conjunction
cnjcoo	Coordinating conjunction
cnjsub	Subordinating conjunction
cop	Copula
det	Determiner
ideo	Ideophone
ij	Interjection
n	Noun
np	Proper noun
num	Numeral
post	Postposition
postadv	Postadverb
prn	Pronoun
sent	sentence marker
v	Verb
vaux	Auxiliary verb
apos	apostrophe
guio	hyphen
lpar	left Parenthetical marker
lquot	left Quote marker
mod_ass	Assertive modal particle
mod_ind	Indefinite modal particle (expresses doubt)
qst	Modal question particle
rpar	right Parenthetical marker
rquot	right Parenthetical marker

Tegsetlar shakliy tomondan harflardan iborat, sonlardan iborat, son va harf kombinatsiyasidan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bir nechta korpuslar tegsetlar tizimini misol tariqasida ko‘rib o‘tamiz.

Tatar Mixed corpus tegsetlar tizimi o‘z ichiga 29 ta teglarni oladi. Tatar korpusi teglar tizimida noshqa korpuslarda kuzatilmagan apostrof uchun teg, tobe bog‘lanish, teng bog‘lanish uchun tegilar, o‘ng va chap qavslar uchun tegni ko‘rishimiz mumkin.

Malaysian and Indonesian corpora tegsetlar tizimi

Malaysiya va indoneziya korpusi tegsetlari 17 ta teglarni o‘z ichiga oladi va birinchi shaxs, ikkinchi shaxs, uchunchi shaxs, ko‘plik birlik kabi teglari borligi bilan boshqa korpuslardan biroz farq qiladi.

3-chizma.

tag	Part-of-speech
<adj>	Adjective
<n>	Noun
<num>	Number
<prn>	Pronoun
<det>	determiner
<cnjcoo>	Coordinating conjunction
<cnjsub>	Subordinating conjunction
<vblex>	Verb lemma
<part>	Particle
<mod>	Modal
<ij>	Interjection
<qst>	Question word
<pr>	Preposition lemma
<p1>	First person
<p2>	Second person
<p3>	Third person
<sg>	singular
<pl>	plural

Universal POS tags tegsetlar tizimi

Universal POS teg da22 xil tilga xos umumiy grammatik kategoriyalar o‘rganib chiqilgan va universal17 ta teglar taklif qilingan. Xalqaro standartlar darajasida teglar tizimi ishlab chiqilgan.

4-chizma.

tag	Part-of-speech
ADJ	Adjective
ADP	adposition
ADV	adverb
AUX	auxiliary
CCONJ	coordinating conjunction
DET	determiner
INTJ	interjection
NOUN	noun
NUM	numeral
PART	particle
PRON	pronoun
PROPN	proper noun
PUNCT	punctuation
SCONJ	subordinating conjunction
SYM	symbol
VERB	verb
X	other

Tajik Web korpusi tegsetlari

LINGUISTICS

Tojik korpusi boshqa korpus tegsetlaridan tubdan farq qiladi, sababi teglar raqamlar orqali tavsiflanadi. Bu korpus o'z ichiga 16ta teglarni oladi va so'z birikmalari, onomatopiya kabi teglari boshqa korpuslarda kuzatilmaydi.

5-chizma.

tag	Part-of-speech
01	nouns
02	adjectives
03	numerals
04	pronouns
05	verbs
06	infinitives
07	adjectival participles
08	adverbial participles
09	adverbs
10	prepositions
11	postpositions
12	conjunctions
13	particles
14	interjections
15	onomatopoeia
16	numeratives

Italian TreeTagger part-of-speech teglar tizimi

Italian TreeTagger teglar tizimida 52 ta teg mavjud.

6-chizma.

tag	Part-of-speech
ADJ	adjective
ADV	adverb (excluding -mente forms)
ADV:mente	adverb ending in -mente
ART	article
ARTPRE	preposition + article
AUX:fin	finite form of auxiliary
AUX:fin:cli	finite form of auxiliary with clitic
AUX:geru	gerundive form of auxiliary
AUX:geru:cli	gerundive form of auxiliary with clitic
AUX:infi	infinitival form of auxiliary
AUX:infi:cli	infinitival form of auxiliary with clitic
AUX:ppast	past participle of auxiliary
AUX:ppre	present participle of auxiliary
CHE	che
CLI	clitic
CON	Conjunction
DET:demo	demonstrative determiner
DET:indef	indefinite determiner
DET:num	numeral determiner
DET:poss	possessive determiner
DET:wh	wh determiner
NEG	negation
NOCAT	non-linguistic element
NOUN	noun
NPR	proper noun
NUM	number
PRE	preposition
PRO:demo	demonstrative pronoun
PRO:indef	indefinite pronoun

LINGUISTICS

PRO:num	numeral pronoun
PRO:pers	personal pronoun
PRO:poss	possessive pronoun
PUN	non-sentence-final punctuation mark
SENT	sentence-final punctuation mark
VER2:fin	finite form of modal/causal verb
VER2:fin:cli	finite form of modal/causal verb with clitic
VER2:geru	gerundive form of modal/causal verb
VER2:geru:cli	gerundive form of modal/causal verb with clitic
VER2:infi	infinitival form of modal/causal verb
VER2:infi:cli	infinitival form of modal/causal verb with clitic
VER2:ppast	past participle of modal/causal verb
VER2:ppre	present participle of modal/causal verb
VER:fin	finite form of verb
VER:fin:cli	finite form of verb with clitic
VER:geru	gerundive form of verb
WH	wh word
VER:geru:cli	gerundive form of verb with clitic
VER:infi	infinitival form of verb
VER:infi:cli	infinitival form of verb with clitic
VER:ppast	past participle of verb
VER:ppast:cli	past participle of verb with clitic
VER:ppre	present participle of verb

Turk korpusi teglar tizimi

7-chizma.

tag	Part-of-speech
Noun	noun
Punc	punctuation
Adj	adjective
Verb	verb
Conj	conjunction
Adv	adverb
Num	number
Postp	postposition
Det	determiner
Pron	pronoun
Ques	question
Interj	interjection
Dup	dup

Araneum Universal teglar tizimi

Araneum Universal 20ta teglarni o‘z ichiga oladi. Boshqa korpus teglaridan farqli ravishda Araneum korpusida simvollar, notanish so‘zlar, chetdan kirgan so‘zlar uchun alohida teglar qo‘shilganligini ko‘rish mumkin.

8-chizma.

tag	Part-of-speech
Dt	determiner/article
Nn	noun
Aj	adjective
Pn	pronoun
Nm	numeral
Vb	verb

Av	adverb
Pp	preposition/postposition
Cj	conjunction
Ij	interjection
Pt	particle
Ab	abbreviation/acronym
Sy	symbol
Nb	number
Xx	other(content word)
Xy	other other(function word)
Yx	foreign
Yy	unknown
Zz	punctuation
Er	mapping error

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tabiiy tilni qayta ishlashda (NLP) soʻz turkumlari POS teglash algoritmlarini, ularni tegsetlarini yaratish avtomatik tahlil, morfoanaliz uchun birlamchi shart bajarilganini koʻrsatadi. Lingvistik bilimlar kompyuter dasturlari va til korpuslari uchun zarur maʼlumot bazasi boʻladi. Oʻrganilgan tegsetlar tizimi oʻzbek tili morfoanalizator teglar tizimiga qoʻshimchalar kiritishda va boshqa NLP vazifalarini bajarishda qoʻl keladi.

ADABIYOTLAR:

1. Elov B., Hamroyeva Sh., Abdullayeva O., Uzakova M. Oʻzbek tilida POS tegging masalasi: muammo va takliflar / *Uzbekistan: Language and Culture. Applied philology.* 2022/2(5). – 51-68-b.
2. Elov B., Hamroyeva Sh., Xudayberganov N., Yodgorov U., Yuldashev A. *Pos tagging of Uzbek texts using hidden Markov models (HMM) and Viterbi algorithm.* OʻzMU xabarlari. Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali. 2023 yil, Maxsus son.
3. Elov, B.B., Hamroyeva, Sh.M., Abdullayeva, O.X., Husainova, Z.Y., Xudayberganov, N.U. 2023. "Agglutinativ tillar uchun pos teglash va stemming masalasi (turk, uygʻur, oʻzbek tillari misolida)". *Oʻzbekiston: til va madaniyat* 2: 639.
4. Brill, E. (1992). *A simple rule-based part of speech tagger.* ANLC 92 Proceedings of the Third Conference on Applied Natural Language Processing
5. Garside, R. (1987). *The CLAWS word-tagging system. The Computational Analysis of English: A Corpus-Based Approach.*
6. Jurafsky, D., Martin, J.H.(2023) *Speech and language processing*
7. Goodfellow I., Bengio, Y., Courville, A.(2016) *Deep learning*
8. <https://www.geeksforgeeks.org/nlp-part-of-speech-default-tagging/>
9. <https://www.engati.com/glossary/part-of-speech-tagging>
10. <https://medium.com/@sujathamudadla1213/what-is-parts-of-speech-pos-tagging-natural-language-processing-in>
11. *TRMorph - Turkish part-of-speech tagset | Sketch Engine*
12. *Italian part-of-speech tagset | Sketch Engine*
13. *Tajik part-of-speech tagset | Sketch Engine*
14. *Malaysian and Indonesian tagset | Sketch Engine*
15. *Tatar part-of-speech tagset | Sketch Engine*
16. http://ucts.uniba.sk/aranea_about/aut.html
17. <https://universaldependencies.org/u/pos/>
18. <https://ota.bodleian.ox.ac.uk/repository/xmlui/handle/20.500.12024/0167>
19. <https://nlp.stanford.edu/fsnlp/>

«KASSANDRA TAMG‘ASI» VA «BOQIY DARBADAR» ROMANLARIDA APOKALIPSISNING BADIY IFODASI

To‘rayeva Bahor Bahriddinovna,

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
dotsenti, filologiya fanlari doktori
turayeva.bahor@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada texnokratlashayotgan olam fojialari, ilmiy kashfiyotlarni Yaratgan irodasiga qarshi qo‘llashning halokatli oqibatlari megaxronotop asosida ifodalanishi syujet, kompozitsiya, motiv, obraz, detal, uslub singari poetik komponentlarning semantik-struktural munosabati doirasida Markaziy Osiyo romanlari misolida tahlilga tortilgan. «Kassandra tamg‘asi» va «Boqiy darbadar» romanlari apokalipsis hodisasi orqali yozuvchilarning jamiyatning butunlay mantiqsizlikka asoslangan va mexanik tizimlardan keyin modellashtirilgan post-apokaliptik kelajakni tasvirlaydigan distopik asarlardir. Ch. Aytmatov, I. Sulton romanlarida mikro, makro va megaxronotop parallel qo‘llanilgan. Ijodkorlar Koinot ichra kichik koinot bo‘lmish inson ruhiy kechinmalari (mikroxronotop), davrning o‘tkir ziddiyatlari (makroxronotop), koinot kengligida inson va jamiyat muammolari (megaxronotop) negizida tasvirlashgan. Tadqiqotning predmetini zamonaviy romanchilikda megaxronotop poetikasining qiyosiy tipologiyasi tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, psixologik, sistem-struktur tahlil usullaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: apokaliptika, sun‘iy embrion, genom, makroxronotop, mikroxronotop, megaxronotop, roman, parallelizm.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ АПОКАЛИПСИСА В РОМАНАХ «ТАВРО КАССАНДРЫ» И «ВЕЧНЫЙ СКИТАЛЕЦ»

Аннотация. В статье на примере среднеазиатских романов трагедии технократизирующегося мира, катастрофические последствия использования научных открытий против воли Творца, выраженные на основе мегахронотопа, анализируются в рамках семантико-структурной взаимосвязи таких поэтических компонентов, как сюжет, композиция, мотив, образ, деталь, стиль. Романы «Тавро Кассандры» и «Вечный странник» представляют собой антиутопические произведения писателей, описывающие постапокалиптическое будущее, в котором общество полностью основано на иррациональности и смоделировано по образцу механических систем. В романах Ч.Айтматова, И.Султана параллельно используются микро-, макро- и мегахронотоп. Авторы изображали вселенную на основе духовных переживаний человека (микхронотоп), острых конфликтов эпохи (макхронотоп), проблем человека и общества на просторах вселенной (мегахронотоп). Предмет исследования – сравнительная типология поэтики мегахронотопа в современных романах. В процессе исследования использовались методы сравнительно-типологического, психологического, системно-структурного анализа.

Ключевые слова: апокалиптика, искусственный эмбрион, genom, макхронотоп, микхронотоп, мегахронотоп, роман, параллелизм.

LITERARY EXPRESSION OF THE APOCALYPSE IN THE NOVELS “CASSANDRA’S BRAND” AND “THE ETERNAL WANDERER”

Abstract. In the article, the tragedies of the technocratizing world, the disastrous consequences of using scientific discoveries against the will of the Creator, expressed on the basis of the megachronotope, are analyzed within the framework of the semantic-structural relationship of poetic components such as plot, composition, motif, image, detail, style, on the example of Central Asian novels. The novels "Cassandra's Brand" and "Eternal Wanderer" through the event of the apocalypse are dystopian works by writers depicting a post-apocalyptic future in which society is based entirely on irrationality and modeled after mechanical systems. Ch. Aytmatov, I. Sulton's novels use micro, macro and megachronotope in parallel. Creators depicted the universe on the basis of human spiritual experiences (microchronotope), sharp conflicts of the era (macrochronotope), problems of man and society in the vastness of the universe (megachronotope). The subject of research a comparative typology of megachronotope poetics in modern

novels. Comparative-typological, psychological, system-structural analysis methods were used in the research process.

Keywords: *apocalyptic, artificial embryo, genome, macrochronotope, microchronotope, megachronotope, novel, parallelism.*

Kirish. Apokalipsis (yunoncha: apokalypsis – ochilish) [mifologiya, dinshunoslik] – qad. nasroniy kitoblaridan. Yangi Ahd kitobining apostol (havoriy) Ioann Bogoslov bashoratlari qismi. 68-69 yilda yozilgan bo‘lib, an‘anaga ko‘ra uning muallifi apostol Ioann (Yuhanno) hisoblanadi. Ioann karomati nasroniylikda Injil kanoniga kiritilgan. «Qadimiy Ahd» kitobida Ezdra, Varux, «Yangi Ahd» ad-tida Petr, Mess, Zostrian karomatlari soxta (apokrif) deb e‘lon qilingan. Apokalipsisda dunyo va insoniyat kelajagi bashorat qilingan, deyiladi. Mas., qiyomat, dunyoning oxiri v.b. muqaddas kitoblarda yozilishicha: «U (Tangri) Alfa va Omega, ibtido va intiho, birinchi va so‘nggi»dir (1, 482). Apokalipsisni mikro, makro va megaxronotopning parallel tasviri orqali yaratishda Ch.Aytmatov va I.Sultonning o‘ziga xos uslubi, yo‘nalishi va konsepsiyalari mavjud. «Kassandra tamg‘asi» va «Boqiy darbadar» romanlarida texnokratlashayotgan olam fojialari, ilmiy kashfiyotlarni Yaratgan irodasiga qarshi qo‘llashning halokatli oqibatlarini megaxronotop asosida tasvirlangan. Har bir romanda mikro va makroxronotop yondoshligi kuzatilsa, ammo sanoqli romanlarda megaxronotop yozuvchining ijodiy niyatiga muvofiq qo‘llanilib, zaminiy va samoviy voqealar parallelik kasb etadi.

Asosiy qism. «Kassandra tamg‘asi» romanida ijtimoiy xronotop ko‘lami nihoyatda keng. Ota-onasiz ikszurriyotlar va tug‘ilishi insoniyatga halokat keltiruvchi homilalalar faryodi butun bashariyat uchun jiddiy xavf tug‘dirishi mumkinligi yozuvchining falsafiy bashorati yanglig‘ yangraydi. «Ko‘rinib turibdiki, asarda adibning falsafiy-mantiqiy mushohadalari badiiy-fantastik tafakkur tarzida ifoda etilgan. Ammo bundan Andrey Krilsovning ikszurriyotlar yaratish borasidagi tajribalari, o‘zini samo rohibi deb e‘lon qilgan Filofeyning ixtirosi – homilalar chinqirig‘i to‘laligicha xayolot mevasi, degan fikr kelib chiqmaydi. Sababki, ana shu ikki muhim voqea, aslida, hayotiylikka juda-juda yaqin...» (4, 106). Aytmatovshunos olim Ahmadjon Meliboyev olam va odam halokatiga sabab bo‘luvchi inson genetikasi bilan bog‘liq bugungi kunda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar Yaratganning irodasiga qarshi chiqish ekaniga ishora qiladi. Olim «Ilmga qo‘l urishda nima birlamchi – ilm cho‘qqisiga ko‘tarilishmi, yo inson zotiga xos xudbinlik, manmanlikmi?» (5) savolini ko‘ndalang qo‘yadi. Adabiy tanqidchi Rahimjon Rahmat «Munjojt»dan «Boqiy darbadar»gacha» maqolasida bu holat mislsiz fojeaga sabab bo‘lishidan yozg‘iradi: «Olimlarning e‘tirof etishlaricha, hozirgi kunda inson DNAsi juda faol, tez sur‘atda o‘zgarib, ikki burmalidan o‘n ikki burmali ko‘rinishga o‘tayotir. Kelajakda yer yuzida ikki burmali DNAGA ega inson qolmaydi, – deyishmoqda olimlar. Bu degani – Xudo tomonidan yaratilgan hozirgi inson butunlay yo‘qolib, boshqa bir jonzot paydo bo‘ladi» (7, 271). «Kassandra tamg‘asi» hamda «Boqiy darbadar» romanlaridagi ijtimoiy xronotop hozirgi ilmiy-texnik kashfiyotlar tufayli kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavfdan ogoh etuvchi bashoratga o‘xshaydi. Romanlardagi ijtimoiy xronotop inson va tabiat, inson va jamiyat, inson va zamonaviy kashfiyotlar kabi muammolarni, ularning ziddiyatli munosabatlarini o‘zida qamraydi.

«Kassandra tamg‘asi» asari annotatsiyasida buyuk adib ushbu falsafiy romanida butun sayyora, boringki, kosmos miqyosida keng va uzviy mushohada yuritgani, bugungi shafqatsizlik, yovuzlik, vahshiylik urug‘larining kelajakda qanday dahshatli mevalar berishini kosmik yuksaklikdan bashorat qilgani aytilgan. Roman voqealari zamin va samoda ro‘y beradi, har ikkisini tutashdirgan hodisa – adibning falsafiy bashorati! Futurolog va genetik olimlardan oldin badiiy bashorat kuchi bilan zamin turli kulfatlarga sabab bo‘luvchi embrionlardan xalos qilinmas ekan, qiyomat sari insoniyat jadal odimlashini badiiy tasvirlagan. Asarning mohiyatini antinomiya tashkil etadi, bir vaqtlar Adrey Krilsov Siyosiy byuro a‘zosi, KPSS MKning mafkuraviy masalalar va xalqaro kommunistik harakat bo‘yicha sekretari Konyuxanov Vadim Petrovich bilan «ota-onasiz, qon-qarindoshsiz tug‘ilgan zotlar oiladan, har xil qon-qarindoshlik va urug‘-aymoqlik rishtalaridan, patriarxal hamda o‘zga aloqalardan mutlaqo erkin bo‘lib, bu esa eskirgan axloqning asriy yukidan qutqarishi» (2, 312) haqidagi siyosiy ahamiyatga molik suhbatdan so‘ng hukumat rahnamoligida ikszurriyotlarni yaratgan bo‘lsa, ikkinchi syujet chizig‘ida samoviy rohib Filofey sifatida xalqaro kosmik kemanding ilmiy stansiyasida uch yildan ortiqroq muddatda o‘zining tibbiy-biologik tadqiqotlari natijasida kassandra-embriionlarning flyuidlarini (psixik toklarini) aniqlash uchun zondaj-nurlar seanslarini o‘tkazib, tug‘ilishi insoniyat dunyosiga halokat keltiradigan kassandra-embriionlarini yo‘q qilish uchun Rim papasiga maktub yo‘llaydi. Aslida ota-ona mehrini umuman tuymagan, bolalar uyida o‘sgan bosh qahramon ikszurriyot va kassandra-embriionlari haqida mulohaza yuritishga qodir. Lirik kirish bilan boshlangan asar voqealari jumboqli tugun – samoviy rohibning maktubini «Tribyun» gazetasida chop ettirish muammosi bilan shiddatli tus oladi. Yozuvchi badiiy makon sifatida koinotni tanlagani ayon, chunki bunday ixtirolar koinotdan turib, insoniyatga yetkazilmas ekan, Yerda buning iloji yo‘q. Ma‘lum bo‘lishi bilanoq bunday

ixtiro yo'qlikka yuz tutishi aniq (Robert Borkning fojiali o'limi bunga misol). Bosh qahramon nega bunday kashfiyotga qo'l urdi? Nega ota-onasiz yaratilgan ikszurriyotlarning ko'ziga bir marta bo'lsa ham, boqishni, ularning qalbida kechayotgan tuyg'ularni ularning ko'zlari orqali ilg'ashni xohlaydi? Birinchi ixtirosining tazarrusi sifatida Yerni badbin kimsalardan tozalamoq istadimi? Yozuvchining o'zi ham aynan qahramoni bilan birga og'riqli savollarga javob istaydi: «*Bizning jismimizga – genlarimizga yo'qotib bo'lmaydigan yovuzliklar urug'ini ekadigan o'sha battollar kimlar o'zi? Qayerdan kelgan? Ularning o'zlari kimlardan chiqqan? Javobsiz savol...*»(2, 43) Sarhadsiz koinotda turib, amalga oshirgan ixtirosi Yerning turli tomonlaridagi xalqlar tomonidan qat'iy rad etiladi. Yerda uni qanday qismat qarshi olishini yaxshi bilgan qahramon fazoda qo'nim topadi. Har narsaning bahosi o'zgacha. U o'z bahosini kosmosda hisob-kitob qildi. Nahotki, u kosmosda ham o'zining chaqaloqligida bolalar uyining eshigi tomon olib ketayotgan onasining qor ustida bosgan oyoq tovushining g'ichirlashlarini eshitayotgan bo'lsa? Nahotki, u kosmosda ham o'zini oxirgi marta ko'kragiga bosib ko'tarib borayotgan onasi yuragining dukillab urayotganini eshitayotgan bo'lsa?.. (2, 346) Entoni Yungerning shunday mulohazalari bilan yakunlanadi. Muallif qahramonining koinotga ketish sabablarini Entoni Yungerga yo'llagan «*Sen bilan va sendan keyin ko'rgan-kechirganlarim*» sarlavhali tazarrusida aniq ifoda qilgan: «*osmoni falakka ketib qolishimni tushuntirish qiyin – bu o'zlikka chekinish, kosmos orqali o'zlikka chekinishdir. Buni ruhiyatning kosmos bilan uyg'unlashib ketishi desa bo'lar edi, biroq bu o'ta balandparvoz tuyulishi mumkin. Lekin kosmosda bo'lishim butun hayotimning mantiqiy yakuni, taraqqiyotimning eng oliy va so'nggi nuqtasi bo'ldi*» (2, 279). Asarda megaxronotop makro va mikroxtoronotop uzviyligida teranlashadi.

Ibrohim G'afurov Isajon Sultonning barcha asarlarida inson va tabiat bir-biridan ajralmasligi, ular koinot cheksizliklarida yaxlit va bir butunlikni tashkil etishini e'tirof etgan. Olim adib asarlaridagi inson va koinot munosabatlarini falsafiy nuqtayi nazardan mushohada qiladi: «Inson borliqda ihotalanmagan. U benihoya nozik a'zo, nozik hujayralardan bino bo'lgan. Samoning cheksizligi uni qo'rqitadi» (14, 22). Insonning nozikligi deganda, olim ko'ngilni nazarda tutgan, chunki Muborak Kishining qalbi yaralangani tufayli abadiy la'nat o'qildi. Nafaqat etikdo'z, balki gunohi kabiralarning og'ir sirtmog'ini bo'ynida ilib yurgan odamzot abadiy darbadarlikka mahkum etildi. Islom Yoqubov «Yurak po'rtanalaridan bahs etuvchi asar...» maqolasida Isajon Sulton endilikda kitobxon ongi va ruhiyatini hodisalarning tashqi qatlami (yuza haqiqatlar)dan o'zga manzillar, ya'ni hikmatlar botini – samoviy kengliklar (parda orti) sari yuksaltirmoq tilagida ekanini, romanda nafaqat «Qur'oni Karim» hikmatlari, balki folklor va etnografiya, astrologiya va tarix, genetik injeneriya – molekulyar genetikaning irsiy programmani yangicha modellashtirish, genlarni klonlash nazariyasi va amaliyoti, odam bolasining o'lish huquqi (evtanaziya) kabi muammolarga murojaat qilganini ilmiy mushohadalari asosida izohlaydi (3, 120). Tafakkur ufqi samoviy kengliklarga yuksalgan adib «Boqiy darbadar» romanida voqealarni Ch.Aytmatov singari Yer va samoda tasvirlaydi. «Xitoy va Mo'g'uliston uzra turib qolgan issiq havo oqimining shiddat bilan yuqori ko'tarilishi oqibatida Yaponiya va Avstraliya sarinliklarining hamda ummon yuzasidagi sovuq havoning markazga intilishi oqibatida uning «yo'li» juda uzun bo'lishi taxmin qilingan, katta tezlikda esuvchi shamollarni qo'zg'atishi kutilgan»(10, 23) bo'ron Atlantika ummoni uzra bosh ko'tarar va o'z vahshatidan darak berardi. Boeng 787 Dreamliner. Yo'nalish: Amerika – Markaziy Osiyo, Osiyo. G'-22 «Raptor» harbiy uchoqlari, Boeng 787 Dreamliner. Professor Ziyo, Boeng Dreamliner. Bo'rondan yarim soat avval, Bo'rondan o'n besh daqiqa avval, Mezonul-avzon, Bo'ron nomli fasllardagi voqealar samoda ro'y beradi.

Samo badiiy makonida ikki syujet chizig'i parallel harakatlanadi: 1) Amerika – Markaziy Osiyo yo'nalishida Boeng 787 Dreamliner havo laynerida professor Ziyo xalqaro ajumanni o'tkazib, yurtiga qaytishi; 2) Gobiga tutash mamlakatlardan biridagi muvaqqat harbiy bazadan «Vahshiy» deb nom olgan beshinchi avlod G'-22 Raptor rusumli jangovar uchoqlar va «Qora akula» deb nom olgan, qanotlarida ikkita «havo-havo» va oltita «havo-yer» tipidagi raketalar osig'liq mashhur «Mig», «Kfir», «Tornado» va «Miraj» ham mukammal yaratilgan genomni qo'lga kiritish maqsadida fazoda harakatlanishi. Har ikki tomonga muammo tug'diradigan holat – Atlantika ummoni uzra boshlanayotgan bo'ron edi. Bo'ron – ramziy ma'noda aynan professor Ziyo qalbida kechayotgan po'rtanalarning moddiy ifodasi. Rahimjon Rahmat adib romanidagi tamsillar sirini shunday izohlaydi: «Tabiat tasviri uning asarlarida shunchaki qahramon ruhiyatini aks ettiradigan qo'shimcha bir vosita emas, balki maqsaddir. U tabiat hodisalari tilida bu olamning inson xayollari yetadigan joyigacha bo'lgan hikmatini aks ettirishga harakat qiladi. To'g'rirog'i, yozuvchi tabiat hodisalarini shunday ma'noli va ta'sirli usulda tasvirlay oladiki, biz bu manzaralarni o'qib, butun borliqni boshqarib turgan Ollohning irodasini rosmana his qilamiz» (7, 101). Yaratganning amru irodasiga qarshi o'laroq, uning ishlariga aralashish oqibatini dildan his qilgan olim Xalloq oldidagi gunohi kabirasining qiymatini baholashga qancha harakat qilmasin, buning ilojini qilolmasdi. Uning qalb junbushi asov ummonning junbushiga sabab bo'lgan, inson va tabiat og'ir gunohning zalvorini his qilib, kuchli

to'lg'onar, sababiyat va oqibatni tasavvur qilishga ojiz edilar. Hazrat Navoiyning bayti shuurini egallab olgan, Yaratganning bir ojiz bandasi sifatida tinimsiz tavallo qilardi:

Har parishon so'zki yozdim, yo Karim,
Baridin astag'firulloh, al-azim... (10, 87).

Adib voqealar boshidanoq qilingan gunoh jazosining zalvoriga prospektiv-ishora qiladi: «qachonlardir teranliklarga g'arq bo'lgan kemalari, shaharlariyu qishloqlari, balki Nuh alayhissalom to'fonidan qolgan xarobalari bilan ... yastanib-to'lqinlanib yotar edi»(10, 25).

Najot topganlardan tashqari jamiki tiriklikni mahv etgan Nuh to'foni yovuzlik va zulm o'tida qovrilgan, sun'iy odam yaratishni jahd qilib, Yaratganning amru irodasini chetlab o'tmoqchi bo'lgan dunyoning halokatiga ishora edi. Insonlar qilgan yovuzlikni ilohiy qudrat orqali anglagan tabiat aslida aziyat chekadi. Ch.Aytmatovning «kitlari» ham I.Sultonning «kulrang tusli ummon bag'ridagi nahanglariyu millionlab tur va ko'rinishdagi jonzoatlari» ham suv yuzasida suzib, insonni nimadandir ogoh etmoqqa tilsiz-zabonsiz harakat qilishadi. Har ikki adib falsafasi ham buyuk! Qiyomat – faqat insoniyat emas, jamiki tiriklikning fojiasi, ummon jonzoatlari shundan jonlari talvasada, o'zlarining halokati orqali shu kunni kechiktirishga urinishadi, insonlarni ogoh etmoqqa, dunyoni asrab qolmoqqa intilishadi. I.Sulton inson – jonzot – tabiat triadasi orqali mikroxtrotop paralleligiga erishgan. Yozuvchi insonlar tasavvuridagi qiyomat qoimni tasvirlaydi. Tiyonshon bag'ridagi g'orga qo'nim topgan avliyo, lo'lilar karvonboshisi va genom ayni lahazalarda ibodat qilishadi. Mana shunday tahlikali onda mukammal genomni qo'lga kiritishni qasd qilgan «o'lim mashinalari turli qurollardan bir-birlarini mo'ljalga olgancha buyruq kutmoqda edilar. «Havo-Havo» rusumli raketalar allaqachon jangovar holatga keltirilgan, Himoya vositalari va chalg'ituvchi termik vositalar jangga shay holatda edi» (10, 80). Yozuvchi Muborak Kishi zamonidagi O'lim lashkarini va bugungi havo laynerini bir xil «Maxes» deb nomlagan. Yovuzlik zamon va makonlarni tan olmaydi, qiyomatga qadar tusini o'zgartirib, butun olamni boqiy darbadar singari kezadi. Avliyo, karvonboshi, professor Ziyo, uning o'g'li va u yaratgan genom mikroxtrotopida apokalipsis ro'y beradi. Ayrizamonlarda sodir bo'lgan qiyomat zaminu zamonlarni yo'qlikka mahkum etgan. Yaratganning ishlariga aralashish oqibatini o'ylamaganlar tomonidan barpo etilgan «Kuyten-Nayramdal cho'qqilaridan yuz ellik chaqirim masofada joylashgan Inson takomili markazining bir qavatli beton binosi ham sahro qumlari ostida mangu qolib ketadi» (10, 88). Ch.Aytmatov va I.Sulton texnokratlashgan olam mezonlarining buzilishi oqibatlarini badiiy bashorat qilishyapti. Romanlar megaxxtrotopi mikroxtrotop bilan parallel kasb etib, voqealar drammatizmini kuchaytirgan.

«Tavro kassandri», («Iz yeresev XX veka») (1994) romani o'zbek tiliga Suyun Qorayev tomonidan «Kassandra tamg'asi» hamda «Oxirzamon nishonalari» tarzida tarjima qilingan. Asar uchun tanlangan sarlavhalar bir-birini to'ldiradi, ya'ni peshonasida qizil dog', ya'ni kassandra tamg'asi paydo bo'lgan ayolning homilasi dunyoga kelgach, insoniyatni halokat yoqasiga, oxirzamonga yetaklaydi.

Romanda Chingiz Aytmatovning intellektual va badiiy mahorati nechog'li yuksalganini ko'ramiz. Sarlavha asar voqealariga mos tanlangan, ya'ni Appolonning duoyi badi tufayli Shoh Priamning qizi Kassandranning bashoratlari hech kim ishonmaganidek, Filofey tomonidan Kassandra tamg'asi deya nomlangan ayrim homilador ayollarning peshonasidagi qizil dog' haqidagi ogohlantirishiga hech kim ishonmaydi.

Asar mavzusiga ko'ra syujet chizig'i ikki yo'nalishda rivojlanadi:

a) sun'iy loyihalashtirilgan, ota-onalari noma'lum odamlarni yaratish;

b) peshonasida qizil dog' paydo bo'lgan ayollarning homilalarini majburan yo'qotish.


Bosh qahramon asarda ikki nom bilan atalgan. Aslida bolalar uyiga tashlab ketilgan, o'tkir zehni tufayli tibbiyot institutini bitirib, ikszurriyotlar ustida tadqiqot olib borgan genetik olim va akademik Andrey Krilsov va ayrim ikkiqat ayollarning peshonalarida homiladorlikning dastlabki haftalarida ikki qosh oralig'ida qizil dog' (bu dog' bolaning taqdiri yomon kechishidan nishona), ya'ni Kassandra tamg'asi paydo bo'lishini, bunday hollarda homila-embriyon yorug' dunyoga kelishni xohlamasligi va o'zini yo'qotishlarini talab qilishini aniqlagan futurolog Filofey tarzida namoyon bo'ladi. Qahramon chaqaloqligidanoq bolalar uyida tarbiyalangan, ota-ona mehridan mosuvo, ma'lum ma'noda o'zi e'tirof etganidek, «aslida men ham ikszurriyotman, tabiiy holda tug'ilgan bo'lsam ham, nasl-nasabsiz, urug'-aymoqsiz o'shanday odamman»(2, 315).

Sarlavhaning mohiyati Filofeyning koinotdan Rim papasiga yo'llagan maktubida anglashiladi: «Men shunga amin bo'ldimki, inson homilasi ona qornidagi rivojining birinchi haftalarida o'zining kelajak hayoti qanday kechishini ichki his bilan sezish va taqdiri azalga o'z munosabatini bildirish imkoniyatiga ega bo'lar ekan. Agar embriyoning qismati kelajak hayotda yomon kechadigan bo'lsa, homila o'zining yorug' dunyoga kelishiga qarshilik qilar ekan. Men embriyonda shunday signal-nishon topdimki, embriyon tug'ilishga salbiy munosabatda bo'lsa, o'zidan nishon, ya'ni signal beradi. Bu signal tug'ilishni xohlamaydigan bolaga

LITERARY CRITICISM

homilador ayolning peshonasida kichkinagina rangli dog‘ shaklida ko‘rinadi. Men bu dog‘ni Cassandra tamg‘asi deb, ko‘ngilsiz signallar berib turadigan homilani kassandra-embrion deb atadim»(2, 30).

Rohib Filofey koinotdan yuborgan nur natijasida ba‘zi homilador ayollarning peshonasida qizil dog‘ning aniq ko‘rinishi, bunday buyuk eksperimentning mohiyatiga afrikaliklar ham, osiyoliklar ham, ruslar ham, amerikaliklar ham tushunib yetmagach, o‘zini ochiq koinotga ulotirib halok bo‘lishi, tajribani olomonga yetkazmoqchi bo‘lgan futurolog Robert Borkning vahshiylarcha o‘ldirilishi kuchli dramatism asosida tasvirlangan.



1-rasm. «Kassandra tamg‘asi» – ota-onasi noma‘lum ikszurriyotlarning yaratilishi va ayanchli qismati qizil dog‘ orqali bashorat qilingan embrionlar taqdiri

Ayrim ikkiqat ayollarning peshonalarida homiladorlikning dastlabki haftalarida ikki qosh oralig‘ida qizil dog‘, ya‘ni Cassandra tamg‘asi paydo bo‘lishi orqali belgi bergan homila-embrionning yorug‘ dunyoga kelishni xohlamasligi va o‘zini yo‘qotishlarini talab qilishi; nasl-nasabsiz ikszurriyotlarni dunyoga keltirishga majburlash insonlarning gunohi kabiralari bo‘lib, insoniyat, tabiat, hayvonot, jamiki tiriklik dunyosining qat‘iy tartibdagi mezonlarning buzilishiga sabab bo‘ldi.

Oxirzamon nishonalari okean osti, yer va koinot vertikalida bo‘y ko‘rsatadi:

- 1) kitlar o‘zlarini quruqlikka otib, o‘limga mahkum etishlari;
- 2) insoniyat genofondiga qilinayotgan tahdid – hech qanday yaqini bo‘lmagan ikszurriyotlarning yaratilishi; achchiq qismat egasi bo‘lishdan qo‘rqqan embrionlarning tug‘ilishni istamasdan, berayotgan ogohlantirishlari;
- 3) yerda o‘ziga joy yo‘qligini anglagan Andrey Krilsov koinotdan turib, insonlar hayotiga dahshat solishi.

Sarlavhaning mohiyati mikro, makro va megaxronotoplarning mushtarak ifodasida teranlashadi. Mikroxronotopda bosh qahramonning koinotga o‘zini ulotirishi, qalbida kechgan tizginsiz po‘rtanalar; makroxronotopda yerda, jamiyatda, insonlar orasida unga joy qolmagani; megaxronotopda koinotda ham xotirjamlik topmagani, hatto yerda odamlar uni koinotdan urib tushirish rejasini tuzishgani bilan bog‘liq voqealar ifodalanadi. Intellektual roman xususiyatlari, mavzu va g‘oyasiga ko‘ra «Boqiy darbadar» romaniga yaqin turadi. Hatto roman voqealarining mantiqiy davomi yanglig‘ tasavvur hosil qiladi. Ikkala romandagi umumlashma xususiyatlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Mifologik tafakkur: «Kassandra tamg‘asi» «Kassandra va Appolon», «Boqiy darbadar» «Agasfer» haqidagi mif asosida yaratilgan. Har ikki ijodkor mif mazmunidan badiiy qolip sifatida foydalangan, ya‘ni mif roman mazmunining asosini tashkil etgan.

Ilmiy tafakkur: romanlarda sun‘iy emrionlarning yaratilishi borasidagi ilmiy kashfiyotlarning fojiali oqibatlarini, ya‘ni Filofey kosmosda abadiy o‘limga yuzlansa, professor Ziyoni bo‘ron mahv etadi.

Badiiy bashorat: «Kassandra tamg‘asi»da ikszurriyot va kassandra embrionlarining insoniyat taqdirini izdan chiqarish haqiqati, «Boqiy darbadar»da ham ota-onasi noma‘lum, inson va turli jonzoatlarning gen o‘ramlari asosida yaratilgan sun‘iy mavjudotlarning halokati, mukammallikka ega genomning yaratilish

sababini izlash yo'lidagi darbadarliklar, uni qo'lga kiritish maqsadidagi gegemon davlatlarning tinimsiz talvasasi orqali bugungi global dunyoda Yaratgan irodasiga qarshi o'laroq yaratilgan ilmiy kashfiyotlarning fojiali oqibatlariga ishora qilingan. Akademik Baxtiyor Nazarov inson zotining mohiyatiga, uning ayniqsa, globallashuv zamon va muammolari bilan aloqadorlikdagi dardlariga – yangi davrning ilg'or ilmiy kashfiyotlari bilan insoniyatga, u mansub bo'lgan barcha diniy qarashlarning o'zaro uyg'unligidagi qarashlar yaxlitligida yoritish, bu boradagi abadiy so'rovlarga yangi badiiy uslubiy izlanishlar qilishga intilish kabi bir qator xususiyatlar o'zbekona badiiy tafakkur tarzining mahsuli bo'lmish «Boqiy darbadar» romanining jahon adabiyoti namunalari qatoridan o'rin olishiga asos berishini e'tirof etgan (6, 6). Olimning «Kassandra tamg'asi»dagi bosh qahramon Filofey, professor Andrey Krilsovning darbadarlik tabiati va dunyoqarashidagi tizim badiiyatini tasvirlash luzumlari Isajon Sultonning «Boqiy darbadar» romanidagi yetakchi qahramonni tasvirlashdagi «chiqish nuqtasi» bo'lgan (11, 46), ta'kid orqali kassandra embrionining yorug' olamda boqiy darbadarlikka mahkumligi, Yaratganning irodasiga qarshi o'laroq dunyoga kelgan mavjudotning insoniyat orasida yashashga haqli emasligi haqidagi Ch.Aytmatov va I.Sultonning insoniyatni sergak tortishga majburlovchi g'oyalarda tutashuv borligini e'tirof etgan.

Etikdo'zni darbadarlik va abadiyat sharobidan bebahralik nadomati qiynaydi, lo'li cholga qalb evrilishlarini oshkor qiladi: – «*Odam bolasi borki, barhayotlikni orzu qiladi. – Men esa abadiyat bilan jazolandim. Men uchun na vatan, na millat, na elat, na til qoldi. Dunyoni kezarkan, butun boshli millatlarning yo'q bo'lib ketganini, o'rniga boshqalarining kelganini ko'rdim... Aslida, siz mendan ko'ra xushbaxtroqsiz. Chunki, qismatingizga darbadarlik bitilgan bo'lsa ham, bir necha yildan keyin Uning rahmati tomonga ravona bo'la olasiz. Menga esa u yo'llar berkilgan, qopqalar yopilgan, tavbamdan va pushaymonimdan naf yo'q*» (10, 18). Yozuvchi darbadarlikka mahkum etikdo'z uchun vatan, millat, elat va tilning mohiyatini yo'qolganini uning tilidan ta'kidlab, nimaga ishora qilmoqda? Javobni o'g'li professor Ziyoga yozgan maktubdan izlaymiz: «*Men hozir dunyoning har bir mamlakatida, har bir go'shasida, halol va imonli kishilar bilan bir qatorda, ana shunday darbadar insonlarni ham ko'rmogdaman... Shunday darbadarlikka muhtalo bo'lmaslikning yo'llarini izlamoqdaman. Kun kelib, ruhim samolarga qarab yo'l olganida, mukammalikka erishgan zotlar bilan bir qatorda bo'lishni orzu qilaman*» (10, 49). Har bir qahramon dunyoni o'zicha anglaydi, darbadarlik borasida chuqur mushohada yuritadi. Professor Ziyoga, uning o'g'li va yaratgan genomining fikr-mulohazalaridagi mushtaraklik shundaki, har biri o'z aqliy maqomi darajasida o'zligini anglashga, mohiyatga yetishga intiladi. «Boqiy darbadar» romanida Isajon butun insoniyatning peshanasiga darbadar degan tamg'a bosgan, Tangri taolo yaratgan hudud- chegaralardan chiqishga uringanlar Etikdo'z qismati kabi, qarg'ish oqibatida olamda bemaqsad va mangu daydib-tentirab yurish ekanini (va mangu bo'lmagan shu yorug' olamning oxirida yana mudhishroq bir hukmga ro'para kelishini) ko'rsatgan» (8, 51).

A.Meliboyev darbadarlikni shunday izohlaydi: «Inson beshikdan qabrgacha ilm izlashi, bilishi, anglashi, yaxshini yomondan, oqni qoradan, haqiqatni yolg'ondan farqlashi va, eng muhimi, ilmiga, fahm-farosatiga asoslanib, O'zini topishi lozim. Buningsiz uning bu dunyoda turishidan ma'no yo'q. Ammo ilmiy salohiyati va shu salohiyatdan g'ururlanish asnosida paydo bo'lgan maqsad-muddaosi imoni, vijdoni, bandaligi, bu yorug' olamga shunchaki mehmonligi bilan to'qnash kelib qolmasin, hayot karvonidan olislab ketib, adashib-yanglilib, daydi-darbadar holiga tushmasin. Azaliyat qonunlarini ularning yaratuvchisidan boshqa hech kim va hech vaqt tahrir qila olmasligini vaqtida tushunib yetsin» (5). Olimning roman mehvarini, leytmotivini teran tahliliga asoslanib, aytish joizki, asar intihosidagi bo'ronning jamiki tiriklikni yer yuzidan supurib, yo'qlik jariga qulatilishiga sabab insonlarning o'zlariga ma'lum qilinmagan sinoatni bilishga ortiqcha urinishlarida va shu yo'lda uloqib, adashib, gunoh sahosida darbadar kezishlarida edi. «Qur'oni karim»ning Al-Isro surasi o'n beshinchi juz', 85-oyatida (*Ey, Muhammad,*) *Sizdan ruh haqida so'raydilar. Ayting «Ruh faqat Rabbimning ishidandir». Sizlarga esa oz ilm berilgandir* (12, 185), deya marhamat qilinadi. Adabiyotshunos D.Quronov muammoga quyidagicha yondashadi: «*Yozuvchi muammoning ildiziga nazar soladi va ko'radiki, Yaratganidan uzoqlashishi barobari inson hayotining mazmuni yo'qolib borayotganini teranroq his qilgan, bu his muttasil kuchayib borgan. Va bu nihoyasiz jarayon. Shuning uchun ham romanda yaralmish – inson «tangrining irodasiga isyon o'laroq» yaratgan eng oliy mavjudot – klon ham olamning nechog'li mukammal yaratilganini idrok etgach, «mazkur silsila aro o'z o'rmini topishga harakat qiladi»* (13).

Rahmon Qo'chqor olam va odam munosabatlaridagi bu kabi darbadarlikni uning o'tmishi, hoziri va kelajagiga daxldorligini quyunchaklik bilan ta'kidlaydi: «Mutolaasi fikru o'yimizga og'ir tosh boylab, xuddi shunday og'ir savollar girdobiga tashlagan «Boqiy darbadar» romani, aytilganidek, diqqatimizni biror hayotiy voqeaning, u yoxud bu qahramon taqdirining epik badiiy talqiniga emas, balki qismati qil ustiga kelib qolgan odamzod naslining kechagi ibratli, bugungi boshboshdoq va ertangi bilib bo'lmas taqdiriga shaxsan daxldorlik masalasiga qaratadi» (9).

Genetika mutaxassisi Georg Mendel anjumandagi nutqida gen o'ramlari qarshisida soatlab termilib turgan onlarida «Yaratgan Parvardigorimning nizomini buzishga urinib, xato qilmayapmanmi?»(10, 30], degan savol qiynaganini aytadi. «Tangrining irodasiga isyon o'laroq, ya'ni u belgilab bergan hayot-mamot va taqdir chegaralaridan jasurona sakrab o'tib, halokatli barcha ta'sirlarga chidamli va jarohatlangan a'zosini tezda tuzata oladigan, tafakkur jihatidan odamlardan bir necha baravar ustun»(10, 35] qilib yaratilgan genom uni kim nima maqsadda yaratganiga javob istaydi. Bu makonda bo'lishi Uning yaratishdan ko'zlagan irodasiga mos kelgani taqdirda, albatta, qaytishini, mos kelmagan taqdirda esa mos keladigan makon va zamon izlashini ma'lum qilib, laboratoriyani tark etadi. Voqealar yakunida ko'tarilgan to'fon jamiki yaratqini chilparchin qilib, hammasini yo'qlikka mahkum qiladi.

Xulosa. Har ikki romanda ham *Yaratganning ishiga aralashgan* olimlar hayoti halokatli yakun topadi. Adiblarning falsafiy bashorati bugungi kunda amalga oshirilayotgan ilmiy-texnik kashfiyotlarning ezgulikka xizmat qilishi haqidagi da'vati sifatida kitobxonni sergak torttiradi.

«Kassandra tamg'asi», «Boqiy darbadar» romanlarida samoviy tafakkur ufqlari orqali megaxonotop o'ziga xos uslubda tasvirlanib, texnokratlashgan dunyoda insoniyatni kutayotgan fojealar oqibati badiiy bashorat qilinadi. Mualliflar roman shakliga xos ulkan badiiy tasvir imkoniyatlaridan foydalanib, Sharq va G'arb badiiy tamoyillarini uyg'unlashtirgan holda mikro, makro va megaxonotop paralleligi asosida apokalipsis hodisasidan insoniyatni ogohlikka da'vat qilmoqdalar.

ADABIYOTLAR:

1. *Adabiyot ensiklopediyasi: (Atamalar, istilohlar, siymolar, asarlar va nashrlar). Tuzuvchi: H.Boltaboyev / O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'z-n Milliy un-ti; mas'ul muh-rlar: I.G'afurov, M.Mahmudov; tahrir hay'ati: E.Vohidov [va boshq.]; T.: Mumtoz so'z, 2014. - 680 b.*

2. *Aytmatov Ch. Kassandra tamg'asi: Falsafiy roman. /Ruschadan Suyun Qorayev tarjimasini. - T.: «Yangi asr avlodi», 2016. - 352 b.*

3. *Yoqubov I. Yurak po'rtanalaridan bahs etuvchi asar.../ Isajon Sulton nasri badiiyati. - T.: Turon zamin ziyo, 2017. - B. 120.*

4. *Meliboyev A. Yolg'iz yashab bo'lmaydi. - T.: «Sharq», 2007. - B.106.*

5. *Meliboyev A. Rizq daraxti. / <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/isajon-sulton-boqiy-darbadar-ahmadjon-meliboyev-rizq-daraxti.html>*

6. *Nazarov B. Iste'dod manzaralari. / Isajon Sulton nasri badiiyati. - T.: Turon zamin ziyo, 2017. - B. 6.*

7. *Rahimjon Rahmat. «Munojot»dan «Boqiy darbadar»gacha». Isajon Sulton. Boqiy darbadar: roman. - T.: O'zbekiston, 2011. - B. 271-272.*

8. *Rasulov A. Akslar falsafasi. / Isajon Sulton nasri badiiyati. - T.: Turon zamin ziyo, 2017. - B. 51.*

9. *Rahmon Qo'chqor. Darbadarlikning bedor talqini <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/darbadarlikning-bedor-talqini/?imlo=k>*

10. *Sulton I. Boqiy darbadar: roman, qissa, hikoyalar. -T.: «O'zbekiston», 2011. - 282 b.*

11. *Chingiz Aytmatov va O'zbekiston/ to'p. Ahmadjon Meliboyev. - T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2018. - B.46.*

12. *Qur'oni karim. Ma'nolari tarjimasini. Tarjimon va izohlar muallifi: Abdulaziz Mansur. - B.185. / www.ziyouz.com kutubxonasi*

13. *Quronov D. O'ylashga undovchi asar. Isajon Sulton. Boqiy Darbadar: Roman. «Sharq yulduzi» jurnali, 2010 yil, 6-son.*

14. *G'afurov I. Yozuvchi, tabiat va tabiiyot. /Isajon Sulton nasri badiiyati. - T.: Turon zamin ziyo, 2017. - B. 22.*

EDVIDJ DANTIKA - AQSH KO'P MADANIYATLI ADABIYOTI VAKILASI

G'aniyeva Orzigul Xayriddinovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD
o.x.ganiyeva@buxdu.uz
Axmedova Aziza Azamat qizi,
Buxoro davlat universiteti magistranti
a.a.axmedova1@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Edvidj Dantika AQSh ko'pmadaniyatli adabiyotining yetakchi vakillaridan biri sifatida, o'z asarlarida Gaiti madaniyati, tarixi va diaspora hayotini chuqur yoritadi. U Gaiti xalqining tarixiy va ijtimoiy-siyosiy qiyinchiliklari, jumladan, Duvalier rejimi davrida yuzaga kelgan muammolarni aks ettiradi. Dantika ning ijodi Gaiti madaniyatiga oid o'ziga xos tajribalar va bu tajribalar AQShga ko'chib kelgan haitiyaliklar hayotidagi o'zgarishlarni o'rganishga qaratilgan. Asarlarida Dantika ko'pmadaniyatli muhitda shaxsiy va milliy o'zlikni anglash masalalarini o'rganadi, bu orqali madaniyatlararo muloqotning ahamiyatini va uning hayotdagi rolini yoritadi. Dantikaning ko'pmadaniyatli adabiyotdagi o'rni o'z asarlari orqali boshqa madaniyatlar va jamiyatlar bilan muloqotda bo'lish imkoniyatlarini ko'rsatadi va o'quvchilarga turli madaniyatlararo aloqalarning qadr-qimmatini anglashni taklif etadi.

Kalit so'zlar: immigratsiya, psixoanaliz nazariyasi, gender muammolari, jamoaviy travma, ko'pmadaniyatlilik, ruhiy jarohatlar, ramziy obrazlar, oilaviy rishtalar.

ЭДВИДЖ ДАНТИКА - ПРЕДСТАВИТЕЛЬ МУЛЬТИКУЛЬТУРНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ США

Аннотация. В этой статье Эдвидж Дантика рассматривается как один из ведущих представителей американской мультикультурной литературы. В своих произведениях она глубоко исследует культуру, историю и жизнь диаспоры Гаити. Она отражает исторические и социально-политические трудности гаитянского народа, включая проблемы, возникшие в период правления режима Дювалье. Творчество Дантика направлено на исследование уникального опыта, связанного с культурой Гаити, а также изменений в жизни гаитянских иммигрантов в США. В своих произведениях Дантика исследует вопросы понимания личной и национальной идентичности в многонациональной среде, подчёркивая важность межкультурного общения и его роль в жизни людей. Через свои работы она демонстрирует возможности для взаимодействия с другими культурами и обществами, а также предлагает читателям осознать ценность межкультурных отношений.

Ключевые слова: иммиграция, психоаналитическая теория, гендерные проблемы, коллективная травма, мультикультурализм, психологические раны, символические образы, семейные узы.

EDWIDGE DANTICAT - REPRESENTATIVE OF MULTICULTURAL LITERATURE OF THE USA

Abstract. In this article, Edwidge Danticat is presented as one of the leading figures of American multicultural literature, with her works offering an in-depth exploration of Haitian culture, history, and diaspora life. She highlights the historical and socio-political challenges faced by the Haitian people, including the issues that arose under the Duvalier regime. Danticat's writing focuses on the unique experiences of Haitian culture, examining how these experiences shape the lives of Haitian immigrants in the United States. Through her works, Danticat addresses themes of personal and national identity within a multicultural environment, emphasizing the importance of intercultural dialogue and its role in people's lives. Her position in multicultural literature shows how her works provide opportunities for engagement with other cultures and societies, encouraging readers to recognize the value of intercultural connections.

Keywords: immigration, psychoanalytic theory, gender issues, collective trauma, multiculturalism, psychological wounds, symbolic imagery, family ties.

Kirish. E. Dantika — gaiti-amerikalik yozuvchi, shoir, va esseist bo‘lib, o‘z asarlarida Gaiti va gaiti diasporasi hayoti, ularning madaniyati, tarixi va immigratsiya tajribalarini o‘tkir va hissiy tarzda tasvirlaydi. U 1969-yilda Gaitida tug‘ilgan, lekin yoshligida AQShga ko‘chib kelgan va Nyu-Yorkda o‘tib ulg‘aydi. Uning eng mashhur asarlaridan biri “Breath, Eyes, Memory” romani bo‘lib, u Gaiti tarixi va immigratsiya bilan bog‘liq murakkab mavzularni qamrab oladi. E. Dantikaning asarlarida ko‘pincha oilaviy rishtalar, travma, adolat, va jasorat mavzulari yoritiladi. Uning boshqa asarlari qatorida “The Farming of Bones”, “Krik? Krak!”, va “The Dew Breaker” kabi roman va hikoyalar to‘plamlari ham bor. U o‘z yozuvlari orqali inson huquqlari, ijtimoiy adolat va shuningdek, Gaiti xalqining ovozini tinglovchilarga yetkazish uchun katta hissa qo‘shgan va uning asarlari ko‘plab adabiy mukofotlar bilan taqdirlangan.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. E. Dantika asarlari, o‘ziga xos uslubi, jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy masalalarga bo‘lgan e‘tibori bilan bir qatorda, Gaitiy merosi, diasporik tajribalar va madaniyatlararo aloqalar haqida chuqur mulohazalar keltiradi. M. Mehni “Analyzing the Problematic Mother-Daughter Relationship in Edwidge Danticat’s Breath, Eyes, Memory” maqolasida muallifning mazkur romanini psixanaliz nazariyasi orqali tahlil qilgan ekan, J. Kristeva fikrlariga tayangan holda, asarda bosh qahramon va uning qizi bilan muammoli munosabatlarini ko‘rib chiqadi [1]. Asar qahramonlari Sofi va uning onasi Martina bilan taqdir taqozosi bilan bir necha yillik ayriliqdan so‘ng birlashuvi, natijada muntazam murosasiz rishtaga ega bo‘lishlarini batafsil tasvirlaydi. Muallif shaxsiy muammolari sababli Gaitini tark etishga majbur bo‘lgan, ruhiy jarohat tufayli norasida go‘dagi bilan ma‘lum muddat ayro yashab, yana qayta ko‘rishgach, qator ko‘ngilsizliklarga uchragan ayol voqeasiga munosabat bildiradi. Ko‘rinadiki, E. Dantika bir ayol taqdiri misolida Gaitidagi ijtimoiy notinch vaziyat, uning aholiga ta‘siri, ayniqsa ayol va qizlar taqdirining tubdan o‘zgarib ketishini ijodida keng yoritadi.

Natijalar va tahlil. E. Dantikaning asarlari ko‘pincha Gaiti madaniyati va uning diasporasi tasviriga qaratiladi. U Gaiti tarixidagi muhim voqealarni, masalan, Duvalier rejimi ostida ro‘y bergan qiyinchiliklarni va ularning diasporadagi Gaiti xalqi uchun yaratgan muammolarini yoritadi. Bu asarlar, asosan, Gaitidan AQShga ko‘chib kelgan insonlarning shaxsiy tajribalarini va ularning yangi muhitdagi o‘rnini o‘rganishga qaratiladi.

E. Dantikaning “Breath, Eyes, Memory” romanida, Gaitidan AQShga ko‘chib kelgan qizning hikoyasi orqali, u o‘zining ildizlari bilan aloqasini va yangi joyda o‘zini qanday his qilayotganini yoritadi. Bu asar, ko‘plab amerikalik o‘quvchilar uchun Gaiti madaniyati haqida qiziqarli ma‘lumotlar taqdim etadi va madaniyatlararo aloqalar qanday qilib shakllanishini ko‘rsatadi [2].

E. Dantika asarlarida ayollar xarakterlariga katta e‘tibor qaratadi. Uning qahramonlari, odatda, kuchli, mustaqil va murakkab shaxslardir. Adiba ayollarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy holatlarini, ularning o‘zaro munosabatlarini va ziddiyatlarini o‘rganadi. Bu masalalar, ko‘plab jamiyatlarda dolzarb bo‘lgan gender muammolarini yoritadi va ayollarning o‘z huquqlarini olishidagi kurashini ko‘rsatadi [3].

Edwidge Dantikaning “Breath, Eyes, Memory” romani o‘ziga xos hikoya qilish uslubi va murakkab mavzulari bilan ajralib turadi. Bu asar, birinchi navbatda, qahramonning shaxsiy va madaniy o‘zligini kashf etish jarayoniga bag‘ishlangan. Romanning asosiy qahramoni – Sofi, o‘z onasi bilan yangi hayot boshlash uchun Gaitidan AQShga ko‘chib keladi. Bu asar orqali Gaiti madaniyati, ayollarga nisbatan ijtimoiy bosimlar va immigratsiya bilan bog‘liq masalalar juda nozik va o‘ziga xos tarzda tasvirlanadi. Romanning o‘ziga xos tomoni – qahramonlarning hissiy va ruhiy kechinmalari orqali o‘quvchini jalb etishidir. E. Dantika rivoya qilish uslubida haqiqat va afsonalarni birlashtirib, Gaiti madaniyati va hayot tarzi haqida chuqur tushuncha beradi. U voqealar rivojini gohida realistik tasvirlar bilan, gohida esa ramziy obrazlar orqali yoritadi. Masalan, asarda sof ko‘rinishda namoyon bo‘ladigan “sinov” tushunchasi qahramonlarning ruhiy kechinmalari bilan bog‘lanib, ularning ichki dunyosini aks ettiradi. Bu “sinovlar” – Gaitida ayollarning bokiraligini tekshirish uchun qilingan an‘anaviy marosimlar – asar davomida shaxsiy va jamoaviy travmalarni o‘rganishga turtki bo‘ladi. Sofi o‘z o‘tmishi bilan yuzlashib, bu an‘ananing uning shaxsiy hayoti va ruhiyatiga qanday ta‘sir qilganini anglaydi. E. Dantika romani, shuningdek, ona va qiz o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritish orqali oilaviy rishtalarni o‘rganishga katta e‘tibor qaratadi. Sofi va uning onasi Martina o‘rtasidagi aloqa o‘ziga xos ramziylikka ega bo‘lib, bu ularning bir-biridan olgan jarohatlari va ularni davolash jarayonlarini aks ettiradi. Martina o‘zining o‘tmishidagi zo‘ravonliklardan qochgan holda Gaitidan AQShga ketgan bo‘lsa-da, u bu travmalardan to‘liq qutulmaydi va o‘zining qiziga ham shu jarohatlarni o‘zi bilmagan holatda meros qoldiradi. Shu tariqa, “Breath, Eyes, Memory” faqatgina oilaviy rishtalar haqida emas, balki o‘tmishdagi jarohatlar va ularni davolash uchun qilinadigan sa‘y-harakatlar haqida ham hikoya qiladi.

Romanning o‘ziga xosligi yana undagi immigratsiya va madaniy shaxsiyatning yo‘qolish yoki yangidan tiklanish jarayonlarini tasvirlashidadir. AQShga ko‘chib kelgan Sofi ikkita dunyo – Gaiti an‘analari va yangi madaniyat o‘rtasida qoladi. U o‘zining kelib chiqishi va Gaiti madaniyati bilan bog‘liqligini his

qilgan holda, Amerikadagi yangi hayotga moslashishi kerak bo'ladi. Bu o'zlikni topish yo'lidagi ichki ziddiyatlar Sofining shaxsiy o'sish jarayonida katta rol o'ynaydi. E. Dantikaning asarlari madaniyatlararo aloqalar, muhojirlik, va turli xil madaniyatlarining bir-biri bilan qanday o'zaro aloqada bo'lishini namoyon etadi. U, AQSHdagi gaiti-amerikaliklar va boshqa madaniyatlar o'rtasidagi aloqalarni yoritadi. Bu asarlar orqali, E. Dantika AQSHda turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va tushunishni oshirishga qaratilgan muhim savollarni ko'taradi. "The Dew Breaker" romanida, E. Dantika birinchi navbatda Gaitidan kelgan muhojirning hayoti va uning o'tmishdagi travmalari haqida hikoya qiladi. U, muhojirlik va uning oqibatlarini, shuningdek, madaniyatlararo o'zlik muammosini o'rganadi. Ushbu asar, o'z ichiga olgan ko'p qirraliligi bilan AQSH ko'p madaniyatli adabiyotining bir qismi sifatida ahamiyatlidir.

"The Farming of Bones" romanida, E. Dantika Gaitidan kelgan ayollarning hayotini va ularning kurashlarini yoritadi. Ushbu asar, Gaiti va Dominikan Respublikasidagi muammolar, shuningdek, ayollarning ularni hal etishdagi roli haqida muhim ma'lumotlar beradi. Yozuvchining asarlarida ayollarning kurashi, o'z-o'zini anglash jarayoni va ijtimoiy o'zgarishlar uchun kurashlari ko'plab o'quvchilarni qiziqtiradi [4].

E. Dantikaning "The Farming of Bones" romani Gaiti va Dominikan Respublikasi o'rtasidagi tarixiy munosabatlarni yoritib, insoniyat tarixidagi unutilgan, ammo juda og'riqli davrni ochib beradi. Roman 1937-yilda Dominikan Respublikasi hukumati Gaitidan kelgan ishchilarga nisbatan amalga oshirgan ommaviy qirg'in voqealarini tasvirlaydi [5]. Bu qirg'in davomida minglab gaitiliklar "perejil" yoki "maydanoz" testi yordamida aniqlanib, zo'rvonlik bilan o'ldirilgan. Asarda bu dahshatli tarixiy hodisa bosh qahramon Amabelle Desirning nigohi orqali ifodalanadi.

Romanning o'ziga xos jihati uning badiiy uslubi va insoniy hissiyotlarni chuqur tasvirlashida yotadi. Amabelle oddiy ishchi sifatida Dominikan Respublikasida yashab, qiyin sharoitlarda hayot kechiradi. U sevgi, do'stlik, va umid bilan yashaydi, ammo u yashayotgan zamon va joy shafqatsizlikka to'la. Amabellening ko'zlari bilan o'quvchi o'sha davrning murakkab sharoitlarini, odamlarning dardini, va ularning hayot uchun qilgan kurashini his qiladi. E. Dantika voqealarni ramziy obrazlar va nozik tafsilotlar orqali tasvirlab, o'quvchini nafaqat tarixiy ma'lumotlarga, balki hissiy tajribaga ham olib kiradi. Romanning badiiy kuchi ana shu tasvirlarda namoyon bo'ladi.

Romanda o'ziga xos yondashuvlardan biri – "maydanoz" sinovi orqali odamlarning millatga mansubligini aniqlash va ularga nisbatan adolatsizliklar o'tkazishdir. Dominikan hukumati ularni tillaridagi talaffuzdan foydalangan holda ajratib, milliy farqlarni shafqatsiz siyosiy vosita sifatida qo'llaydi. "Maydanoz" so'zini to'g'ri ayta olmagan gaitiliklar millati uchun jazolanadi, bu esa kichik bir nutq kamchiligini hayot va o'lim masalasiga aylantiradi. E. Dantika bu orqali milliy identifikatsiya, tillarning ahamiyati va insoniyatga qarshi jinoyatlarning naqadar shafqatsiz bo'lishi haqida chuqur mulohazalar qoldiradi.

E. Dantikaning muallif sifatida uslubi juda o'ziga xosdir. U tilni nozik va ta'sirli tarzda ishlatadi, bu esa uning asarlarini o'qishga qiziqarli qiladi. Uning qalamiga xos bo'lgan jonli, lirik va tasviriy tili, kitobxonlarga qahramonlarining ichki his-tuyg'ularini va ularning tajribalarini chuqur his qilishga imkon beradi.

Shuningdek, E. Dantika o'z asarlarida ko'plab folklor elementlari va Gaiti madaniyatining urf-odatlarini qo'shadi. Bu, uning hikoyalariga yanada rang-baranglik va teranlik kirishiga olib keladi. U, o'z asarlarida mansub madaniy merosini saqlab qolishga intiladi, bu esa AQSH ko'p madaniyatli adabiyotiga qo'shilgan muhim hissadir.

Xulosa qilib aytganda, Edvidge Dantika AQSH ko'p madaniyatli adabiyotining yorqin vakilasi sifatida Gaiti hayotining to'liq mashaqqatlarini, Gaiti xalqining siyosiy va tarixiy qiyinchiliklarini qahramonlar ruhiy jarohatlari, aqliy travmalari yordamida chuqur tahlil qiladi. biri bo'lib, asarlarida Gaiti madaniyati, tarixi va diaspora hayotini chuqur tahlil qiladi. E. Dantikaning asarlari madaniyatlararo aloqalar, muhojirlik, va turli xil madaniyatlarining bir-biri bilan qanday o'zaro aloqada bo'lishini namoyon etadi. U, AQSHdagi gaiti-amerikaliklar va boshqa madaniyatlar o'rtasidagi aloqalarni yoritadi. Bu asarlar orqali, E. Dantika AQSHda turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va tushunishni oshirishga qaratilgan muhim savollarni ko'taradi.

ADABIYOTLAR:

1. *A Companion to Literary Theory*. Edited by David H. Richter. – The USA: John Wiley & Sons Ltd, 2018. – P. 360.
2. *Caruth, Cathy. Unclaimed experience: trauma, narrative, and history*. – B.: John Hopkins University Press, 1996. – P.172. <https://archive.org/details/unclaimedexperie0000caru/page/n7/mode/2up>

LITERARY CRITICISM

3. Caruth, Cathy. *Trauma: Explorations in Memory*. – B.: The Johns Hopkins University Press, 1995. – P.284.
4. Ganieva Orzigul Khayriddinova, & Ashurova Nigina Aziz Qizi. (2023). Indirect characterization in Jamaica Kincaid's «Mr. Potter». *International Journal of Literature and Languages*, 3(12), 51–56. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue12-10>
5. LaCapra, Dominick. *Writing History, Writing Trauma*. – B.: John Hopkins University Press, 2001. – P.256. <https://archive.org/details/writinghistorywr0000laca>
6. Khayriddinova G. O. et al. *Personal relations in the bridal seamstress story (the dew breaker) by Edwidge Danticat // The theory of recent scientific research in the field of pedagogy*. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 115-117.
7. Khayriddinova G. O. "Description of Parental Influence in «East of Eden» by John Steinbeck." *International Journal of Inclusive and Sustainable Education* 1.4 (2022): 94-97.
8. Rothberg, Michael. *Traumatic Realism: the Demands of Holocaust Representation*. – M.: University of Minnesota Press, 2000. – P.326. <https://archive.org/details/traumaticrealism0000roth/mode/2up>.
9. Sadullaev Feruz Bakhtiyorovich, & Safarova Dildora Kabilovna. (2023). The Literary Significance of «The Jolly Corner» in Henry James's Oeuvre. *Miasto Przyszłości*, 42, 726–729. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2172>.
10. Sadullaev Feruz Bakhtiyorovich. (2022). Peculiar features of Henry James's early novels. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 3(12), 36-38. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/ejhea/article/view/2996>.
11. Sadullaev Feruz Bakhtiyorovich, & Daminov Jamshid Zafarovich. (2024). Description of Women Image in the Story «The Cut Glass Bowl» by F. Scott Fitzgerald. // *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 2(1), 1–3. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2474>.
12. Caruth, Cathy. *Unclaimed Experience: Trauma, Narrative, and History*. – B.: John Hopkins University Press, 1996. – P.172. <https://archive.org/details/unclaimedexperie0000caru/page/n7/mode/2up>; LaCapra, Dominick. *Writing History, Writing Trauma*. – B.: John Hopkins University Press, 2001. – P.256.

BOG'LANISH NAZARIYASI: ONA VA BOLA OBRAZLARINING PSIXOANALITIK TAHLILI

Achilova Gulhayo Ismoilovna,

*Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti
guliachilova9@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada amerikalik yozuvchi Emi Tanning "Ikki xil" ("Two kinds") va zamonaviy o'zbek yozuvchisi Nazar Eshonqulning "Ochilmagan eshik" hikoyalaridagi ona va bola obrazlari Jon Boulbining "attachment theory" – bog'lanish nazariyasi asosida psixozanaliz tahlili amalga oshirildi. Natijada, hikoya qahramonlarining bog'lanish turlari, "ichki model" lari aniqlanib, misol va izohlar bilan boyitildi. Ushbu tahlil orqali yozuvchining ma'naviy-ruhiy olami, obrazlarning hissiy kechinmalari hamda ruhiy evrilishlarini chuqurroq anglash mumkin bo'ladi. Shuningdek, erta bolalik davrining qanday o'tishi va o'rnatilgan ilk rishtalarning insonning butun hayoti davomida naqadar muhim ahamiyatga ega ekani, keying munosabatlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi adabiy qahramonlar misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: psixologiya, psixozanaliz, bog'lanish nazariyasi, ichki model, xavfsiz bog'lanish, ishonchsiz bog'lanish, bog'lanish turlari, ramziy obrazlar

ТЕОРИЯ ПРИВЯЗАННОСТИ: ПСИХОАНАЛИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОБРАЗОВ МАТЕРИ И РЕБЁНКА

Аннотация. В данной статье на основе «теории привязанности» Джона Боулби проанализированы образы матери и ребёнка в произведении американской писательницы Эми Тан «Два рода» и современном узбекском писателе Назаре Эшонкуле «Открытая дверь». В результате были определены и обогащены примерами и пояснениями типы связей, «внутренние модели» героев повести. Благодаря этому анализу можно будет глубже понять духовный мир писателя, душевные переживания и духовную эволюцию героев. Также на примере литературных героев раскрывается то, как проходит период раннего детства и насколько важны первые связи на протяжении всей жизни человека, и как они служат основой для последующих взаимоотношений.

Ключевые слова: психология, психоанализ, теория привязанности, внутренняя модель, надёжная привязанность, ненадёжная привязанность, типы привязанности, символические образы.

ATTACHMENT THEORY: A PSYCHOANALYTICAL ANALYSIS OF MOTHER AND CHILD IMAGES

Abstract. In this article, the images of mother and child in the stories of American writer Amy Tan "Two Kinds" and modern Uzbek writer Nazar Eshonkul "The Unopened Door" were psychoanalytically analyzed based on John Bowlby's "attachment theory". As a result, the types of attachment, "internal models" of the characters in the story were identified and enriched with examples and explanations. Through this analysis, it is possible to understand the spiritual and mental world of the writer, the emotional experiences and spiritual evolution of the characters more deeply. Furthermore, the importance of the early childhood period and the first established bonds throughout a person's life, and how they serve as the basis for later relationships, are revealed on the example of literary characters.

Keywords: psychology, psychoanalysis, attachment theory, internal model, secure attachment, insecure attachment, types of attachment, symbolic images

Kirish. Insoniyat taraqqiyoti davomida tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, sanoat, ilm-fan va texnologik o'zgarishlar barobarida adabiy jarayonda ham global o'zgarishlar kuzatildi. Adabiyotda yangi janrlar, uslublar, mavzular vujudga keldi. Ayniqsa, XX-XXI asrlar adabiyot tarixida tajriba va novatorlik davri sifatida muhrlandi. Ijodkorlar endi shunchaki voqealarni bayon qilish yoki qahramonlari xatti-harakatlarini tasvirlash emas, balki ularning qalb tug'yonlari, ichki kechinmalari va ruhiyatidagi evrilishlarni psixologik portret orqali ifodalay boshladilar. Tashqi olam tasviridan endi qahramonlarning ichki olamini yoritish maqsadida foydalanishdi. Zero, bugungi jadal rivojlanayotgan texnokratlashgan dunyoda axborot xurujlari ortib, voqeliklarga hayratlanmay qo'ygan kitobxon e'tiborini ijodkorlar qahramon ichki olamining

sinoatlariga qaratayotganini ta'kidlash joiz. Fan-texnika taraqqiyotining shiddatli to'liqini natijasida inson ruhiyati, axloqiy-ma'naviy xususiyatlarining keyingi o'rinlarda ko'rilishi, ya'ni taraqqiyot shaxsni qaysidir ma'nolarda chegaralab qo'yayotganligi haqidagi o'y-mulohazalar adiblarni jiddiy tashvishga solyapti. Adabiyot inson ruhiyati, o'y-kechinmalari ifodasining butun ko'lami, ildizlari, sabablari, u kechinmalar bilan bog'liq voqea-hodisalarni (ham qahramon, ham yozuvchining) aks ettirar ekan, uning psixologiya bilan uzviy aloqasini inkor eta olmaymiz. Ushbu maqolada ona va bola obrazlarining "Bog'lanish nazariyasi" asosida psixoanaliz tahlilini amalga oshirib, onaning hayoti bolasida qaysidir ma'noda voqelanishi, ona psixologiyasi bolaning hayotiga jiddiy ta'sir etishi ingliz va o'zbek hikoyalari misolida izohlandi. Bog'lanish nazariyasi odamlar o'rtasidagi munosabatlarga, xususan, chaqaloqlar va ularning asosiy g'amxo'rlari o'rtasidagi dastlabki aloqalarning ahamiyatiga oid psixologik va evolyutsion asosdir. Psixiatr va psixoanaliz Jon Boulbi (1907-1990) tomonidan ishlab chiqilgan nazariya chaqaloqlarning omon qolishini ta'minlash, sog'lom ijtimoiy va hissiy faoliyatni rivojlantirish uchun kamida bitta asosiy g'amxo'rlik qiluvchi bilan yaqin munosabatlarni o'rnatishi kerakligini ta'kidlaydi. Zero, ushbu nazariya ingliz adabiyotida ona va bola ruhiyatini badiiy tahlil etishda qo'llanilgan, ammo o'zbek adabiyotshunosligida yangi adabiy hodisa hisoblanadi.

Tadqiqot metodi. Tadqiqot obyekti sifatida amerikalik yozuvchi Emi Tanning "Ikki xil" ("Two kinds") va zamonaviy o'zbek yozuvchisi Nazar Eshonqulning "Ochilmagan eshik" hikoyalari tanlab olindi. Hikoyalarni tahlil qilishda psixoanaliz tadqiq usulidan foydalanildi.

Adabiyotshunoslik va psixologiyaning aynan inson ruhiyati tasviridagi yondashuvlarining tutashuvi psixologik metodni yuzaga keltirdi. Adabiyotshunoslikda psixologik maktab – XIX asrning oxirgi choragida G'arbiy Yevropa va Rossiya ilmiy muhitida maydonga kelgan yo'nalish. Bu ilmiy yo'nalish madaniy-tarixiy va biografik metod qarashlarini qayta idrok etib, ularni qayta rivojlantirish asosida shakllangan. [1,237] Psixologik maktab ijodkor shaxsining shakllanishida oila, ijtimoiy muhit, davr singari omillarning muhimligini e'tirof etadi hamda biografik metod singari badiiy asarni ijodkor shaxsining aksi deb hisoblaydi. Psixologik metod bu omillarning bari ijodkor ruhiyati orqali namoyon bo'lishini ta'kidlagan holda, yozuvchining ruhiy biografiyasi, badiiy ijodning psixologik jihatlarini o'rganishni diqqat markaziga qo'yadi. Ijodkor o'zi uchun yozadi, o'zini qiynayotgan dardlar va kechinmalarini ifodalaydi, shu orqali ulardan forig' bo'ladi, asar ijodkor qalbi modeli sifatida yaraladi. Bahodir Karim ta'kidlaganidek: "Madaniy-tarixiy maktab vakillaridan farqli ravishda yangi yo'nalish vakillari ijodkorga, yozuvchining emotsiyalariga, ijodning psixologik jihatlariga, eng muhimi – muallifning ruhiy-ma'naviy dunyosi hamda ijod jarayoniga va bu jarayondagi psixologik holatlarga e'tibor lozim, deb hisobladilar". [2,178] Shuningdek, badiiy asar o'quvchisi – retseptning ruhiy olami ham bu yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun muhim sanaladi.

Bog'lanish nazariyasi ("Attachment Theory") shaxslararo munosabatlarni o'rganishda qo'llaniladigan eng yetakchi psixoanaliz yondashuvlaridan biri bo'lib, ilk tarbiyachi (aksariyat xalqlarda ota-ona) bilan munosabatlar bola shaxsiyatining rivojlanishiga qanchalik kuchli ta'sir qilishi mumkinligini anglatadi. Ushbu nazariya bolalarning erta rivojlanishi haqidagi tushunchamizni qayta shakllantirgan bo'lib, dastlab britaniyalik pediatr, bolalar psixiatri va psixoanaliz Jon Boulbi (1907-1990) tomonidan 1940-yillarda Angliyada urush davrida ota-onasidan ayrilgan bolalarni kuzatish orqali ishlab chiqilgan. [3] Bu nazariyaga asosan, go'dakning hissiy va ijtimoiy rivojlanishi ularga asosiy g'amxo'rlik qiluvchi shaxs bilan bo'lgan munosabati asosida shakllanadi. Bog'lanish bola va tarbiyachi o'rtasida o'rnatilgan munosabatlarda ruhiy yaqinlik tarzida yuzaga kelib, bolaning onadan yoki tarbiyachidan mehr istashida namoyon bo'ladi. Bog'lanish chegaralari faqat bolalik davri bilan tugamaydi, bu munosabatlar umr bo'yi davom etadigan jarayondir. Shu nuqtayi nazardan baholanganda, ona-bola munosabatlari asos sifatida qabul qilinadi. Asosiy munosabatlarda yuzaga keladigan nomutanosiblik yoki muammolar bog'lanish xususiyatlariga salbiy ta'sir qiladi. Ishonchsiz bog'lanish bolaning keyingi hayotidagi ruhiy og'riq omili sifatida ko'rilsa, xavfsiz bog'lanish esa, aksincha, sog'lom jarayonlar bilan bog'liq. Shuningdek, Boulbining ta'kidlashicha, chaqaloqlarda tug'ma biologik mexanizm/tizim mavjud bo'lib, ular tug'ilganidan so'ng tirik qolib yashab ketishi uchun onaga yoki boquvchiga jisman va ruhan bog'lanish hosil qilishadi. [4] Hayotining dastlabki yillarida shakllangan bu erta bog'lanishlar nafaqat vaqtinchalik aloqalar, balki bolaning kelajakdagi hissiy salomatligi va munosabatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Onaning bog'lanish xususiyatlari bolalarning shaxs sifatida shakllanishida quyidagicha ta'sir ko'rsatadi:

1. Xavotirli va qo'rqinchli bog'lanish xususiyatiga ega bo'lgan onalarning bolalari hissiy va xulq-atvorda muammolarga duch kelish ehtimoli ko'p.
2. Demokratik ota-ona munosabatlariga ega bo'lgan onalarning farzandlarida hissiy va xulq-atvor muammolari kamroq bo'ladi.

LITERARY CRITICISM

3. Ona bilan bog‘lanishsiz o‘sgan bolalarda insonlar va jamiyatga moslashuvchanlik jarayonlari og‘ir kechadi.

“Bog‘lanish obyektini” (“attachment figure”) – bola uni tahdidlardan himoya qiluvchi shaxs sifatida ko‘ruvchi asosiy parvarish qiluvchi shaxs bo‘lib, bolalardagi tug‘ma moyillik, mehrga tashnalik bog‘lanish obyektini bilan yaqinlik o‘rnatishga intilishlariga sabab bo‘ladi. [4] Yaqinlik va bog‘lanish o‘rnatishga intilish esa bir nechta omillarga asoslanadi:

1) bola bog‘lanish obyektini bilan birga bo‘lishni xohlaydi, ayniqsa tushkun va xavotirli vaziyatlarda (yaqinlik izlash);

2) bola bog‘lanish obyektini bilan o‘zini xavfsiz va qulay his qiladi (xavfsiz tayanch);

3) bog‘lanish obyektidan uzoqlashganda, norozilik ko‘rsatadi (ajralish).

Bog‘lanishga asoslangan munosabatlar inson hayotining dastlabki oylarida o‘rnatiladi va inson ulg‘aygani sari asta-sekin murakkablashib boradi. Bunday munosabatlar bolaning xavfsizlikka va tushkun holatida ovutilish hamda tushunilishga intilish ehtiyoji asosida rivojlanadi hamda o‘sha talablarga tarbiyachilar qanday javob berishlariga qarab, bolalar kelajakdagi munosabatlariga ta‘sir etadigan o‘zlari va munosabatlar haqida “ichki” yoki “aqliy model”larini ishlab chiqadilar [4].

Agar bolalarning ehtiyojlari doimiy qondirilsa va g‘amxo‘rlik ko‘rsatilsa, ularda o‘zlari va boshqalar haqida ijobiy “ichki model” shakllanish ehtimoli yuqori bo‘ladi [5]. Bunday bolalar “xavfsiz bog‘lanish” tuyg‘usini hosil qilishadi hamda ularning nazdidagi bexatar va qiziqarli dunyoda yangi narsalarni kashf qilish va boshqa insonlar bilan hamjihatlikda yashash, muammoli vaziyatlarda yordam so‘rash yoki o‘zlari ko‘maklashish tuyg‘usi bilan ulg‘ayishadi. Bog‘lanish xavfsizligi sog‘lom munosabatlarni shakllantirish uchun muhim. Shuning uchun qarovsiz qolgan yoki doimiy g‘amxo‘rlik ko‘rsatilmagan bolalar o‘zlari va boshqalar haqida yoqimsiz tasavvur hosil qilish bilan birga salbiy “ichki model” hosil qilishga moyil bo‘ladilar, hamda shaxslararo munosabatlarda ziddiyatli vaziyatlarga tez-tez duch keladilar. Chunki erta bog‘lanish tajribasi natijasida hosil bo‘lgan “ichki model”lar shaxslararo munosabatlarda “butun umrlik andoza” sifatida xizmat qiladi.

Turli bog‘lanish uslublari erta bolalik davridagi ona va bola o‘rtasidagi tarixni aks ettiradi. Unga qarab esa bolalarning kelajakdagi shaxslar va jamiyat bilan munosabatlarini juda aniqlik bilan bashorat qilish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, umuman olganda, ijobiy shaxslararo va ijtimoiy sharoitlarda tarbiyalangan bolalarning aksariyati butun hayoti davomida saqlanib qoladigan barqaror xavfsiz bog‘lanishni shakllantiradilar. [6] Agar ota-onalar farzandlarining ehtiyojlarini payqab o‘z vaqtida qondirsalar, xavfsiz bog‘lanish ehtimoli ortadi. Bog‘lanish xavfsizligi bolalarning hissiy, kognitiv va shaxslararo qobiliyatlarini rivojlantirish uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. [7]

1-jadval.

Boulbi nazariyasi bo‘yicha bog‘lanish turlari va bu bog‘lanishga mansub shaxslarning xususiyatlari

Bog‘lanish turi	Boshqalarni qabul qilish	O‘zini qabul qilish
secure attachment – xavfsiz bog‘lanish: ishonch, mustaqillik va qaramlikning sog‘lom muvozanati bilan tavsiflanadi	ijobiy qo‘llab-quvvatlovchi g‘amxo‘r boshqa bolalar bilan o‘zaro munosabatlarda muvaffaqiyat qozonish boshqalarning fikrini inobatga olish boshqalarga ishonch bildirish	muhabbatga loyiq qoniqarli irodali to‘g‘riso‘z mustaqil qo‘llab-quvvatlovchi
anxious-avoidant attachment – bezovta-o‘zini olib qochuvchi bog‘lanish: hissiy masofa saqlash va asosan, o‘z kuchiga suyanishni afzal ko‘rishni o‘z ichiga oladi.	boshqalar bilan qoniqarli munosabatlar o‘rnata olmaslik hissiy bosimni kamaytirish uchun o‘zlarini boshqalardan uzoqlashtirish boshqalar bilan kelishmovchilik yoki janjal payti o‘z qobig‘iga o‘ralib qolish	e‘tibor berilmagan, sevilgan stressli vaziyatlarni boshqarishda samarasiz yordam so‘rashdan voz kechish mustaqil tez-tez yolg‘on gapirish g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarni namoyon qilish
anxious-ambivalent attachment – bezovta-ikkilanuvchi bog‘lanish: tashlab ketilish qo‘rquvi va boshqalar tomonidan	asosiy parvarishlovchi shaxsga qattiq bog‘lanib qolish tengdoshlaridan o‘zlarini olib qochish ijtimoiy yakkalanish	darg‘azab o‘ziga ishonchi past talabchan rashkchi haddan tashqari kuchli

LITERARY CRITICISM

doimiy tasdiqlanish zarurati bilan ajralib turadi		emotsional reaksiya namoyon qilish kuchli mehr va e'tibor talab qilish
<i>disoriented-disorganized attachment</i> – tarqoq-tartibsiz bog'lanish: ko'pincha travmatik yoki nomuntazam tarbiya natijasida kelib chiqadigan noturg'un va tartibsiz xatti-harakatlar namoyon etiladi	boshqalar tahdid manbasi ijtimoiy chekinish mudofaaviy tajovuzkor harakatlar boshqalar bilan mustahkam va sog'lom munosabat o'rnatishda qiynalish	“ajralish qayg'usi”ni yomon o'tkazish buzg'unchi xatti-harakatlar va tajovuzkorlik kayfiyatning tez-tez o'zgarishi ham yaqinlashish, ham uzoqlashishga urinish

Ushbu bog'lanish turlarini kimningdir shaxsiyatini aniq ta'riflashdan ko'ra, shaxsning xatti-harakatini tasvirlash va tushunish usuli sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Umuman, xavfsiz bog'lanish uslubiga ega kishi ba'zan boshqa turlarga ko'proq mos keladigan xatti-harakatlarni namoyon etishi yoki bezovta uslubga ega bo'lgan kishi ma'lum bir kishi bilan ishonchli aloqa o'rnatishi ham mumkin. Biror kishining bog'lanish uslubiga asoslanib, uning yaqin munosabatlarga, nikohga va ota-onaga bo'lgan munosabati turlicha bo'lishi mumkin.

Natija va muhokamalar. Jon Boulbining bog'lanish nazariyasini amaliyotda qanday ishlashini ko'rsatish maqsadida muhojir oilalarning shaxsiy kurashlari va g'alabalarini o'rganishdagi jasorati uchun maqtovga sazovor bo'lgan [8] amerikalik yozuvchi Emi Tanning 1989-yilda “The Joy Luck Club” (“Quvonch omad klubi”) romanining bir qismi sifatida e'lon qilingan “Ikki xil” (“Two kinds”) hamda filologiya fanlari doktori Sanobar To'laganova ta'riflaganidek, asarlari biz ko'nikib odatlangan adabiy qoliqlarni butunlay parchalagan; uslubi, voqelikka yondashuvi, tasvir va talqindagi o'zgachaligi bilan zamondoshlaridan farqlanib turadigan, [9] o'zbek zamonaviy nasrining zabardast vakili Nazar Eshonqulning xuddi shu yili chop etilgan “Ochilmagan eshik” hikoyalari tahlilga tortildi.

Emi Tanning hikoyasi yosh, asli millati xitoylik bo'lgan, amerikada tug'ilgan qiz Jing-mei Vu va qizini favqulodda muvaffaqiyatli bo'lishini istagan onasi Suyuan va ular o'rtasidagi murakkab ona-qiz munosabatlari haqida boradi. Suyuan Amerika orzusiga bo'lgan ishonchi sabab qizining kelajakdagi yutuqlariga ulkan umidlar bog'laydi, biroq, Jing-mei bu umidlarni oqlashni istamasligi keskinlik va mojaroga olib keladi. Hikoya shaxsiyat, avlodlarning qarashlaridagi tafovut, itoatkorlik va hurlik mavzularini ta'kidlaydi, asar sarlavhasi ham ikki xil: bo'ysunuvchan va itoatsiz farzandlar bo'lishiga ishora qiladi. Jon Boulbi tomonidan ishlab chiqilgan va Meri Eynsvort tomonidan kengaytirilgan bog'lanish nazariyasi, g'amxo'rlik qiluvchilar bilan erta bog'lanish tajribasi hayot davomida hissiy rivojlanish hamda shaxslararo munosabatlarni shakllantirar ekan, Jing-mei va Suyuan o'rtasidagi bog'lanish uslublarini o'rganish, bu munosabatlarga bog'lanish nazariyasi prizmasi orqali qarash ona-qiz munosabatlarining nozik tomonlarini va uning shaxsiyat, hissiy rivojlanish va xatti-harakatlarga ta'sirini ochib berishga xizmat qiladi.

Nazar Eshonqul esa erining qalb qulfini ocha olmay, rashk, iztirob, alam, shubha-gumon va hasad alangasida yonayotgan, uning uchun hayotdagi yagona “xazinasini”, “uzoq safarga otlangan qirg'iydek o'zidan kundan-kun uzoqlashib, noma'lum manzil sari ketib borayotgan erini”, allaqachon hech qachon erimaydigandek muzlagan munosabatlarini o'ylab ezilgan, to'rt yildan buyon farzandsizlikdan qiynalayotgan, baxtsiz yosh kelinchak haqida hikoya qiladi. Hikoya asosan, alamzada kelinchakning o'ylari, hissiy kechinmalari, ruhiy iztiroblari haqida so'ylasa-da, qizning o'zi haqidagi fikri; munosabatlarda o'zini qanday namoyon etishi; begonalashuv, ayriliq, iztirobning uning ruhiyatiga nega bu qadar kuchli ta'sir etganini va natijada, bu foniy dunyoning sinovlariga bardosh bermay, ojizlik ila boqiy dunyoga ravona bo'lishni tanlaganini chuqurroq anglash maqsadida hikoyani Boulbining bog'lanish nazariyasi asosida psixoanalitik tahlil qilamiz. Shuningdek, hikoyadagi yana bir muhim jihatga e'tibor qaratishni lozim topdik. Qizning onasi u dunyoga kelar-kelmas vafot etgan va qiz o'gay onaning qo'lida tarbiyalangani, Boulbi nazariyasi bo'yicha, qizning erta bolaligida mehr kosasi to'lmagani va “xavfsiz bog'lanish” (“secure attachment”) o'rnatilmaganini va uning munosabatlarda baxtsiz ekani sababini izohlaydi.

Hikoyalarni quyidagi **uch mezon** asosida tahlil qilamiz:

Bog'lanish turlari – ishonchli; ishonchsiz: bezovta, o'zini olib qochuvchi, tartibsiz bog'lanish

Ichki model - Boulbi nazariyasiga asosan insonning erta bolalik davridagi xavfsizlik va g'amxo'rlikka bo'lgan ehtiyojning qay darajada qondirilishi uning o'zi va boshqalar haqida “ijobiy” yoki “salbiy” “ichki

LITERARY CRITICISM

model”i shakllanishiga olib keladi. Erta bog‘lanish tajribasi natijasida hosil bo‘lgan “ichki model”lar shaxslararo munosabatlarda “butun umrlik andoza” sifatida xizmat qiladi.

Ramzlar – har ikkala hikoyaning tubiga yashiringan murakkab mavzularni aniqroq ochib berish hamda qahramonlarning ruhiy evrilishlarini kitobxon qalbini titratadigan qilib yetkazish maqsadida ramzlardan mohirona foydalanilganini ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval.

“Ikki xil” – hikoyasining bog‘lanish nazariyasi asosida psixoanaliz tahlili

Qahramon:	Bog‘lanish turi	Ichki model	Hikoyadagi ramzlar
Jing-mei Vu (qiz)	Insecure attachment – ishonchsiz bog‘lanish: anxious-avoidant attachment – bezovta – o‘zini olib qochuvchi bog‘lanish	Salbiy: o‘zini past baholaydi	1. Pianino 2. “Pleading child” (“O‘tinch ilinjidagi bola”) kuyi 3. “Perfectly contented” (“Behad baxtiyor”) kuyi 4. Ko‘zgu
Suyuan Vu (ona)	Bezovta bog‘lanish - anxious attachment	Salbiy: qiziga katta umidlar bog‘laydi, shartli sevadi	

Jing-mei Vu (qiz) - qizning onasi hissiy noturg‘un, bir vaqtning o‘zida ham mehr ko‘rsatadi, ham tanqidiy xatti-harakatlarni namoyon etadi, qizi o‘zi istamasa ham pianino darslariga qatnashini, tanlovlarda g‘alaba qozonishini xohlaydi, natijada Jing-meining onasi bilan munosabatlari ishonchsiz bo‘lishiga olib keladi. Jing-mei onasining talablarini qondirib, ular orasidagi munosabatni yaxshilashga urinadi, ammo uzluksiz umidsizliklar, muttasil omadsizlikka uchrash ular orasida **anxious-avoidant attachment – bezovta – o‘zini olib qochuvchi bog‘lanish** yuzaga kelganini isbotlaydi; ona va qiz orasida hissiy masofa o‘tib boradi. Jing-mei onasi undan har doim mukammallikni talab qilgani bois o‘zini “yetarlicha yaxshi emas” deb hisoblaydi va bu o‘z kuchidan shubhalanishga olib keladi.

Jing-meining o‘zi haqidagi bahosi onasining uning harakatlaridan roziligi bilan chambarchas bog‘liq. Muvaffaqiyatga erishish uchun bosim va keyingi muvaffaqiyatsizliklar qobiliyatsizlik hissini keltirib chiqaradi. Bu ichki ziddiyat uning pianino darslariga bo‘lgan munosabatida va onasi bilan munosabatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Jing-mei o‘z shaxsini tasdiqlash uchun onasining unga bog‘lagan umidlari bilan kurashadi. Jing-meining o‘zi istamagan inson bo‘lishga intilishni rad etadi. Uning isyoni uning hissiy o‘shining muhim bosqichini anglatadi, bu yerda u tashqi umidlarni qondirishdan ko‘ra o‘z istaklarini birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Hikoyadagi ramziy obrazlarga kelsak, **pianino** – hikoyadagi markaziy ramziy obraz bo‘lib, nazorat va himoya kabi ma‘nolarni anglatadi. Dastlab, Jing-meining muvaffaqiyatga erishish va onasi tasavvur qilgan “muvaffaqiyatli farzand” bo‘lishga intilishini ifodalagan bo‘lsa, hikoya davom etar ekan, pianino Jing-meining ota-onasining istaklariga qarshi isyoni, uni chalishni o‘rganishdagi muvaffaqiyatsizliklardan keyin onasi istaganidek “iste‘odli farzand” (a prodigy) [10] bo‘la olmagan ramzi sifatida gavdalanadi. Hikoyaning oxiriga kelib, Jing-mei ulg‘aygach pianinoni qayta kashf etadi va uni yana chalib ko‘radi, endi u tushunish va kechirimlilik ramziga aylanadi. Shu onda Jing-mei onasining intilishlarini ham, o‘z cheklovlarini ham qabul qiladi. **“Pleading child” (“O‘tinch ilinjidagi bola”) kuyi** - onasining ulkan umidlariga qarshi kurashayotgan Jing-meining mojaro va kurashlarga to‘la bolaligini ifodalaydi. Sarlavha uning noto‘g‘ri tushunilgani va muvaffaqiyat qozonish uchun tinimsiz intilishga majbur qilingandagi histuyg‘ularini uyg‘otadi. Bu asar o‘zining qayg‘uli ohangi bilan Jing-meining nochorligi va onasi bilan o‘rtasidagi hissiy tafovutni ta‘kidlaydi. Bundan farqli o‘laroq **“Perfectly contented” (“Behad baxtiyor”)** kuyi esa Jing-mei keyinchalik hayotda erishadigan qat‘iyat va yetuklikni, va nihoyat o‘zini qabul qilganini anglatadi. Bu ikki asar bir xil kompozitsiyaning bir qismi ekanligini anglash, Jing-meining kelishmovchilikdan tushunishgacha bo‘lgan sayohatini aks ettiradi. **Ko‘zgu** – Suyuan Jing-Meyni u iste‘odli bola bo‘lishi mumkinligi haqida gapirganda, Jing-mei ko‘zguga qaraydi va o‘zining hafsalasi pir bo‘lgan, ammo o‘ziga ishonmaydigan qiyofasini ko‘radi. Bu lahzaning kimligi va onasi kim bo‘lishini xohlayotgani haqidagi qarama-qarshi tasvirlar bilan kurashini ta‘kidlaydi. Ko‘zgu o‘z-o‘zini anglash ramzi bo‘lib xizmat qiladi.

Suyuan Vu (ona) - o‘z intilishlarini qizi Jing-meida aks ettiradi, o‘z baxtini qizining muvaffaqiyati bilan bog‘laydi, o‘tmishda ona vatanida yo‘qotganlari (ota-onasi, eri, ikki egizak qizi) o‘rnini Jing-meining muvaffaqiyati bilan to‘ldirmoqchi, o‘zining muhimligini isbotlash uchun tashqi tasdiqlovchi omillarga

ehtiyoji bor, o‘zining anglanmagan hissiyotlari, o‘tmish yaralari, qondirilmagan ehtiyojlari va amalga oshirilmagan orzularini qizida amalga oshishiga intiladi hamda unga katta umidlar bog‘laydi. Qizini shartli sevadi – uning mehri va muhabbati qizining muvaffaqiyatga erishishiga bog‘liq.

3-jadval.

“Ochilmagan eshik” – hikoyasining bog‘lanish nazariyasi asosida psixoanaliz tahlili

Qahramon:	Bog‘lanish turi	Ichki model	Hikoyadagi ramzlar
Kelinchak	Insecure attachment – ishonchsiz bog‘lanish: anxious-ambivalent attachment - bezovta-ikkilanuvchi bog‘lanish	Salbiy – o‘ziga bo‘lgan bahosi past	<ol style="list-style-type: none"> 1. Omborxonaning zanglagan qulfi 2. Lolazor 3. Alvon ko‘ylak 4. O‘choq 5. Margimush

Kelinchakda *anxious-ambivalent attachment* - bezovta- ikkilanuvchi bog‘lanish turi bo‘lib, u onasidan chaqaloqligida yetim qolgan, o‘gay ona parvarishida ulg‘aygan. Erta bolaligidan hissiy va xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyojlari qondirilmagan qizcha sog‘lom munosabatlar o‘rnatishga qodir emas, hamisha gumonsirab xavotir ichida yashaydi, tashlab ketilishdan qo‘rqadi, o‘gay onasidan faqat qarq‘ish va dashnom eshitgan, kuchli mehr va e‘tibor talab qiladi, eriga kuchli bog‘langan: “*Eri uning birdan-bir xazinasini edi, u eridan qachon bo‘lmasin ajralishni xayoliga ham keltirmas...*”. Hikoyadan olingan ushbu parchalar orqali esa voqealarga haddan tashqari kuchli emotsional reaksiya namoyon qilishini ko‘rishimiz mumkin: “... garchi endi yo‘lini yo‘qotgan yo‘lovchiday qayoqqa yurishni bilmay ora yo‘lda qotib turgan bo‘lsa ham, o‘zini erining u gaplarini eshitishga, masalani yo u yoqqa, yo bu yoqqa burishga tayyor deb sezmas, buni tirik turib e‘tirof etgisi kelmasdi” [11]. **Bezovta- ikkilanuvchi bog‘lanish turiga xos bo‘lgan yana bir xususiyat** - yakkalanish, odamlardan o‘zini olib qochishni ma‘qul ko‘rishini ham sezish mumkin: “*bolaligidan qolgan odati bo‘yicha bu o‘lik chiqqanday huvillagan uydan, bu zug‘umli dunyodan qaylargadir uchib chiqib ketmoqchidek qo‘llarini qanotday yozib, silkib-silkib qo‘ydi... Uchib-uchib o‘zi qizlik paytlari xayolida yaratgan oppoq ertaksimon dunyoga borib qolishni orzu qildi. Bu xayoliy, lekin uning uchun yagona taskinli dunyo edi.*” [11]

Kelinchakda bolaligidan unga qilingan munosabat ta‘sirida o‘zi va boshqalar haqida “salbiy ichki model”, andoza shakllangan bo‘lib, uning o‘ziga bo‘lgan bahosi past, erining shaharlik ma‘shuqasini o‘zidan chandon ustun deb hisoblaydi: “*Kelinchak hamisha o‘zini shaharlik ayolga qaraganda ojiz va xunuk bo‘lsam kerak deb xayol qilar, erining aqlini olgan ayol, nazarida, o‘zidan go‘zalroq, mehribonroq, ishvaliroq, jozibaliroq va nafosatliroq tuyulib ketardi*”; “*eri shunday ayolga o‘zini almashganidan faxrlangisi ham kelar...*”, “*shunday paytlarda kelinchak o‘ziga o‘zi bechorahol, bo‘shang, uquvsiz, injiq va yig‘loqi bir kelin bo‘lib ko‘rinardi*”; “*...bir necha oydan beri shaharcha o‘pichlardan, turli xil mushk-anbarlardan, upayu bo‘yoqlardan, noma‘lum go‘zal ayolga qilingan yaltoqona xushomadlardan iflos bo‘lgan isqirt lablarni artish uchun latta bo‘lib xizmat qilganini anglab qoldi va butun badanini jirkanch, shilimshiq narsa qoplab olganday, harom bilan xarishning farqiga bormaydigan ayolga aylanib qolganday his etdi o‘zini.*” Tushida doim “*juda yosh, ozg‘in va pushuq qizcha*”ni, [11] ko‘radi – bu uning o‘zini bo‘yi yetib turmushga chiqqan bo‘lsa ham, ong ostida, qalban hali ham mehrga tashna, ojiz qizcha deb bilishiga ishora qiladi.

Ramziy obrazlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, omborxonaning zanglagan qulfi - kelinchak erining zanglab, kelinchak uchun hech qachon ochilmaydigan qalbi, **lolazor** – kelinchak tushida tez-tez ko‘radigan, unga emas boshqa ayolga nasib qilgan, jo‘shqin muhabbatga to‘la, ehtirosli, baxtiyor hayot; **alvon ko‘ylak** – tushida qizcha (kelinchakning o‘zi) eri boshqa ayolning yelkasidan irg‘itib yuborgan ko‘ylakni tutib olmoqchi bo‘lib yiqilib tushadi. Qizil rang odatda otashinlik, jo‘shqinlik bilan bog‘langani sabab, alvon ko‘ylak kelinchak ich-ichidan xohlayotgan, ammo erisha olmagan otashin muhabbat, mehr va e‘tibor ramzi sifatida gavdalanadi go‘yo. **O‘choq esa** – kelinchakning alanga ichida yonayotgan qalbi, kulga aylangan orzu-umidlari ramzi. “*Olov o‘choqda emas, o‘zining ko‘ksida yonayotganday va bu qop-qopa, ishlatilaverib xaroba bo‘lib qolgan o‘choq emas, o‘zining yuragiday olovga maftun bo‘lib tikilib turdi: orqasidan qaynonasining vazmin qadam tovushlarini eshitib, o‘rnidan irg‘ib turdi-da, qaylargadir uchishga chog‘langan xayollarini piyozga qo‘shib qozonga tashladi va shoshilib qovura boshladi.*” **Margimush** – ortiq bu iztiroblarga, qalbini kemirayotgan azobga, erining sovuq munosabatiga bardosh bermay, o‘z joniga qasd qilish uchun “*abadiy baxtiyor bo‘lish chorasi*” [11] ramzi.

Xulosa. Ushbu maqolamizda Amerika va O‘zbek adabiyotidan tanlab olingan “Ikki xil” va “Ochilmagan eshik” hikoyalari qahramonlarini bog‘lanish nazariyasi orqali tahlil qilindi va ularning secure attachment – xavfsiz bog‘lanish, anxious-avoidant attachment – bezovta-o‘zini olib qochuvchi bog‘lanish,

LITERARY CRITICISM

anxious-resistant attachment – bezovta – rad etuvchi bog‘lanish, disoriented-disorganized attachment – tarqoq-tartibsiz bog‘lanish turlaridan qay biriga mansubligi aniqlandi. Bu orqali, shuningdek, ularning ma‘lum vaziyatda qanday yo‘l tutgani, onasi bilan o‘rnatilgan ilk munosabatlarning boshqalar bilan o‘rnatiladigan munosabatga ta‘sirini, ruhan qay darajada kuchli ekanliklarini anglashimiz bir qadar oson kechadi. Bog‘lanish nazariyasi qahramonlarning erta bolalik davrida onalari bilan shakllantirgan bog‘lanish turlari ularning hayoti davomida qabul qiladigan qarorlariga, yangi munosabatlarni o‘rnatishiga, hayotning turli zarbalariga qanday bardosh berishiga ta‘sirini o‘rganish uchun; ularning ruhiyatidagi evrilishlarni, ichki kechinmalarini, yozuvchining asarni yozishdagi niyatini teran anglashimizga yordam beruvchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bog‘lanish nazariyasi bizga Emi Tanning “Ikki xil” hikoyasi ona va qiz orasidagi ziddiyat, ushalmagan orzular, o‘zlikni izlash, tan olinish, ota-onalarning ulkan umidlari va ularga doimiy qarshilik qiluvchi farzandlar kabi abadiy barhayot umumbashariy mavzularni, “Ochilmagan eshik” da mehrga tashnalik, rad etilish, xiyonat, munosabatlarning sovushi kabi mavzularni teranroq anglash va tadqiq etishga yordam berdi.

ADABIYOTLAR:

1. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. “Adabiyotshunoslik lug‘ati” - Toshkent, Akademnashr. 2013, 237 –b.
2. Bahodir Karim. “Ruhiyat alifbosi”. - Toshkent G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.178-bet.
3. <https://www.structural-learning.com/post/block-play-a-teachers-guide>
4. Bowlby, J. “A secure base: Parent–child attachment and healthy human development”. New York - NY: Basic Books, 1988.
5. T. Styron, and R. Janoff-Bulman, “Childhood attachment and abuse: Long-term effects on adult attachment, depression, and conflict resolution,” *Child Abuse & Neglect*, vol. 21, no. 10.1997. pp. 1015-1023.
6. Allen JG. “Mentalizing in the development and treatment of attachment trauma”. -London: Karnac Books; 2013.
7. Kennedy, J. H., & Kennedy, C. E. “Attachment theory: Implications for school psychology”. *Psychology in the Schools*, 2004, 41, pp. 247-259.
8. <https://www.neh.gov/award/amy-tan>
9. <https://oyina.uz/uz/article/888>
10. Amy Tan. “The Joy Luck Club “. United States: G. P. Putnam's Sons Pages, 1898.
11. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/nazar-eshonqul/nazar-eshonqul-ochilmagan-eshik-hikoya/?lng=lat>

LENGSTON HYUZ SHE'RLARIDA MILLIY OZODLIK MAVZUSI

Zaripova Nigora Sobir qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

bzr19891983@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr Amerika adabiyotining yorqin namoyondasi, o'z millat erki va ozodligini kuylagan shoir Lengston Hyuzning vatanparvarlik, o'z millatidan faxrlanish tuyg'ulari ifodalangan "The Negro speaks of rivers" va "My people" ("Birodarlarim") she'rlarining tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: ozodlik, erk, millat, daryolar, qadim, ko'hna, qora.

THE THEME OF NATIONAL LIBERATION IN THE POEMS OF LANGSTON HUGHES

Abstract. This article presents an analysis of the poems "The Negro speaks of rivers" and "My people" which express the feelings of patriotism and pride of the nation by the poet Langston Hughes, who is a bright manifestation of 20th century American literature, who sang about the will and freedom of his nation.

Keywords: freedom, liberty, nation, rivers, ancient, old, black

ТЕМА НАЦИОНАЛЬНОГО ОСВОБОЖДЕНИЯ В СТИХАХ ЛЭНГСТОНА ХЬЮЗА

Аннотация. В данной статье представлен анализ стихотворений «Негр говорит о реках», «Мои люди», выражающих чувства патриотизма и гордости за нацию поэта Лэнгстона Хьюза, являющегося ярким проявлением американской литературы XX века, воспевшего волю и свободу своего народа.

Ключевые слова: свобода, нация, реки, древние, вечные, чёрные.

Kirish. Lengston Hyuz (inglizcha James Mercer Langston Hughes) XX asr Amerika adabiyotining ko'zga ko'ringan shoirlaridan biri, jamoat arbobi, Amerika madaniyatida yorqin iz qoldirgan "Harlem Renessansi" harakatining shakllanishida asosiy o'rin egallagan shaxs. 1901- yilning 1-fevralida AQSHning Missouri shtatida tavallud topgan shoir bolaligidanoq irqiy kamsitilish muhitida yashagan ajdodlaridan olgan tarbiyasiga ko'ra o'z millati va irqiga nisbatan chuqur faxr tuyg'usi bilan ulg'aydi [6]. Ayniqsa, uning tarbiyasidagi yetakchi shaxs hisoblangan buvisi Meri Pettersoning unga ta'siri har doim kamsitilib kelingan millati oldida o'zini burchli deb bilishga olib keldi. Asrlar osha xo'rlangan va eng quyi tabaqa hisoblangan, jirkanilgan xalqning ovozi bo'lishni Hyuz o'z burchi deb bildi va millatining boshqa millatlar bilan teng huquqli bo'lish orzularini o'z she'rlarida kuyladi. Uning she'rlaridagi asosiy qahramon bu - ba'zan tushkunlikka tushuvchi, ba'zan kelajakka umid bilan boquvchi qora tanli inson. Uning she'rlarida yetakchi mavzu qora tanli insonlarning oq tanlilar bilan bir qatorda teng huquqlarga ega bo'lishi edi. U hattoki 1922-yilda o'zi tahsil olayotgan Kolumbiya universitetidan aynan mana shu irqiy kamsitilishlar tufayli o'qishni tugatolmay ketishga majbur bo'ladi [1]. Garchi keyinchalik Pensilvaniya shtatidagi asosan qora tanlilar tahsil olgan Linkoln universitetini tamomlasada (1929), o'sha voqea uning hayotida chuqur iz qoldirgan. Hyuz o'zining hech bir asarida qora tanli ekanligidan uyalmaydi. Uning ilk she'rlaridan biri "Qora tanli qalb daryolar haqida" (inglizcha "The Negro speaks of rivers") she'ri uning dastxatiga aylandi va Amerika she'riyat dunyosida yangi ovoz paydo bo'lganligini ko'rsatdi.

Asosiy qism. 1920- yillarda Amerikaning bir qancha shaharlarida, jumladan, Harlemda qora tanlilar orasida yangi adabiy, madaniy oqim paydo bo'ldi va Hyuz uning yetakchi siymolaridan biri edi [2]. U o'z ijodida har doim qora tanli ishchi sinfining hayotidagi shodlik va g'am-anduhlarini bor bo'yicha samimiy, ortiqcha hissiy bo'yoqlarsiz ifodalashga harakat qildi. "Qora tanli san'atkor va Irq tog'i" essesinde Hyuz: "Biz – yosh negr ijodkorlar o'zimizning qora tanli shaxsiyatimizni qo'rquv va uyalishlarsiz ifodalashni niyat qildik. Agar bu oq tanlilarga yoqsa, biz bundan mamnunmiz, agar ularga bu yoqmasa, bizga buning farqi yo'q. Biz o'zimizning chiroyli ekanligimizni bilamiz, va xunuk ham" degandi faxr bilan.

Ilk marta 1921- yilda uning dastlabki she'ri "The Negro speaks of rivers" ("Qora tanli qalb daryolar haqida") "The Crisis" gazetasida nashr etiladi (uning she'rlari asosan mana shu nashrda chop etilgan)[3]. Bu she'rda Hyuz shu paytgacha odamlar ongida bo'lgan qora tanlilar haqidagi stereotiplarni o'zgartirishga

LITERARY CRITICISM

urinadi. Bu she'r yozilgan paytda u bor yo'g'i 17 yoshli yigitcha bo'lishiga qaramay juda chuqur mulohaza yurita olgan va adabiy tanqidchilar e'tiboriga tushib ulgurgan. Hyuzning otasi Amerikadagi irqiy kamsitilish va tahqirlardan qochib Meksikaga borib yashaydi va bu she'r aynan yosh Hyuz otasini ko'rish uchun poyezdda Meksikaga borayotganida yo'lda yozilgan. "Men daryolarni bilaman" deb boshlanuvchi bu she'rda Furot, Kongo, Nil va Missisipi daryolarini tilga olish bilan Hyuz Afrika xalqining tarixi boyligi va juda qadimligini sharaflaydi.

I've known rivers:

I've known rivers ancient as the world and older than the flow of human blood in human veins.

She'rning shunday boshlanuvchi dastlabki misralarida shoir dunyoning o'zi kabi ko'hna, insoniyat tomirlarida oquvchi qondan ham ko'hnaoq daryolarni bilishini aytadi. Bu daryolar insoniyat tarixiga hissa qo'shgan Afro-Amerikanlarning donolik, matonat va bardosh ramzidir.

My soul has grown deep like the rivers.

Qalbim ham daryolarday chuqurlashdi.

Bu misrada muallif tashbeh san'atidan foydalanib, qalbini daryoga o'xshatishida Afrika xalqining qiyinchiklarda toblangan qalbini ifodalayapti.

I bathed in the Euphrates when dawns were young.

Dunyo hali yoshligida men Furotda cho'mildim.

"Dawn" so'zi "tong", "boshlanish", "ibtido" ma'nolarini anglatadi. Bu yerda esa dunyo xalqlari hali endi shakllanayotgan bir paytda Afrika xalqining insoniyatning dastlabki sivilizatsiya markazlaridan biri bo'lgan Furot daryosida cho'milishi jumlasini keltirish orqali shoir bu xalqning juda qadim-qadimdan mavjudligiga ishora qiladi va shuningdek, daryoda cho'milish poklik, poklanish ramzi degan fikrdan kelib chiqsak, bu xalqning terisi qora bo'lsada o'zi pokligini nazarda tutadi.

I built my hut near the Congo and it lulled me to sleep.

Kongo yaqinida kulbamni qurdim va u meni allalab uxlatdi.

Ma'lumki, Kongo daryosi Afrika xalqlari uchun "vatan", "makon", "yupanch" ma'nolarini bildiradi va bu misralardan Afrikaliklar Kongo yaqinidan makon tutganliklari va bu daryo ularga onaday yupatuvchi, allalovchi, himoyalovchi ekanligi anglashilyapti.

I looked upon the Nile and raised the pyramids above it.

Nil ustidan qaradim, unda ehromlar qurdim.

Bu misralar bilan shoir dunyo tamadduni rivojiga hissa qo'shgan Nil daryosining Afrikada ekanligiga va kuch-qudrat ramzi bo'lgan ehromlar ham aynan Afrikada ekanligiga ishora qilyapti.

I heard the singing of the Mississippi when Abe Lincoln went down to New Orleans,

And I've seen it's muddy bosom turn all golden in the sunset.

Abe Linkoln Yangi Orleanga kelganda Mississipining kuylashini eshitdim

Va botayotgan quyosh nurlarida uning loyga belangan bag'ri oltinga aylanganini ko'rdim.

Tarixiy voqealarga ishora qiluvchi bu misralarda Hyuz Afrika xalqlarining Amerikaga qul qilib olib kelinganligi, Yangi Orlean shtatining qul savdosi markazi bo'lganligiga kesatiq ishora va irqchilikka barham bergan prezident Avram Linkoln siymosi orqali loyga belangan bag'irning oltinga aylanishida qul bo'lgan millatning yana ozod bo'lishi tasvirlarini keltirgan [4].

I've known rivers:

Ancient, dusky rivers.

My soul has grown deep like the rivers.

Daryolarni bilaman, qadim, qora daryolar.

Daryolarday chuqurdir qalbim.

Takrorlash san'ati qo'llanilgan oxirgi jummalarda daryolarning qadimligi bu millatning ko'hnaligini va daryolarning qoraligi timsolida Hyuzning o'z rangidan uyalmay dadil tasvirlashi ifodalangan.

Hyuz har doim o'zining qora tanli millati shoiri bo'lib ular nomidan kuyladi va jamiyatdagi qora tanli insonlarga bo'lgan munosabat va ularning jamiyatda tutgan mavqening qadrsizlanishiga qarshi kurashdi.

"**Birodarlarim**" ("My people") she'rini tahlil qilamiz. Bu she'r ham "The Crisis" ("Inqiroz") gazetasida 1923-yil oktabr nashrida chop etilgan [3]. Olti satrdan iborat qisqagina bu she'rda shoir oddiylik va buyuklikni jamlay olgan.

The night is beautiful,

So the faces of my people.

Tun go'zaldir birodarlarim yuziday.

Shu paytgacha qora tanli shoirlarning hech biri o'z terisining rangi qoraligini madh etmagan, aksincha ular o'zlarining faqat eng yaxshi tomonlarinigina ko'rsatganlar. Langston Hyuz esa yuzi qora rangdaligini metafora san'atidan foydalangan holda tunning go'zalligiga qiyoslaydi.

The stars are beautiful,

So the eyes of my people

Yulduzlar go‘zaldir birodarlarim ko‘ziday

Odatda she‘riyatda yulduz “umid” tuyg‘usini ifodalaydi, shuningdek, bu yerda ham metafora orqali shoir o‘zining qorako‘z millatining ko‘zlaridagi umidni tasvirlagan.

Beautiful, also, is the sun.

Beautiful, also, are the souls of my people.

Yana oftob ham go‘zaldir birodarlarim qalbiday.

Avvalgi satrlarda qahramonning tashqi go‘zalligi madh etilgan bo‘lsa, endi uning ichki go‘zalligi ta‘riflanayapti. Oftob ramzi har doim qalbi iliqlik, mehrga to‘lalik va rahm shafqat siymosi bo‘lib kelgan. Bu bilan shoir asrlar mobaynida qul qilib eng og‘ir ishlarni bajarish buyurilgan, xo‘rlangan qalb o‘zining qalbi iliqlik fazilatini yo‘qotmaganligiga ishora qilgan.

Hyuz ijodining o‘ziga xos tashrif qog‘oziga aylangan yana bir she‘ri bu erkin vaznda (free verse) yozilgan “I, too, America” – “Men ham Amerikaning bir parchasiman” she‘ridir [5]. Shoirning 1926 yilda chop etilgan “The weary blues” to‘plamidan joy olgan bu she‘r yana bir amerikalik shoir Uolt Uitmanning “I hear America singing” “Amerikaning kuylashini eshityapman” she‘riga javob tarzida yozilgan degan ma‘lumotlar uchraydi [5]. Uolt Uitmanning bu she‘rida o‘zining kundalik yumushlarini bajarayotib kuylayotgan Amerika ishchi sinfi tasvirlangan, ammo qora tanli fuqarolar umuman tilga olinmagan. Vaholanki, o‘sha davr ishchi sinfi asosan qora tanli qullardan tashkil topgan edi. Bunga javoban Hyuz o‘z millatdoshlarini ham shu yurtning bir parchasi sifatida ifodalab tilga oladi.

I, too, sing America.

Men ham kuylayman Amerikani.

Bu misralar bilan shoir tegishlilik hissi, yurtning bir bo‘lagi ekanlilik Amerika ishchi sinfining rang barang tarkibiy qismini tashkil qiluvchilar orasida Afro-Amerikanlar alohida ajralib turishini nazarda tutgan.

I am the darker brother

Men qora tanli akaman

Bu misralarda ham tegishlilik, ham ajralib turish bor: “akaman” deyish bilan o‘zini ko‘p millatli Amerika oilasining bir a‘zosi sifatida ko‘rayotgan bo‘lsa,” qora tanli” birikmasi orqali boshqa millatlardan ajralib turishni ifodalaydi.

They send me to eat in the kitchen

When company comes,

Mehmon kelsa ular meni ovqatlangani oshxonaga jo‘natishadi

Metafora ishlatilgan bu misralarda jamiyatning bir parchasi hisoblangan qora tanlilarning mamlakat ijtimoiy siyosiy hayotidagi muhim voqealarda ishtirok etmasligi (masalan, qora tanlilar saylovda ishtirok etish huquqidan mahrum bo‘lgan), garchi ular ham jamiyat rivojiga hissa qo‘shayotgan bo‘lsada mavqe jihatdan past ko‘rilishi nazarda tutilyapti.

But I laugh,

And eat well,

And grow strong.

Ammo men kulaman, yaxshi ovqatlanaman va kuchga to‘lib o‘ saman.

Bu misralarda Hyuz aniq kinoya bilan bu tahqirlashlarga qarshi kulish bilan, o‘z o‘zini kuchaytirish bilan javob beradi, bundan tashqari, qora tanlilarning xo‘rlab tahqirlanishi ularni yo‘q bo‘lishiga emas, aksincha, yanada birlashib kuchayishiga olib kelishini ko‘rsatmaoqda.

Tomorrow,

I'll be at the table

When company comes.

Nobody'll dare

Say to me

“Eat in the kitchen,”

Then.

Ertaga men ham stol atrofida birga o‘tiraman mehmonlar kelishganda, o‘shunda hech kim menga oshxonada ovqatlan deyishga jur‘at qilolmaydi.

“Ertaga” so‘zi kelajakka umid va ishonchni ko‘rsatmoqda; stol atrofida birga bo‘lish esa mamlakatning teng huquqli a‘zosi bo‘lish, davlat ijtimoiy-siyosiy hayotida birga bo‘lishdan umidni bildiradi. “O‘shanda” so‘zi esa tenglik va adolat tantana qiladigan kunlar ramzidir.

Besides,

They'll see how beautiful I am

And be ashamed,—

I, too, am America.

Bundan tashqari, ular mening qanchalik go‘zalligimni ko‘rishadi va uyalib qolishadi, chunki men ham Amerikaning bir parchasiman.

Muallif shunga ishonayptiki, bir kun kelib ularning haq huquqlari to‘la tan olinadi va o‘shanda ularni haqoratlagan, xo‘rlaganlar afsuslanib qolishadi. O‘zining go‘zalligi, chiroyliligi bu Afro-Amerikanlarning bir tomondan jismoniy go‘zalligi bo‘lsa, bir tomondan tarixining boyligi ramzidir. Shuningdek, eng so‘nggi jumla, yana, tenglik g‘oyasini barilla kuylayapti [6].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Langston Hyuz adabiyot olamiga yangicha bir ruh, ovoz olib keldi-sof Afrika qora tanli shoir ovozi, o‘zining aynan mana shu qora tanli ekanligidan faxrlanuvchi, bundan uyalib, qisib qimtinmagan, aksincha, dunyoga yetakchilik qilayotgan boshqa xalqlar hali mavjud bo‘lmagan bir paytda jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘shib ulgurgan xalqning faxrlanishga arzigulik jihatlarni topa olgan va buni baralla kuylay olgan shoir ovozi.

To‘g‘ri, uning bu uslubi boshqa qora tanli shoirlarga yoqmagandi va ular buni juda ko‘p tanqid qilishdi [7]. Boisi, ular har doim o‘zlarining eng yaxshi tomomlarini ko‘rsatib jamiyatda yuqori mavqeda turuvchi oq tanlilarda bor xislatlarnigina havas qilarlik xislat deb bilishardi va faqat ularni ideal deb hisoblashardi. Ulardan farqli ravishda Hyuz esa o‘zida bor xususiyatlardan go‘zallikni ko‘ra oldi va millatdoshlarini ham aynan mana shunday fikrlashga, o‘z millatidan faxrlanishga chaqirdi. Bunday vatanparvarlik ruhidagi she‘rlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va barcha dunyo yoshlariga tenglik va adolat tushunchalarini hurmat qilishga chaqiriq bo‘la oladi.

ADABIYOTLAR:

1. Berry, *"Langston Hughes, Before and Beyond Harlem"*, Westport, CT: Lawrence Hill & Co., 1983; reprint, Citadel Press, 1992
2. Langston Hughes. *The Big Sea, 1940 — 13-bet. ISBN 0-8262-1410-X.*
3. West, *Encyclopedia of the Harlem Faith Renaissance, 2003, p. 160.*
4. Rampersad, Arnold & David Roessel, *The Collected Poems of Langston Hughes (2002)*
5. Henry Louis Gates, Jr. *Langston Hughes Critical perspectives Past and Present. New York: Amistad Press, 1993*
6. "Rampersad, Arnold, & David Roessel (2002). *The Collected Poems of Langston Hughes, Knopf, p. 620.*
7. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/langston-huyuz-sherlar.html>

XOLID HUSAYNIYNING “MING QUYOSH SHU'LASI” ASARIDA AYOLLAR ROLI TASHFIQOTI

Nazarova Gulbahor Pirmanovna,

Buxoro davlat universiteti

Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik

kafedrası professori

g.p.nazarova@buxdu.uz

Davronova Ra'no Alisher qizi,

Buxoro davlat universiteti

Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrası magistranti

r.a.davronova@buxdu.uz

Annotatsiya. Xolid Husayniy ushbu asar orqali ayol qahramonlarning og'ir holatlari, azobli lahzalarini tasvirlab, hattoki, adolatsiz jamiyatda ham muhabbat hamda hayot haqiqati qiyofasi mavjudligini ko'rsatishga harakat qilgan. Asarda Maryam va Laylo nikoh muammosi, erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlar, patriarxal jamiyat tuzumi, Afg'onistonda yashovchi ayollarning azoblari va ularning bag'rikengligini aks ettirish uchun tanlangan asosiy ayol obrazlaridir. Ayol qahramonlarining roli ularning murakkab ruhiy dunyosi, shuningdek, qiyinchiliklarga, ularni o'rab turgan odamlarga va jamoat hayotiga bo'lgan munosabati orqali ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Xolid Husayniy, Maryam, Laylo, munosabatlar, shaxsiyat, nikoh, ruhiy dunyo, his-tuyg'ular, ramziy-majoziy tasvir, patriarxal jamiyat.

DEVELOPMENT OF WOMEN'S ROLE IN KHALID HOSSEINI'S “A THOUSAND SPLENDID SUNS”

Abstract. By writing this novel, Khaled Hosseini tried to show the image of the reality of life along with the existence of love in injustice society by describing difficult situations and torture moments of women characters. Mariam and Laila are the main female characters chosen by the author to represent the problem of marriage, relationship between males and females, the system of patriarchal society, sufferings of women living in Afghanistan and their tolerance that provide the significance of female characters. Common features of these characters are illustrated through their complex spiritual world as well as their responses to hardships, people surrounding them and public life.

Keywords: Khaled Hosseini, Mariam, Laila, relationship, personality, marriage, spiritual world, feelings, symbolic-figurative imagery, patriarchal society.

РАЗВИТИЕ РОЛЬ ЖЕНЩИНЫ В «ТЫСЯЧА СЯЮЩИХ СОЛНЦ» ХАЛЕДА ХОССЕЙНИ

Аннотация. Написав этот роман, Халед Хоссейни попытался показать образ реальности жизни наряду с существованием любви в несправедливом обществе, описывая сложные ситуации и моменты пыток женских персонажей. Мариам и Лейла — главные женские персонажи, выбранные автором для изображения проблемы брака, отношений между женщиной и женщиной, строя патриархального общества, страданий женщин, живущих в Афганистане, и их толерантности, что обеспечивает значимость женских персонажей. Общие черты этих персонажей иллюстрируются через их сложный духовный мир, а также их реакцию на невзгоды, окружающих их людей и общественную жизнь.

Ключевые слова: Халед Хоссейни, Мариам, Лейла, отношения, личность, брак, духовный мир, чувства, символично-образная образность, патриархальное общество.

Kirish. Afg'onistonlik yozuvchi Xolid Husayniy 2003-yilda “Shamol ortidan yugurib” nomli asari bilan adabiyot sahnasiga chiqib keldi[1]. Uning ikkinchi romani “Ming quyosh shu'lasi” (2007) esa yanada yuksak e'tirof va muvaffaqiyatga erishdi [2]. Husayniy “Shamol ortidan yugurib” romanida erkaklar roliga ahamiyat bergan bo'lsa, “Ming quyosh shu'lasi” asarida ayollar hayotini hikoya qilishga kirishadi va bu dunyo tomoshabinlari tomonidan keng qabul qilinadi. Bir sharhlovchi ushbu asar dolzarbligini eslatish uchun

shunday ta'rif beradi: "bu roman bizga kuch va maqomga ega bo'lmagan ayollar uchun hayot qanchalik azob-uqubatli bo'lishini eslatib turadi" [3].

Afg'onistondagi 1960-yillardan 2000-yillarning boshigacha bo'lgan keskin siyosiy o'zgarishlarni qoralagan "Ming quyosh shu'lasi" asari ko'pxotinli nikoh bilan bog'liq bo'lgan turli millatda yashovchi ikki ayolning notinch hayoti va og'riqli ruhiyatini tasvirlaydi. Maryam nikohsiz farzand bo'lib, otasi Hirotda sharaflı tadbirkor bo'lgan, Laylo esa Qobuldagi ziyoli, ilg'or oilaning qizi. Turli xilligiga qaramay, ikkala ayol ham har qadamda ayol avtonomiyasini inkor etuvchi patriarxal jamiyatga qarshi kurashishga va undan qochishga harakat qiladi. Ularning qarama-qarshi munosabati, tanlovi va taqdiri afg'on jamiyati va madaniyatida ayollarning o'rnini ochib beradi. Husayniyning romani o'zining hissiyotli ta'siridan tashqari, Afg'onistondagi gender munosabatlariga bog'liq tushunchalarni taqdim etadi.

Ushbu maqola Husayniyning afg'on ayol personajlarini qanday rivojlantirganiga e'tibor qaratgan holda "Ming quyosh shu'lasi" romanidagi ayollarning ahamiyatini o'rganadi. Maryam va Laylo kabi bosh qahramonlar hamda Aziza va Nana kabi ikkinchi darajali qahramonlarning tahlili hikoya voqealari ortidagi yashiringan tag ma'noni ko'rsatadi. Husayniy romanidagi ayollarning shaxsiyatini o'rganish afg'on ayollari hayotining noma'lum bo'lgan voqeliklariga oydinlik kiritib, ularning shafqatsiz qiyinchiliklarga chidamliligi va jasoratini tasvirlab beradi.

Metodlar. Afg'onistonning geosiyosiy va madaniy konteksti "Ming quyosh shu'lasi" asaridagi ayol qahramonlarning kechinmalarini tushunish uchun juda muhim bo'lganligi sababli, tadqiqot romanning tarixiy asoslarini qamrab olgan ikkinchi darajali adabiyotlarni chuqur o'rganishdan boshlandi. Asosiy voqealar Afg'onistonning 1970-yillardan boshlab siyosiy tarixi, hokimiyatdagi turli rejimlar va ularning ayollarga bo'lgan munosabatini ko'rib chiqish, shuningdek, ushbu davrdagi afg'on ayollarining jamiyat va madaniyatdagi portretini tahlil qilishdan iborat.

Tahlil salohiyati ikkita nazariy tushuncha - feminizm va postkolonializmdan iborat. Feministik nuqtai nazardan shuni bilish mumkinki, ayollar harakati, tizimli gender kamsitishning ta'siri va gender rollari haqidagi tushunchalar Maryam va Layloning olib borgan kurashlarini tanqidiy tekshirish uchun qo'llanildi [2]. Postkolonial nazariya esa Afg'onistonning siyosiy hukumati ostidagi ayollar mavqeini tushunish va uni xorijiy kuchlar tomonidan tadqiq qilish; sharqchilik, madaniy gegemonlik kabi atamalarni tahlil qilish uchun yordam berdi [3].

Husayniyning boshqa mashhur romanlarida ham shunga o'xshash ko'plab bir-biriga aloqador mavzularni uchratish mumkin. Gender va ayollar roli mavzulari ko'tarilganligi sababli, shuni ta'kidlash kerakki, "Ming quyosh shu'lasi" asari Husayniyning birinchi romani bilan solishtirilganda yaqinda nashr etilganligi tufayli tanqidiy tahlillarga ko'p uchramadi.

Natija va tahlillar. Ko'plab tanqidchilar va olimlar "Shamol ortidan yugurib" romanida erkaklar roli ustuligini, "Ming quyosh shu'lasi" asarida esa ayol qahramonlarning sezilarli ta'sirini ta'kidlaganidek, Husayniy Afg'onistondagi ayollar hayotini ochib berishga sodiqligini oshkor qiladi [4]. Asarda keltirilgan xonadon timsolida uyda qamalib faqat uy ishlari bilan mashg'ul bo'lgan afg'on ayollarini, ular hayotining asl haqiqatini ko'rish mumkin. Maryam va Layloning xotin sifatida ovqat pishirishi, uy tozalash kabi kundalik yumushlarni bajarayotgani, keyin esa ona sifatida farzandiga g'amxo'rlik qilishlari sahnasi romanda ajib hissiy manzarani yaratishga o'z hissasini qo'shadi.

Shu bilan birga, Husayniy ayollarning ta'lim olish mavzusiga va ilm olish afg'on ayollarining dunyoqarashi va imkoniyatlarini qanday shakllantira olishiga urg'u berishda davom etadi. Maryamning cheklangan imkoniyati va Layloning maktabda ta'lim olib bolalar uyida o'qituvchilik kasbini egallashi o'rtasidagi qarama-qarshilik Afg'onistondagi o'nlab yillar davom etgan mojarolar davridagi siyosiy o'zgarishlar bilan bir qatorda sodir bo'lgan markaziy syujetni boyitib boradi. Ularning turli xil ta'lim asoslari Maryamning birinchi xotin sifatida taqdirini tan olishi, Layloning zo'ravon vaziyatlarga qarshilik ko'rsatishi va uni yengish uchun doimiy kurashiga asoslanadi.

Albatta, ikkala ayol ham o'z taqdirlari ustidan o'z nazoratini o'rnatgan bo'lishiga qaramay, Rashid zulmiga chidashlari va omon qolishlari afg'on ayollarining kuchsiz mavqelarini aks ettiradi. Shunday qilib, Husayniy shuni ko'rsatadiki, ayollar qanchalik kuchli irodali bo'lishidan qat'i nazar, hukumat o'rnatgan tizimni yengib bo'lmaydi. Rashidni o'ldirgani uchun qatl etilgan Maryamning fojiali yakuni esa ayollarning an'anaviy gender rollarini buzishga jur'at etgani uchun to'lashi mumkin bo'lgan eng og'ir badalni anglatadi.

Shu bilan birga, Layloning qochishi va keyinchalik Qobulga qaytib, maktab tashkil etishi, ayollarni ozod qilish vositasi bo'lgan ta'lim taraqqiyotini bildiradi. Husayniyning umidli, ammo pragmatik yakuniga ega asari ayollarning patriarxatni bir o'zi bekor qilishi mumkinligi haqidagi tushunchalardan qochadi, lekin shunga qaramay, Afg'onistonni yangilash uchun ularning sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Maryam va Layloning markaziy, ammo qarama-qarshi kechinmalari ularni ayollikning qarama-qarshi o'lchamlarini ifodalovchi ikki tomonlama qahramonlar sifatida belgilaydi. Ularning har xil xislatlari qat'iy

patriarxal urf-odatlar bilan bog'langan bo'lishiga qaramay, afg'on ayollari o'rtasidagi turli holat va munosabatlarni aks ettiradi.

Maryamning boy Hirotlik tadbirkorning qizi sifatidagi fojiali hayoti va ijtimoiy jihatdan noqonuniy tug'ilgani afg'on avlodlarini qiynab kelayotgan o'kinchni ifodalaydi. Nikohsiz tug'ilganligi sababli oila va jamiyat tomonidan meros olish kabi asosiy huquqlardan mahrum bo'lgan Maryam, hatto o'zining aybi bo'lsa ham, qandaydir tarzda "huquqni buzadigan" ayollarga qatoridan o'rin olishi bu achinarli holat. Maryam o'smirlikdan to o'rta yoshga qadar hayotining har bir bosqichida rad etilishdan aziyat chekadi va qiz, xotin va ona kabi vazifalarni bajarish uchun boshpana topishga harakat qiladi.

Aksincha, Layloning imkoniyatlari, uning ta'lim olishi afg'on ayollari uchun tush misoli bo'lgan professional martabaga erishish umidlarini uyg'otadi. Biroq, siyosiy g'alayonlar bu umidlarni puchga chiqaradi, chunki u sababli Laylo o'z ota-onasini yo'qotadi va urush tufayli xarobaga aylangan Qobulda omon qolish uchun istamay Rashidga turmushga chiqadi. Maryamning o'z bolalariga onadek g'amxo'rlik qilishiga va Rashidning kuchayib borayotgan zo'ravonligiga chidashga majbur bo'lgan Laylo boshqa joyda mustaqil hayot qurish uchun qizi va Maryam bilan qochib ketishni rejalashtiradi. Tolibonlarning hukmronligi ostida maktabda o'qishni davom ettirishga urinishdan tortib Rashidning har kungi zo'ravonliklariga qarshi kurashishgacha Laylo o'z hayoti davomida gender cheklovlariga qarshi turishni o'zida mujassam etgan obraz hisoblanadi.

Ushbu qarama-qarshi, ammo bir-birini to'ldiruvchi asosiy personajlarni yaratishda Husayniy zamonaviy islom jamiyatida o'z ehtiyojlarini qondirishga intilayotgan va qattiq zulmlarga qarshi bo'lgan ayollarning turli qirralarini ochib beradi. Ularning tanlovlari afg'on ayollari uchun mavjud bo'lgan cheklangan imkoniyatlarga urg'u bergan holda ularning qat'iyati va qahramonliklarini namoyish etadi. Maryam va Laylo birgalikda to'xtovsiz zulmga qarshi kurashgan ayol munosabatlari va tajribalarini ifodalaydi.

Husayniy Maryam va Layloni onalik siyomosida aks ettirishga ham e'tibor qaratadi. Maryamning onasi Nana va Layloning onasi Fariba kabi ikkinchi darajali qahramonlar afg'on ayollari bilim va chidamlilikni yagona meros sifatida o'z qizlariga o'tkazadigan patriarxal tuzumni yoritishga harakat qiladi.

Keksa, g'azablangan Nana Maryam uchun ayollik timsolini ifodalovchi yagona namuna sifatida xizmat qiladi va u uzoq qishloqda yolg'izlikda yashayotgan yosh qizga hayot saboqini beradi. Jalilning boyligi va mavqeini rad etib, Nana Maryamga afg'on patriarxiyasining ikkiyuzlamachiligi haqida va'z qiladi va uning og'ir mushkulliklari ostida ayollar muqarrar ravishda aziyat chekishidan ogohlantiradi. Jalilning qonuniy xotinlariga xizmat qilgan Nananing baxtsiz hayoti uning ayol xavfsizligini ta'minlovchi vosita bo'lgan nikohga ishonchsizligini kuchaytiradi.

Muhokama. Maryam va Layloning qahramonliklaridan tashqari, Husayniy bir nechta boshqa ayol qahramonlarni zolim tizimga qarshi kurashuvchi jamoat arboblari sifati namoyish qilishga harakat qiladi. Layloning o'qituvchisi Xala Rangmal va ayol qamoqxona shifokori kabi qahramonlar xavf-xatarlarni bilgan holda o'zlarining adolat g'oyalarini yetkazib berish uchun jasorat ko'rsatadilar. Ularning kasbiy majburiyatlari so'nggi o'n yilliklarda ayollar huquqlari bo'yicha ish olib borgan afg'on feministlarini anglatadi.

So'l maktab o'qituvchisi Xala Rangmal Laylo kabi iqtidorli o'quvchilarga nafaqat akademik darslarni, balki gender tenglik haqidagi dastlabki saboqlarni ham beradi. Uning ilg'or qarashlari uni afg'on ayollari an'anaviy qarashlaridan ajratib turdi. Gender ierarxiyasini milliy barqarorlikka putur yetkazish uchun qo'yilgan tuzoq sifatida ochiqdan ochiq rad etgan Xala Rangmal idealist sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, uning jasoratli namunasi Layloning birinchi marta ijtimoiy hayotda o'z o'rnini bilishiga yordam berdi, ko'chish va bevalik yillari davomida esa itoatkor ayolning birinchi ko'rinishini yaratishda ko'maklashdi.

Xuddi shunday, Maryamni qotillik uchun qatl etilishidan oldin tekshirayotgan qamoqxona shifokori, uning o'zini himoya qilish uchun harakat qilgan yoki yo'qligini muloyimlik bilan tekshiradi va bu hukumat yo'l qo'yib bergan adolatsizlikni bartaraf etish o'rniga zo'ravonlikning yechimini topishga harakat qilishni nazarda tutadi. Maryamning qonuniy qurbon bo'lgan xotin sifatida taqdiriga hamdardlik ko'rsatgan yagona ayol mutaxassis sifatida shifokor XX asr davomida afg'on feministlari uchun o'z fikrini bildira oldi.

Xulosa. Husayniyning keng ma'noli tushunchalarni qamrab oluvchi ikkinchi romani turli yo'llar bilan afg'on ayollarini milliy axloqning ustunlari sifatida ko'rsatishga harakat qiladi, ularning o'lim va qayta tug'ilishdagi rollarini aks ettiradi. Tolibonlar hukmronligi ostidagi son-sanoqsiz hayotiy voqealikni boshdan kechirgan Maryam va Layloning taqdiralaridan tashqari, "Ming quyosh shu'lasi" romani ayol qahramonlarning bardoshli irodasiga urg'u beradi. Husayniy romanidagi ayollarning shaxsiyatini o'rganish afg'on ayollari hayotining noma'lum bo'lgan qirralariga oydinlik kiritib, ularning shafqatsiz qiyinchiliklarga chidamliligi va jasoratini tasvirlab beradi. Maryamning cheklangan imkoniyati va Layloning maktabda ta'lim olib bolalar uyida o'qituvchilik kasbini egallashi o'rtasidagi qarama-qarshilik Afg'onistondagi o'nlab yillar davom etgan mojarolar davridagi siyosiy o'zgarishlar bilan bir qatorda sodir bo'lgan markaziy syujetni

LITERARY CRITICISM

boyitib boradi. Ularning qarama-qarshi munosabati, tanlovi va taqdiri afg'on jamiyati va madaniyatida ayollarning o'rnini ochib beradi. Husayniyning romani o'zining hissiyotli ta'siridan tashqari, Afg'onistondagi gender munosabatlariga bog'liq tushunchalarni taqdim etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Oswald, Cameron. "Understanding Khaled Hosseini." *South Central Review* 28, no. 3 (2012): 40–54. <https://doi.org/10.2307/23460570>.
2. Najma Tharapisth, "Victims and Survivors: Representation of Afghan Women in Hosseini's *A Thousand Splendid Suns*", *South Asian Review*, vol. 38, no. 3, 2017, pp.342-358.
3. Sara Mohanty, "Feminism without Borders: Decolonizing Theory, Practicing Solidarity", *Frontiers: A Journal of Women Studies*, vol. 37, no. 3, 2016, pp.336-337.
4. Nurten Kilic, "'We Need New Names': On the Symbolic Significance of Children and Childhood in Khaled Hosseini's *The Kite Runner*", *European Journal of Women's Studies*, vol. 18, no. 4,
5. Hillmann, H. (2008). *Gendered representations of trauma and violence in Khaled Hosseini's "The Kite Runner" and "A Thousand Splendid Suns"*. *CSP*, 2(1), 54-72.
6. Malik, A. S., Ullah, I., Ali, S., & Ullah, H. (2021). *Magical realism in Khaled Hosseini's selected novels*. *J. Soc. Sci. & Hum. Stud.*, 3(2), 74-88.

KONFLIKT VA XARAKTER UYG'UNLIGI

Bobojanov Alisher Abdulla o'g'li,

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi
bobojanovalisher94@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli yozuvchi Luqmon Bo'rixonning "Imom Moturudiy" tarixiy romani konflikt va xarakter uyg'unligi yo'sinida tahlil va talqin qilingan. Tarixiy obyektiv voqe'likning badiiy voqe'likga aylanishida konfliktlarning tutgan o'rni, konfliktning badiiy voqe'likni harakatga keltiruvchi kuch ekanligi, shuningdek, konfliktida xarakterlar tabiatining namoyon bo'lishi singari poetik hodisalar talqin obyekti bo'lgan.

Kalit so'zlar: roman, tarixiy roman, konflikt, konflikt turlari, ijtimoiy-psixologik konflikt, ijtimoiy-axloqiy konflikt, konfliktning g'oyaviylashishi, xarakter.

КОНФЛИКТ И ГАРМОНИЯ ХАРАКТЕРОВ

Аннотация. В данной статье анализируется и интерпретируется исторический роман известного писателя Лукмана Бурихана «Имам Мотуруди» с точки зрения конфликта и гармонии персонажей. Предметом интерпретации стали роль конфликтов в преобразовании исторической объективной реальности в реальность художественную, тот факт, что конфликт является движущей силой художественной реальности, а также проявление характера действующих лиц конфликта.

Ключевые слова: роман, исторический роман, конфликт, виды конфликта, социально-психологический конфликт, социально-нравственный конфликт, концептуализация конфликта, персонаж.

CONFLICT AND CHARACTER HARMONY

Abstract. This article analyzes and interprets the famous writer Luqman Borikhan's historical novel "Imam Moturudi" in terms of conflict and character harmony. The role of conflicts in the transformation of historical objective reality into artistic reality, the fact that conflict is the driving force of artistic reality, as well as the manifestation of the nature of characters in the conflict were the object of interpretation.

Keywords: novel, historical novel, conflict, types of conflict, social-psychological conflict, social-moral conflict, conceptualization of conflict, character.

Kirish. Ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy – madaniy yuksalayotgan bugungi jarayonda milliy g'ururimiz bo'lgan tarixiy shaxslar badiiy qiyofasini adabiy portretini yaratish juda dolzarb masala. Ayniqsa, diniy – islomiy tafakkur bilan sug'orilgan uzoq va yaqin o'tmishimizni tarixiy romanlarda badiiy talqin qilish orqali obrazli jonlantirish adabiy jarayonning dolzarb muammosidir. Chunki, bugun kechanning hosilasi bo'lganidek, kelajak ham bugundan harakat oladi. Yangi O'zbekistonning yangi avlodi qiyofasida va botinida buyuk ajdodlarimiz xulq – atvori, ong va saviyasining tafakkur uchqunlari, insoniy estetik qarashlari uyg'unlashsa, har bir qalbdan nihol misol voyaga yetsa ne ajab.

O'zbek nasrida tarixiy romanlar yaratishda, o'tmish madaniy tafakkurimizni bugungi ijtimoiy hayot bilan muloqatda jonlantirish borasida Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Maqsud Qorayev, Asad Dilmurod, Muhammad Ali singari yozuvchilarimiz samarali ijod qilishdi. Luqmon Bo'rixonni ham mazkur ijodkorlarning yorqin davomchisi bo'ldi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Yozuvchi Luqmon Bo'rixonning "Imom Moturudiy" tarixiy romani ayni vaqtida millatning yuksalishi davri hosilasi tarzida dunyoga keldi. O'zbek milliy adabiy jarayoni bugungi butun jahon integratsiyasi davrida an'anaviy poetik tasvir usullarini yanada takomillashtirib, g'oya va maqsadni omuxtalab, badiiy qahramon va tarixiy muhitning ijtimoiy – psixologik qiyofasini yanada yorqinroq yoritib berishga alohida urg'u bermoqda. Luqmon Bo'rixon romanida ham tarixiy sharoit va qahramonning ichki olami ijtimoiy – axloqiy, ijtimoiy – psixologik konfliktlar yordamida ochib berilgan. Diniy – ijtimoiy tariximizning X asrida yashab, islom kalom ilmining mukammal aqidalarini yaratgan Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmudning ijtimoiy – ahloqiy, diniy – madaniy qiyofasini tarixiy – badiiy talqin qilish o'z o'zaniga

ulanayotgan bugungi adabiy jarayonning zimmasiga tushdi. Buni o'zida burch va vazifa deb bilgan yozuvchi Luqmon Bo'rixon "Imom Moturudiy" romanini bugungi jamiyatga tuhfa etdi.

Tahlil. Asar to'qimasining atribut elementlaridan biri bo'lgan konflikt tushunchasiga berilgan aniq ta'riflar bo'lsa-da, uning tur va janrlardagi vazifalari nuqtayi nazaridan turlicha talqinlar mavjud. «Syujet bilan konflikt orasida ikki yoqlama aloqa kuzatiladi: bir tomondan, syujet konfliktlarni umumlashtirib namoyon qiladi, ikkinch tomondan, konflikt syujetni harakatga keltiruvchi asosiy kuch sanaladi. Ko'rinadiki, syujet va konflikt badiiy asarda uyg'inishadi, biri ikkinchisini taqozo qiladi [1.176]

Romandagi voqealar uzoq o'tmishda, diniy – ijtimoiy muhitda sodir bo'ladi. Muallif o'z g'oya va badiiy niyatini ro'yobga chiqarish maqsadida obyektiv-real ziddiyatlarni matn to'qimasida poetik konfliktlarga aylantirib davrning va tarixiy sharoitning tipik xarakterini yarata olgan. Ma'lumki, zamonaviy mavzudagi romanlardan farqli o'laroq tarixiy romanlarda voqealar oqimi va xarakter mutanosiblikda harakat qiladi. Hikoyalardagidek xarakter tayyor holda kelmasa ham, poetik ongning anglangan va idrok qilingan yoki ideal tasavvur qilingan darajadan kam bo'lmagan holda keladi. Ya'ni primitiv (ideal qiyofasiz) holatda bo'lmaydi.

Yozuvchi Moturidiy xarakterini va diniy – madaniy muhitini badiiy jonlantirishda motivlardan va konfliktlardan mohirona foydalangan. Muallif qahramonlar ruhiyatini psixologik maqsadda ochish uchun ijtimoiy – psixologik va ijtimoiy – axloqiy konfliktlarni asos qilib oladi. Romanda hayotiy ziddiyatlarni badiiy – psixologik maqsadda tasvirlash tarixiy romanning ahamiyatini tor ramkadan chiqarib, kitobxonning idrok qilish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Konflikt – asar voqealarini harakatga keltiradigan, syujet voqealarining o'zaro kommunikatsiyasini ta'minlaydigan asosiy atribut hodisadir. Ziddiyat va kurash maydonining qanchalik kengligi va tarixiy qahramon ulug'vorligi hamda buyukligini belgilaydi. Romanda asosiy konflikt Imom Moturidiy, Vosiq La'liy (yoshlikdagi do'sti), Idris ibn Vaysal Shomiy (qozi), Abu Rizo Tusiy (vaqf vaziri) singari qahramonlar o'rtasida sodir bo'ladi. Roman voqealigining badiiy akslanishida xarakterlararo, qahramon va muhit, ichki konflikt [1.176] singari turlari sinkretik holatda kelib diniy – ijtimoiy – g'oyaviy xarakter kasb etgan.

Asarda voqealar dinamikasi bilan qahramon xakteri tadriji hamohang bo'lmasa, konflikt va xarakter uyg'unligi hodisasi sodir bo'lmaydi. Asar voqealari muallif yoki kitobxon xohlaganidek emas, balki xarakter mantig'ining tabiyati va talabiga muvofiq rivojlanib boradi. «Personaj yozuvchining quli emas, u o'zining xarakter mantig'iga muvofiq harakat qiladi.... asar voqealari rivoji davomida to'la shakllangan va mustahkamlangan xarakter endi muallaf diqqatini qabul qilmaydi [1.108]. Shuningdek, «Asar mazmuni xarakter tasviri tufayli hayotiy aniqlik kasb etadi va shu bilan birga, bizning hislarimizga ta'sir etish xususiyatiga ega bo'ladi [2.131-132].

Tarixiy asar – o'zi yaratgan insoniy tarixiy hayotning badiiy hujjatidir. "Imom Mouridiy" romanidagi syujetlar markazida tarixiy voqealar va hayotiy ziddiyatlar tursa – da, yozuvchi bosh qahramon va tipik sharoit qiyofasini yaratish uchun badiiy to'qima va konfliktlardan mohirona foydalangan. Asarning asosiy konflikti Imom Moturidiy va Idris Shomiy (qozi) o'rtasida yuz beradi. Ammo, mazkur to'qnashuv ikki shaxs o'rtasida yuzma – yuz sodir bo'lmaydi, balki, tuhmat motivi asosida sodir bo'ladi. Romanning birinchi qismi "Uch otliq" deb nomlanib unda Samarqandga yangi hokim bo'lgan Xolid Xalaj Moturidiy saroyga chorlab uch otliqni jo'natadi. Ammo, Imom Moturidiy saroyga bormasdan hokimga shogirdi Javod (josus, qozi Idris Shomiyning odami) orqali xat jo'natadi. Savodi bo'lmagan hokim xatni o'qishni qoziga buyuradi. Xatdagi salom – alik, uzrnoma va nasihatni eshitgan hokim: - "Imom Mansur Moturidiy qanday odam o'zi? – so'radi sir boy bermay.

- Yoshi ellikdan oshgan ammo, hanuz tetik, sergak kishi. Tili achchiq, yuz – ko'zing demay so'zlaydi. Birovlar ustidan kinoya qilishni xush ko'radi. Tuzuk, tiniq gap olish mumkin. Har bir so'zi go'yo tilsim...

- Bu maktub ham tilsim – mu?

Idris Shomiy bosh irg'adi.

- Ha, hukmdor, serjumboq. Ilk eshitg'onda mayin, shirin tuyulsa-da, teginda zahar-zaqqum, kibr, beadablik yashirin" [5. 24]. Mana shu tuhmat motivi oddiy va sodda ziddiyatdek ko'rinsa-da, keyinchalik ijtimoiy-g'oyaviy konflikt qiyofasini namoyon qilib boradi. Aslida jamiyat va inson hayotida ziddiyatlar asosan, ikki asosga ya'ni manfaatlar va g'oyalar to'qnashuviga muvofiq yuz beradi. Bu yerda xarakterlararo yoki manfaatlararo to'qnashuv g'oyaviy konflikt sari o'sib boradi. Idris Shomiy musulmonlar orasida Imom Moturidiy nomining shuhrat qozonishi va obro'sining ortib borishidan emas, balki u yaratgan aqidaning mafkuraga aylanishidan qo'rqr edi. Xatni tahlil qilish jarayonida yanada ziddiyat oydinlashadi. Qozi xatning mazmunini hokimga shunday izohlaydi:

- Abu Mansur avvalo sizni hokimlik martabasi ila qutlashi lozim edi. Va lek bu qutlovga ko'zimiz tushmadi. Hamdardmen, og'ir yuk yelkangda, deydi. Ya'nikim, aqling zaif, beling zaif, hokimlikka

noloyiqsan qabilinda ishora qiladi. Sen yuvuqsiz dasht odamisan, el boshida nechuk o'tirasani deydi. Maktub so'nggida farog'atdan chekin deb bitibdi. Illo, u sizni maishatparast, halokat yoqasida turgan nafs bandasi, demoqchi [5. 25-26]. Yozuvchining rivoya texnikasiga muvofiq muallif Idris Shomiyga ortiqcha xarakteristika berib o'tirmaydi. Balki, mazkur maktubning Idris Shomiy tilidan g'arazli talqin qalinlashining o'ziyiq uning dushmanlik qiyofasini butun bo'y-basti bilan namoyon qiladi. Maktubning qozi tomonidan talqindagi "aqling zaiif", "xokimlikga noloyiqsan", "yuvuqsiz dasht odami", "maishatparast", "nafs bandasi" so'z va iboralari Hokim va Imom Moturidiy o'rtasidagi ziddiyatni yanada kuchaytiradi. Bundan ko'rinadi-ki, qozi Abu Mansurni nafaqat xush ko'rmaydi hatto, jismoniy yo'q qilishni istaydi. Ammo, ushbu tuhmat (fitna) motivi Hokim Xalaj va Imom Moturidiy o'rtasida konfliktni keltirib chiqargan bo'lsa-da, tarixiy va poetik mantiqning ierarxiyasiga muvofiq dramatik tus olmaydi. Ya'ni dushmanning (qozi) g'arazli maqsadi amalga oshmaydi.

Natija va muhokama. Jahon va o'zbek badiiy tafakkuri tarixida, folklor na'munalari bo'lgan eposlarda va hatto yangi o'zbek nasrida ham konflikt yaratishda tuhmat yoki xat motividan foydalanish an'anasi mavjud bo'lgan. Yangi o'zbek adabiyotining ilk nasr (roman) namunasi bo'lgan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida ham xat motivi konfliktni yanada kuchaytirib syujetning dinamik drama tizimini ta'minlagan. Bundan tashqari tarixiy mavzudagi asarlarda maktub vositasidan motiv, detal obrazi vazifasida foydalanish andozalari mavjud.

Yuqoridagi tasvirlardan ko'rish mumkin-ki, Luqmon Bo'rixon tarixiy turmish dialektikasi va tarixiy shaxslar o'rtasidagi g'oyaviy-mafkyraviy, ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-psixologik munosabatlarni chuqur poetik idrok qilgan ko'rinadi. Idris Shomiy bilan bog'liq dastlabki ziddiyatni keltirib chiqargan motiv(asos) aslida Aron (Idris Shomiyning bolalikdagi asl ismi) ismli yigitning hayoti bilan bevosita bog'liq. Yozuvchi fitna motividan qasos motivini keltirib chiqaradi. Yosh Aron Xalablik, zimmiylar qavmidan edi. Bu yurtga ham islom dini va madaniyati kirib kelgan zamonlar edi. Otasi savdo ishlari bilan shug'ullanar, ocharchilik va qahatchilik sabab bug'doy savdosidan mo'may daromad olardi. Nimai-ki bo'lib savdogarni Misr karvoniga hujum qilib tunaganlikda ayblab hibsga olishadi. Bir necha kundan keyin shahar markazidagi maydonda Aronning otasini osishadi. Barcha voqealar yosh bolaning ko'z o'ngida sodir bo'ladi. Mana shu voqeadan keyin uning qalbida musulmonlardan qasos olish niyati paydo bo'ladi. Ana shu qasos motivi Imom Moturidiyga nisbatan tuhmat motivini keltirib chiqargan. Qozi Idris Shomiyning asl maqsadi Imom Moturidiyga dushmanlik qilishgina emas balki, rahnamolari buyurgan "musulmonlar orasida fitna" ni amalga oshirish edi. Otasidan ayrilgan Aron zimmiylarning "Muqaddas fitna" guruhi sardori bilan uchrashib qoladi. Shunda qariya sardor: "Diyorlarimizg'a islom hukmi yetdi. Bugun pusib yurmoqdan o'zga imkon qolmayapti. Musulmon etiqodi kunchiqar-u kunbotarg'a shiddat ila yoyilib bormoqda... Modomiki, bugun islomga qarshi ochiq oydin tig' ko'tarib chiqa olmas ekanmiz, xufyona, tadbirkorona yo'l topgaymiz. Biz islomni ichidan yemirishimiz lozim! Musulmonlar orasiga fitna urug'ini sochishimiz, alarni guruh-guruhlarga ajratib, o'rtalarida adovat olovini yoqishimiz zarur" [5.82]. Idris Shomiy o'z monolog – xotirasida yoshligidagi o'sha qora kunlarini, yetimligini, zimmiylar sardorining "Muqaddas fitna" haqidagi nutqini eslaydi. Muallif rivoya nutqini qozi monolog – xotirasiga ko'chirib, monolog ichida tashqi va ichki monologlarni, monolog – orzu va monolog – muhokama singari nutq texnikalaridan foydalanadi. Shunday qilib yozuvchi Idris Shomiy ziddiyatli hayotining asosi va sababi bo'lgan o'tmish voqealarini uning ong tasavvurida qayta jonlantiradi. O'tmish voqealarining personaj ong – sajiyasida qayta tiklanishi asar bosh konfliktining kelib chiqish sabablarini ayon qilib yozuvchini bayonchilikdan va tushuntirish vazifasidan ozod qilgan. Shuningdek «Keskin ijtimoiy munosabatlar zarvarag'idan o'sib chiqadigan muhokamada ruhiy madaniyatimiz tayanchi islom qoidalariga ehtiyotkorona yundashuv kuzatiladi» [3.119].

Aronga Idris Shomiy ismini zimmiylar sardori beradi. Idris zehni, bilimli va farosatli yigit bo'lib ulg'ayadi. Qur'on va shariat qoidalarini bilimdoniga aylanadi. Ammo, qalbidagi qasos oloviga va zimmiylarning g'arazli maqsadlariga bo'ysunishga majbur edi. Shunday kunlarning birida "Muqaddas fitna"ning eng oliy rahnamalaridan biri Idrisni oldiga chorlab shunday deydi: "Inim, og'ir bo'l, toshdek qattiq bo'l, boshingga ulkan musibat tushdi". Emishki bir oycha avval "Muqaddas fitna" Xalabda zimmiylar isyonini tayyorlabdi. Bundan shahar hokimi xabar topib qolibdi. Musulmonlar zimmiylar mahallasida ko'z ko'rib, quloq eshitmagan qirg'in uyushtiribdi. Uy – joylar alanga ichida qolgan emish. Navkarlar qilichidan qochishga ulgurganlar har tomonga tum- taraqay to'zg'ibdi. "...ammo sening oilang qutula olmadi, - dedi oliy sardor. – xotiningga, bolangga musulmonlar tig'i yetdi" [5.85]. Bu zimmiylar tomonidan uyushtirilgan fitna bo'lib, Idris Shomiyning qalbidagi qasos (motiv) olovini yanada alangalatadi. Zimmiylar shunday tarzda Idris Shomiy "Muqaddas fitna"ga tayyorlaydi. Xotinidan va farzandlaridan ayrilgan, qalbi va onggi qasos g'oyasi bilan to'ldirilgan Idris Shomiy "Buyuk g'arazli maqsadlari yo'lida Samarqandga yuboriladi. Aslida Idris "Buyuk yolg'on" qurboniga aylangan yaratganning bandasi edi. Bu voqealar romanning "Idris Shomiy" bo'limida personaj nutqida monolog – xotira uslubida bayon qilinadi. Bu bo'limda biz nafaqat

Aron (Idris)ning bolalik chog'lari balki fitna, qasos, yolg'on motivlari orqali asar voqeligini harakatga keltiradigan asosiy konflikt bilan tanishamiz.

Xulosa. Tarixiy shaxslar hayoti hamisha dramatik, ba'zida u tragik xarakterga ega bo'ladi. Hayot bu – orzu-maqсад bilan obyektiv reallikning o'zaro munosabati natijasidir. Xuddi shu ma'noda Imom Moturidiy buyuk maqsadlari yo'lida kurashuvchan va yaratuvchi tarixiy-badiiy siymodir. Shu boisdan Luqmon Bo'rixonning tasvir va ifoda texnikasi yuqori kayfiyatli ruhiy notalardan tortib, ayanchli o'limgacha olib boradigan ziddiyatlarga boy. Romandagi yana bitta konflikt Abu Mansur va bolalikdagi qarddon do'sti Vosiq La'liy o'rtasidagi ziddiyatga asoslangan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha yosh Abu Mansur Muhammad ilmga chanqoq, ziyrak ilm tolibi bo'lgan. Moturidiya ta'limotining vakillaridan bo'lgan Abulmu'in Nasafiyning "Tabsirat al-adilla" asarida guvohlik berishicha: "Agar Abu Mansur Moturidiy ustoz Abu Nasr Iyodiyning darsida ayrim sabablarga ko'ra ishtirok etmay qolsa yoki kechiksa, hatto ustoz o'z shogirdiga nisbatan cheksiz hurmati va muhabbatining izhori sifatida o'sha darsda Moturidiy hozir bo'lmaguncha biror so'z ham aytmas ekan. Agar u Moturidiy uzoqdan bo'lsa-da, dars kelayotganini ko'rib qolsa, xursandligidan taajjub bilan unga tikilib qolar va qasos surasining 68-oyatini o'qir edi" [4.359]. Bundan ko'rinadi-ki, bo'lajak alloma hali bolaligidayoq ustozlarini mehrini va etiborini qozongan bo'lsa, tengdoshlari va madrasa toliblarining g'ayrligini keltirgan bo'lsa ajab emas. Ammo, romandagi Vosiq La'liy obrazini hayotiy prototip sifatida tarixiy manbalarda uchratmadik. Bundan ko'rinadi-ki mazkur obraz tarixiy shaxs emas, balki balki tarixiy sharoit va badiiy tafakkur tadriji ehtiyojiga aylantirgan to'qima obrazdir. Vosiq La'liy ko'nglidagi g'ayrlik, ko'ra olmaslik, sotqinlik kabi illatlar payti yetib dushmanlikka aylanadi. Roman personajlaridan biri Mutaziliylar rahnamosi vaqf vaziri Abu Rizo Ta'siy Vosiq La'liyni huzuriga chaqirib shunday deydi: "- Endi bu illatni bartaraf aylamoq fursati yetdi, - deya viqor ila so'zidan davom etdi u, - illo, buning birdan-bir imkoni Muhammad ibn Muhammadga muxolif maqomida turmoqdir".

- "Muxolif", - ajabladi Vosiq.

- "Ha, muxolif. Bu ibora sizni cho'chitgaymu, bo'tam?"

- "Yo'q, aslo", - g'udrandi Vosiq [5.70].

Mana shu voqeadan keyin Vosiq La'liyning do'stiga bo'lgan yashirin g'ayrliги endi ochiqchasiga dushmanlikka aylanadi. Shaxslararo yoki xarakterlararo ziddiyat ijtimoiy-g'oyaviy konflikt sari o'sib boradi. Vosiq La'liy obrazi qat'iy xarakterli shaxs emas. Uning ruhiyatida ba'zan vijdoni uyg'onib iymoni g'olib kelsa, ba'zida g'ayrliги tutib do'stlikka xiyonat qiladi. U do'stlikda sadoqatli va mo'tadil emas. Uning ruhiyatida ichki kolleziya yuz beradi:

"Ey, Qosim ibn Fazil! – o'z-o'ziga hayolan xitob qildi Vosiq La'liy, og'ir lanj qadamlar ila madrasa sahniga chiqarkan, - sen salkam bir yil o'sha kitoblarni o'qiding, o'zingcha nelarnidir anglagan bo'lding, tusiylar safidan joy olding. Ey, Imom La'liy, endi rostini so'yla-chi, murod-maqsading chindan ham haqiqat edi-mu? Chindan ham islomg'a quvvat berish asl niyating edi-mu? Yo'q, aslo! Sen avvalo Muhammadga g'olib kelmoq bo'lding! Undan-da ortiqroq obro', sharaf izlading. Shon-u shavkat, sardorlik, mansab-martaba, boylik orzuing edi. Illo, alarg'a erishding va ul ko'ngling charog'onmu? Sen Muhammadning izmidan chiqmoqchi eding, ammo o'zgalar izmiga tushmadingmu, orqa oyog'iga aylanib qolmadingmu?" [5.75]. Vosiq La'liyning o'ziga o'zi ta'na-dashnom berishi, ruhiy ezilishi ushbu jarayonda voqea va qahramon xarakterini harakatga keltirib kelajak taqdirini ta'minlaydi. Shaxsning ma'naviy qiyofasi, uning namoyon bo'lishi shaxsning butun xatti-harakatlari majmuida namoyon bo'ladi. Tarixiy asar muayyan tarixiy shaxslar va to'qima obrazlarning muallif idealidagi tasviridan iborat bo'ladi.

Yuqoridagi tahlil va talqinlardan kelib chiqib aytish mumkin-ki, yozuvchining rivoya texnikasi ko'hna o'tmishni jonlantirib, tipik sharoit va xarakterlarning uyg'unligini ta'minlab butun boshli badiiy almanax yarata olgan deya ayta olamiz. Shuningdek, matn stilistikasidagi fitna, qasos va tuhmat motivlari syujet va xarakterlar dinamikasini ta'minlab asar konfliktlarini konkretlashtirgan. Romanda shaxslararo va ruhiy konfliktlar o'zaro sinkretik uyg'un holatda kelib diniy, ijtimoiy-g'oyaviy ahamiyat kasb etgan.

ADABIYOTLAR:

1. D.Quronov. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. «Navoiy universiteti» Toshkent 2018.
2. I.Sultanov. *Adabiyot nazariyasi*. «O'qituvchi» Toshkent, 1980.
3. A.Nosirov. *Odil Yoqubov romanlari poetikasi «Fan» Toshkent, 2012*
4. *Abulmu'in ibn Muhammad Nasafiy*. "Tabsirat al-adilla fi usul ad-din". Anqara: I jild 1993.
5. *Luqmon Bo'rixon*. "Imom Moturidiy" roman. Toshkent, "Adabiyot", 2022.

TED XYUZNING INSON-TABIAT MAVZUSI BADIY IFODASIDA RAMZ YARATISH

Qurbonova Nodira Roziqovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD
n.r.qurbonova@buxdu.uz
Ikromova Nozima Ilhomovna,
Buxoro davlat universiteti magistranti
n.iikromova@buxdu.uz

Annotatsiya. Maqolada Ted Xyuzning "The Thought-Fox" she'ridagi ramziy obraz yaratish mahorati tahlil qilinadi. Xyuz lisaning obrazini ilhom, ya'ni yaratuvchanlik timsoli sifatida qo'llaydi, bu ramz shoirning kechasi, bo'sh qog'oz oldida ilhom bilan kurashayotgan holatini aks ettiradi. She'rda tulkining asta-sekin paydo bo'lishi orqali ilhom tirik timsolga aylanadi. Tahlil Xyuzning tabiat ramzlaridan o'ziga xos foydalanishini va ingliz poeziyasidagi an'anaviy hayvon obrazlaridan farqlanishini ko'rsatadi. Xyuzning she'riy ovozi uning o'ziga xos, individual uslubini va adabiy urfdan uzoqligini ochib beradi.

Kalit so'zlar: ramz, ilhom, metafora, tungi soatlar, yaratuvchanlik, ingliz she'riyati, individuallik, tabiat tasviri mahorati.

CREATING SYMBOLS IN THE ARTISTIC REPRESENTATION OF THE HUMAN-NATURE THEME BY TED HUGHES

Abstract. The article explores the mastery of symbolism in Ted Hughes's poetry, particularly through his iconic poem "The Thought-Fox." Hughes uses the fox as a metaphor for inspiration, a symbol of poetic creativity that emerges in the quiet of midnight, when the poet struggles with a blank page. The poem depicts the fox's approach as inspiration coming alive, capturing the tension of creation through vivid imagery. The analysis examines Hughes's unique use of natural symbolism and contrasts this with the traditional representation of animals in English poetry. Hughes's poetic voice reveals his individualistic approach, particularly in how he distances himself from literary convention.

Keywords: symbolism, inspiration, metaphor, midnight, creation, English poetry, individualism, natural imagery.

СОЗДАНИЕ СИМВОЛОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ИЗОБРАЖЕНИИ ТЕДА ХЬЮЗА ТЕМЫ «ЧЕЛОВЕК-ПРИРОДА»

Аннотация. Статья исследует мастерство Теда Хьюза в создании символов на примере его знаменитого стихотворения «The Thought-Fox». Хьюз использует образ лисы как метафору для вдохновения, символизирующего творческое начало, которое оживает в полночь, когда поэт борется с пустой страницей. В стихотворении описано, как лиса постепенно приближается, воплощая вдохновение, которое оживает. Анализ стихотворения подчёркивает уникальный символизм природы в поэзии Хьюза и отличает его от традиционного изображения животных в английской поэзии. Голос Хьюза отражает его индивидуальность и отход от литературных норм.

Ключевые слова: символизм, вдохновение, метафора, полночь, творчество, английская поэзия, индивидуализм, природные образы.

Kirish. Ted Xyuz ijodida qator diqqatga molik asarlar bo'lib, "The Hawk in the Rain" she'riy to'plami shular jumlasidandir. 1957-yilda nashr qilingan mazkur asar ingliz she'riyatida o'ziga xos yangi ovoz bo'lib kirib keldi. Unga "The Thought-Fox" she'ri ham kiritilgan bo'lib, shoirning ilhom topish uchun kurashini tasvirlaydi, she'r tulki obrazi orqali bayon etiladi. An'anaviy she'riy usuldan voz kechib, shoir 'fikir-tulkisi' (thought-fox) kelishini, sekin-asta mavjudligi yanada yorqinroq hamda aniqroq tus oladigan tulki obrazini his qilishga undaydi. 'The Thought-Fox' she'ri e'tiborga molik asarlardan biri bo'lib, bevosita poetik ilhom manbayi hamda kitobxon uchun ilhom asosi bo'lib xizmat qila oladigan eng mashhur she'riy hikoyalardan biridir.

'The Thought-Fox' Ted Xyuzning (1930—98) eng mashhur she'rlaridan biridir. Bu she'r yozish yo'sini, to'g'rirog'i, she'r yozishga urinish va ilhomning kelishi haqidagi eng mashhur she'riy rivoyalardan

biridir. Mazkur maqolada sheʼrning oʻziga xos tili va mazmuniy salmoqdorligini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Asosiy qism. ‘The Thought-Fox’ sheʼrida tulki obrazi bosh qahramon sifatida keltirilib, asosiy roviy ham aynan shu obraz sanaladi. Tulki shoirning ilhom uchun kurashini tahlil qilib, talqin etadi. Sheʼrda qahramon oʻtirib sheʼr yozishga harakat qiladi, soatning tiqillagan ovozi va uning oldida turgan boʻsh sahifa uni bir qadar behuzur qilib, xuddi uning ustidan kulayotgandek taassurot qoldiradi. U ilhom olish uchun aylanib yuradi, lekin yulduzlarning odatiy poetik timsolini (“I see no star”) rad etadi, buning oʻrniga oʻzining “yolgʻizligi”ni tulkinining kelishi orqali tasvirlaydi.

I imagine this midnight moment's forest:

Something else is alive

Beside the clock's loneliness

And this blank page where my fingers move.

Yuqorida keltirilgan misralar kitobxonga bevosita kechqurundagi sokinlik, yolgʻiz holatda qolgan insonning ichki tugʻyonlarini tasvirlabgina qolmay, dildagi gʻashlik, kemptiklik singari hislarni ham uygʻotadi. “Midnight moment’s forest” jumlasida esa, tun sakinatidagi gʻululi damlarni esga solib, oʻz xayollari girdobida band kishining holatini yaqqol namoyon etadi. Tulkining burni, koʻzlari, panjalarining qorda iz qoldirishi (qorning oqligi shoir oldidagi oq varaqning boʻshligʻiga oʻxshab) tasvirlangan boʻlib, shoirning jonzot haqidagi tasavvuri shunday degan fikrni bildiradi. Koʻpincha ilhom asta-sekin, ammo jonli ravishda yetib kelganidek, jonzotning yoʻrgʻalashiga mengzaladi.

Cold, delicately as the dark snow

A fox's nose touches twig, leaf;

Two eyes serve a movement, that now

And again now, and now, and now.

Ted Xyuz holatni teran tasvirlash, kitobxonga emotsional taʼsir koʻrsatish uchun *cold, delicately* sifatlarini keltirib, *as the dark snow* oʻxshatishidan ham foydalanadi. Odatda qora qor boʻlmaganidek, muallif tun zulmatini qorga koʻchirish orqali, bir vaqtning oʻzida sovuqlik, qorongʻulik kabi salbiy taassurot uygʻotadigan soʻzlardan mahorat bilan foydalanadi. Sheʼr shoirning koʻz oʻngida butun tulkinning toʻliq shakllanishi bilan tugaydi – toʻgʻrirogʻi uning koʻzi emas, balki burni ham (“tulkining toʻsatdan oʻtkir hidlashi”). Shoir oʻz sheʼrini muvaffaqiyatli yozadi, goʻyo oʻz soʻzlarini oq varaq boʻylab chop etish shunchaki qor boʻylab hayvonning panja izlarini aks ettirishdir.

Till, with a sudden sharp hot stink of fox

It enters the dark hole of the head.

The window is starless still; the clock ticks,

The page is printed.

Deraza “yulduzsiz” boʻlib qolmoqda: bu oʻrinda Ted Xyuz mubolagʻadan foydalanib, zim-ziyo tunni yulduzsiz, boʻm-boʻsh derazaga, bu bilan cheksizlik, abadiyat singari metafizik qarashlarni ilgari suradi. Aynan shu jihati bilan “The Thought-Fox” sheʼri metafiziklik xususiyat kasb etib, Ted Xyuzni metafizik shoirlar qatoriga qoʻshilishiga olib keladi. Qizigʻi shundaki, sheʼr Ted Xyuzning yoshlik yillaridagi gʻor damlarini ham eslatib turadi, chunki bu ijod namunasi shoir umrining eng muhim voqealardan biri sifatida paydo boʻladi. U Kembrij universitetida ingliz tilini oʻrganayotganda, sheʼriyatni oʻrganish uning ijodiga salbiy taʼsir koʻrsatayotganini payqab qoladi: u deyarli yangi sheʼr yozmay qoʻyadi, Ted Xyuz oʻzini goʻyo sakkizoyoqli bir maxluqot boʻgʻib qoʻyayotganday his qiladi.

Through the window I see no star:

Something more near

Though deeper within darkness

Is entering the loneliness:

Shoir yolgʻiz damlarida derazadan boqar ekan, yulduzsiz osmon uni yanada umidsizlikga mahkum etadi, Ted Xyuz zim-ziyolik ichida uni yanada tushkunlikga, tanholik azobiga duchor etadigan hislar girdobida qoladi. Shoirlar koʻpincha adabiy anʼana bilan murakkab va shiddatli munosabatda boʻlishadi: T. S. Eliotning ingliz sheʼriyati anʼanalariga singib ketgandagina yangi shoir oʻzining oʻziga xos ovozi, “individual isteʼdodi”ni topa oladi, degan paradoksal firklari buning yaqqol dalili boʻla oladi. Ted Xyuzning sakkizoyoqqa mengzalagan qiyofasi (albatta, bu metafora), u Eliotdan koʻra adabiy anʼana mutlaqo boshqacha munosabatda boʻlganligini va oʻz asarini yaratishda erkin boʻlishi kerakligini koʻrsatadi.

Ted Xyuzni individualligi hatto u tanlagan metaforik obraz – tulkida ham yaqqol namoyon boʻladi. Aynan shu jonivor shoir badiiy tafakurining sarhadlarini teran aks ettiradi. Diplom olish uchun adabiy-tanqidiy insho ustida ishlar qilmochi boʻlganida, Ted Xyuz insho yoza olmagan uchun ertalab soat ikkida uyquga ketadi. Oʻsha kechasi u tushida katta tulki uning xonasiga kirib kelganini koʻradi, koʻzlari ogʻriq

bilan to'lgan jonivor siymosi uni ancha muddat tark etmaydi. Ted Xyuz o'z inshosini yozishga urinib ko'radi va yoza olmagan bo'sh sahifaga qo'lini qo'yib, "Buni to'xtating - bizni yo'q qilyapsiz", deya yozib qo'yadi. ('Stop this – you are destroying us.')

Bir umrlik tushda akslanadigan alomatlariga qiziqqan Ted Xyuz buni belgi sifatida qabul qiladi. Uchinchi kursda u ingliz tilidan antropologiya va arxeologiya sohasiga o'tgach, uning she'r yozishi yana avj oldi. Shoir hayotida yuz bergan mazkur voqea uning "The Thought-Fox" asarini yaratishiga sabab bo'lib, bo'lajak shoir unda o'z tug'yonlarini bayon etadi.

Ted Xyuz ijodi davomida ramziylik, ramzlarning kuchli emotsional-estetik ta'sirdorligi mavjud asarlar yaratdi. Uning she'riyatidagi eng hayratlanarli jihatlardan biri bu avvalgi shoirlarning jonivorlarga oid klassik she'rlaridan farqli uslubga ega nozik usul bo'lib, shoir qo'llagan bunday ramzlardan biri tulki obrazidir. Tulkining ko'zlari tavsifida biz Uilyam Bleyk ijodida tasvirlangan yonayotgan yo'lbars ko'zlari bilan o'xshashlikni ko'rishimiz mumkin.

She'r yozishga urinish holatiga bag'ishlangan she'rida Ted Xyuz o'zidan oldin o'z uslubida yangi she'r yozish kabi muammoga duch kelgan avvalgi shoirlarning yutuqlarini ham singdirgan holda asar yarata oldi. Oldingi shoirlarning (ayniqsa tabiat shoirlarining) mutolaasi Ted Xyuz uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. "The Thought-Fox" she'rining tili va unda qo'llangan iboralari bir vaqtning o'zida tanish va g'alati bo'lishining o'ziga xos xususiyati bilan qiziq: ular eskirgan iboralar bo'lib ko'rinadi, lekin ularda avvalgilardan ancha farq kuzatiladi.

*Across clearings, an eye,
A widening deepening greenness,
Brilliantly, concentratedly,
Coming about its own business*

Mazkur parchada 'coming about its own business' iborasi shaklan o'zgarishga uchrab, o'zgacha ko'rinish kasb etadi. Aslida bu idiom 'going about one's own business' bo'lib, 'hole of the head' iborasi 'whole of the head' (fikir-tulki borligi shoir ongini to'ldirish va band qilish yo'lini taklif qiladi) hamda 'hole in the head' (befoyda narsa, tulki kelguniga qadar shoirning ongi asosan g'oyalardan bo'sh edi) iboralari o'rtasida turadi.

"The Thought-Fox" she'rining qofiyasiz shakli bevosita uning turli qofiyalarini vujudga kelishiga olib keladi: (snow/now, eye/concentratedly), (fox/ticks), (now/now), snow so'zning now bilan qofiyalanishi va ma'lum muddat shu daqiqada turib qolishi (now so'zining so'nggi ikki satrda takror kelishi, bir satrda ikki martadan ortiq kelishi), yana qayta snow so'ziga aylanishi kuzatiladi. Garchi she'r erkin vaznda yozilgan bo'lsa ham, Ted Xyuz an'anaviy to'rtlikga rioya qilgan holda, har bir bandda to'rt satrga mazmunni jo qilishga harakat qiladi.

'The Thought-Fox' ehtimol zamonaviy she'riyatning she'riy ilhom haqidagi eng mashhur she'ridir. Bu Ted Xyuzning kitobxonlar orasida eng mashhur she'rlaridan biri bo'lib qolmoqda.

She'rning harakatlantiruvchi belgisi bo'lgan tulki she'riy ilhomning o'zgaruvchan, serqirraligini bildiradi. Tulki sovuq, nozik va ozoda; ammo, u ham cho'loq, o'tkir va dadil. U o'rmon zulmatidan asta-sekin, keyin birdan paydo bo'ladi; u o'z ishini o'ylaydi, lekin u kitobxonida kuchli ijodiy munosabatni ham qo'zg'atadi. Tulki ham hayvon, ham g'oya; u yovvoyi, lekin ayni paytda shoirning manipulyatsiyasiga bo'ysunib, qisman, ammo foydali tasvirga aylanadi.

"The Thought-Fox" she'rida eng asosiy ramzlardan biri –**tulki**dir. Asarda faqat tulki emas, balki uning ko'zi ham ilhomni anglatadi. 17-19-qatorlarda kitobxon diqqatini tulkining ko'ziga "to'satdan tulkining o'tkir hidi bilan" urishidan oldin qaratadi.

*Across clearings, an eye,
A widening deepening greenness,
Brilliantly, concentratedly,
Coming about its own business*

Ko'z ham ko'rish va ham istiqbolni anglatadi. Kitobxon o'rmondan chiqayotgan tulkining oddiy ko'rinadigan, to'g'ridan-to'g'ri tasvirini ko'p rangli, o'ziga xos sifatlar va aniq tasvirlar orqali chizadi. Pirovardida, she'r so'zlovchining tulkini ko'rishi, uning qiyofasini, ahamiyatini, ta'sirini qog'ozga qo'yishi orqali vujudga keladi.

Asardagi yana bir ramz - **yulduzlar** (ramz va motiv). Yulduzlar an'anaviy ravishda ilhom, umid va yo'l-yo'riqni anglatadi. Biroq, kitobxon birinchi misradagi derazadan tashqariga qarasa, u osmonda yulduzlarni ko'rmaydi. Xuddi shunday, ularning yo'qligi u his qiladigan ilhomning yetishmasligiga mos keladi va uni g'oyani boshqa joydan qidirishga majbur qiladi. Oxirida tulki timsoli uning ongida she'rning uyg'unlashishiga sabab bo'lar ekan, notiq "deraza hali ham yulduzsiz" deb ta'kidlaydi. Notiqning yulduzlar yo'qligiga qaramay she'r yozish qobiliyati shundan dalolat beradiki, notiq ilohiy, yuksak ilhomni kutishga

hojat yo‘q va umuman ilhom ilohiy yoki yuksak bo‘lishi shart emas: u to‘g‘ridan-to‘g‘ri oldida bo‘lishi mumkin.

She‘rdagi yana bir ramz bu – **o‘rmond**dir, u qorong‘u va qorli so‘zlovchining fikrini ifodalaydi.

I imagine this midnight moment's forest:

Something else is alive

Beside the clock's loneliness

And this blank page where my fingers move

“*Something else is alive*” iborasi ong tubidan paydo bo‘layotgan hislarni aks ettirib, o‘rmon ramzi she‘r so‘ngida tulki timsoli uyg‘otgan g‘oya so‘zlovchining boshidagi “qorong‘u tuynuk”ga kirib, uning derazasi ortidagi zich o‘rmonda aks-sado beradi.

Yana bir motiv bu – **zulmat**dir. “The Thought-Fox” she‘rida tulkini zulmat qamrab olgan. So‘zlovchi yarim tunda yolg‘iz qoladi, osmonda yulduzlar porlamaydi, so‘zlovchining fikri deraza ortidagi o‘rmondek qorong‘u va chuqur his qiladi. Hatto qor ham qorong‘i.

Through the window I see no star:

Something more near

Though deeper within darkness

Is entering the loneliness

Zulmat oxir-oqibat yozuvchi ongining unumdorligini ifodalaydi, lekin u aqlning dahshatli teranligini ham ifodalaydi. She‘r boshida so‘zlovchi o‘zining derazasi ortida yoki o‘zining yolg‘izligi yonida nima yashiringanini aniq ayta olmaydi; oxirida, yulduzlar hali ham yo‘q, lekin roviyning “sahifasi chop etilgan”, ya‘ni qorong‘ulik, agar yorqinroq bo‘lmasa, kamroq yolg‘iz, kamroq bo‘shliqqa o‘xshaydi.

Ted Xyuzning taqdirli orzusi shoir bilan tulki obrazi va xarakteri o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatdi, “The Thought-Fox” so‘zlovchisini Ted Xyuzga, o‘rmon yaqinida yashiringan jonivorni esa tulkinining to‘satdan zarbasi bilan tenglashtirish uzoqqa cho‘zilmaydi. Ted Xyuzning orzusi uni haqiqat deb bilgan tuyg‘usini tan olishga va unga amal qilishga majbur qildi: folklor, mifologiya va tasavvuf olami uchun adabiyotshunoslikning akademik sohasini tark etish uning she‘riyatiga eng yaxshi foyda keltirdi.

Ted Xyuzning “The Thought-Fox” she‘ri tahlilida makon tasviriga diqqat qaratish, uni obdon tahlilga tortish ham ahamiyat kasb etadi. “The Thought-Fox” she‘rida voqea jim va sokin kechada boshlanadi.

I imagine this midnight moment's forest:

Something else is alive

Beside the clock's loneliness

And this blank page where my fingers move.

Tasvir shoirning ahvoli, uni o‘rab turgan muhit, ijodkor hissiyotlari va keying bo‘ladigan voqealarga ishora bilan boshlanadi. Stolda yolg‘iz o‘tirgan shoir nimadir yozmoqchi, ammo omadi chopmaydi. U ikkinchi borliqini ham his qiladi – “yaqinroq narsa / garchi zulmatda chuqurroq bo‘lsa ham / yolg‘izlikka kirmoqda”. Bu misralarda bayon qilingan tunning o‘zi inson xayoloti naqadar chuqur ekanligining ramzi bo‘lib, uxlab yotgan shoir va odatda g‘ayrioddiy soatlarda tashrif buyuradigan ilhomlantiruvchi g‘oyani anglatadi. Shoir kechalari yolg‘iz bo‘lib, she‘r ustida mehnat qiladi, g‘oya jo‘shqinligini his qiladi.

She‘rda ilhom, g‘oyaning kelishi tulkinining mavjudligi bilan ramziy ma‘noda ifodalanadi va birinchi navbatda, shoir uchun ilhom, g‘oyaning naqadar ahamiyatli ekanini anglatadi. Ted Xyuz yozganidek, “tulkining burni novdaga, bargga tegadi”, tulki burnining batafsil tasviri orqali ilhomning turli daqiqada har xil namoyon bo‘lishi, aniq va qat‘iy daqiqada kelmasligini ko‘rsatadi. Tulki zulmatga o‘ralgan; faqat uning nimaga mahkum ekanini hushyor shoir anglay oladi, xuddi shunday, ilhomning shoir hayotida kelishi uning kundalik tashvishlaridan xoli bo‘lishiga ishora sifatida tasvirlanadi.

She‘rda tasvirlangan tulki butun she‘r davomida yarim yashirin va tutqich boermas bo‘lib qoladi; xuddi shunday g‘oya va ilhom ham shoir uchun yarim yashirin, bu esa unga faqat tasvirdagi epizodlar bilan harakat qilish imkonini beradi.

Ted Xyuz o‘z tasvirlarini aks ettirishida ma‘lum bir nafis yondashuv borligi kuzatiladi: ‘*dark snow*’ (zim-ziyo qor, epitet), the ‘*eye / a widening deepening greenness*’ (ko‘z orqali tulkinining kelishi tasvirlanadi, metonimiya)’ haqida gapirganda, shoirning tilidagi o‘ziga xos uslub yaqqol namoyon bo‘ladi.

Across clearings, an eye,

A widening deepening greenness,

Brilliantly, concentratedly,

Coming about its own business.

Ted Xyuz she‘rinin tahlilida uning kinematik (kino tasvirlaridek aniq va ravshan fokusga ega muallif) tasvirga ega shoir ekanining guvohi bo‘lish mumkin - sokin tunni, shoirning ish stolida o‘tirganini, alohida kadrda bargga tegayotgan tulkini osongina tasavvur qilish mumkin – va u bundan yashirincha kirib

kelayotgan o'ynoqi ilhom parisi aksini yanada teranlashtirish uchun foydalanadi. Ilhom parisi birda kelib, birda uzoqlashishi aks etgan bu tasvir shoirning holatini yaqqol namoyon etadi, zukko kitobxon muallifning mushkul ahvolini angelaydi, o'zida shu hislarni bevosita his etadi. Bora-bora shaklsizlikdan, "tulkining to'satdan o'tkir, qaynoq hidi" paydo bo'lib, shoir o'z mulohazalarining cho'qqisiga chiqqanini va tun bo'yi o'zi maqsad qilgan she'r yozishga muvaffaq bo'lganini ko'rsatadi. Tulki obrazi, uning to'satdan namoyon bo'lishi, g'oya birdan shoirning xayoliga kelgani, sahifada aynan shu fikrlar she'r shaklida muhrlanganini ayonlantiradi. Endilikda kitobxon she'r ham xuddi tulki obrazidek bir borliq sifatida mavjud ekanini tushunib yetadi.

Yana bir e'tiborga molik jihat – she'rning o'ziga xos arxitektonikasidir. Ted Xyuz kitobxon antisipatiyasini kuchaytiradigan tezlikda yozadi. Boshida faqat tulkinning burni aks ettilsa, keyin ikki ko'z ko'rinadi. Tinish belgilari tulki/g'oyaning ikkilanuvchanligini ko'rsatadi, Ted Xyuzning qorda iz qoldirgan tulki haqida yozgan nozik va maftunkor usuli *'sets neat prints in the snow'* jumlasida yaqqol bo'y ko'rsatadi. Shoir tabiatan makkor, ayyor, shafqatsiz tulkidagi beayyov jihatlariga emas, aksincha undagi noziklik qirralariga ustuvorlik berish orqali maqsadiga erishadi.

"The Thought-Fox" she'rida ohang xuddi soat mexanizmiga o'xshab harakat qiladi, bir soatlik sudralishdan so'ng, bu tezlikda shiddat o'sib boradi, tulkining tasviri aniqroq ko'rinadi, tulki shoshib chiqadigan so'nggi hayratlanarli oxirigi daqiqa ham ramziylik kasb etadi. Bu jo'shqinlik yana avvalgi holatiga qaytib, sokinlik va sakinat borliqni egallaydi. Ted Xyuz buni:

The window is starless still; the clock ticks,

The page is printed shaklida aks ettiradi.

Ted Xyuz "The Thought-Fox" she'ri haqida ham o'z fikrlarini ma'lum manbalarda bayon etadi. Shoir o'zining mazkur she'ri haqida bunday deydi: *"Men bir kun kelib ketaman, ammo she'r mavjud ekan, uni har kim o'qisa, tulki zulmatdan paydo bo'lib, ularga qarab albatta keladi"* Bu bilan har qanday yolg'izlikga mahkum shoir, yoki inson bu she'rni o'qiganida, ilhom parisi yoki kreativ g'oyalar ularni ham chulg'ashi mumkinligini muallif bashorat qiladi. She'rining badiiy quvvatiga shubha qilmagan ijodkor o'z san'at asarini naqadar impulsiv kuchlar ta'siri ostida yozganini, undagi ramzlar hamda ramziylikni anglagan zukko kitobxon ulardan olam ma'no olishini aks ettiradi.

"The Thought-Fox" she'rida ijod, ijod qilish kabi murakkab bir jarayon tasvirlanib, o'quvchiga ijod qilish harakati, she'r yozish uchun vaqt va makondan tashqari yana qaydandir kuchlar mavjud ekanini ham yoritadi. She'rdagi dastlabki ikkita band muhitni yaqqol aks ettirib, yolg'izlik va zulmatda hayot jarayoni, energiya mavjudligi, makondagi jarayon sekin vaqtga instinktiv ravishda harakat qilishi ifodalanadi. Ayni shu daqiqada na uning shaklini, na tuzilishini, na mazmunini anglaymiz. Shoir uni sekin voqelikka ko'chiradi.

Alliterativ tabiatni namoyon etadigan "The Thought-Fox" she'ri Jerar Menli Xopkinsning "Vindhover" asarini eslatadi, zulmat chulg'aganda yodga tushadigan yolg'izlik hislarini uyg'otadi.

"The Thought-Fox" she'rida tasvir o'ta maftunkor, ammo bir paytning o'zida ko'p ma'noli deyish mumkin. Zim-ziyo qor – bo'sh sahifa; she'riy quvvatning susayishi kabi qator mazmun va mohiyat kasb etadi. Lekin sukunat ham, yolg'izlik ham so'z shakllanishi, tulkining olg'a borishi uchun zarur.

Ted Xyuz tulkidan she'riy turtki sifatida foydalanishni tanlaydi, chunki bu uning qalbiga yaqin mavjudot, ramziy obraz sanaladi. She'rning so'nggi qismida tulkining turli fiziologik harakatlarini ham batafsil tasvirlaydi. Hatto tulkining ohista qadamlar bilan yaqilashishi, qorda qoldirilgan izlar, tulki uyg'otgan hissiyotlar teran qalamga olinadi.

"The Thought-Fox" she'rida borgan sari obrazlar murakkablashib boradi, tulkining soyasi, shoir ijodiy ilhomining kuchayishi, jonzo'tning qor ustida tentirab izlar qoldirishi, uning sezgirliigi, doim maqsadga erishish uchun jiddiyligi taranglashib, tasvirda ham fokus aniqlashadi.

Ted Xyuz tabiat, hayvonot hamda nabotot tasviridan keng foydalan yozuvchi sifatida mashhur shoirlardan biriga aylandi. Shoir ijodidagi har bir asar jonzo'tlarning tasvirlari bilan to'ldirilgan bo'lib, unda tulki ijodkorning aynan asar yaratishda to'lg'onishi, cheksiz evrilishga mahkumligi, qalb tug'yonlarining junbushga kelishi bilan bog'liq jarayonni ifodalashda ramziy obraz tariqasida qo'llanadi. Tulki harakat qilishi uchun ham, junbushga kelgan hissiyotlarni qog'ozga tushirish uchun ham ularga sukunat va yolg'izlik kerak.

Tulkining odimlashi, odimlaridagi tezlik bevosita yozish jarayoni shoirning fikr tezligi talqini bo'lib, bot-bot va takror harakatlar shoirning har bir jumla ustida ehtiyotkor harakatlarini, diqqat bilan so'z tanlash yo'sinini yaqqol tasvirlaydi. Bu jarayon ijodkor fikrlari qog'ozga tushirilishining yanada teran va aniq shakllanishini chiroyli tarzda ifodalaydi. Asarda tasvirlanganidek, tulkining soyasi tobora ravshanlashib, qorli o'rmonlar bo'ylab harakatlanib, oyoq izini chiroyli va badiiy ravishda xira fikrning endi aniq va oq

LITERARY CRITICISM

qogʻozda aks etilayotganini namoyon etadi. Oyoq izi bilan oq qor shoirning sheʼriy ijodi bilan bosilgan boʻsh qogʻozni anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, Ted Xyuzning “The Thought-Fox” sheʼri misolida aytish mumkinki, shoir inson-tabiat tasvirida teran badiiy ifoda sohibidir. Ramziylik ijodkor ijodida kuchli hamda ramzlar muallif ichki tugʻyonlarini emotsional va boʻyoqdor talqinida ahamiyatli vositalardan biridir.

REFERENCES:

1. Курбанова Н.Р. Нореал дунё тасвирланган асарларда муаллиф образи. Илм сарчаималари Урганч, 2020 Б.72-75.
2. N.Kurbanova *Efficient ways in teaching writing in ESL classes Internauka Nauchniy jurnal Moskva,2017,C 21-23.*
3. N.R Kurbonova *About an issue in the description of the unreal world Theoretical and applied science,2020,P.557-560.*
4. <https://md-eksperiment.org/ru/post/20180313-svoeobrazie-vozzrenij-na-prirodu-teda-hyuza>
5. <https://verlibr.blogspot.com/2015/01/20.html>
6. <https://www.poeticous.com/ted-hughes/the-jaguar> <https://allpoetry.com/poem/8495363-Wind-by-Ted-Hughes> <https://allpoetry.com/hawk-roosting>

JOE PENHALLNING «HAUNTED CHILD» DRAMASIDAGI SIMVOLIZMLAR TAHLILI

Axmedova Mexrinigor Baxadirova,

Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasida dotsenti, f.f.d. (DSc)

Nizomova Azizabonu Umedovna,

Buxoro davlat universiteti 1-bosqich magistranti

azizanizomova@gmail.com

Annotatsiya. Joa Penhallning "Haunted Child" dramasi bolalikning ramziy ma'nosi o'ta chuqur va keng qamrovli bo'lib, insonning ruhiy holati, orzu-umidlari va hayotiy kurashlarini aks ettirishda muhim rol o'ynaydi. Asarda bolalik ramzi orqali yozuvchi nafaqat yoshligimizning beg'ubor va beparvo damlarini esga soladi, balki bu davrning qo'rquv va xavotirlarini ham yoritadi. Bolalik, "Haunted Child" dramasi insonning eng dastlabki ruhiy tajribalarini, uning hayotiy asoslarini va kelajakdagi intilishlarini ifodalovchi ramz sifatida namoyon bo'ladi.

Bolalikning ramziy ma'nosi beparvolik va beg'uborlik bilan bog'liqdir. Ushbu ramz orqali yozuvchi inson hayotining eng beg'ubor va xavfsiz davrini eslatadi. Bolalikda inson hali dunyoning murakkabliklarini to'liq anglamaydi va hayotning oddiy quvonchlaridan zavqlanadi. Yozuvchi asarda bolalikning ushbu jihatlarini ko'rsatib, qahramonlarning yoshligidagi quvonch va osoyishtalik davrlarini eslatadi.

Kalit so'zlar: qushlar, ramziy ma'no, ozodlik, umid, ruhiy parvoz, yo'l va yo'llar, hayotiy yo'nalishlar, ichki dunyo, intilishlar, tahlil.

ANALYSIS OF SYMBOLISM IN THE DRAMA HAUNTED CHILD BY JOE PENHALL

Abstract. In Joe Penhall's play "Haunted Child," the symbolic meaning of childhood is profound and multifaceted, playing a crucial role in reflecting a person's psychological state, hopes, and life struggles. Through the symbol of childhood, the author not only evokes the innocent and carefree moments of youth but also illuminates the fears and anxieties of this period. Childhood emerges as a symbol of a person's earliest psychological experiences, their life foundations, and aspirations for the future. The symbolic meaning of childhood is primarily associated with carefreeness and innocence. Through this symbol, the author reminds us of the safest and most serene phase of human life when one does not fully comprehend the complexities and hardships of the world and enjoys simple joys. Simultaneously, the symbol of childhood encompasses the longing to return to this time and feelings of nostalgia. In "Haunted Child," the author illustrates the characters' desire to revisit joyful and carefree moments from their youth, reflecting their inner conflicts and life struggles.

Keywords: birds, symbolic meaning, freedom, hope, spiritual flight, paths and roads, life directions, inner world, aspirations, analysis.

АНАЛИЗ СИМВОЛИЗМА В ДРАМЕ ДЖО ПЕНХОЛЛА «HAUNTED CHILD»

Аннотация. В драме Джо Пенхалла «Haunted Child» символическое значение детства имеет глубокий и многогранный смысл, играя важную роль в отражении психоэмоционального состояния человека, его надежд и жизненной борьбы. Автор через символ детства не только напоминает о беззаботных и невинных моментах юности, но и освещает страхи и тревоги этого периода. Детство выступает как символ первых психических переживаний человека, его жизненных основ и стремлений к будущему. Символ детства, в первую очередь, связан с беззаботностью и невинностью. Через этот символ автор напоминает о самом безопасном и безмятежном периоде жизни человека, когда он ещё не осознаёт сложности и трудности мира, наслаждаясь простыми радостями. В то же время, символ детства включает в себя мечты о возвращении в это время и чувства ностальгии. В «Haunted Child» автор показывает стремление персонажей вернуться к радостным и беззаботным моментам своего детства, что отражает их внутренние конфликты и жизненную борьбу.

Ключевые слова: птицы, символическое значение, свобода, надежда, духовный полёт, путь и дороги, жизненные направления, внутренний мир, стремления, анализ.

Kirish. Joe Penhallning "Haunted Child" dramasi zamonaviy teatrdagi o'ziga xos o'rin egallagan asarlardan biri bo'lib, uning mazmuni va ma'no qatlamlari chuqur tahlilni talab qiladi. Ushbu dramada ramziy unsurlar o'ziga xos tarzda qo'llanilib, qahramonlarning ichki dunyosini, ularning hayotiy kurashlarini va jamiyatdagi mavqelarini ochib beradi. Penhallning asari nafaqat soddalik va beg'uborlik, balki insonning ruhiy murakkabligi, uning ichki dunyosidagi ziddiyatlar va intilishlar haqida ham hikoya qiladi. Bu ramzlar orqali yozuvchi inson tabiatining turli jihatlarini, uning ruhiy holatini va ijtimoiy munosabatlarini ko'rsatadi.

"Haunted Child" dramasi bolalik, oila va uy, tabiat unsurlari, yorug'lik va qorong'ilik kabi turli ramziy obrazlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ramzlar har biri alohida ma'noga ega bo'lib, asarning mazmunini boyitadi va qahramonlarning ichki kechinmalarini yanada chuqurroq aks ettiradi. Bolalik ramzi, masalan, nafaqat beparvolik va beg'uborlik, balki insonning bolalikka qaytish orzusi va nostalgiya hissini ifodalaydi. Oila va uy esa insonning ruhiy va emotsional boshpana sifatida tasvirlanib, oilaning inson hayotidagi ahamiyatini, uning ta'sir kuchini va ba'zan inson ruhiyatiga yetkazadigan jarohatlarini ko'rsatadi.

Asosiy qism. Tabiat unsurlari ham asarda muhim o'rin tutadi. Daraxtlar, suv va yer unsurlari orqali inson hayotining turli jihatlari, uning ruhiy holati va hissiyotlari ifodalanadi. Daraxtlar o'sish, rivojlanish va ildiz otishni ifodalasa, suv esa poklik, yangilanish va hayotiylik ramzi sifatida tasvirlanadi. Yer unsuri esa insonning mustahkamligi, barqarorligi va hayotiy kuchi bilan bog'liq ramz sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu ramzlar orqali yozuvchi qahramonlarning hayotiy yo'llarini, ularning ruhiy o'sishini va rivojlanishini ko'rsatadi.

Yorug'lik va qorong'ilik ramzlari asarda yaxshilik va yomonlik, umid va qo'rquv, nur va zulmat kabi qarama-qarshi tushunchalarni aks ettiradi. Yorug'lik umid, ishonch va hayotiylikni ifodalasa, qorong'ilik qo'rquv, umidsizlik va noma'lumlikni tasvirlaydi. Ushbu ramzlar orqali yozuvchi qahramonlarning ichki kurashlari va intilishlarini ko'rsatadi, ularning hayotiy yo'llarini va ruhiy holatlarini yanada chuqurroq ochib beradi.

Joe Penhallning "Haunted Child" dramasi bolalikning ramziy ma'nosi o'ta chuqur va keng qamrovli bo'lib, insonning ruhiy holati, orzu-umidlari va hayotiy kurashlarini aks ettirishda muhim rol o'ynaydi. Asarda bolalik ramzi orqali yozuvchi nafaqat yoshligimizning beg'ubor va beparvo damlarini esga soladi, balki bu davrning qo'rquv va xavotirlarini ham yoritadi. Bolalik, "Haunted Child" dramasi insonning eng dastlabki ruhiy tajribalarini, uning hayotiy asoslarini va kelajakdagi intilishlarini ifodalovchi ramz sifatida namoyon bo'ladi.

Bolalikning ramziy ma'nosi, birinchi navbatda, beparvolik va beg'uborlik bilan bog'liqdir. Ushbu ramz orqali yozuvchi inson hayotining eng beg'ubor va xavfsiz davrini eslatadi. Bolalikda, inson hali dunyoning murakkabliklarini va qiyinchiliklarini to'liq anglamaydi, u o'z dunyosida yashaydi va hayotning oddiy quvonchlaridan zavqlanadi. Bu davrda insonning ruhiy holati toza va yengil bo'ladi, bu esa bolalikning ramziy ma'nosini yanada kuchaytiradi. Yozuvchi asarda bolalikning ushbu beg'ubor va beparvo jihatlarini ko'rsatib, qahramonlarning yoshligidagi quvonch va osoyishtalik davrlarini eslatadi.

Shu bilan birga, bolalikning ramziy ma'nosi insonning bolalikka qaytish orzusi va nostalgiya hissini ham o'z ichiga oladi. "Haunted Child" dramasi bolalik ramzi orqali yozuvchi insonning o'tmishga, yoshligidagi quvonchli va beparvo damlarga qaytish istagini ko'rsatadi. Bu orzu va nostalgiya hislari asardagi qahramonlarning ruhiy holatini, ularning ichki dunyosidagi ziddiyatlarni va hayotiy kurashlarini ifodalaydi. Bolalik ramzi orqali yozuvchi qahramonlarning hayotiy yo'llarini, ularning o'tmishdagi tajribalarini va kelajakdagi intilishlarini ko'rsatadi.

Bolalikning ramziy ma'nosi, shuningdek, insonning dastlabki qo'rquvlari va xavotirlarini ham aks ettiradi. "Haunted Child" dramasi bolalik nafaqat quvonch va beparvolik davri sifatida, balki insonning dastlabki qo'rquvlari va xavotirlari bilan ham bog'liq davr sifatida tasvirlanadi. Ushbu qo'rquv va xavotirlar bolalik davrida boshlanib, butun umr davom etishi mumkin. Yozuvchi asarda bolalikning ushbu jihatlarini ko'rsatib, qahramonlarning ruhiy holatini va ularning ichki dunyosidagi ziddiyatlarni yoritadi.

Bolalik ramzi orqali yozuvchi insonning hayotiy yo'llarini, uning dastlabki tajribalarini va kelajakdagi intilishlarini aks ettiradi. Bolalik, bu yerda, insonning tozaligi va beg'uborligini ifodalovchi ramz sifatida namoyon bo'ladi, lekin ayni paytda, bu davrning qo'rquv va xavotirlari ham esga olinadi. Ushbu ramz orqali yozuvchi qahramonlarning ichki dunyosini, ularning hayotiy kurashlarini va intilishlarini ko'rsatadi.

Bolalikning ramziy ma'nosi, shuningdek, oila va jamiyat bilan bog'liq. "Haunted Child" dramasi bolalik nafaqat individual tajriba sifatida, balki ijtimoiy munosabatlar va oilaviy muhit bilan ham bog'liq holda tasvirlanadi. Bolalik davrida insonning hayotiy tajribalari, uning ruhiy holati va ijtimoiy munosabatlari shakllanadi. Yozuvchi asarda bolalikning ushbu jihatlarini ko'rsatib, qahramonlarning hayotiy yo'llarini, ularning oilaviy va ijtimoiy munosabatlarini yoritadi.

Bolalik ramzi orqali yozuvchi insonning hayotiy yo'llarini, uning dastlabki tajribalarini va kelajakdagi intilishlarini aks ettiradi. Bolalik, bu yerda, insonning tozaligi va beg'uborligini ifodalovchi ramz sifatida

namoyon bo'ladi, lekin ayni paytda, bu davrning qo'rquv va xavotirlari ham esga olinadi. Ushbu ramz orqali yozuvchi qahramonlarning ichki dunyosini, ularning hayotiy kurashlarini va intilishlarini ko'rsatadi.

Bolalikning ramziy ma'nosi, shuningdek, insonning ruhiy yangilanishi va qayta tug'ilishi bilan ham bog'liq. "Haunted Child" dramasi bolalik nafaqat o'tmishdagi quvonchli va beg'ubor damlarni, balki insonning ruhiy yangilanishi va qayta tug'ilishi jarayonini ham ifodalaydi. Yozuvchi asarda bolalikning ushbu jihatlarini ko'rsatib, qahramonlarning ichki dunyosini, ularning hayotiy yo'llarini va intilishlarini yoritadi. Bolalik ramzi orqali yozuvchi qahramonlarning hayotiy tajribalarini, ularning ruhiy holatini va kelajakdagi intilishlarini aks ettiradi.

Bolalikning ramziy ma'nosi insonning dastlabki tajribalarini, uning hayotiy yo'llarini va kelajakdagi intilishlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. "Haunted Child" dramasi bu ramz o'ziga xos tarzda ishlatilgan bo'lib, u asarning asosiy qahramonlarining ichki dunyosini, ularning ruhiy holatini va jamiyatdagi mavqeiini ochib beradi. Bolalik, bu yerda, insonning tozaligi, beparvoligi va beg'uborligini ifodalovchi ramz sifatida namoyon bo'ladi, lekin bu davrning qo'rquv va xavotirlari ham esga olinadi. Asarda bolalikning ramziy ma'nosi nafaqat individual, balki ijtimoiy munosabatlar va oilaviy muhit bilan ham bog'liqdir. Bolalik davrida insonning ruhiy holati, uning hayotiy tajribalari va ijtimoiy munosabatlari shakllanadi. Yozuvchi asarda bolalikning ushbu jihatlarini ko'rsatib, qahramonlarning hayotiy yo'llarini, ularning oilaviy va ijtimoiy munosabatlarini yoritadi. Bu ramz orqali yozuvchi qahramonlarning ichki dunyosini, ularning hayotiy kurashlarini va intilishlarini ko'rsatadi.

Bolalikning ramziy ma'nosi insonning dastlabki qo'rquvlari va xavotirlari bilan ham bog'liq. "Haunted Child" dramasi bolalik nafaqat quvonch va beg'uborlik davri sifatida, balki insonning dastlabki qo'rquvlari va xavotirlari bilan ham bog'liq davr sifatida tasvirlanadi. Ushbu qo'rquv va xavotirlar bolalik davrida boshlanib, butun umr davom etishi mumkin. Yozuvchi asarda bolalikning ushbu jihatlarini ko'rsatib, qahramonlarning ruhiy holatini va ularning ichki dunyosidagi ziddiyatlarni yoritadi. Bolalik ramzi orqali yozuvchi insonning hayotiy yo'llarini, uning dastlabki tajribalarini va kelajakdagi intilishlarini aks ettiradi. Bolalik, bu yerda, insonning tozaligi va beg'uborligini ifodalovchi ramz sifatida namoyon bo'ladi, lekin ayni paytda, bu davrning qo'rquv va xavotirlari ham esga olinadi. Ushbu ramz orqali yozuvchi qahramonlarning ichki dunyosini, ularning hayotiy kurashlarini va intilishlarini ko'rsatadi.

Asarda bolalikning ramziy ma'nosi insonning ruhiy yangilanishi va qayta tug'ilishi bilan ham bog'liqdir. "Haunted Child" dramasi bolalik nafaqat o'tmishdagi quvonchli va beg'ubor damlarni, balki insonning ruhiy yangilanishi va qayta tug'ilishi jarayonini ham ifodalaydi. Yozuvchi asarda bolalikning ushbu jihatlarini ko'rsatib, qahramonlarning ichki dunyosini, ularning hayotiy yo'llarini va intilishlarini yoritadi. Bolalik ramzi orqali yozuvchi qahramonlarning hayotiy tajribalarini, ularning ruhiy holatini va kelajakdagi intilishlarini aks ettiradi.

Kirish. 1917- yil oktyabr to'ntarishidan so'ng yurtimiz madaniy hayotida savodsizlikni tugatish, yangi alifboga o'tish, xotin-qizlar ozodligi, yangi davr kishisini tarbiyalash masalalari dolzarb mavzuga aylanib qoldi. Shu bois, ana shunday qarashlarni o'zida mujassam etgan qator jurnallar paydo bo'la boshladi. 1920-yilga qadar “Inqilob”, “Yer Yuzi”, “Alanga”, “Maorif va o'qituvchi”, “Bilim o'chog'i” kabi adabiy-badiiy jurnallar chop etila boshlangan bo'lsa, 1920- yillar oxiriga kelib “Qishloq xo'jaligi turmushi”(1927, yanvar), “Yangi qishloq”(1929, yanvar), “Yosh kuch”(1929, yanvar), “Muxbirlar yo'ldoshi”(1929, iyul) kabi jurnallar chop etildi. 1924-yil 1-yanvardan chop etila boshlangan “Yangi yo'l” gazetasi 1925-yil dekabridan jurnalga aylantiriladi. Avvaliga ikki haftada bir martadan, keyinchalik haftada bir marta nashr etila boshlandi. “Yangi yo'l” jurnali nomiga mos tarzda o'sha davr ayollarini yangi yo'l ya'ni taraqqiyot, ilm-fan va ma'rifat yo'liga qadam qo'yishiga undovchi jarchi bo'lib xizmat qildi. Endi ayollar nafaqat oilada yuksak odob-ahloq sohibasi bo'lishi balki jamiyatda ham nufuzli o'rinlarda faoliyat olib borishlari davr talabi bo'lib qoldi. Ayol madrasadir. Bilimdon, yetuk avlodni tarbiyalash uchun avvalo uning o'zi ilmi bo'lishi lozim. Zahiriddin Faxriddinzoda “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914- yil 51-sonida chop etilgan maqolasida shunday yozadi: “Agar bizlar xotun-qizlarimizni bu holda ilm va tarbiyadin mahrum qilayversak, o'zimizga zo'r zararlar kelturamiz... o'sadurg'on ajdodlarimizning johil va nodon qolishiga o'zimiz sabab bo'lurmiz...”[5]

Xotin-qizlar erkinligi, har jabhada ularning faollashib borayotgani ushbu nashrning asosiysi mavzusi hisoblangan. Jurnalda o'sha davrga oid adabiy-madaniy hayot ham yoritib borilgan. Jurnal Xosiyat Tillaxon qizi, Mahbuba Rahim qizi, Zufar Nosiriy, Ramz, Toshqin, Tojixon Shodiyeva, Alimov, Hojar G'ulom qizi, Olmosxon, S.Burnasheva, Saodat Shamsiddin, Oydin, Zarifa kabi iste'dodli qalamkashlar va shoira ayollarni kashf qildi. Jurnalda Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Mirtemir, G'ayratiy, Elbek kabi mashhur ijodkorlarning asarlari ham chop etilganini ko'rish mumkin. Taniqli yozuvchi Oybek "Yangi yo'l"da chop etilgan she'rlarni to'plab, 1926-yilda "Erk kuylari" nomli bayoz tuzdi. Bayozdan Xosiyat Tillaxon qizi, Zarifa, Oydin (Mashhura Sobirova), Hojar G'ulom qizi, Erkchi (Mahbuba Rahim qizi), Saodat Shamsiddin, Halima Shoumar qizi, Sh.Burnasheva, Erk Chirchiqboyeva va Xosiyat Musinaning she'rlari o'rin olgan. "O'zbek yosh shoiralarning she'rlaridan bir to'plam" nomli o'ttiz sahifalik bayozga S.Lyubimova so'zboshi yozgan. Oybekning fikrlari "Bir-ikki so'z" sarlavhasi ostida keltirilgan. Ayollarning orzu umidlarini o'zida aks ettirgan bu jurnal yillar davomida uzoq shakllanish yo'lini bosib o'tdi. Dastlab, "Yangi yo'l" nomi bilan 1925—1934 yillarda chop etilgan bo'lsa, 1936—1950 yillarda "Yorqin turmush", 1950—1965 yillar davomida esa "O'zbekiston xotin-qizlari" nomi bilan chop etilgan. Ayrim sabablar va urush tufayli jurnal 1934-yil apreldan 1936-yil iyulgacha, 1941-yil iyuldan 1950-yil oktabrgacha nashr etilmagan. Nihoyat, 1966-yildan hozirgi nomda ya'ni, "Saodat" nomi bilan chop etilmoqda. Jurnalga turli yillarda O'zbekistonning taniqli adibalari va jamoat arboblari bo'lgan faol ayollar muharrirlik qilgan. Biroq, jurnalning ilk sonlari chiqa boshlagan vaqtda taniqli shoir Elbek ushbu gazetani chiqarish, materiallarini tuzatish va tartibga solish bilan shug'ullanadi. Ziyo Said, shuningdek, "Xotinlar ichida yaxshi yozuvchilar bo'lmaganidan, bunga ko'pincha er muharrirlar qatnashdilar", deb yozadi. Bu fikr, albatta, bahstlab.[3] Negaki, bu holat uzoq davom etmaydi. Dastlab Lola Sayfullina, Sobira xonim kabi ayollar bir oz muddat muharrir bo'lib ishlashadi. Undan so'ng Tojixon Shodiyeva (1927—29), Sobira Xoldorova (1930—31), Xosiyat Tillaxonova (1931—34), Saodat Shamsiyeva (1936—37), Fotima Niyozova (1937—38), Iqbol Akbarxo'jayeva (1939—41), Oydin (M. Sobirova, 1951—53), Zulfiya (1953—85), Halima Xudoyberdiyeva (1985—94), Oydin Hojiyeva (1994-2014), Feruza Jalilova (2014-18) va 2018 -yildan hozigi kunga qadar shoira Munavvara Usmonova kabi taniqli adiba va shoiralari, qalami o'tkir jurnalistlar muharrirlik qilishadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek matbuotining paydo bo'lishi va shakllanishiga oid qimmatli ma'lumotlarni Ziyo Saidning "O'zbek vaqti matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927)" risolasida ko'rishimiz mumkin. Unda o'sha davrga oid yuzlab gazeta va jurnallarning tahlilini uchratamiz. "Yangi yo'l" gazetasi endigina chop etila boshlagan vaqtda Ziyo Said gazetaga shunday ta'rif beradi: "Turkiston Ishtirokiy firqa markazqo'mi qoshidagi xotinlar bo'limining fikr tarqatg'uchisi"[3]. Fikrini davom ettirib deydi: "Oyida ikki topqir chiqa boshladi. Maqsadi xotin-qizlarni yangi bilim qurollari bilan qurollantirib, madaniyat olamiga chiqarish, ularni paranjidan qutqazib, amaliy ravishda erlar bilan teng huquqli qilish, har turli hunarxona va artellarda yig'ilib ishlash yo'llarini ko'rsatib... ularni tarbiyalashdan iborat". [3]

Tadqiqot metodologiyasi. "Yangi hayot" jurnalining 1936-41 yillar davrini o'rganish va tahlil qilish jarayonida aynan shu manbaaning o'ziga murojaat qilgan ma'qul. Sababi bu hali tadqiq qilinmagan, kam o'rganilgan jurnallardan biri hisoblanadi. Undagi maqolalar, xabarlar va turli qiziqarli sahifalar orqali tadqiqotchilar o'sha davrga oid ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari maqolalar tili ravon va uslubining soddaligi ham uni oson tushinishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Gazeta dastlab xotin-qizlarga tekin tarqatilgan. Adadi avvaliga 500, keyinchalik 2000 nusxada bo'lgan bo'lsa, 1929-yilga kelib 7500 nusxaga yetadi. Mazkur nashrning adadi yildan-yilga ko'payib borgani odamlar orasida unga qiziqish ortganidan asosiysi, xotin-qizlar uchun manfaatli bo'lganidan dalolat beradi. Maqolalar tili va uslubi sodda, ravon ya'ni oddiy xalq uchun tushinarli bo'lgani ham o'quvchilar mehrini qozona oldi.

1936- yildan jurnalga "Yorqin turmush" nomi berildi. (1941-yil iyul oyidan 1950-yilgacha ma'lum sabablarga ko'ra nashr to'xtab qolgan.) Bu nomning berilishi tom ma'noda xotin-qizlarning turmushidagi erksizlik, jaholat botqog'idan, ilm-ma'rifatli yorqin hayotga chiqarishga ko'makdosh bo'lish edi. 1936-41 yillar davomida jurnal sahifalarida o'sha davr ayollarining san'atda, madaniy hayotda erishayotgan yutuqlari ham yoritib borilgan. 1937 -yilda Moskvada san'at dekadasi bo'lib o'tadi. Unda yurtimizning ko'plab taniqli va havaskor san'atkorlari ishtirok etib, o'zbek milliy san'atimizni namoyish etishadi. Bu jarayonlar vaqti matbuotda yoritib boriladi. "Yorqin turmush"da ham ko'plab maqolalar chop etilgan. 1938-yil mart oyidagi 3-sonida (20-21bet) muallif Sh.B.ning xalq artisti H. Nosirova hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Sevimli san'atkor" maqolasi chop etilgan. Ko'pgina o'zbek san'atkorlari 1924-1927 yillarda Boku teatr texnikumi va M.Uyg'ur, Cho'lpon rahbarligida Moskva teatr studiyasida tahsil olishgan. Talabalar orasida H. Nosirova ham bor edi. U mazkur bilim yurtini tamomlab, ozarbayjon va rus teatrlari sahnasida o'zbek spektakllarini ijro etgani haqida so'z boradi. "Halima Nosirova senfonik orkestr bilan birinchi martaba Bakuda o'ynadi va shu bilan o'zbek ashulalarini ham senfonik muzika bilan aytish yaxshi natija berajagini ko'rsatdi..." [4] deb

yoʻzadi muallif. Moskvada oʻtkazilgan sanʼat olimpiadasidagi (dekada) ishtiroki va unda faxrli 2-oʻrinni qoʻlga kiritgani aytib oʻtiladi. Jurnalning xuddi shu sonida muallif Sora Eshontoʻrayevaning (22-bet) “Qorongʻulikdan haqiqiy ijod yoʻliga” nomli maqolasi ham chop etilgan boʻlib, unda muallif oʻz hayoti, sanʼatdagi faoliyati haqida soʻzlaydi.

Jurnalning 1938-yil aprel oyi 4-sonida (18-19 bet) muallif Oydinning “Er Tarqin” oʻzbek sahnasida” nomli maqolasi chop etiladi. Unda qozoq xalqining asrlar osha kuylab kelinayotgan dostonlaridan biri “Er Tarqin” ni oʻzbek teatrida sahnalashtirilishi katta qiziqish bilan kutib olingani, H. Nosirova, K. Zokiriy, M. Turgʻunboyeva kabi mahoratli sanʼatkorlarning ishtiroki ham asarni yanada taʼsirli chiqishiga xizmat qilgani aytib oʻtiladi. Maqola soʻnggida muallif “Er Tarqin” operasining oʻzbek sahnasida qoʻyilishi oʻzbek operasini yaratishga asos soldi deb taʼriflaydi.

1939-yil iyul-avgust 7-8 sonlarida (36-37 bet) muallif Karim Yoʻldoshning “Oʻzbek sahnasining tantanasi” nomli maqolasida ilk oʻzbek operasi “Boʻron”ning yaratilishi haqida soʻz boradi. Asarda chorizmga qarshi 1918-yilgi xalq qoʻzgʻoloni voqealari aks ettirilgan. Maqola muallifi asarga baho berar ekan: “...Yana ahamiyati shundaki, bizga, zolimlarga qarshi kurashgan, oʻzbek adabiyoti tarixida alohida joyni ishgʻol qilayotgan satirik shoirlar Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiylarni va xalqning baxt saodatini kuylab yurgan xalq shoirlarini tanishga tez yordam beradi va majbur qiladi. Shoir Rajabning satirik sheʼrlari bizga Turdining “Subhonqulixon va uning amir va amaldorlari haqida hajviya”sini, Maxmurning “Hapalak” sheʼrlarini eslatadi” [4] deydi. Shu paytga qadar “Er Targʻin”, “Nargiz” operalari oʻzbek tilida sahnalashtirilgan boʻlsa ham, hali oʻzbek muallifining qalamiga mansub opera yaratilmagan edi. M. Ashrafiy yoʻzgan “Boʻron” operasi oʻzbek musiqali teatri hayotida katta voqea boʻldi. Opera premerasidan keyin musiqiy dramatik teatr Oʻzbek opera va balet teatri nomini oldi.

1936-1941- yillar davomida mamlakatimizda faqatgina kino va teatr sohasida emas, sanaʼatning boshqa yoʻnalishlarida ham koʻpgina yangiliklar roʻy berdi. Masalan, qoʻshiqchilik va raqs sohasida ham “Yorqin hayot” jurnali buni ham nazardan qochirmadi. 1939-yil iyul-avgust 7-8 sonlarida (40 bet) Sobir Abdullaning “Dutorchi qiz-juvonlar ansambli” maqolasi eʼlon qilingan. Unda ushbu ansamblning tashkil etilishi oʻzbek sanʼatida muhim burulish boʻlganini, koʻplab yangi mumtoz asarlar yaratilishi va ijro etilishi maqsad qilib qoʻyilgani tilga olinadi. Badiiy rahbari L. Sarimsoqova, musiqa rahbari Y. Rajabiy, baletmeyster G. Rahimova boʻlgan bu ansambl repertuaridan oʻzbek xalq va bastakorlarining kuy va qoʻshiqlari oʻrin olgan. Muallif taʼbiri bilan aytganda : “...Ulugʻ oʻzbek klassigi Navoiy, Fuzuliy asarlari, undan keyin Muqumiy va Hamza Hakimzoda asarlari va hozirgi zamon shoirlaridan Yashin, Gʻayratiy, Habibiy va boshqalarning asarlari, soʻng xalq ijodi asosida tayyorlangan”. [4] Maqola muallifi qoʻshiqchilik sanʼati haqida fikr yuritir ekan: “Oʻzbekistonda ayniqsa, ashulachi kadrlarga kelganda erlarga nisbatan xotin-qizlar koʻpchilikni tashkil qiladilar va sahnamizni egallab bormoqdalar... teta-poya davrlarda xotin-qizlar rolini oʻynash uchun oʻgʻul bolalarni chiqarishga majbur boʻlgan oʻzbek teatri bugun oʻz qoʻynida xotin-qizlardan artistkagina emas, balki, dunyoga nomi tarqalgan ovoz-ashula ustozlari, raqs ustozlari va postanovkachilarni koʻradi va faxrlanadi...” [4] deydi.

Jurnalda har bir sohada faoliyat olib borayotgan va oʻz yoʻnalishida yutuqlarga erishayotgan ayollar hayoti yoritib borilgan. Nafaqat olim, oqituvchi yoki sanʼatkor ayollar balki, eng yaxshi mexanizator, eng yaxshi ishchi, toʻquvchi va pillakor ayollarning qilayotgan mehnatlari, yutuqlari haqidagi maqolalar ham diqqatga sazovor. Ayniqsa, deputat ayollarning joylarda amalga oshirilayotgan ishlar, yutuq va kamchiliklarni aks ettirgan maqolalari ham eʼtiborni tortadi. Xalq artisti, deputat Tamaraxonimning 1938-yil sentyabr oyidagi 9-sonida chop etilgan “Tash. oblast “Kalinin” rayonida hali kamchiliklar koʻp” maqolasi fikrimiz isbotidir. Jurnalda ayollarning tibbiy, huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida turli sahifalar tashkil etilgan. Bu harakatlar zamirida “...Ayollarga ilm berish- jamiyatni ilmi, maʼrifatli va salohiyatli qilish degan aqidani hayotga izchil tadbir etishni taqozo etadi.” [1]

Xulosa va takliflar. Asrlar davomida ayollarga parda ortidan qaralgan, yaʼni ularni koʻproq yashirishga boʻlgan qarashlar ustun boʻlgan. Ayrim tarixiy manbalarda, hatto, ayollarni ismi bilan emas, otasi yoki turmush oʻrtogʻiga nisbat berib gapirilgan. Ayollar faqat uy roʻzgʻor ishlari, farzand tarbiyasi bilan mashgʻul boʻlishi kerak degan qarashlar ustun boʻlgan. Oʻtgan asrning boshlariga kelib bu qarashlar oʻzgardi. Ayollarga faqat oila bekasi emas, jamiyatda ham oʻz oʻrni, fikriga ega shaxs sifatida qarashlar paydo boʻldi. Mavzuni tadqiq qilishdan maqsadimiz, XX asr boshlarida yurtimizning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi tub burilishlar va bu hodisalarning xotin-qizlar turmush tarziga taʼsiri, ularni jamiyatga kirib kelishi va erishgan yutuqlarini oʻrganishdan iborat. Bu voqea hodisalar “Yorqin hayot” jurnalida oʻz aksini topgan. Qolaversa bu jurnal yurtimizning olis manzillarida yashovchi koʻplab iqtidorli xotin-qizlarni ijodkor sifatida shakllanishi uchun katta maktab vazifasini oʻtagan. X. Ahrorova, R. Shomansurova, S. Mahmudova, Sh. Salimova, H. Xudoyberdiyeva, O. Hojiyeva, M. Ulugʻova, R. Rahmonova, Q. Rahimboyeva, X. Bobomurodova, D. Saidova va boshqalar "Saodat" jurnali kashf qilgan ijodkorlardir. Mazkur jurnal oʻsha

LITERARY CRITICISM

davrda bu borada olib borilgan ishlarning darakchisi, yurtimiz xotin-qizlarining orzu- umidlarini aks ettirishga xizmat qilgani bilan ham ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR:

1. *Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2001.*
2. *Ziyo Said. O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927). – Toshkent Samarqand: O'zbekiston davlat nashriyoti, 1927.*
3. *“Jadid” gazetasi 2024-yil 11-son*
4. *“Yorqin hayot” jurnali 1936-1941 yillardagi sonlari*
5. *“Sadoi Turkiston” gazetasining 1914- yil 51-soni.*
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Saodat>.
7. <https://press.natlib.uz/ru/publications/saodat>.
8. www.saodat-gul.uz.

O'ZBEK VA NEMIS XALQ ERTAKLARIDA BO'RI OBRAZI TIPOLOGIYASI

Jumayev Akmal Axmatovich,

Buxoro davlat universiteti

Nemis filologiyasi kafedrası o'qituvchisi, PhD

Fayzulloyeva Yulduz Narzulloyevna,

Buxoro davlat universiteti

Nemis filologiyasi kafedrası II bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek va nemis xalqlari ertaklarida hayvonlar obrazining tipologiyasi va uning folklordagi o'rni tahlil qilinadi. Ertaklar xalqning madaniyati, turmush tarzini va qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim adabiy asarlar bo'lib, hayvonlar obrazining salbiy yoki ijobiy qirralari xalqning ma'naviy dunyoqarashini ifodalaydi. Maqolada o'zbek va nemis xalq ertaklaridagi hayvonlar obrazlari orasidagi o'xshashlik va farqlar, ularning mifologik va totemik roli, shuningdek, hayvonlar obrazining tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Hayvonlar obrazining yovuzlik, ayyorlik, xavf va himoya timsoli sifatida ko'rsatilishi, uning folklorda va xalq e'tiqodlarida qanday shakllanganligi, shuningdek, uning xalqlar orasida qanday ruhiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgani keltirilgan. Maqola hayvonlar obrazining nafaqat adabiy, balki etnografik va diniy jihatlarini ham ochib beradi.

Kalit so'zlar: bo'ri obrazi, tipologiya, folklor, o'zbek xalq ertaklari, nemis xalq ertaklari, mifologiya, totemizm, adabiyot, tarbiyaviy ahamiyat, xalq madaniyati, qahramonlik, himoya, sadoqat.

ТИПОЛОГИЯ ОБРАЗА ВОЛКА В УЗБЕКСКИХ И НЕМЕЦКИХ СКАЗКАХ

Аннотация. В данной статье анализируется типология образа животных в сказках узбекского и немецкого народов и его место в фольклоре. Сказки являются важными литературными произведениями, отражающими культуру, образ жизни и ценности народа, а отрицательные или положительные стороны образа животных отражают духовное мировоззрение народа. В статье рассматриваются сходства и различия образов животных в узбекских и немецких народных сказках, их мифологическая и тотемическая роль, а также воспитательное значение образа животных. Представлено представление об образе животных как символе зла, хитрости, опасности и защиты, как он формируется в фольклоре и народных верованиях, а также его духовное и культурное значение у народов. В статье раскрываются не только литературные, но и этнографические и религиозные аспекты изображения животных.

Ключевые слова: образ волка, типология, фольклор, узбекские народные сказки, немецкие народные сказки, мифология, тотемизм, литература, воспитательное значение, народная культура, героизм, защита, верность.

TIPOLOGY OF THE IMAGE OF THE WOLF IN UZBEKI AND GERMAN FOLK TALES

Abstract. This article analyzes the typology of animal images in Uzbek and German folk tales and their place in folklore. Fairy tales are important literary works that reflect the culture, lifestyle and values of the people, and the negative or positive aspects of animal images express the spiritual worldview of the people. The article discusses the similarities and differences between animal images in Uzbek and German folk tales, their mythological and totemic role, as well as the educational significance of animal images. The presentation of the image of animals as a symbol of evil, cunning, danger and protection, how it was formed in folklore and folk beliefs, as well as what spiritual and cultural significance it had among peoples, is presented. The article reveals not only the literary, but also the ethnographic and religious aspects of the image of animals.

Keywords: wolf image, typology, folklore, Uzbek folk tales, German folk tales, mythology, totemism, literature, educational significance, folk culture, heroism, protection, loyalty.

Kirish. Folklorning qadimiy shakllaridan biri bo'lgan ertak har bir xalqning milliy madaniyati va turmushini o'zida aks ettiruvchi madaniy va adabiy boyligi hisoblanadi. Aytish joizki, ertak shunchaki adabiy asar emas, ular xalq madaniyati, turmush tarzi, odob-axloqi va urf-odatlarining o'ziga xos tarixiy

dalilidir. Har bir ertakning o'ziga xos xususiyati, taqdiri bor bo'lib, bizga yangi bilim va taassurotlar olib keladi.

Bo'ri obrazi mifologiyada asosan jangovor qo'shin sarkardasi, ayrim hollarda urush xudosi obrazida qo'llanilgan. Yevropa va Osiyo xalqlari mifologiyalariga xos bo'lgan xususiyat bo'riining epik qayramonni boqib olishi, o'z tarbiyasiga olish syujeti hisoblanadi qabila ajdodini, ba'zan esa uning egizaklarini bo'ri tomonidan tarbiyalash syujetidir. Qadimgi rim mifologiyasida Rim shahri asoschilari aka-uka Romul va Rem haqidagi afsonada[1] bo'riining epik qahramonlarga onalik qilganini bunga asos bo'la oladi. Shuningdek eron mifologiyasida ham Kirni emizgan bo'ri haqidagi ma'lumotni ham Boshqird folklorida bo'ri totem obraz sifatida ifodalanadi.

Asosiy qism. Ertaklardagi obrazlarga nazar solinsa hayvon obrazlari turli epik qahramonlar sifati gavdalanirilmaganligiga guvoh bo'lamiz. Shulardan biri bo'ri obrazi tabiatdagi xarakteriga qarab ayrim ertaklarda salbiy, yirtqich obrazda gavdalanirilsa, boshqa bir ertaklarda epik qahramonga yordamchi obrazida qo'llanilganiga guvoh bo'lamiz.

O'zbek xalq ertaklarining o'ziga xos badiiy boshlanish qismi "saj"da hayvonlar va qushlar xarakter xususiyati va qofiyadosh so'zlar bilan uyg'un tarzda aks etishi o'ziga xosligi bilan ham ahamiyatli.

Bor ekan, yo'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, o'rdak surnaychi ekan, g'oz karnaychi ekan.

Sajda bo'riining bakovul obrazida qiyoslangani xarakter jihatdan ham mosligi ertak boshlanishidayoq tinglovchini o'ziga jalb qila oladi. Bakovul so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratsak, Bakovul, bakovul – podshoh, xon, va lashkarlarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, hukmdorga taom tortishdan oldin uni avval o'zi tatib ko'ruvchi mansabdor, bosh oshpaz (XV asr va undan keyingi davr)[2].

O'zbek xalq ertagi "Qarg'a, bug'u, bo'ri" ertagidagi bo'ri obraziga diqqat qaratsak, ayyor, hiylagar, o'z nafsini o'ylaydigan obrazni ko'ramiz. Ertakning quyidagi parchasida bo'riining nafs ilinjida xayolan tuzgan rejasini ko'ramiz. Parcha quyidagicha. - Bir kuni bo'ri bug'u tomonga borayotganida o'rmonning qalin, o't ko'p o'sgan yerida qopqon qo'yilganini ko'rib qolibdi-da, o'zicha o'ylabdi: "Ana endi omadim keldi, bug'uni aldab, bu yerga olib kelaman, qopqongaki ilindi, vassalom, uni yeyman. Baribir, mendan ko'rmaydi.[3]

Aka-uka Grimm ertaklarida bo'ri obrazi alohida ramziy ma'noga ega bo'lib, u ko'pincha shafqatsizlik, ayyorlik va xavf ramzi sifatida gavdalanadi. Grimm ertaklaridagi bo'ri obrazi o'ziga xos tipologiyaga ega bo'lib, u turli ertaklarda turlicha rollarni ijro etadi va har bir hikoyada bo'ri xakteri va tasviri boshqa bir yangi qirra bilan ochiladi. Quyidagi mazmunda bo'ri obrazining qirralari, ramziyligi va funksional ahamiyati haqida kengroq tavsif beriladi.

Bo'ri Yevropa madaniyatida uzoq tarixiy davrlardan buyon xavf, yovuzlik va ayyorlik ramzi sifatida tanilgan. Aka-uka Grimmlar ertaklaridagi bo'ri obrazi esa yovuz kuchning g'oyaviy ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Bo'ri yovuz kuchlar bilan bog'lanib, insoniy zaifliklardan foydalangan holda o'z maqsadlariga erishadi. Ko'pincha bolalar va zaif qahramonlarga hujum qiladigan bo'ri obrazi o'sha davr jamiyatida mavjud bo'lgan qo'rquv va xavotirlarning aks-sadosi sifatida talqin etiladi.

Bo'ri, Aka-uka Grimmlar ertaklarida, ko'pincha insoniylikdan xoli, ya'ni insoniy his-tuyg'ularni hisobga olmagan holda yovuz rejalariga ega mavjudot sifatida tasvirlanadi. Ushbu obraz orqali Aka-uka Grimm bolalarni o'z atrofidagi xavflarga qarshi hushyor bo'lishga, o'zlarini himoya qilishga va ayyor kishilardan ogoh bo'lishga undaydi. Ertaklar bolalarni nafaqat bo'rilardan, balki yomon odamlar va qaltis vaziyatlardan ham himoya qilishga da'vat etadi. Bo'riining qahramonlarga qarshi ayyorona usullarda foydalanishi esa inson zaifliklarini fosh qiladi va o'z navbatida ehtiyotkorlikka chaqiradi.

"Rotkäppchen"[4] ertagida (O'zbek tiliga professor Xurram Raximov tarjimasida "Qizil Qalpoqcha"[5]) bo'ri obrazining eng mashhur va ramziy talqinlari uchraydi. Ushbu ertakda bo'ri ayyorona yo'l bilan qizcha va uning buvisini ovlashga harakat qiladi. Bo'ri boshidanoq qizchani aldashga kirishadi: u begunoh bolani va uning oilasini nishonga oladi, bu esa bo'riining jamiyatdagi eng zaif va himoyasiz toifaga zarar yetkazishga qaratilgan yovuz kuch ekanini anglatadi.

Bo'ri va qizcha o'rtasidagi muloqotda bo'riining ikkiyuzlamachi va aldovga asoslangan tabiati yaqqol ko'rinadi. Bo'ri, go'yo qizchaga yordam bermoqchi bo'lgandek, uni so'roq qiladi va yo'lidan chalg'itadi. Bu, aslida, bo'riining qahramonlarning ishonchiga kirish orqali ularni yutib yuborish niyatida ekanini bildiradi. Aka-uka Grimmlarning "Qizil Qalpoqcha" ertagi nafaqat bo'ri obrazi orqali, balki uning harakatlari bilan ham o'quvchilarni hushyorlikka undaydi.

Aka-uka Grimm ertaklarida bo'ri odatda insoniy his-tuyg'ulardan mahrum, hissiz va ayyor mavjudot sifatida tasvirlanadi. Bu tasvir orqali Aka-uka Grimm ertaklaridagi boshqa yovuz obrazlardan farqli ravishda bo'riining tub mohiyatini ko'rsatadilar. Bo'ri doimo o'z maqsadiga intilib, raqiblarini chalg'itish, qo'rqitish

va ularga zarar yetkazish uchun hiyla ishlatadi. “Der Wolf und die sieben jungen Geißlein”[6] ertagida bo‘ri va uloqchalar voqeasi orqali bo‘rining yuqoridagi xarakteri badiiy talqin qilingan.

Aka-uka Grimm ertaklarida bo‘rining asosiy xarakteri:

- Shafqatsizlik va qahr: Bo‘ri doimo jabrlanuvchilarga nisbatan shafqatsizdir va ularning zaif tomonlarini bilib, bu zaifliklardan foydalanadi.

- Ayyorlik va aldov: Bo‘ri qahramonlarga qarshi ochiqchasiga hujum qilmaydi, aksincha ularni aldab, yolg‘on va hiyla bilan maqsadiga erishishga intiladi. Bu, aslida, insoniy jamiyatda ayyorlikdan ogoh bo‘lish zaruriyatini bildiradi.

- Qudrat va qo‘rqinchlilik: Bo‘ri ko‘pincha kuchli va qo‘rqinchli jonzot sifatida tasvirlanadi, shu sababli u ertak qahramonlari uchun jismoniy va ruhiy tahdid manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Xalq ertaklarida insonni sehlash orqali hayvon, qush yoki bir jism quyofasiga o‘zgarishini ham ertaklarning badiiy saviyasi hamda tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. “Brüderchen und Schwesterchen”[7] ertagida o‘gay ona qo‘lida qolgan farzanlarning ham qarg‘ish sababli hayvon quyofasiga evrilganiga guvoh bo‘lamiz. Garchand sehrlangan chashmalardan suv ichib qo‘zichoq quyofasiga aylangan bo‘lsada, oldingi chashmalardan suv ichganida sher yo‘lbars yoki bo‘ri quyofasiga aylanishi mumkin edi. Ertak qahramoni beozor va yosh bola obrazida gavdalanganligi sababli ham qo‘zichoq quyofasiga evrilgani ertak mazmun-mohiyati bilan uyg‘unlashgan.

Germaniya folklorida bo‘ri timsoli nafaqat tashqi xavflardan, balki oila ichidagi xavf-xatarlardan himoya qiluvchi obraz sifatida ham ifodalanadi. Der alte Sultan[8] ertagida bo‘ri o‘z do‘stini himoya qilish uchun yordam beradi, do‘sti Sulon laqabli qari itni xo‘jayiniga qahramon qilib ko‘rsatishda va yashab turgan oilasidan ketib qolmasligi uchun aqlli hiyla ishlatadi. Bu hikoya bo‘rining oila va avlodlarga bo‘lgan sadoqatini namoyish etadi. Jahon adabiyotiga ham e‘tibor qaratsak ingliz yozuvchisi Redyard Kiplingning “Jungli kitobi”[9] qissasida ham bo‘ri ona obraziga gavdalantirilgan, Qissada bo‘ri inson bolasiga o‘z farzandi kabi g‘amg‘o‘rlik qilganligi, vatanparvar va dovyurak shaxs sifatida ulg‘ayishiga o‘z hissasini qo‘shganini badiiy ifodalagan.

Nemis xalq ertaklarida bo‘ri obrazining epik qahramon va himoyachi sifatida ishlatilishi, bu timsolning nafaqat yovuz kuchlardan, balki tabiatning xavflaridan himoya qilishdagi muhim rolini ko‘rsatadi. Bo‘ri ko‘pincha jasorat, sadoqat, kuch va oila himoyachiligi timsoli sifatida tasvirlanadi. U nafaqat jangchi sifatida, balki o‘z oilasi va xalqining himoyachisi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Germaniya folkloridagi bo‘ri obrazlari, uning himoyachi va qahramon sifatida ta’siri orqali, jasorat, sadoqat va tabiat bilan uyg‘un yashashini o‘rgatadi. Bu obraz orqali nemis xalqining tarixiy e‘tiqodlari, qadriyatlari va tabiatga bo‘lgan hurmatini aks ettiradi.

O‘zbek xalq bolalar ertaklarida bo‘ri asosan salbiy, tahdid soluvchi obrazda ko‘rinsada, ba’zi ertaklarda uning ijobiy qirralari ham tasvirlanib, bolalarga turli axloqiy saboqlar beradi. Bo‘rining ijobiy obrazda qo‘llanilishi orqali xalq og‘zaki ijodida u do‘stlik, sadoqat, jasorat, adolat va himoyachilik ramzi sifatida gavdalanadi. Bu obraz orqali bolalar o‘z kuchiga ishonish, yaxshi va yomon o‘rtasidagi farqni anglash, qiyin vaziyatlarda jasorat ko‘rsatish va himoyachilikni o‘rganadilar.

“Aqlli Olmaxon” ertagi mohiyatan shunday tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ushbu ertakda bo‘ri ovi baroridan kelsada, “Bo‘ri bilan Mergan”, “Bo‘ri bilan tulki” va shu kabi ertaklarda ovchi kultidagi bo‘rining pand yeyishi badiiy mahorat bilan talqin qilingan.

“Cho‘loq bo‘ri” ertagida epik qahramon homiysi, bashoratchi va sehrli obrazda ifodalangan bo‘ri kuchli, qo‘rqmas va mard obraz sifatida, xavfli vaziyatlarda odamlarga yoki boshqa hayvonlarga yordam beruvchi mavjudot sifatida ifodalanadi. Ba’zi ertaklarda esa bo‘ri zaif va himoyasiz hayvonlarni yirtqichlardan himoya qiladi, yoki xavfli holatlarda kuchli va shafqatsiz yirtqichlarga qarshi chiqib, jasorat ko‘rsatadi.

“Bo‘ri va Qushlar” ertagida qushlar bir kuchli va yovuz yirtqichdan yordam so‘rashga majbur bo‘lishadi. Bo‘ri ularni himoya qilib, xavfni yengadi va qushlarni asraydi. Bu yerda bo‘ri faqat kuchli va yovuz obrazda emas, balki zaiflarni himoya qiluvchi jasoratli qahramon sifatida gavdalanadi. Ushbu ertaklar orqali bolalar himoyachilik, jasorat va adolat tuyg‘ularini o‘rganishadi. Shuningdek, o‘z kuchi bilan o‘zgalarni himoya qilish, adolatni ta’minlash qanchalik muhim ekanini tushunadilar.

Xulosa. Folklorida bo‘ri obrazining totem sifatida ifodalanishi e‘tibor qaratsak, boshqird xalqining totemik dunyoqarashi hayvonlar, xususan, bo‘ri bilan bog‘liq turli rivoyatlarda aks etganini ko‘ramiz. Bo‘ri boshqirdlarda nafaqat bir hayvon, balki ajdodlarning ramziy tasviri, qahramonlik va kuchning timsoli, shuningdek, xalqni himoya qiluvchi ruhi sifatida tushunilgan.

Boshqir xalq folklorida bo‘rini ajdod ruhi sifatida hurmat qilish bilan bog‘liq e‘tiqodlar mavjud bo‘lib, bu hayvon orqali ular o‘zining ildizlari va tarixiy merosini qadrlaydilar. Totem sifatida bo‘ri boshqird xalqining kuchli qahramonlik ruhi, tabiat bilan uyg‘unlik va milliy iftixorni namoyon etadi. Shuningdek, u

LITERARY CRITICISM

xalq orasida jasorat va kuch timsoli bo‘lib, dushmanlarga qarshi kurashda madad beruvchi mavjudot sifatida qaralgan.

Totem sifatida bo‘rining himoya vazifasi xalqning o‘z o‘tmishini hurmat qilish va o‘z- o‘ziga ishonchni mustahkamlashga xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR:

1. *Словарь античности. Пер. с нем. – М.: Прогресс, 1989. – С.500.*
2. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 — 145-bet.*
3. *O‘zbek xalq ertaklari. K. I. / Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov, Z.Husainova. – T.: “O‘qituvchi” NMIU, 2007. – 384 b.*
4. *Kinder und Hausmärchen der Brüder Grimm. Band II. Der Kinderbuchverlag. – Berlin, 1961. – S.239-244.*
5. *Bo‘ron kampir: ertaklar / Aka-uka grimmlar. Uchinchi nashri. – Toshkent: „O‘zbekiston“, 2020.*
6. *Kinder und Hausmärchen der Brüder Grimm. Band I. Der Kinderbuchverlag. – Berlin, 1961. – S.12-16.*
7. *Kinder und Hausmärchen der Brüder Grimm. Band II. Der Kinderbuchverlag. – Berlin, 1961. – S.247-253.*
8. *Kinder und Hausmärchen der Brüder Grimm. Band II. Der Kinderbuchverlag. – Berlin, 1961. – S.205-208.*
9. *Jungli kitobi: qissa/Redyard Kipling. Ixchamlashtirilgan matb muallifi Savior Pirotta. Tarjimon S. Yo‘lchiboyev. – 9. Toshkent:Yoshlar matbuoti, 2022. – 96 b.*
10. *Jumayev Akmal Axmatovich. Features of literary interpretation of the image of parrot in German and Uzbek fairy tales. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com>. ISSN: 2249-7137. Vol. 11, Issue 6, June, 2021. -P.28-33.*
11. *Jumayev Akmal. Characteristic features of the image of stork in German and Uzbek fairy tales. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). ISSN: 2278-4853 Special issue on research on social and humanitarian sciences. april 2020. DOI NUMBER: 10.5958/2278-4853.2020.00086.5.*
12. *Bozorova, R. (2023). Tarjima san'ati va uning muammolari. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 29(29).*
13. *Bozorova, R. S. (2019). About german colloquial speech. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(3), 209-213.*
14. *Bozorova R. S. Interpretation of poetonims in the novel by Johann Wolfgang Goethe “The sufferings of young Werther” //Scientific bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 12. – С. 182-185.*
15. *Bozorova R. Reflection of hydroponyms in phraseological units in German, Uzbek and Russian languages // Центр научных публикаций (buxdu. uz). - 2022. - t. 26. – №. 26.*

EXPLORING THE THEME OF “LOST PARADISE” IN VLADIMIR NABOKOV’S NOVEL “MARY” THROUGH LITERARY ANALYSIS

Pulatova Sabina Sharifovna,

*First-year PhD student of Bukhara State University
sarvarsharifsabina@gmail.com*

Abstract. *This article investigates Vladimir Nabokov’s debut novel “Mary” (1926) with a focus on its central theme of “lost paradise” written during his exile in Berlin, the novel captures the protagonist Lev Ganin’s nostalgic recollections of his first love and idealized pre-Revolutionary Russia. The study analyzes how Nabokov employs autobiographical elements, sensory details, and symbolic settings to depict exile, memory and irretrievable happiness. Drawing connections to Milton’s “Paradise Lost”, the article underscores the artistic parallel between divine creation and literary imagination. By exploring Nabokov’s narrative techniques and themes, the research highlights contribution of “Mary” to his literary evolution and universal reflections on human longing.*

Keywords: *theme, memory, exile, lost paradise, nostalgia, debut, characters, setting, emotional undertones, autobiographical elements.*

VLADIMIR NABOKOVNING “MASHENKA” ROMANIDAGI “YO‘QOLTILGAN JANNAT” MAVZUSINI ADABIY TAHLIL ORQALI O‘RGANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqola Vladimir Nabokovning “Mashenka” (1926) nomli ilk romanida yoritilgan “yo‘qotilgan jannat” mavzusini o‘rganishga qaratilgan. Berlin shahrida muhojirlik davrida yozilgan bu asarda bosh qahramon Lev Ganinning birinchi muhabbati va inqilobdan oldingi Rossiyaning, uning tasavvurida mukammal, ya’ni jannat holatida muhrlanlangan nostalgik xotiralari tasvirlangan. Tadqiqot Nabokovning avtoportret unsurlari, sezgilar va ramziy manzaralarni qanday ishlatishini, muhojirlik, xotira va o‘tkinchi baxtni qanday ifodalashini tahlil qiladi. Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” asari bilan bog‘langan holda, maqola ilohiy yaratilish va adabiy tasavvur o‘rtasidagi o‘xshashliklarni qiyoslaydi. Nabokovning hikoya qilish usullari va ilgari surgan mavzularini o‘rgangan holatda, maqola “Mashenka” asari hamda muallifning sog‘inch va hasrat haqidagi umumbashariy mulohazalari uning kelajakdagi adabiy faoliyati rivojiga ta’siri masalalariga ham oydinli kiritadi.*

Kalit so‘zlar: *mavzu, xotira, muhojirlik, yo‘qotilgan jannat, nostalgiya, ilk qahramonlar, manzara, hissiy ohanglar, avtoportret unsurlari.*

ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕМЫ «ПОТЕРЯННОГО РАЯ» В РОМАНЕ ВЛАДИМИРА НАБОКОВА «МАШЕНЬКА» ПОСРЕДСТВОМ ЛИТЕРАТУРНОГО АНАЛИЗА

Аннотация. *Эта статья исследует дебютный роман Владимира Набокова “Машенька” (1926) с акцентом на его центральную тему “потерянного рая”, написанный во время его изгнания в Берлине. Роман отражает ностальгические воспоминания главного героя Льва Ганина о своей первой любви и идеализированной дореволюционной России. Исследование анализирует, как Набоков использует автобиографические элементы, сенсорные детали и символические декорации для изображения изгнания, памяти и невозвратного счастья. Приводя параллели с “Потерянным раем” Мильтона, статья подчёркивает художественное сходство между божественным творением и литературным воображением. Изучая нарративные техники и темы Набокова, исследование выделяет вклад романа “Машеньки” в его литературную эволюцию и универсальные размышления о человеческой тоске.*

Ключевые слова: *тема, память, изгнание, потерянный рай, ностальгия, дебют, персонажи, окружение, эмоциональные оттенки, автобиографические элементы.*

Introduction. Vladimir Nabokov’s debut novel “Mary” (1926) offers a deep exploration of memory, nostalgia, and exile. Written during his years as an émigré in Berlin, “Mary” vividly portrays the inner world of Lev Ganin, whose recalling and reflecting on memories of his first love, Mary, evoke an idealized image of pre-Revolutionary Russia—a “lost paradise” forever inaccessible in the present. While “Mary” has been studied as an autobiographical work, the representation of “lost paradise” has not been thoroughly explored.

Key questions arise: How does Nabokov artistically reconstruct this sense of irretrievable happiness? What symbolic and narrative tools does he employ to convey the protagonist's emotional state? Addressing these questions, this study aims to fill a gap in the critical understanding of Nabokov's early thematic development. So, objectives of this article are to examine how Nabokov's own experiences influence this depiction, and analyze the theme of "lost paradise" as depicted in "Mary" through its characters, settings, and emotional undertones. This study offers a fresh perspective on Nabokov's debut novel, highlighting its literary significance beyond its autobiographical elements. By focusing on the theme of "lost paradise", the article contributes to a profound comprehension of how Nabokov transforms personal experiences into universal artistic expressions. Furthermore, the study enriches discussions of Nabokov's development as a writer, demonstrating how his early works laid the foundation for his later masterpieces. By linking "Mary" to the overarching themes of memory, nostalgia, and exile, this study highlights the lasting significance of Nabokov's work in exploring fundamental aspects of the human experience.

Methods. This study employs a thematic and literary analysis of Nabokov's "Mary", focusing on its textual representations of nostalgia, memory, and exile. Primary sources include the original text of "Mary" and Nabokov's autobiographical memoir "Speak, Memory", complemented by secondary analyses, including John Milton's "Paradise Lost", Vadim Stark's essay "Nabokov's Muse", and Jean Blot's book "Nabokov". Key literary devices, characters, and settings were examined to explain the theme of "lost paradise" and its interplay with Nabokov's personal exile and artistic philosophy.

In 1924, Nabokov began writing his first novel in Berlin, initially titled "*Happiness*" ("Счастье"). By the end of that year, two chapters had been completed, but Nabokov soon destroyed the manuscript, preserving only an excerpt published in January 1925 under the title "*Letter to Russia*" ("Письмо в Россию"), with the note: "From the second chapter of the novel "*Happiness*" [6.7]. He later reconsidered the title, contemplating the addition of an adjective, such as "lost" or "destroyed", to better reflect the essence of the narrative. However, he deemed such a choice potentially "undesirable" and overly "straightforward" for the readers, ultimately naming the work after its central character, Mary. Nabokov later recalled returning to this project in the spring of 1925, following his marriage to Vera Slonim, with the intention of dedicating the novel to her—a practice he continued with all his subsequent works [14].

In a letter to his mother on October 13, 1925, Nabokov wrote about his work:

"My love, how joyful it is to read my novel to you... My protagonist is not very likable, but there are other characters who are delightful. I am getting to know them more closely, and it seems to me that my Ganin, my Alferov, my dancers Colin and Gornotsvetov, my elderly clerk Podtyagin, the Jewish girl from Kyiv Klara, Kunitzyn, Mrs. Dorn, and so on — "least but not last" — and my Mary— these are real people, not fictional ones created by me. I know how each of them walks, smells, and behaves, and I understand so clearly that God, when creating the world, found pure and thrilling delight in this. We, as translators of God's creations, small plagiarists and imitators of His work, sometimes embellish what God has written, adding to it, explaining it, as if a charming commentator were to find even more allure in a line of genius. And for this, for how we embellish, complement, and explain — we will receive our reward in the editorial offices of paradise [6.8]"

As Nabokov pursued his studies at Cambridge and taught World Literature, it can be inferred that his creation of "Mary" was, in part, influenced by John Milton's "Paradise Lost". The letter which is given above somehow proves our hypothesis because we can observe thematic parallels between the two works, particularly in their exploration of creation, divine imitation, and the dynamic between creator and creation. In "Paradise Lost", Milton presents God as the ultimate creator, shaping the world and its inhabitants. The writer in the passage mirrors this divine act of creation by suggesting that writing is a form of imitating God's creative power. Just as God created Adam and Eve and the natural world, the writer "creates" characters who feel as real and distinct as living beings.

Moreover, both the writer and God are seen as "translators" of a higher truth, with the writer enhancing or explaining their creation much like a commentator enriching a masterpiece. In "Paradise Lost", Milton's portrayal of the fall and the quest for redemption can be likened to the writer's desire for divine recognition or reward for their creative efforts. Just as Milton explores the idea of salvation and divine judgment, the writer in the passage suggests that their creative work—imbued with divine inspiration—will earn them a "reward in the editorial offices of paradise," a subtle nod to the notion of divine justice and recognition in the afterlife.

In essence, both works emphasize the sacred nature of creation and the artist's role as a humble imitator of divine creativity, suggesting that the act of creation, whether by God or the writer, is both a spiritual and artistic endeavor with profound cosmic significance.

This may explain Nabokov's adoption of the pseudonym Sirin [1.86], a figure analogous to the Phoenix, symbolizing a profound connection to paradise—both literal and metaphorical—in his early novels. The Phoenix, often seen as a mythical bird that rises from its ashes, symbolizes rebirth, immortality, and the eternal cycle of life—concepts closely tied to a lost or idealized paradise. By choosing this name, Nabokov placed himself in direct alignment with these timeless ideals, not just as a writer but as a cultural figure whose creativity would transcend the temporal, capturing the essence of a forgotten or inaccessible paradise. In Russian folklore, the Sirin is often identified with the firebird, a creature that embodies the divine and transcendent qualities of paradise. It belongs to a pre-Christian, pagan Russia, a “fairy-tale” land that can be seen as a paradise lost to time. The firebird's golden flight, as described in Nabokov's writing, reflects a mythical journey of beauty and enlightenment, transcending earthly limitations and soaring towards an unattainable, perfect state. This bird of paradise is tied not only to nature but to the very soul of Russian art and culture, evoking a time when art, like the firebird, was pure, radiant, and beyond the constraints of the mundane world. Thus, the Phoenix (or Sirin) and the firebird are not only birds of paradise in the mythological sense but also symbolic representations of the eternal and unchanging beauty of the Russia that Nabokov remembers. In adopting this pseudonym, he aligns his creative identity with a paradise that exists in memory and myth, a space of perfect artistic expression and cultural purity. By doing so, Nabokov suggests that his art, like the firebird, is destined to rise above the earthly plane, soaring toward an ideal that remains unreachable yet ever-present in the imagination.

“*Mary*” (“*Машенька*”) was published in 1926 by the Berlin publisher “*Slovo*” (“*Слово*”). In 1928, the “*Ullstein*” publishing house released a German translation of Nabokov's debut novel under the intriguing title “*Sie kommt – kommt sie?*” (“*She is Coming – Is She?*”). In 1970, the English translation of “*Mary*”, created by Michael Glenny in collaboration with the author, was published [6.8].

Beginning with a handful of vivid recollections, the hero of “*Mary*” Ganin gradually fabricates a past that is more intensely real than the original. In this sense he is very close to the novelist:

“The nostalgia I have been cherishing all these years,” Vladimir Nabokov disclosed in “*Speak, Memory*”, is a hypertrophied sense of lost childhood [6.73].”

Nabokov yearned to recover not merely particular sensations from his distant past but, more crucially, a quality of consciousness, a condition of being that marked his early years. He wished, in particular, to reclaim the magical sense of time he ... first knew in Russia, awareness of duration, sequence and chronology but not of finitude or loss [12]:

“The mirror brims with brightness; bumblebee has entered the room and bumps against the ceiling. Everything is as it should be, nothing will ever change, and nobody will ever die [4.77].”

In this statement, the sense of tranquility and permanence evokes a nostalgic longing for a time or place where everything is as it should be—static and untouched by change. This mirrors Nabokov's depiction of his memories of Russia, which, especially in his earlier works, are often imbued with a sense of loss and yearning for a paradise that can no longer be reached. His homeland, particularly in his exile, becomes an idealized vision of a perfect, unchanging world—a “lost paradise” that remains intact only in memory.

Just as the passage portrays a room where everything is as it should be, Nabokov's memory of pre-Revolutionary Russia, the Russia of his youth, represents a frozen moment of beauty and stability. His connection to the Motherland is deeply tied to nostalgia for a past that was irretrievably altered by historical upheavals—revolution, war, and emigration. In this sense, the “mirror brimming with brightness” can be seen as a metaphor for the memory of Russia, one that shines with the beauty of an idealized past, but also reflects the impossibility of returning to it. By comparing this vision of Russia to paradise, we recognize that for Nabokov, the idea of paradise is not necessarily tied to a physical location, but to an emotional and intellectual state. It is a place that exists in memory, separate from the inevitable march of time and change. The passage resonates with Nabokov's themes of lost happiness, as the paradise of Russia—like the moment in the passage—is a place that exists only in the mind, impervious to the passage of time or death, but ultimately inaccessible. Similarly, in “*Paradise Lost*”, Adam and Eve's expulsion from Eden represents the ultimate loss of a paradise they can no longer return to, which mirrors the emotional and existential struggles in Nabokov's characters. Furthermore, memory plays an important role in both texts. In “*Mary*”, Ganin constantly revisits his memories of his love for Mary and the life he once had, just as Adam and Eve reflect on the time before the fall. In both works, memory becomes a powerful force that shapes the characters' identities and actions. Ganin's memories could be seen as his own “*Eden*”, and his inability to return to it mirrors the fall of man in Milton's epic.

Results. In examining the novel's thematic underpinnings, narrative structure, and character development, several key patterns emerge that reflect Nabokov's unique artistic vision.

LITERARY CRITICISM

The exploration of fleeting joy and the tension between memory and loss in “Mary” directly *aligns with Nabokov’s own experiences, particularly his early love and exile.*

“Mary” imbued with nostalgia, contains autobiographical elements as evidenced by its epigraph, drawn from Aleksandr Pushkin’s “Eugene Onegin”:

...Вспомня прежних лет романы,
Вспомня прежнюю любовь... [14]
...Remembering tales of bygone years,
Remembering a love that once was dear...

Vadim Stark highlighted these in his brilliant essay “Nabokov’s Muse” (“Муза Набокова”), dedicated to Valentina Shulgina. This young woman, Nabokov’s first love, is frequently mentioned in “Speak, Memory” under the name Tamara. She was one of the few who directly influenced the novelist, leaving her mark and portrait in his works. Nabokov himself admitted that Mary was “Tamara’s sister”. Valentina, portrayed as Mary in the novel, had a tragic fate [1.105].

Юмор в диалогах используется в 25% всех сцен и становится важным элементом преодоления внутренних и внешних напряжений. В 61% случаев ироничные реплики появляются в контексте военных событий, создавая контраст и акцентируя стойкость персонажей перед лицом трагедии. Таким образом, юмор выполняет функцию смягчения психологической напряжённости и поддержания боевого духа героев.

Результаты количественного анализа представляют основные темы романа и их распределение в структуре текста.

Анализ подтвердил, что стиль Шолохова в «Тихом Доне» основан на сочетании реалистичных описаний, фольклорной традиции и многослойной психологической структуры, которые в совокупности создают эпическое изображение казачьего мира на фоне исторических перемен.

LITERARY CRITICISM

Тематическая категория	Частота встречаемости (%)	Количество сцен (ед.)	Основные элементы
Природные описания, отражающие эмоции героев	59	34	Река Дон, весенние мотивы
Фольклорные мотивы в диалогах	36	21	Пословицы, народные песни
Психологический конфликт Григория Мелехова	62	32	Внутренние монологи, сомнения
Сцены гражданской войны и социального разрыва	43	24	Описание боев, разрушений
Юмористические элементы	25	14	Ирония, сарказм в диалогах

Заключение. Исследование романа «Тихий Дон» Михаила Шолохова выявило особенности художественного метода писателя, направленного на глубокое и многослойное отражение казачьего уклада в условиях исторических потрясений. Природные образы в романе, отражающие эмоциональные состояния персонажей, выступают ключевым символическим элементом, усиливающим трагизм повествования и подчёркивающим тесную связь героев с родной землёй. Фольклорные мотивы, выраженные в форме пословиц, казачьих песен и обычаев, укрепляют культурные особенности казачества, фиксируя их коллективную память и социальную идентичность.

Образ главного героя, Григория Мелехова, концентрирует в себе внутренние противоречия эпохи, в которой старые ценности вступают в конфликт с социальными и политическими изменениями. Произведенный анализ текстовых элементов, таких как диалоги и психологические описания, подтвердил значимость внутреннего конфликта Григория для построения сюжета, в котором его личные искания становятся выражением народной трагедии.

Выявленные структурные особенности, включая реалистичность описаний, значимость символики природы и фольклорных элементов, а также психологическую многослойность образов, формируют эпическую и одновременно глубоко личную картину жизни донского казачества.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Белкин Н. П. Река как символ в романе «Тихий Дон». — М.: Московский университет, 2002. — 189 с.
2. Безелянский Л. А. М. А. Шолохов и судьбы казачества в романе «Тихий Дон». — М.: Наука, 1990. — 272 с.
3. Борисова А. Г. Поэтика русской эпопеи. Творчество М. А. Шолохова. — СПб.: Изд-во СПбГУ, 1997. — 315 с.
4. Дубовский П. С. Эпопея и быт: анализ романа «Тихий Дон» М. Шолохова. — Саратов: Саратовский университет, 1986. — 298 с.
5. Жданов М. И. Социальная драма в романе Шолохова. — М.: Изд-во МГУ, 1989. — 241 с.
6. Иванова Т. В. Фольклор и традиции в «Тихом Доне». — М.: Литературная академия, 2001. — 212 с.
7. Козловская Т. Е. Образ природы в творчестве Шолохова. — Казань: Изд-во Казанского университета, 1985. — 203 с.
8. Кравченко А. Н. Культура и традиции в романах Шолохова. — Екатеринбург: Изд-во Уральского университета, 1992. — 240 с.
9. Кузнецов Ф. Ф. Смеховая культура и поэтика «Тихого Дона». — М.: ИМЛИ РАН, 2004. — 192 с.
10. Лебедев Р. Ю. Мировоззренческая основа творчества Шолохова. — СПб.: Научное изд-во СПбГУ, 2005. — 230 с.
11. Петрова С. М. Фольклорные мотивы в произведениях М. Шолохова. — Воронеж: Изд-во ВГУ, 1999. — 215 с.
12. Семенова С. В. Юмор и трагедия в романах Шолохова. — Волгоград: Волгоградский университет, 2001. — 172 с.
13. Смирнова Л. А. Идеиные конфликты в «Тихом Доне». — М.: Литиздат, 2003. — 198 с.
14. Черкасова И. А. Михаил Шолохов: пути героя в романе «Тихий Дон». — Ростов н/Д: Изд-во ЮФУ, 2003. — 256 с.
15. Шилов А. В. Историческая достоверность в романе «Тихий Дон». — М.: Просвещение, 1995. — 220 с.

O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA QISSA JANRI VA AYOL OBRAZI MUAMMOSINING TADQIQI

*Eshmatova Yulduz Boymaxmatovna,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
O'zbek va rus tillari kafedrasida dotsenti, PhD
munis_76@mail.ru*

Annotatsiya. Bugungi kunda o'zbek adabiyotida turli janrlarda olib borilgan ishlar salmog'i yuqori darajada tahlil qilingan. Mazkur maqolada o'zbek adabiyotshunosligida qissa janri va ayol obrazi muammosining tadqiqi xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: qissa, janr, obraz, adabiyotshunos, tadqiqot, badiiy risola, povest, atama.

ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОБЛЕМЫ ЖАНРА ПОВЕСТИ И ЖЕНСКОГО ОБРАЗА В УЗБЕКСКОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Аннотация. Сегодня в узбекской литературе на высоком уровне проанализирован вес работ, выполненных в разных жанрах. В данной статье речь пойдёт об исследовании жанра повести и проблемы женского образа в узбекском литературоведении.

Ключевые слова: повесть, жанр, образ, литературный, исследовательский, художественный, брошюра, повествование, термин.

STUDY OF THE STORY GENRE AND THE PROBLEM OF THE FEMALE IMAGE IN UZBEK LITERARY STUDIES

Abstract. Today in Uzbek literature, a high level of analysis of the work carried out in different genres has been carried out. This article will talk about the study of the short story genre and the problem of the image of a woman in Uzbek literature.

Keywords: short story, genre, image, literary critic, research, fiction, brochure, povest, term.

Kirish. O'zbek adabiyotshunosligida qissa janrini o'rganish XX asrda boshlandi. Shu kunga qadar adabiyotshunoslikda yaratilgan qator ilmiy monografiyalar, dissertatsiyalar, risolalar, maqolalarda qissa janrining o'zbek adabiyotida paydo bo'lishi, genezisi (xalq qissalari, mumtoz qissachilik, sho'ro davri qissachiligi) kabi ko'pdan-ko'p faktorlar atroflicha o'rganildi. Shu o'rinda qissa janrining ilmiy-nazariy takomili va hozirgi qiyofasiga nazariyotchi olimlarning munosabati, teran ta'riflari-yu qarashlari orqali nazar tashlashni maqsad qildik.

Ilmiy adabiyotlarda qissa bilan povest atamaları ikki tildagi bir janrning muqobili deb qaraladi. Janr genezisi, tarixiy taraqqiyotida, tabiiyki, mushtaraklik va farqli jihatlar bor. Bu atamalardan birining qamrovi torroq, ikkinchisining kengroq ekanini isbotlash muammo. Adabiyotshunoslikning muayyan davrlarida ba'zi tanqidchi va adabiyotshunoslar bahstlab mulohazalar bildirishgan. Adabiyotshunos olim A. Abrorov: janr evolutsiyasi haqida: "Povest janri qobig'ida yangi prozaik janr — qissachilik paydo bo'ldi"[1], desa, S. Mirvaliyev bu ikki termin bir atamaning muqobili emas, degan fikrni o'rta tashlaydi: "...qissa mazmuni ichki hajmi jihatidan endilikda povest tushunchasi mazmunini o'zida ifodalay olmayotganga o'xshaydi. Oqibatda qissa hikoya bilan povest janri o'rtasidagi mustaqil janr bo'lib qolmoqda"[2]. A. Abrorov fikrida davom etib: "Obid ketmon" asarida roman va povest janrining xususiyatlari chog'ishib, birikib ketgan. Aniqrog'i, bu ikki janr o'rtasidagi gibril asar sifatida maydonga kelgan"[3], degan xulosaga keladi.

Jumladan, akademik Izzat Sultonning "Adabiyot nazariyasi" kitobida qissa janriga quyidagicha munosabat bildirilgan: "Bir kishi va uning hayoti bilan bog'liq bo'lgan bir necha kishining taqdiri o'rtacha hajmda tasvir etilgan, ammo hayotning keng manzarasini chizib berishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ymaydigan asarlar povest janriga mansubdir. Povestda, odatda lirizm hikoya va romanga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Povestlarning ko'pincha birinchi shaxs, ya'ni taqdiri tasvir etilayotgan personaj nomidan yozilishi ham bejiz emas: povestda qahramon o'z boshidan kechirganlari haqida so'zlaydi. Povest o'zbek yozuvchilari va adabiyotshunoslari terminologiyasida ba'zan "qissa" termini bilan ham ifodalanadi. Bizningcha, klassik eposga taqlidan iste'mol etiladigan bu termini "povest" termini bilan parallel qo'llash unchalik asosli bo'lmasa kerak. Chunki, povestning qissadan farqlari ham bor: avval aytilganidek, "qissa"

ko'pincha ishqiy mazmunga ega, hozirgi zamon povestida esa ishqiy liniyaning bo'lishi shart emas"[4]. Ustoz adabiyotshunos 80-yillarda qissa janrining nazariy tabiati, uning rus va o'zbek adabiyotidagi namunalari, shuningdek, qissa janrining "povest" termini bilan aloqadorligi haqida aniq ilmiy mulohaza yuritadi. Ammo bu ta'riflar 80-yillarda yozilgan. Oradan qirq yil vaqt o'tdi. Bu esa oz fursat emas. Salkam yarim asrga teng keladi. "Qissa" janri ham mazmunan, ham shaklan o'sdi, takomillashdi, yangidan-yangi qissanavislar avlodi shakllandi va ular o'zbek qissachilik taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shishdi. O'zbek qissachiliri taraqqiyotiga 30-yillar, 40-yillar, 50-60-yillar, 70-yillar, 80-yillar adabiy avlodi kelib qo'shildi. Zamon, ijtimoiy davr epkinlari qissa janrining shakl va mazmuniy xarakterini ham o'zgartirib, yangilab turdi. Hozirgi o'zbek qissalarida badiiy uslub muammosi ahamiyatli. "Qissa uzoq adabiy-tarixiy jarayonni bosib o'tgan, badiiy mukammallik kasb etgan janrdir"[6]. Boshqa adabiy janrga nisbatan qissa xronologik zamon nuqtayi nazaridan ham ancha mukammallik kasb etadi.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Qissa dastlab xalq og'zaki ijodida shakllangan. Qahramon hayoti va sarguzashtlarini qiziqarli hikoya qiluvchi asarlar ("Ibrohim Adham qissasi", "Qissayi Mashrab", "Zufunun qissasi") elda juda mashhur bo'lgan. Avvaliga qissalar ham ijro qilingan, keyinchalik ularning bir qismi iqtidorli kishilar (ko'plarining ismi noma'lum) tomonidan adabiy qayta ishlanib, kitobat qilingan: qissalar endi xalq kitoblari sifatida yashay boshlagan. Shuningdek, janrning shakllanishi va takomilida payg'ambarlar haqidagi qissalar ham g'oyat muhim ahamiyat kasb etganini alohida ta'kidlash kerak. XX asrga kelib o'zbek adabiyotida yangi tipdagi qissa shakllandi: Hamzaning "Yangi saodat"i, Cho'lponning "xayoliy hikoya" deb sanagan "Do'xtur Muhammadiyor" – zamonaviy qissaning adabiyotimizdagi ilk namunalari sifatida sanalishi mumkin. Xullas, bu asarlarning barini umumlashtiradigan asosiy jihat – janr diqqat markazida qahramon turishi. Shu xususiyati bois "qissa" so'zi ilgari hamma vaqt qahramon ismi bilan birga qo'llangan va qahramon ismi bilan assosatsiyalangan. Natijada bu so'z "kimdir birovning hayotidan hikoya" ma'nosini anglatadi, ya'ni mohiyatan janrning asosiy belgisini ataydi"[7]. Kuzatib turganimizdek, hozirgi o'zbek adabiyotshunosligida adabiy turlarning tub ildizlarini oydinlashtirish, va janrlarning milliy zaminda vujudga kelish omillarini izlash harakatlari kuzatilmoqda. Bu, albatta, ijobiy hol. Izzat Sulton juda katta nazariyotchi va analitik olim. Shunga qaramasdan, I.Sultondek olimning ijodiy ilmiy ongiga va qarashlariga mavjud ijtimoiy va adabiy muhit ham o'z ta'sirini o'tkaza olmagandek. Shu ma'noda, akademik Izzat Sulton qarashlarida ham tabiiyki, milliy adabiy muammolarni sho'ro mafkurasi nigohi, rus adabiyotshunosligining qarichi bilan o'lchash holati seziladi. "Ilm igna bilan quduq qazish" deganlaridek, akademik Izzat Sultondan so'ng ham, o'zbek adabiyotshunosligining adabiyot nazariyasi sohasi ham qandaydir darajada rivojlanib, shakllandi.

Shu ma'noda, D.Quronov qissa janrining o'zbek adabiyotida vujudga kelishini xalq qissachiligi bilan bog'lashi, adabiy qissaxonlikning asrlar osha yashab kelishi, zamonaviy o'zbek qissachiligi uchun juda katta zamin bo'lganini asoslab ko'rsatishi milliy adabiyot nazariyasi vujudga kelganini ko'rsatadi. Olimning fikrlariga qo'shimcha qilish mumkinki, qissa janrining genezisi xalq qissachiligi bilan tutashib ketishidan tashqari, Islom dinining samoviy kitobi "Qur'oni karim"ning bir qancha suralarida naql qilingan diniy qissalar bilan ham bog'lanadi. Qur'on suralari va oyatlarida payg'ambarlar haqidagi qissalar keltiriladi. Suralarda aks etgan mazkur qissalar ham o'zbek adabiyotidagi zamonaviy qissa janrining qadim ildizlari sifatida o'rganilishi mumkin. Jumladan, "Yusuf va Zulayho qissasi", "Sulaymon va Bilqis hikoyati", "Namil hikoyati", "Zayd va Zaynab haqidagi voqea" va boshqalarni qissa janrining diniy manbalardagi ildizlari sifatida tadqiq etish mumkin.

Bu o'rinda qissa janri xususida maxsus ilmiy izlanish olib borgan A'zam Qozixo'jayevning tadqiqotini eslash o'rinli. Zero, tadqiqotchi "Qissa" janrining sho'ro adabiyotidan emas, aslida sharqda azalda, islomiy dunyo adabiyotida yaratilgan diniy qissalarning ahamiyati haqida nihoyatda jo'yali fikrlar bildiradi. Masalan, "Qissa arabcha "qassa", "qassatun" so'zlaridan olingan bo'lib, qissa qilmoq, hikoya qilmoq, qissasi, ya'ni muayyan shaxsning hayotidan bir lavha degan ma'noda qo'llanadi"[8]. Adabiyotshunoslik qissa atamasiga tarixiy, nazariy, zamonaviy aspektda qaraydi. Bunday qarashlar qorishiq holda bir-birini to'ldirib keladi. Demak, qissa so'zi o'zbek adabiyotiga islom dini orqali arab tilidan o'tgan va istilohiy ma'no kasb etgan. Xususan, Qur'oniy qissalarning atama va janr ibtidosida alohida o'rni mavjud. Qissa janri spetsifikasiga nazar tashlar ekanmiz, aynan ilohiy mohiyatga yaqinlashib kelgan qissalar epik turning yorqin namunasi sifatida ko'zga tashlanishi kuzatildi. Qissaning bu oliy ko'rinishi barcha zamon qissalari uchun namuna vazifasini o'tashi mumkin"[9]. Kuzatib turganimizdek, sinchkov tadqiqotchi o'zbek adabiyotida qissa janrining adabiy istiloh sifatida paydo bo'lishi, shuningdek, janr sifatida vujudga kelishini xalq mifologiyasidan tashqari, din bilan bog'laydi. Umuman olganda, ushbu kichik tadqiqot nihoyatda katta manbalarga tayanilib asoslangan. Qissa janriga yarim asr davomida "qissa sho'ro davrida rus adabiyotidan kirib keldimi?", yoki aslida "sharqda bu janr bormidi?" degandek savollarga aniq javob beradi. Qolaversa, olim sho'ro adabiyotshunosligida siyqasi chiqib ketgan munozara maydoniga aylangan "qissa" va "povest"

atamalarini ilmiy izchillikda izohlaydi. I.Sulton qarashlarida esa rus adabiyotshunosligining ilmiy-nazariy g'oyalari ustunlik qilgani anglashiladi. Jumladan, I.Sultonning "povest" va "qissa" janrining ikki milliy adabiyotdagi bitta janr nomi ekanligiga e'tiroz bildirishi, bahsli. Bu bahslarga munosabat A.Abrorov kabi bir qator olimlarning ishlarida kuzatiladi. Ular I.Sultonning fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda, "povest" janrini rus adabiyotidan kirib kelgani uchun oliy navli janr, qissani esa sal past navli janrga chiqarishdi. Vaqti kelib, bunday qarashlar ham barham topdi, albatta. Xususan, adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov tomonidan dadil turib, "povest" va "qissa" terminlari bitta janrning muqobil varianti ekani va ular bir-birining o'rnida qo'llanaverishini e'tirof etdi. Bu juda to'g'ri xulosa edi. Mazkur masalaga o'zbek qissachiligining taraqqiyot muammolarini tadqiq etgan A.Xolmurodovning doktorlik dissertatsiyasida izchil va xolis fikrlar bildirilgan[10].

Natijalar va ularning tahlili. Anchayin bahslarga qaramasdan, I.Sulton va D.Quronov o'z davri adabiyotshunosligi uchun qissa janri kriteriyalari va adabiy kanonlarini aniq va ixcham shaklda anglatib va tushuntirib bera olgani juda katta tahsinga sazovor ish qilishganini qayd etish kerak. I.Sultonning "Adabiyot nazariyasi" kitobi hamon adabiyotshunoslar va mutaxassislar qo'lidan tushmay kelayotgan muhim qo'llanma ekanini hech birimiz inkor etmaymiz. Ammo ilm rivojlandi, shu qatorda o'zbek adabiyotida qissa janrining yangi-yangi qirralari, janr imkoniyatlari paydo bo'ldi. Har holda zamonaviy o'zbek qissachiligini Istiqlol davri mafkurasi bilan o'rganish tendensiyasi so'nggi yillarda yaratilgan Y.Solijonov, A.Qozixo'jayev, A.Xolmurodov, M.Qo'chqorova, M.Sheraliyeva, F.Radjapova, D.Xoldorov, O.Shofiyev ishlarida kuzatiladi.

Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti olimlari tomonidan 1994-yilda chop etilgan "O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jidlik. 1917-1985." kollektiv monografiyasiga ham "Qissa janri" maxsus fasl sifatida kiritilgan[11]. Unda shunday deyiladi: "O'zbek nasridagi qissa o'tgan o'n yillikda yaratilgan bo'lib, bugungi kunda hamon yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. 60-yillarda paydo bo'lgan bu janr rivojlanishi tobora kuchayib bormoqda. So'nggi o'n yillikda qissa, nafaqat miqdoriy jihatdan (70-80-yillarda o'zbek nasriy yozuvchilari tomonidan yozilgan yuzlab hikoyalar) ustunlik qilmoqda, balki adabiy va tematik jihatdan badiiy uslub jarayonida ham ishtirok etmoqda. Ijodkor yoshlar ushbu janrda yetuk ustalar bilan muvaffaqiyatli ishlashadi, uni yangi dunyoqarash, turli xil uslublar va badiiy mahorat bilan boyitadilar. Uzoq tarix, 1941-1945-yillardagi dahshatli urush, zamondoshning axloqiy tabiati, bizning aslimiz va uning rivojlanishidagi voqealik – zamonaviy o'zbek voqealarining tematik doirasi. Bu jarayonda yozuvchilar qanday qilib yangi qirralarni kashf etishini, o'tmishdagi axloqiy saboqlarni va bugungi kun mavzularini o'rganish uchun yangi imkoniyatlarni ochishini aniq ko'rish mumkin"[12]. Mazkur tadqiqotda o'zbek qissachiligiga ulkan hissa qo'shgan N.Qobul, T.Murod, M.M.Do'st, O'.Umarbekov, G'.Hotamov, E.A'zam, E.Usmonov, S.Siyoyev, M.Mansur, N.Normatov, O'.Hoshimov, X.Sulton, Rahim Bekniyoz kabi o'nlab qissanavislar ijodi tahlil etilgan. Haqiqatan ham, nomlari tilga olingan mualliflar o'zbek qissachiligining ajoyib, barkamol badiiy namunalarni yaratishdi. Bu o'rinda "Oydinda yurgan odamlar", "Ot kishnagan oqshom" (Tog'ay Murod), "Saodat sohili", "Oy botgan pallada" (Xayriddin Sulton), "Dunyoning ishlari", "Bahor qaytmaydi" (O'.Hoshimov), "Otoyining tug'ilgan yili", "Javob" (E.A'zam), "Galatepaga qaytish" (M.Muhammad Do'st), "Quduq tepasidagi oy" (G'.Hotam), "Yaxshilarga yondoshdim" (S.Siyoyev), "Hammaning yashagisi keladi" (M.Mansur) kabi qissalarni alohida e'tirof etish o'rinli.

Adabiyotshunos A.Rasulovning "Sovet davri zamonaviy o'zbek qissachiligida yosh qahramon xarakteri masalasi" nomzodlik dissertatsiyasida ham qissa janri va unda yoshlar obrazi o'rganildi. Qahramon xarakterini o'rganish tendensiyasi olimning eng so'nggi tadqiqotlarigacha davom etdi. Jumladan, olimning mazkur ilmiy kuzatishlari nafaqat qissa janrida, qolaversa, roman, dostonlarda voqe' bo'lganini "Badiiylik – bezavol yangilik" monografiyasida ham kuzatish mumkin.

Tadqiqotchi A.Abrorov o'zining "O'zbek povesti" monografik tadqiqotida qissa janrining o'zbek adabiyotida paydo bo'lishi, shakllanishi, termin tarixiga ("povest" terminiga) nazar tashlaydi, so'ngra mazkur janrda zamonaviylik, yangicha janr ko'rinishlari, asosiy qahramon mavzusi (ishchi obrazi), yangi inson obrazining shakllanishi kabi muhim nazariy masalalarga diqqatni qaratadi. Tadqiqotchi "povest" va "qissa" terminlari borasida I.Sulton qarashlarini qo'llab-quvvatlaydi. Uning o'zbek qissachiligini o'rganishga bag'ishlangan monografiyasidan so'ng doktorlik dissertatsiyasi yaratilgan[13]. Tabiiyki, muallifning mazkur ilmiy izlanishlari o'z davri uchun o'zbek qissa janrining o'rganilishi borasidagi ilk yirik tadqiqotlardan biri sifatida qoladi. A.Abrorovning ilmiy-ijodiy tadqiqotlariga hamohang N.Xolliyevning «Ijtimoiy problema va badiiy obraz» risolasida 70-yillar o'zbek qissachiligida yoshlar obrazi va oila muammosi tadqiq etilganligi bilan e'tiborni tortadi[14]. Shuningdek, A.Rashidovning nomzodlik ishida ham o'zbek qissachiligida yaratilgan Ishchi sinfini, Ishchi qahramonini yoritishida ma'naviy-axloqiy muammolar masalasi o'rganilgan.

Xulosa. Umuman olganda, 70-80-yillarda yaratilgan dissertatsion ishlarda, asosan, o'zbek qissachiligida yaratilgan obrazlar (yoshlar obrazi, ishchi obrazi, ishchi sinfi) talqini, qahramon xarakteri, ma'naviy-axloqiy muammolar, ishchi sinfi kun qahramoni kabi sho'ro mafkurasini o'zida tashuvchi ilmiy

muammolar yoritilganini kuzatish mumkin. Yaratilgan badiiy material ham shunga yarasha albatta. Bundan tashqari, S.Zaxidov, K.Tagmatov, M.Tenglashev, G.Toshpo'latovlarning nomzodlik dissertatsiyalarida ham 60-80-yillar sovet davri o'zbek qissachiligiga xos janriy va uslubiy tendensiyalar, qahramonning ma'naviy olami va o'zbek qissachiligidagi yangicha badiiy izlanishlar masalasi M.M.Do'st, T.Murod, G'.Hotam qissalari misolida atroflicha va jiddiy o'rganilgan[15]. 80-yillarda yaratilgan o'zbek qissachiligi bo'yicha yozilgan dissertatsiyalarning umumiy ilmiy saviyasi 60-70-yillarda bajarilgan tadqiqotlardan ancha ustunlik kasb etadi. Buning bitta sababi bu davr adabiyotida yangicha badiiy-uslubiy izlanishlar, sho'ro mafkurasi iskanjasidan xoli bo'lgan chinakam qissalar yaratilgani bilan belgilanadi. Bu davrda O'.Umarbekov, U.Nazarov, O'.Hoshimov, Sh.Xolmirzayev, E.A'zam, X.Sulton, M.Muhammad Do'st, G'.Hotam kabi mahoratli qissanavislar avlodi o'zbek prozasini yangicha ijodiy uslubiy izlanishlari bilan yangiladi.

ADABIYOTLAR:

1. *Abrorov A. O'zbek povesti. – Toshkent: Fan, 1973. – B. 88.*
2. *Mirvaliyev S. O'zbek romani, – Toshkent: Fan, 1969. – B. 277.*
3. *Abrorov A. O'zbek povesti. – Toshkent: Fan, 1973. – B. 89.*
4. *Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – B. 248.*
5. *Xoldorov D. Hozirgi o'zbek qissalarida badiiy uslub muammosi (Shoyim Bo'tayev va Nazar Eshonqul qissalari misolida): Filol. fan. b-cha. f-fa. d-ri. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2017.– B. 11.*
6. *Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademyashr, 2018. – B. 377.*
7. *Al-imunjid fil -lug'ati va-a – a'lam. – Bayrut: Dor ul-mashriq, 1986. Arabsko-russkiy slovar. – Toshkent: Kamalak, 1994.*
8. *Qozixo'jayev A. Qissa janri haqida/XX asr o'zbek adabiyoti masalalari. N.Karimov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plami.–Toshkent: Fan, 2012.–B. 206.*
9. *Xolmurodov A. O'zbek qissachiligi: taraqqiyot muammolari: (XX asrning so'nggi choragi misolida) Filol. fan. d-ri ...diss. – Toshkent, 2008. – B. 15-35.*
10. *История узбекской литературы. В пяти томах. 1917-1985. 4-5-том. – Ташкент: Фан, 1994. – С. 38-70. Мазкур коллектив монография Фанлар академияси Тил ва адабиёти институти олимлари академик С.Мамажонов, ф.ф.д., Н.Владимирова, ф.ф.н. М.Султонова, ф.ф.д. А.Камтабеков, ф.ф.н. А.Раҳимов, ф.ф.н. И.Фафуров томонидан тайёрланган.*
11. *История узбекской литературы. В пяти томах. 1917-1985. 4-5-том. – Ташкент: Фан, 1994. – С. 38-39.*
12. *Abrorov A. O'zbek sovet povestining tarkib topishi va taraqqiyoti: Filol. fan. d-ri ...dis. – Toshkent: 1975.*
13. *Xolliyev N. Ijtimoiy problema va badiiy obraz. – Toshkent: O'zbekiston, 1977. – B. 24.*
14. *Рашидов А. Проблема духовно-нравственного становления героя в узбекской повести о рабочем классе: дисс. канд. филол. наук. – Ташкент: 1981;*
15. *Захидов С. Жанровые и стилистические особенности советской узбекской повести (60-80 г): дис. канд. филол. наук. – Ташкент: 1982;*
16. *Тагматов К. Нравственный мир героя и художественные искания в узбекский повести (1960-1970 гг): дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981;*
17. *Тенглашев М. Особенности конфликта в узбекских повестях 80-х годов: дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1989;*
18. *Ташипулатов Г. Нравственные искания в современной узбекской повести (М.М.Дуст, Тагай Мурод, Г.Хатам): дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент: 1993.*

DEN BRAUNNING DETEKTIV JANRI RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

Safarova Zilola Tolibovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti
Niyazova Dilnoza Jo‘rayevna,
Buxoro davlat universiteti magistranti
d.j.niyazova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy Amerika adabiyotining yorqin vakili Den Braunning detektiv janri elementlarini yaratishdagi o‘ziga xos uslubi va mahoratini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Adabiyotshunoslarning fikricha, Braun tarix, san‘at, din va ilm-fanni murakkab syujetlar va jumboqlar bilan birlashtirgan holda janrni zamonaviylashtirgan yozuvchidir. Muallif sirli va kutilmagan voqealar bayonini ustalik bilan rivojlantirib boradi, kitobxonni shubha-gumonlar girdobiga tashlaydi. Maqolada Braunning “Da Vinchi siri”, “Raqamli qal’a”, “Yo‘qotilgan ramz” kabi romanlarida turli kodlar, ramzlar, belgilar va fitna nazariyalari qanday ishlatilgani, va bu yangi shakldagi detektiv adabiyot namunalari qanday qilib intellektual kitobxonlarni o‘ziga jalb etganligi haqida so‘z boradi. Shuningdek, muallif asarlarining zamonaviy detektiv janri rivojidadagi o‘rni muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: detektiv janr, Da Vinci kodi, fitna nazariyalari, kodlar, ramzlar, san‘at, tarix, din, adabiyot evolyutsiyasi, intellektual qiziqish, tezkor syujetlar.

ВКЛАД ДЭНА БРАУНА В РАЗВИТИЕ ДЕТЕКТИВНОГО ЖАНРА

Аннотация. Эта статья посвящена анализу уникального стиля и мастерства яркого представителя современной американской литературы, Дэна Брауна, в создании элементов детективного жанра. По мнению литературных критиков, Браун — писатель, который модернизировал жанр, сочетая историю, искусство, религию и науку со сложными сюжетами и загадками. Автор мастерски развивает описание таинственных и неожиданных событий, погружая читателя в водоворот сомнений. В статье рассматривается, как в романах Брауна, таких как «Код да Винчи», «Цифровая крепость», «Утраченный символ», используются различные коды, символы, знаки и теории заговора, и как эта новая форма детективной литературы привлекает интеллектуальных читателей. Кроме того, обсуждается роль произведений автора в развитии современного детективного жанра.

Ключевые слова: Дэн Браун, детективный жанр, Код да Винчи, теории заговора, коды, символы, искусство, история, религия, эволюция литературы, интеллектуальная привлекательность, динамичные сюжеты.

CONTRIBUTION OF DAN BROWN TO THE DEVELOPMENT OF DETECTIVE GENRE

Abstract. This article is devoted to the analysis of the unique style and skill of a bright representative of modern American literature, Dan Brown, in creating elements of the detective genre. According to literary critics, Brown is a writer who has modernized the genre by combining history, art, religion and science with complex plots and puzzles. The author masterfully develops the description of mysterious and unexpected events, throwing the reader into a whirlwind of doubts. The article examines how various codes, symbols, signs and conspiracy theories are used in Brown’s novels such as “Da Vinci Code”, “The Digital Fortress”, “The Lost Symbol”, and how this new form of detective fiction appeals to intellectual readers. In addition, the role of the author’s works in the development of the modern detective genre is also discussed.

Keywords: detective genre, Da Vinci Code, conspiracy theories, codes, symbols, art, history, religion, literature evolution, intellectual appeal, fast-paced plots.

Kirish. AQSH zamonaviy adabiyoti rivojida ko‘plab so‘z san‘ati namunalarining mualliflarini sanab o‘tish mumkin. Bular orasida o‘ziga xos romanlari, qissa hamda hikoyalari bilan sezilarli hissa qo‘shgan zabardast romannavis sifatida Den Braunni qayd etmaslikning iloji yo‘q.

Den Braun ijodini qator adabiyotshunoslar va tadqiqotchilar tadqiq qilishib, muallif ijodi, xususan, uning “Da Vinchi siri”, “Farishta va Shaytonlar”, “Yo‘qotilgan ramz” kabi asarlarida sirli va diniy ramzlar,

tarixiy hodisalar va maxfiy jamiyatlar tasviri bilan bog'liq muammolar keng o'rganildi. Marsha K. Koontz yozuvchi asarlarida din va sirli jamiyatlarning talqin qilinishiga katta e'tibor qaratsa, Sharon K. Greenhill Den Braun asarlarida ayol obrazlari, romanlarda madaniy va diniy mavzular tahlilini tadqiq qildi. Richard A. Burrige adib asarlarining ilohiyot bilan bog'liqligi va tarixiy asoslanganligi haqida fikr yuritib, ayniqsa, "Da Vinchi kodi" romanidagi tarixiy faktlarga yondashuvni tahliliy bayonini keltiradi. Graham Holderness Den Braun romanlaridagi tarix va afsona mavzulari bilan qiziqib, tarixning qanday talqin qilinishi va undan badiiy usulda qanday foydalanilganini keng o'rgandi hamda o'z tadqiqotida asoslab berdi. Simon Cox Den Braun asarlaridagi maxfiy jamiyatlar va ularning ramzlari haqida batafsil izohlar keltirib, "Cracking the Da Vinci Code" kitobi orqali Den Brauning sirli mavzularini keng ommaga batafsil tushuntirib bera oldi.

Den Braun ijodini o'rganish ko'plab ilmiy maqolalar, tadqiqotlar va kitoblarda davom etmoqda, va uning asarlari ommabop adabiyot va diniy tarixni birlashtirgan holda zamonaviy badiiy yondashuvni o'rganuvchi tadqiqotchilar tomonidan keng tahlil qilinadi.

Mazkur maqolada Den Braun ijodi, romanlarining poetik xususiyatlari, detektiv janr an'analari asarlarida davom etishi, detektiv janriga tegishli elementlarning yaqqol kuzatilishini umumiy tahlillarimiz asnosida bayon qilamiz.

Den Brauning ilk romanlari orasida "Farishtalar va Shaytonlar" va "Da Vinchi siri" asarlari detektiv janrining yangi yo'nalishini yaratishda muhim rol o'ynaydi. "Farishtalar va Shaytonlar" (2000) ilk bor o'quvchilarga professor Robert Langdonni tanishtirdi. Bu obraz ilmiy bilim va san'at tarixini sirli jinoyatlarni fosh etishda qo'llagan asosiy qahramonlardan biri sanaladi. Roman Vatikan ichidagi sirli fitnalar, Illuminatlar kabi qadimiy tashkilotlar va ularning shifrlari haqida hikoya qiladi, bu esa uni butun dunyoda mashhur qildi.

Asosiy qism. 2003- yilda nashr etilgan "Da Vinchi siri" romani esa Den Brauning dunyoga tanilishiga katta turtki berdi. Romanda turli madaniy va diniy mavzular, jumladan, Templerlar ordeni, Muqaddas Grail afsonasi va Leonardo da Vinchi san'ati atrofida sirli syujet yaratiladi. "Da Vinchi siri" mashhur san'at asarlarida yashiringan shifrlangan kodlar orqali bir necha jumboqlarni ochish jarayonini o'z ichiga oladi, bu o'quvchilarni o'ziga jalb qiluvchi uslub deya, bemalol ayta olish mumkin. Roman tezda bestsellerga aylandi, dunyo bo'ylab millionlab nusxada sotildi va o'nlab tillarga tarjima qilindi. Bu asarlar orqali Den Braun diniy va tarixiy mavzularga qiziqishni oshirdi va detektiv janrining ommaviylashishiga ulkan hissa qo'shdi.

Den Braun asarlarida ilmiy haqiqatlar va tarixiy hodisalarni badiiy hikoya bilan uyg'unlashtirish uslubi uning detektiv janrida o'ziga xos o'rin egallashiga sabab bo'ldi. Uning eng mashhur asarlaridan biri "Da Vinchi siri" romanida ilmiy haqiqatlar va tarixiy tafsilotlar san'at, din va tarix bilan mujassamlashgan sirli hikoya bilan chiroyli birlashtirildi. Yozuvchi rivoyaning o'zagi sifatida tarixiy ma'lumotlar va ilmiy nazariyalarni olib, ularni badiiy fantastika bilan birlashtirib, o'quvchini qiziqtiruvchi syujet yarata oldi.

Den Brauning uslubi tarixiy dalillarni hikoya davomida tabiiy yo'l bilan kiritishiga asoslanadi, ammo o'quvchida ilmiy yoki tarixiy mavzularni o'qiyotgandek taassurot qoldirmaydi. U san'at asarlari, qadimiy diniy manbalar, yashirin tashkilotlar va qadimgi shifrlash usullariga oid bilimlarni qahramonlari orqali yetkazadi, bu esa o'quvchini ilmiy izlanishlar va tarixiy hodisalar haqida kengroq o'ylashga undaydi. Masalan, "Da Vinchi siri" asarida Leonardo da Vinchi san'ati va uning qiziqarli shifrlari haqida ma'lumot beriladi, shu bilan birga Templerlar ordeni va Muqaddas Grail kabi tarixiy tushunchalar bilan tanishtiriladi. Bu unsurlar o'quvchini tarixiy haqiqatlar bilan tanishtiradi va ularni badiiy tasvir orqali yanada hayajonli qiladi.

"The Rose," he whispered. The Rose is Magdalene is the Holy Grail. The Rose is the compass that guides the way. Teabing felt foolish. For years he had traveled to cathedrals and churches all over France, paying for special access, examining hundreds of archways beneath rose windows, searching for an encrypted keystone. La clef de voûte—a stone key beneath the sign of the Rose

Den Brauning "Da Vinchi siri" romanida go'yoki, Leonardo da Vinchi sirlari roman davomida turli boblarda ochib beriladi, lekin asosan kitobning o'rtalariga yaqinlashgan boblarda va Syur Teabing bilan uchrashuv sahnalarida batafsil tasvirlanadi. Syur Teabing — mashhur olim va Da Vinchi asarlaridagi ramzlarni ochish sirlarini biluvchi personaj bo'lib, uning dialoglari orqali Leonardo da Vinchi asarlarida yashiringan diniy va ramziy ma'nolar haqida ko'p ma'lumotlar beriladi.

Aniqroq qilib aytganda, Syur Teabing va Robert Lengdonning "Oxirgi kechlik" va "Mona Liza" kabi rasmlarni tahlil qilgan sahnalari orqali sirlar ochiladi. Aynan ushbu bo'limlarda Teabing va Lengdon Leonardo da Vinchingin rasmiy uslublari, maxfiy belgilar, va yashirin ishoralar orqali qimmatli diniy ma'lumotlarni topishga harakat qiladilar. Yuqorida keltirilgan parcha ham qahramonning ramz orqali tarixiy haqiqatni anglashga harakat qilishi, uning yillar davomida izlangani, sirlarni ochishga qattiq kirishganini yaqqol tasvirlab beradi. Atirgul ramz sifatida ko'plab haqiqatlarni o'zida jamlangani, jumboqlar orasida yo'l

ko'rsatuvchi mayoq ekani izohlanadi. Bu boblarda qahramonlar Da Vinching rasmlarida Katolik cherkovi tomonidan yashirilgan haqiqatlar borligiga ishoniradi va shu orqali asar asosiy konfliktlari yuzaga chiqadi.

"Farishtalar va Shaytonlar" asarida esa ilm va din munosabati qiziqarli tarzda tasvirlanadi. Romanda fizikaviy olamning sirlarini o'rganish bilan birga dindorlarning tarixiy e'tiqodlariga oid masalalar o'rtasidagi qarama-qarshilik aks ettiriladi. Bu yerda Den Braun antimateriya va u bilan bog'liq

ilmiy tushunchalarni diniy e'tiqodlar bilan uyg'unlashtirib, o'quvchini din va fan o'rtasidagi tarixiy va falsafiy bahslarga jalb qiladi. Adib tarixiy hodisalarga ishora qilgan ekan, ilmiy haqiqat va taxminlarni hikoya ichida o'quvchiga tushunarli, shu bilan birga hayajonli uslubda yetkazadi.

Den Braunning bu uslubi shuni ko'rsatadiki, u o'z o'quvchilarini nafaqat o'z hikoyasi bilan, balki ilmiy va tarixiy bilimlari bilan ham o'qitishni maqsad qiladi. Den Braun rivoyalari joylangan ilmiy va tarixiy unsurlar aslida uning o'quvchilarga tarix va san'atga oid qiziqarli haqiqatlarni yetkazish vositasidir. Uning romanlari faqat detektiv rivoya emas, balki tarixiy bilimlarni ham o'rgatuvchi asarlar sifatida qadrlanadi. Shu tariqa Den Braun ilmiy va tarixiy ma'lumotlarni detektiv janrga integratsiya qilish orqali keng kitobxonlar ommasining e'tiborini qozonadi va o'quvchilarni ilmiy kashfiyotlar va tarixiy faktlarga yanada yaqinlashtiradi.

Den Braunning hikoya texnikasida ilmiy va tarixiy ma'lumotlardan foydalangani, ayniqsa detektiv janrda o'ziga xos tahliliy yo'nalish yaratadi. Qahramonlar kodlarni yechishda ilm va tarixiy bilimlardan foydalanishadi, bu esa o'quvchini faqat voqealar oqimi bilan emas, balki bilimlar dunyosiga ham olib kiradi. Shu tariqa Den Braun o'quvchilarga ilmiy va tarixiy faktlarni badiiy hikoya orqali yetkazadi va detektiv janrning ko'lami va estetik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Den Braunning muammoni yechishdagi aql o'yinlari va qahramonlarning ongida sodir bo'ladigan o'zgarishlar orqali o'quvchilarni jalb qilish uslubi uning asarlarini boshqa detektiv janrdagi asarlardan ajratib turadigan o'ziga xos jihattir. Den Braunning romanlari ko'pincha murakkab shifrlangan xabarlar, maxfiy kodlar, tarixiy sirlar va yashin tezligida ketayotgan voqealar zanjiriga asoslanadi. Bu elementlar orqali u o'quvchilarni intellektual sayohatga jalb qiladi va muammoni yechish jarayonini doimiy izlanishlar bilan boyitadi:

"Taking a deep breath, Teabing feasted his eyes upon the engraving. He said nothing for a very long time. With each passing second, Teabing felt his confidence deflating. "I'm astonished," he said. "This language looks like nothing I've ever seen!"

Mazkur parchada Syur Teabing obrazida kechayotgan tizginsiz ruhiy holatni aks ettirib, uning chuqur tin olishi, diqqatini qaratishi, uzoq muddat sukut saqlashi, daqiqa sayin bo'layotgan undagi o'zgarishlarni batafsil yoritadi. Qahramon badiiy jarayonda juda hayratlangani, tarix, o'tmishdagi ota-bobolarning dono va zukko bo'lishgani, ularning donishmandligi oldida lol ekani batafsil qalamga olinadi.

Den Braunning qahramonlari, xususan, professor Robert Langdon, muammolarni hal qilishda ilmiy bilim va madaniyat tarixini qo'llab, murakkab jumboqlarni yechishga intiladi. Har bir jumboqning yechimi yangi qiyinchilikni keltirib chiqaradi, bu esa voqealar zanjirining uzluksizligini ta'minlaydi. Masalan, "Da Vinchi kodi" asarida Langdon va uning sherigi Sofi Nevu qadimiy san'at asarlaridagi yashirin kodlarni tushunish orqali sirlarni ochishga harakat qiladilar. Bu kodlarni yechish o'quvchilarni tarixiy haqiqatlar va diniy mavzular bilan yuzlashtiradi. Kodlarning yechimlari orqali Langdon qadam-baqadam sirlarni ochib borar ekan, o'quvchi ham u bilan birga intellektual jarayonda ishtirok etadi.

Den Braunning muammoni yechish uslubi aql o'yinlari va ziddiyatli tafsilotlarni kiritish orqali o'quvchilarni voqealarga jalb qiladi. Har bir topilgan dalil yoki yechilgan kod keyingi jumboqqa yo'l ochadi, bu esa qahramonlarning shaxsiy rivoji va tafakkur jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Har bir yechim o'z o'rnida yangi savollarni tug'diradi va o'quvchi muammoning haqiqiy ildiziga yetguncha bir necha marta taxminlar kiritadi, bu esa asarga qiziqishni oshiradi. Masalan, "Inferno" asarida Robert Langdon global xavfni oldini olish uchun Dante Aligerining asarlarida yashiringan sirlarni topishga urinadi. Bu o'quvchilarni nafaqat asar qahramonlari bilan birgalikda sirlarni ochish jarayoniga olib keladi, balki Dantening asarlarini qayta tahlil qilishga ham undaydi.

Den Braunning aql o'yinlari orqali qahramonlar ongida sodir bo'ladigan o'zgarishlar ham o'quvchilarni o'ziga jalb qiladi. Asarlar davomida qahramonlarning qarashlari va tushunchalari o'zgaradi; ular voqealar, kashfiyotlar va topilmalar orqali yangi haqiqatlarni anglab yetadilar. Bu ongiy o'zgarishlar orqali o'quvchi qahramonning ichki olamini his qiladi va ular bilan birga o'z fikrlarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi. Langdonning doimo yangi haqiqatlarni ochishga tayyorligi, u duch keladigan muammolarga mantiqiy va ehtiyotkorona yondashishi o'quvchilarni muammoga yanada chuqurroq kirib borishga undaydi.

Shuningdek, Den Braun qahramonlarning fikrlash jarayonini tasvirlashda kinematik uslubni qo'llaydi, bu esa asardagi harakatni vizual tasavvur qilishga imkon beradi. Tasvirlarning jonli va tezkorligi orqali u o'quvchilarning tasavvurini qo'zg'atadi, ularni muammolar va aql o'yinlari ichiga chuqurroq tortadi. Har bir

yechim yangi savol tug'dirgani kabi, har bir jumboq ham yangi izlanishga yo'l ochadi. Bu tarzda Den Braun asarlari doimo o'quvchilarni tafakkur qilishga va o'z farazlarini sinab ko'rishga undaydi, bu esa ularni asarning oxirigacha ushlab turishga xizmat qiladi.

Den Braunning muammoni yechishdagi aql o'yinlari va qahramonlar ongidagi o'zgarishlar orqali voqealarni rivojlantirishi o'quvchilarni qahramonlarning ichki va tashqi sayohatlari bilan yanada yaqinroq bog'laydi. Natijada, o'quvchi ham o'zini muammoni hal qilish jarayonining bir qismi sifatida his qiladi, bu esa asarlarni yanada jozibador va esda qolarli qiladi.

Den Braunning romanlarida kod va shifrlar muhim o'rin tutadi, chunki ular qahramonlarni sirli izlanishlarga undash vositasi hisoblanadi. Den Braun kod va shifrlarni nafaqat voqealarni rivojlantiruvchi unsurlar sifatida, balki asar mavzulariga chuqurlik beruvchi, o'quvchini qiziqtiruvchi element sifatida ham qo'llaydi. Ushbu elementlar orqali u murakkab va sirli syujetlarni yaratadi, shu bilan birga o'quvchini qahramonlar bilan birga jumboqni yechishga taklif qiladi.

Den Braunning kod va shifrlardan foydalanishi uning qahramonlarini jismonan va ruhan izlanishga majbur qiladi. Masalan, "Da Vinchi siri" asarida Robert Langdon va Sofi Nevu o'zlarini qotillik voqeasi markazida topadilar. Voqea joyida ko'plab kodlangan xabarlar va belgilar mavjud bo'lib, ularni faqatgina san'at tarixi va diniy belgilar haqidagi chuqur bilim orqali yechish mumkin. Leonardo da Vinchi asarlarida yashiringan shifrlangan xabarlarini o'qish orqali qahramonlar tobora murakkablashib boruvchi sirlarni ochish yo'lida bir qator aqliy o'yinlarni yechadilar. Bu jarayon Langdon va Sofining har bir qadamini boshqaradi va ulardan doimiy aqliy faollik talab qiladi. Shu tarzda, kodlarni yechish faqat detektiv voqea rivojini ta'minlab qolmay, qahramonlar ruhiy va jismoniy kuch sarflaydigan o'ziga xos izlanish yo'liga tushishlariga sabab bo'ladi.

Kodlar va shifrlar yordamida Den Braun o'quvchini tarixi va diniy afsonalar bilan tanishtirishda yangi uslub qo'llaydi. "Farishtalar va Shaytonlar" asarida, masalan, Robert Langdon Vatikan bilan bog'liq qadimiy sirlarni ochishga urinadi. Illuminatlar kabi maxfiy tashkilotlar tomonidan qoldirilgan shifrlangan xabarlar qahramonlarni butun dunyo bo'ylab izlanishlar qilishga majbur qiladi. Bu asarda shifrlash Den Braun uchun faqatgina voqeani oldinga suruvchi unsur emas, balki ma'lum bir ramziy ma'noni ham anglatadi. Kodlarni tushunish va yechish orqali Langdon nafaqat qotilliklarning sabablarini, balki tarixiy haqiqatlarni, yashirin ilmlar va tashkilotlarning ichki strukturasi ham ochadi. Shu tarzda, kodlar orqali Den Braun o'quvchini tarixiy va diniy bilimlarning chuqur qatlamlariga olib kiradi va detektiv janri kengroq ma'no qirralari bilan boyitadi.

"Yes. But in the 1500s, a group of men in Rome fought back against the church. Some of Italy's most enlightened men-physicists, mathematicians, astronomers began meeting secretly to share their concerns about the church's inaccurate teachings. They feared that the church's monopoly on 'truth' threatened academic enlightenment around the world. They founded the world's first scientific think tank, calling themselves 'the enlightened ones.'" "The Illuminati." "Yes," Langdon said. "Europe's most learned minds . . . dedicated to the quest for scientific truth." Kohler fell silent".

Mazkur parchada Italiyaning qadimiy tarixiy faktlaridan biriga e'tibor qaratilib, mamlakatning yetuk kishilari birlashib, dunyo tamadduniga xurofotning oldini olish maqsadida birlashishi, ma'rifatparvarlik g'oyalari uchun kurashi uchun harakat qilishi tasvirlanadi. Langdon va Kohler o'rtasida kechgan suhbat orqali muallif nafaqat kitobxonga badiiy tasvir, balki tarixiy ma'lumotni ham yetkazib, tarixiy haqiqat hamda badiiy haqiqat uyg'unlik kasb etib, Den Braun uslubiga xos yondashuvni namoyon etadi.

Den Braunning shifrlashga oid uslubi orqali qahramonlarning ongi, bilimlari va izlanish qobiliyati sinovdan o'tkaziladi. Masalan, "Yo'qotilgan ramz" asarida Langdon sirli masonlar tashkiloti va ularning qoldirgan murakkab kodlarni yechish jarayonida ulkan qiyinchiliklarga duch keladi. Bu shifrlangan xabarlar nafaqat qahramonning diqqatini talab qiladi, balki uni kengroq madaniy va diniy bilimlarini sinashga ham majbur qiladi. Shunday qilib, Den Braun qahramonlarni kodlarni yechish jarayonida ruhiy va intellektual jihatdan yanada kuchayadi, o'quvchilarni ham jumboqni yechishga da'vat etadi.

Kod va shifrlar yordamida Den Braun asaridagi ziddiyatlarni kuchaytiradi, chunki ularning yechimi yangi sirlarga eshik ochadi va qahramonlarni yangi yo'nalishlarga yo'naltiradi. Har bir topilgan kod va u orqali ochilgan sir keyingi jumboqning kalitiga aylanadi, bu esa o'quvchida doimiy qiziqish uyg'otadi. Shu bilan birga, Den Braun bu uslub orqali o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi, ularni aqliy va ruhiy jihatdan qahramonlar bilan birga sayohat qilishga undaydi. Natijada, kod va shifrlar orqali yaratilgan izlanishlar Den Braun asarlarining asosiy diqqat markazi va o'ziga xos jihatlaridan biriga aylanadi.

Den Braunning asarlari detektiv janri yangicha shaklda namoyon etdi — an'anaviy detektiv hikoyalar qotillikni fosh etish va jinoyatga oid tergov jarayonlariga asoslangan bo'lsa, Den Braun bu jarayonni qadimiy tarixiy va diniy sirlar bilan boyitdi. "Da Vinchi siri" asarida u diniy afsonalar va san'at

asarlarida yashiringan kodlarni yechishga asoslangan sirli hikoyani yaratdi, bu esa nafaqat o'quvchilarning qiziqishini uyg'otdi, balki madaniyatlararo muhokamalarga ham sabab bo'ldi. Roman global darajada millionlab nusxada sotilishi orqali Den Braun o'z davrining eng ko'p kitobi sotilgan muallifiga aylandi va kitob dunyo bo'ylab o'nlab tillarga tarjima qilindi. Bu keng ko'lamlı ommalashuv orqali Den Braun nafaqat detektiv janriga, balki adabiyotga nisbatan ham qiziqishni oshirdi.

Den Brauning asarlarida aks etgan ilmiy va tarixiy ma'lumotlar detektiv hikoyaga intellektual qiziqish bag'ishladi. Uning qahramonlari, xususan, professor Robert Langdon, san'at va tarixga oid bilimlari bilan muammolarni hal etishda yuqori intellektual qobiliyatni namoyon etadi. Den Braun sirli voqealarni o'quvchilar uchun intellektual izlanishlar shaklida taqdim etadi va har bir yangi kashfiyot o'quvchini o'ziga jalb qiladigan yangi qiyinchiliklarga olib boradi. Bu uslub ko'plab o'quvchilarning tarix, san'at va madaniyatga oid bilimlarini oshirishga xizmat qiladi va detektiv janrni yanada murakkablashuviga olib keladi.

Shuningdek, Den Braun detektiv janrni yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi intellektual o'yin sifatida shakllantiradi. Kod va shifrlangan xabarlar yordamida o'quvchilar ham voqealarga aralashib, qahramonlar bilan birgalikda muammolarni yechishga undaydi. Bu uslub zamonaviy detektiv janrni faqatgina jinoyatni fosh etishga emas, balki o'quvchining ilmiy va madaniy bilimlarini kengaytirishga ham qaratilgan asarlarga aylantiradi.

Shu tariqa, Den Brauning asarlari global miqyosda zamonaviy detektiv janriga yangi nafas bag'ishlab, uni keng ommaga tanitdi va kitobxonlarni tarixiy haqiqatlar, san'at va madaniyatlar bilan bog'liq sirli izlanishlarga jalb qildi. Uning asarlari detektiv janrning nafaqat kengroq ommaga yetib borishiga, balki uni zamonaviy intellektual o'yin va tarbiya vositasi sifatida qadrlashga sabab bo'ldi.

Adibning o'ziga xos uslubi, xususan, murakkab kod va shifrlardan foydalanish, tarixiy va diniy mavzularni zamonaviy detektiv hikoyalarga kiritish hamda o'quvchini intellektual izlanishlarga jalb qilish orqali yanada boyitdi. Den Braun an'anaviy detektiv janriga yangicha yondashuv qo'shdi va uni shunchaki jinoyat tergovı sifatida emas, balki ilmiy, tarixiy va madaniy izlanishlarga asoslangan intellektual o'yin shaklida yaratdi.

Den Brauning eng muhim hissalaridan biri — sirli kod va shifrlangan xabarlarni detektiv hikoyalarga kiritishidir. Masalan, "Da Vinchi siri" va "Farishtalar va Shaytonlar" kabi asarlarida u qahramonlarini murakkab shifrlangan belgilar va yashirin kodlarni yechishga majbur qiladi. Kodlarni yechish jarayoni o'quvchini yangi sirli qiyinchiliklar sari olib boradi, bu esa hikoyani yanada qiziqarli qiladi. Den Brauning qahramonlari, masalan, professor Robert Langdon, san'at va tarixga oid bilimlarga tayangan holda bu kodlarni yechishga harakat qiladi. Kodlar orqali Den Braun hikoyani yanada murakkablashtirib, o'quvchilarning o'zlarini sirli izlanishlar ichiga kirganday his qilishlariga sabab bo'ladi. Kod va shifrlardan foydalanish orqali u detektiv janrni nafaqat jinoyat va sirli qotilliklar haqida hikoya qiluvchi janr sifatida emas, balki o'quvchilarni bilimlar sayohatiga chorlovchi janr sifatida qayta shakllantiradi.

Xulosa. Den Brauning yana bir muhim hissasi— tarixiy va diniy mavzularni hikoyalarga kiritar ekan, ularni zamonaviy voqealar bilan bog'laydi va tarixni qayta tahlil qiladi. Masalan, "Yo'qotilgan ramz" asarida Den Braun tarixiy tashkilotlar, qadimiy ilmlar va madaniy ramzlarni voqea zanjiriga kiritib, o'quvchiga ko'plab tarixiy faktlarni o'rgatadi. Yozuvchi bu mavzularni o'z asarlarida jozibali va hayajonli qilib taqdim etadi, bu esa detektiv hikoyalarga yangi ma'no qirralari qo'shadi. Qadimiy afsonalar va diniy tarix haqidagi hikoyalar orqali o'quvchi nafaqat qiziqarli detektiv syujetni kuzatadi, balki tarix va madaniyat haqida kengroq bilimga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, Den Brauning o'ziga xos uslubi uning hikoyalarni tezkor va hayajonli tarzda rivojlantirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Har bir asarida u voqealarni kinematik uslubda taqdim etadi — harakatlar, qarorlar va qahramonlarning ichki izlanishlari bir-biriga uyg'unlashgan holda o'zgarib boradi. Den Braun sahnalarni jonli tasvirlar bilan bezatib, har bir qadamda o'quvchini yangi sir va jumboqlar bilan tanishtiradi. Bu yondashuv hikoyani ko'proq o'quvchi xayolida jonlantiradi va ularni qahramonlar bilan birga sirlarni ochish jarayoniga jalb qiladi.

Oxirgi va muhim jihati shundaki, Den Braun o'z asarlarida o'quvchini detektiv hikoya ichiga jalb qilishda faol ishtirokchi sifatida yondashadi. Kodlar va shifrlar orqali u o'quvchilarni ham izlanishlarga chorlaydi. Bu o'ziga xos yangilik o'quvchiga ham fikrlash imkoniyatini berib, hikoyaga yanada chuqurroq bog'lanish imkonini yaratadi. Shu tariqa, Den Brauning uslubi va novatorona hissasi detektiv janrni keng ommaga tanitib, uni nafaqat o'qish, balki o'ziga xos intellektual izlanishlarga boyitilgan janr sifatida kengaytirdi. Bu esa zamonaviy detektiv janrining yangi qiyofasini yaratib, uni yana bir qadam oldinga siljishiga sabab bo'ldi.

ADABIYOTLAR:

1. *Brown, Dan. The Da Vinci Code. Doubleday, 2003.*
2. *Brown, Dan. Angels & Demons. Pocket Books, 2000.*
3. *Агеев А, М.Г. Эволюция детективного романа в американской литературе XX века. Ижевск, 2014. – С. 152.*
4. *Karimov X. Fosh etishning kaliti. - Tafakkur// O'zbekiston adabiyoti va san'ati.- Toshkent, 1998.13 noyabr*
5. *Kholikov, Bahodir Alikulovich (2020) "Principles of development of detective literature" Bulletin of Gulistan State University: Vol. 2020 Iss.3, Article 11*
6. *Lacy, Norris J. "The Da Vinci Code": Dan Brown and The Grail That Never Was. // Arthuriana, 2004, Vol.14, No.3.// pp.81-93.// Giannini, John. The Sacred Secret: The Real Mystery in the Da Vinci Code. // Jung Journal: Culture & Psyche, Vol.2, No.2. // pp.63-84.*
7. *Tolibovna, Safarova Zilola. "Longing" AS A Main theme in English and Uzbek bildungsromans."*
8. *Safarova, Zilola. "Tarbiya romanlarining badiiy adabiyotdagi genezisi va o'rni." Центр научных публикаций (buxdu. uz) 40.40 (2023).*
9. *Tolibovna, Safarova Zilola. "Analysis of orphan images and orphan hood in children's literature." Scientific reports of Bukhara State University: 217.*
10. *<http://files.hostgator.co.in/hostgator253199/file/thedavincicode-danbrown.pdf>*

FITRAT SHE'RIYATIDA YURT OZODLIGI MAVZUSI

Mahmudova Sadoqat Xolmatovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti
sadoqatmaxmudova948@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Fitrat she'riyatiga xos badiiy shakl izlanishlari va uning Vatan ozodligi mavzusidagi bitiklari tahlil etilgan. Adib she'riyatining asosiy manzili, o'chog'i Vatan, Turkiston, istiqloq, erk mavzui ekanligi tahlillarda ifodalangan. "Yurt qayg'usi" nomli sochmasi Vatan istiqboli uchun qayg'urgan haqiqiy yurtsevar insonning o'kinch va nadomatga to'la nolalari, Turkiston uchun, uning ayollari ozodligi uchun kurashga bel bog'laganligining yorqin namunasi ekanligi ochib berilgan. Tajohuli orif va talmeh bilan ziynatlangan satrlar chin vatanparvarning qalb sadosi bo'lib jaranglagani, unda shoirning "Yurt qayg'usi" turkumi, "Qor" she'rining badiiy xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: barmoq vazni, aruz, sochma, lirik qahramon, istiqloq, tajohuli orif, talmeh.

THE SUBJECT OF FREEDOM OF THE COUNTRY IN FITRAT'S POETRY

Abstract. The article analyzes the artistic form characteristic of Fitrat's poetry and his works on the theme of the liberation of the Motherland. The analysis expresses that the main appeal and focus of the poet's poetry are the Motherland, Turkestan, independence and freedom. It has been revealed that the poem "Sadness of the country" is a vivid example of the lamentations of a true patriot who worries about the future of the Motherland and is determined to fight for Turkestan and the freedom of its women. The lines, decorated with tajohuli arif and talmeh, sound like the sound of the heart of a true patriot. The artistic features of the poet's cycle "Sadness of the country" and the poem "Snow" are revealed.

Keywords: Finger weight, aruz, sochma, lyrical hero, independence, tadjokhuli arif, talmeh.

ТЕМА СВОБОДЫ СТРАНЫ В ПОЭЗИИ ФИТРАТА

Аннотация. В статье анализируется художественная форма, характерная для поэзии Фитрата и его произведений на тему освобождения Родины. В анализе выражено, что главным обращением и направленностью поэзии поэта являются Родина, Туркестан, независимость и свобода. Выявлено, что стихотворение «Юрт қайғуси» является ярким примером причитаний истинного патриота, который беспокоится о будущем Родины и настроен бороться за Туркестан и свободу его женщин. Строки, украшенные таджохули арифом и тальме, звучат как звук сердца настоящего патриота. Раскрываются художественные особенности цикла поэта «Юрт қайғуси» и стихотворения «Қор».

Ключевые слова: вес пальца, аруз, сочма, лирический герой, независимость, таджохули ариф, тальме.

Kirish. Abdurauf Fitrat O'zbekistonimiz istiqloli asoslarini yaratgan ulug' siymolardan biridir. Uning mustaqillik g'oyalari bilan sug'orilgan serqirra ijodi, bunyodkorlik faoliyati alohida e'tirof va e'zozga sazovor. Zabardast ijodkorning yoniq she'riyati, nasriy asarlari, dramaturgiyasi, tilshunoslikka, adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarini o'rganish o'zining yorqin sahifalariga ega bo'lsa-da, har gal yangi yangi qirralar kashf etilaveradi. Ayniqsa, uning hajm jihatidan qisqa, biroq katta salmoqqa ega she'riyati haqida ham bu fikrni aytish mumkin. Binobarin, "o'zbek she'r tuzilishining rivojlanish yo'llarini belgilay borib, ko'pgina yosh shoirlarni o'z uslubi va tili bilan ergashtira olgan" [4,12].

Fitrat hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan juda ko'p xorijiy manbalarda, zamondoshlarining xotiralarida uning nomiga "shoir" sifatlashi ko'plab aytilgan. Bu Fitratga nisbatan shunchaki shaxsiy munosabatning natijasi bo'lmay, balki uning shoirlik iste'dodiga alohida hurmat bilan qaraganliklarining boisi hamdir.

Abdurahmon Sa'diy ta'biri bilan aytganda: "Fitrat – hozirgi o'zbek she'riyatida arab, fors so'zlariga yo'lni berkitdi. O'zbek she'r tuzilishining rivojlanish yo'llarini belgilay borib, ko'pgina yosh shoirlarni o'zining uslubi va tili bilan ergashtira oldi, atrofiga yosh shoirlarni to'plab ularga til va uslubdan yo'l ko'rsatdi" [5, 4].

Asosiy qism. Fitrat she'riyati nochor qolgan shoirning o'tli nidolaridagina iborat emas, u Turkistonni oyoq osti qilgan kelgindilarga, jaholat tufayli tovushlari o'chgan vatandoshlariga achchiq nafratli murojaatidir. She'rlarning shakliy qurilishlari ham mavzu e'tibori bilan o'ziga xosdir. Bu she'riyat-yangicha bo'lib yangicha shuur, yangicha dunyoqarashning yangicha tamoyillarini o'zida aks ettiradi. Yangi o'zbek she'riyati butun dunyoni uyg'otadigan bir qudratga ega bo'lishi kerak edi. Yangi o'zbek she'riyatining asos manzili, o'chog'i Vatan, Turkiston, istiqloq, erk mavzui bo'ldi [5, 3].

Fitrat o'zbek she'riyatining yangi sahifasini yarata oldi. U, fitratshunos olim H.Boltaboyev ta'kilaganiday: "millatning nutq va talaffuz tovushlariga mos bo'lgan, og'zaki adabiyotda juda ko'p qo'llanish barobarida charxlanib, sinovlardan o'tgan o'z she'r tizimi barmoq vaznini o'zlashtir"di [1, 13], shu bilan birga an'anaviy aruzda va sochmada ijod qildi. "Fitrat she'riyati, ayniqsa, uning lirikasi (shoironing o'z tilida aytganda, "rubobiy she'rlari") nafis va buyuk Sharq she'riyatining bor go'zalliklaridan to'yingan, uni o'ziga xos suratda ichdan yangilashga kamarbasta she'rlardan tarkib topganini sezmaslik mumkin emas".

Uning "Yurt qayg'usi" turkumi to'rtta she'rni o'z ichiga oladi. Shundan birinchisi aruz vaznida, qolgan uchtasi sochma shaklida bitilgan. Fitrat o'z she'rlarida Sharq, xususan, ona Vatan – Turkistonning tuganmas dardlarini kuylaydi. Sen mening Vatanimsan, Vatanimning mungli xayolisan. Ey muqaddas Turonimning xayoli, ketmay tur, ayrilma. Yonimda, ko'zlarimda, yuragimda, vijdonimda qol, ketma, Turonim, sendan ayrilmoq – mening uchun o'limim. Sening uchun o'lmoq – mening tirikligimdir deya vatanga bo'lgan muhabbatini ifodalaydi. Bu she'rlarning asosini yurt ozodligi mavzusi tashkil etadi:

Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?

Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?

Temur bilan Chingiz qoni toshdi tomirimizdan

Aytgil, Seni qutqarmoq uchun qonmi kerakdir?

Tajohuli orif va talmeh bilan ziynatlangan yuqoridagi satrlar chin vatanparvarning qalb sadosi bo'lib jaranglaydi. H.Boltaboyevning yozishicha, muallifning "Yurt qayg'usi" she'ridagi ozodlikka bo'lgan qarash, mustabatlikka bo'lgan nafrat "Hurriyat" gazetasida quyidagicha ifodalanadi: "1917-yilning bug'doy pishig'ida kechgan qirg'inbarot janglardan Fitrat asarlariga tomgan, "Hurriyat"ning sarg'aygan varaqlariga singan o'sha qonlarning dog'larini aniqroq ilg'ash qiyin emas: "Ko'rdim, kezdim, eshitdim, o'qidim. Mamlakatlar orasida Turkistonimiz kabi baxtsiz bir mamlakat yo'qdir..."", deya nadomat qiladi. Aslida ham o'sha davrda Turkistondan boshqa bir baxtsiz davlat kam edi. Bu baxtsizlik sharmandali holat edi. Har tomondan mamlakatni himoya qilishga qodir xalqga ega, iqtisodiy tomondan g'arb davlatlariga teng kela oladigan darajada moddiy manbalarga ega bo'la turib, yurt egalari mamlakatning islohatiga qo'l urmaydi. Adibning tahlillarida, "Butun yolg'izgina otlarini tarixda qo'yub ketgan el-uluslarning ezilib yashaganiga sabab shul ayriliq, shul ittihodsizliqdir... Biz turkistonlilardagi bu ittihodsizliqdan ko'proq foyda ko'rgan, kattaroq osig'langan eski Rusiya hukumati edi" [2,33]. Zero, lirik qahramon Vatanni zalolatdan, erksizlikdan qutqarishga har jihatdan tayyor:

Boq, boq, turk tengizi toshqun qila qoldi

Turon yovini quvg'ali to'fonmi kerakdir?

Turon, yigiting, barchaga boq, qalqdi oyoqg'a,

Yurtda qorovul qo'yg'ali arslonmi kerakdir?[1, 31]

"Turk tengizi toshqun qila qoldi", der ekan Fitrat jadid ma'rifatparvarlarini nazarda tutadi. Qolaversa, "to'fon" va "arslon" ramziy ma'noda shoironing o'zi. U yurtini ozod ko'rish uchun yovlarni to'fon yanglig' quvishga, arslon kabi uni qo'riqlashga tayyor.

"Yurt qayg'usi" nomli birinchi sochmasi Vatan istiqboli uchun qayg'urgan haqiqiy yurtsevar insonning o'kinch va nadomatga to'la nolalari, Turkiston uchun, uning ayollari ozodligi uchun kurashga bel bog'laganligini ifodalanadi: "Ey Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding?"

Yuqorida jumlada Fitrat Vatan timsolini mungli xotin qiyofasida tasavvur etib, "zolimlar seni kimsasizmi ko'rdilar? Yo'q sen kimsasiz emassan. Mana men butun borlig'im bilan senga ko'mak qilurg'a hozir. Mana men chin ko'ngul bilan sening yo'lingda o'lurg'a rozi..." deya yeng shimarganda, uning atrofiga butun Buxoro jadidlarining katta bir guruhi to'planib ulgurganini his etadi.

Ey Chingizlarning, Temurlar, O'g'uzlarning, Otillalarning shonli beshiklari! Qani u chiqdig'ing yuksak o'rinar! Qullik chuqurlariga nedan tushding" [1, 31]. Qadim Turkistonning ko'hna tarixini chuqur bilgan Fitrat o'z davrida mustamlaka holatiga tushib qolgan yurt qismatidan achinadi, "qullik chuqurlariga" tushish sabablarini izlaydi. "Qullik chuqurlari" shoironing badiiy topilmasi, o'tgan asr boshlaridagi Turkiston manzarasini aks ettiradi: "Ey Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Qayg'urma! Eski davlating, eski saltanating, eski yigitlaring, eski arslonlarning hammasi bor, hech biri yo'qolmamishdir. Yolg'iz... Oh, yolg'iz

tarqalmishdir”[1,32]. Shoir xalqining, Vatanning “qullik chuqurlariga” tushish sabablarini parokandalikda ko‘radi.

Fitrat she‘riyati xolis nochor qolgan shoirning o‘tli nidolaridangina iborat emas, u Turkistonni oyoq osti qilgan kelgindilarga, jaholat tufayli tovushlari o‘chgan vatandoshlariga achchiq nafratli murojaat qilgan. She‘rlarning shakliy qurilishlari ham mavzu e‘tibori bilan o‘ziga xos ifodaga ega. Bu she‘riyat mutlaq bo‘lib yangicha shuur, yangicha dunyoqarashning yangicha tamoyillarini o‘zida aks ettirardi. Yangi o‘zbek she‘riyati butun dunyoni uyg‘otadigan bir qudratga egaligini ta‘kidlaydi. Bir o‘zbek tilidan aytilgan ikkinchi sochmada ramziylik ustuvorlik qiladi. Shoir bunda Vatanni “egnida ipakli, lekin yirtiq va eski bir ko‘ylakdan boshqa kiyimi bo‘lmagan, bosh oyog‘lari yalang‘och, tirsaklarigacha qop-qora loyqadan botg‘an, baqirug‘a tovushi, qutilug‘a tovushi qolmag‘an” xotun qiyofasida tasvirlaydi. Uning egnidagi ipakli ko‘ylak Turkistonning shonli kechmishiga ishora, biroq yirtiq va eskiligi esa mustamlaka yurt manzarasini ifoda etadi. Bosh-oyog‘lari yalang‘ochligi, qop- qora loyg‘a botganligi esa chor zulmi ostida ezilgan xalq ahvolini aks ettiradi. “Mungli xotun”, “g‘amli ona”, shoir talqinicha, Vatandir.

“Turonim, sendan ayrilmoq mening uchun o‘limim.

Sening uchun o‘lmoq mening tirikligimdir.

Men sen uchun tirildim

Sening uchun yasharman

Sening uchun o‘lurman,

Ey turklikning muqaddas o‘chog‘il!” Bu satrlar chin vatanparvarlik, yurtsevarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan. Lirik qahramon “Qof tog‘lari yo‘liga” tushsa ham, “tamug‘ olovlari qarshisidan” chiqsa ham, “shaytonlar qo‘shini” kelsa ham, “jahannam ilonlari” sorilsa ham ortga chekinmaydi. Bunda “shaytonlar qo‘shini”, “jahannam ilonlari” shoirning badiiy topilmasi bo‘lib, ozodlik, erk dushmanlari timsolini o‘zida ifoda etadi.

Uchinchi sochmada “ezilgan boshi, qisilgan vijdoni, kuygan qoni, o‘rtangan joni uchun” Temur sag‘anasidan najot, kuch istab kelgan lirik qahramon holatini tasvirlanadi: “Qorong‘uliklar ichra yog‘dusiz qolgan o‘zbek ko‘zlari uchun tuprog‘ingdan surma olgali keldim... Turkning nomusi, e‘tibori, iymoni, vijdoni zolimlarning ayog‘lari ostinda qoldi. Fitratning obrazli ta‘biricha, yurt farzandi ona zaminida bo‘lib turgan ko‘rguliklar haqida Amir Temurga shikoyatda davom etadi: ulug‘xoqonim! Turklik shahrafi talandi. Turkiylar uchun tuzilgan davlat yo‘qotildi, turkiylar oyog‘i ostiga bo‘y sundirilgan hududlar shunchaki osonlikcha dushmanlar qo‘liga o‘tdi. Dunyoga ulug‘vor, davlatchilik nomini ko‘z-ko‘z qilgan millat nomusi, e‘tibori, iymoni, vijdoni qayerdagi bir mayda davlat bo‘lib yurgan millatlar, davlatlar zulmi ostiga tushib qoldi. Turkning bilimi, ongi, ziyrakligi jaholatga o‘lja bo‘lib ketdi. Xuddi mana shu yerda Fitratning zamondoshlariga qarata aytgan gapini ko‘rish mumkin: “Turkning bilgisi, ongi, o‘ylovi, ziyrakligi jaholat o‘ljasig‘a ketdi.” [2:34], deya xitob qiladi.

Turkning yurti, ulog‘i, o‘chog‘i, Turoni yot qo‘llarga tushdi” [1, 34]. Shoir ulug‘ davlatchilikka asos solgan Sohibqiron ruhidan madad so‘rar ekan, erksiz yurtning dardlarini to‘kib soladi. Barcha “yoziqlar”ni so‘ylab, “Arslonlar arsloni” Temurdan kechirim so‘raydi va muqaddas fotihasini berishidan umidvor bo‘ladi. Uning ruhi oldida: “Turoning eski sharafi va ulug‘lig‘ini qaytarmasdan burun ayog‘laringga o‘tirmasman” deya ont ichadi. Fitrat o‘tmishdagi voqelikning mazmun-mohiyatini tarixiy shaxslar obrazi orqali ularning taqdirleri misolida qayta jonlantirishga hamda ulardan zamon uchun kerakli xulosalar chiqarishga muvaffaq bo‘lgan ijodkordir. U nafaqat shoir, balki yurtsevar inson sifatida bu ontiga sodiq turdi, Vatan istiqloli uchun o‘z jonini fido etdi va bugungi avlod u orzu qilgan kunlarga erishdi.

Fitratning “Qor” she‘ri tabiat mo‘jizasiga bag‘ishlangandek taassurot uyg‘otsa-da, unda istiqloldan umidvorlik hislari ufurib turadi:

Bu kichkina, o‘ksuz, oppoq bebaklar,

Ucha-ucha yetmay qolg‘an tilaklar.

“Kichkina, o‘ksuz, oppoq bebaklar” – qor parchalari. Ularni “ucha-ucha yetmay qolgan tilaklar” der ekan, o‘z ma‘nosida qor parchalarining yerga qo‘nmasdan erib ketishiga ishora qiladi. Ayni choqda bunda ramziy mazmun ham bor, ya‘ni “tilaklarga yetmagan” qor parchasi mustaqillik yo‘lida kurashgan, biroq har qadamda to‘siqlarga uchragan kurashchan inson timsolini ifoda etadi. Yoxud “O‘gut” she‘rida shoir “Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal, Hurkma – kirish, qo‘rqma – yopish, yo‘rilma – qo‘zg‘al” deya yigitga murojlat qilar ekan, faqat fe‘llar vositasida, ichki ohangdorlik orqali yuksaklikka, erkka intilishga, bu qutlug‘ yo‘lda to‘xtamaslikka chaqiradi.

Xulosa. Fitratning hayoti va ijodiy faoliyati tarixning eng qaltis damlarida Millat va Vatanga xizmat qilishning yorqin namunasi. Yirik jadidshunos olim Begali Qosimovning so‘zlari bilan aytganda, har qanday holda ham xalq bilan birga bo‘lish, uning manfaatini har narsadan ustun qo‘yish, har narsadan muqaddas bilish Fitrat shaxsiyatining eng muhim xususiyatlaridan edi. Yuqorida tahlil etganimiz she‘rlar millatparvar, erkparvar, yurtsevar Fitratning qalbidan otilib chiqqan qalb nidolaridir. Ramzlar asosiga

LITERARY CRITICISM

qurilgan she'riyatning tub mazmunini mustaqilligimizning ma'naviy-ijtimoiy asoslarini ochish, milliy g'urur tuyg'ulari psixologiyasini yoritish tashkil etadi. Shu xususiyati bilan Fitrat she'rlari ham shakl, ham mazmun jihatdan o'zbek she'riyatining nurli sahifasi bo'lib qoldi.

ADABIYOTLAR:

1. Абдурауф Фитрат. *Юрт қайғуси (шеърлар)*. – Тошкент: “Маънавият” нашриёти, 2009. 31-б.
2. Abdurauf Fitrat. *Tanlangan asarlar. 1-jild* – Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2000. 33-b.
3. Abdurauf Fitrat. *Tanlangan asarlar. 3-jild*. – Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2000. 35-b.
4. Болтабоев Х. *Фитрат ва жади́дчилик*. – Т., 2007. – Б. 15-33
5. Абдурауф Фитрат. “Оила ёки оила бошқаруш тартиблари”. Тошкент “Маънавият” 1998 йил. – 3 бет
6. Boltaboyev.H. (2007). *Fitrat va jadidchilik ilmiy-tanqidiy maqolalar*. Toshkent. Alisher Navoiy nobmidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nazriyoti.
7. Kholmatovna S. M. *Semantic Approach in Linguistic and Cultural Analysis of Literary Text //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 202-209.
8. Kholmatovna M. S. *teacher of the department of theory of primary education, BSU //Scientific reports of Bukhara State University*. – С. 148.
9. Махмудова С. *Истиқлол даври шеърлятида ватан мавзуси (Абдулла Орипов шеърлари мисолида) //Development of pedagogical technologies in modern sciences*. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 68-71.

KALAMBUR MUAMMOSING O‘RGANILISHIGA DOIR TURLI YONDASHUVLAR SHARHI

Mizrabova Jeren Ismailovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD
mizrabovajerenismailovna@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqola kalambur muammosining o‘rganilishiga doir turli yondashuvlar sharhi, U. Shekspirning dramalaridagi kalambur kabi uslubiy vositasining o‘ziga xos lingvopoetik xususiyatlari va ularning tarjimada aks ettirilishi murakkabliklari muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Kalamburni tadqiq etish, mazkur stilistik vositasi tarjimasida qo‘llaniladigan turli tarjima usullari va U. Shekspirning asarlaridan so‘z o‘yini tarjimasi tahlillari keltirilgan. Kalambur vositasini rus va o‘zbek tillarida qayta yaratish jarayoni bilan bog‘liq murakkabliklar o‘rganilgan.

Ilmiy maqolada Uilyam Shekspir uslubiga xos kalamburning tuzilishidagi o‘ziga xos xususiyatlari jumladan, omonimik, polisemik, yoki antonimik kalamburlari lingvopoetik jihatlarining rus va o‘zbek tarjimalarida qayta yaratilishining muammolari o‘rganilgan. Asiyat kalamburida voqelangan obrazlar, konnotasiyalar, fon, muallif uslubi yoxud muallif kalamburining shakli, fonetik va grafik xususiyatlarining tarjimada qayta yaratilishdagi muammolari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Shekspir, freym, pun, lingvopoetik tahlil, stilistik-konvergensiya, tarjima, omonimiya, polisemiya, miniatyura, dialog, monolog, davomiy kalamburlar, alliteratsiya, xiazm, antiteza.

ОБЗОР РАЗЛИЧНЫХ ПОДХОДОВ К ИЗУЧЕНИЮ ПРОБЛЕМЫ КАЛАМБУРА

Аннотация. Настоящая статья посвящена изучению разных подходов в исследовании проблемы каламбура, своеобразных лингвопоэтических особенностей каламбура в драмах У. Шекспира и проблем в трудностях способов его воссоздания в переводе. Обобщаются основные направления факторов выявления в изучении каламбура и проблематики перевода данного стилистического приёма, рассматриваются некоторые способы перевода, приводится анализ перевода игры слов из произведений У. Шекспира, рассматриваются сложности и основные приёмы, связанные с передачей каламбура на русский и узбекский языки.

В научной статье изучаются структура каламбуров, свойственных стилю У. Шекспира, проблемы воспроизведения лингвопоэтических аспектов каламбуров, построенных на омонимии, полисемии, или антонимии в узбекских и русских переводах. Также исследованы проблемы воспроизведения своеобразия образов, коннотаций, фона, стиль автора или формы каламбура автора, фонетических и графических свойств оригинала в переводе.

Ключевые слова. Шекспир, фрейм, каламбур, лингвопоэтический анализ, стилистическая конвергенция, перевод, омонимия, полисемия, миниатюра, диалог, монолог, продолжительные каламбуры, аллитерация, хиазм, антитеза.

REVIEW OF DIFFERENT APPROACHES TO THE STUDY OF THE PROBLEM OF PUNS

Abstract. This article is devoted to the study of different approaches to the study of the pun problem, peculiar linguistic and poetic features of the pun in W. Shakespeare's dramas and the problems in the difficulties of ways of recreating it in translation. Also, generalization the main directions of the factors of identification in the study of a pun and the problems of translating this stylistic device, some methods of translation are considered, analysis of the translation of a word play from the works of W. Shakespeare are given, the difficulties and basic techniques associated with the transformation of a pun into Russian and Uzbek are studied.

The scientific article studies the structure of puns inherent in the style of W. Shakespeare, the problem of reproducing linguo-poetic aspects of puns built on homonymy, polysemy, or antonymy in Uzbek and Russian translations. Also, the problems of reproducing the originality of images, connotations, background, the style of the author or the form of the author's puns, the phonetic and graphic properties of the original in translation are investigated.

Keywords: Shakespeare, frame, pun, linguistic-poetic analysis, stylistic convergence, translation, homonymy, polysemy, miniature, dialogue, monologue, long puns, alliteration, chiasmus, antithesis.

Kirish. Ma'lumki, muloqotda qatnashuvchi so'zlarning mazmun-ahamiyatini idrok etishdagi intilishlar mazkur hodisaning mohiyatini tashkil etadi. Biroq bunday jarayonlardagi barcha ma'lulomotlarning birdek idrok etilishining ehtimoli turlicha. Shuningdek, ma'lum bir muallif o'z ijodi mazmunning okkazonalligi xususiyatlarini ta'minlash maqsadida atayin kalambur va so'z o'yini unsurlaridan foydalanadi. Xususan, hozirgi davrda turlicha diskurslardagi har xil ko'rinishdagi lisoniy o'yinlarning salmog'i ortib bormoqda.

So'z san'ati mahoratini ro'yobga chiqarishda esa har bir muallif o'zi niyat qilgan ta'sirga erishmoqlik, lisoniy birliklarning ma'noviy doirasi va estetik ta'siri imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ijodidagi ifodalanuvchi manzara va obrazlarning kitobxon idrokidagi talqinlarining tasodifiyligini ta'minlash kabi maqsadlarda tilning turli stilistik yoki ifodali vositalaridan unumli foydalanadi. Binobarin, ma'lum bir matnda qatnashuvchi polisemik unsurlarning turli mazmunlarining joriylanishi yoki kontekstda qatnashuvchi birliklar ma'noviy o'yinlarning ziddiyatli munosabatlarini ta'minlay oluvchi bir nechta stilistik vositalar mavjud bo'lib, kalamburni ham shular qatorida e'tirof etish mumkin. Shuningdek, Shekspir dramalaridagi kalambur vositasi ham o'zining turli stilistik vazifalarida qatnashgan. Kalamburning keng ma'lumotni ixcham va nostandart shaklda ifodalay olish xususiyati kitobxon diqqatini jalb etadi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchi kalamburning murakkab mazmunini idrok etib va uning asar konteksti miqyosidagi doirasini payqagandagina kalamburdan estetik zavq oladi.

Ma'lumki, kalambur va unga shaklan o'xshash bo'lgan so'z o'yini bilan o'rtasidagi mushtaraklik va tafovutlari masalalari hamon o'z yechimini kutmoqda. Bizning tadqiqotimiz ham Shekspir dramalaridagi kalamburning o'rni, uning tabiati va mazkur stilistik vositasining lingvopoetik xosliklarining o'zbek va rus tarjimalarida qayta yaratilishi xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Zero, kalamburning boshqa stilistik vositalar bilan o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash maqsadida mazkur uslubiy vosita zamiridagi lingvokognitiv xususiyatlar, ya'ni kalamburlarning turli ma'noviy doiralarini hosil etuvchi freymlar ifodalari asoslarida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

O'rganish metodlari. Izlanishlarimiz davomida I.R.Galperinning kalamburga keltirgan ta'rifidan kelib chiqib mazkur uslubiy vositani asosiy struktur ifodalarining shartlanish xususiyatlarini, ya'ni vositaning tuzilishiga doir uning alohida so'z yoxud erkin so'z birikmasi asosida voqelanuvchi kalamburlar tadqiq etildi.

Kalambur vositasi stilistika fanidan tashqarida "so'z o'yini" hodisasiga tenglashtirilganini kuzatishimiz mumkin. Masalan, Longman lug'atida "Kalambur bu talaffuzi o'xshash ammo, mazmunlari tafovut etuvchi ko'p ma'noli so'z yoki so'zlarning komik tarzda qo'llanilishi = so'z o'yini" [1] Shuningdek, hajviyot kategoriyalaridan biri yumor hodisasi doirasida ham kalambur va so'z o'yini bir – biriga yaqin tushunchalar sifatida o'rganilib kelinmoqda. Masalan, Gr. Ritchining ta'kidlashicha, "Hazilning eng oddiy shakllaridan biri bu, odatda "so'z o'yini" sifatida e'tirof etiluvchi kalambur vositasidir" [2].

Ma'lumki, maxsus lingvistik izlanishlarda, ayniqsa, stilistika fanida kalambur nafaqat qandaydir nutqiy ibora yoki hazil, balki stilistik vosita sifatida ham o'rganilib kelmoqda. I.R.Galperinning ta'kidlashicha, stilistika fani "izohli vositalarni - ularning turli uslubdagi nutq ko'rinishlarida qo'llanilishi, polifunksionalligi" va "turli badiiy uslublarda tiling neytral va izohli faktlarining umumiyashtirilgan tipik voqelanishi" [3] stilistik vosita sifatidagi potentsiali imkoniyatlari nuqtayi nazaridan kelib chiqib o'rganadi.

O'z navbatida, Y.G.Belyayeva ham stilistik vositalarning shakllanishidagi o'ziga xosliklarini quyidagicha izohlaydi, "nutq shakllaring matndagi shartlanishi hamda ta'siri xususiyatlaridan kelib chiqib ularni ma'lum bir turlarga ajrata olamiz va *aynan bir xil yoki o'xshash stilistik ta'sirga ega bo'lgan* tiplarni alohida bir kontekstual qurilishiga ega bo'lgan guruhlarining o'ziga xos ifodasi yoki algoritmini ishlab chiqish mumkin" [4]. Shuningdek, ma'lum bir lingvistik qurilmaning stilistik vosita sifatida shakllanishi va gapiruvchining aniq bir vaziyatda o'zi maqsad etgan pragmatik ta'sirga erishmog'i uchun, avvalambor, uning stilistika fanining o'ziga xos qoidalariga oid voqelanishi zarurati seziladi. O'z navbatida, kalambur kabi stilistik vositasi ham aynan o'tkirlikka asoslangan yumoristik ta'sirni belgilovchi bisotsiativ kontekstning shartlanishida xizmat qiladi.

Ma'lumki, jahon tilshunosligida kalambur boshqa stilistik vositalar, masalan, so'z o'yini, zevgma yoki paronomaziya kabilari bilan o'zaro bog'liq vositalar qatorida o'rganilgan. Vaholanki, tilshunos olim A.V.Prixodko "so'z o'yini bilan taqqoslaganda kalambur ancha murakkab hodisa bo'lib uning shartlanishida qatnashuvchi til vositalarining mazmuni rejasining izoh rejasini bilan nomutanosib" ekanligi va "har bir so'z o'yini ham kalambur bo'la olmasligini" [5] ta'kidlaydi.

Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda stilistika fanida kalambur va so'z o'yini tushunchalarini ajratishga bo'lgan intilishlar tobora yaqqolashib bormoqda. Ba'zi tilshunoslar tomonidan kalamburning alohida bir ko'p ma'noli birlikning bir nechta mazmunlari o'yinlariga asoslanishi, shuningdek, so'z o'yinida

esa bir nechta o'xshash yoki shaklan bir xil, ammo mazmunlari har xil birliklarning o'zaro munosabatidagi o'yinlarda namoyon bo'lishi to'g'risida keltirilgan e'tiroflari fikrimizning dalilidir.

Xususan, A.S.Djumanov kalambur so'z o'yiniga yaqin hodisa bo'lsa-da, ammo ular sinonimik tushunchalar emasligini ta'kidlaydi. Chunki, "so'z o'yinida so'z juftliklarning ishtiroki taqozo etiladi masalan, omonimlarning o'zaro munosabatlari ham so'z o'yiniga asos bo'la oladi", shuningdek, "Kalambur esa nafaqat so'zlar ishtirokini balki, masalan, frazeologizmlarni qayta tushunish oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin" [6]. Tadqiqotchining bu kabi talqinlarida bir-biriga yaqin bo'lgan vositalarni shakily belgilariga oid, ya'ni lisoniy o'yinlaridagi bitta so'zning turli mazmunlarining ishtiroki (kalambur) yoki bir nechta so'zlarning jalb etilishiga (so'z o'yini) qarab ajratishga bo'lgan intilishlarini kuzatish mumkin. Tilshunos olim L.A.Sazonova esa kalambur va so'z o'yini hodisalarini ularning semantik asoslari va sintaktik tuzilishiga oid xususiyatlaridan kelib chiqib ajratadi.

Shuningdek, olimaning ta'kidlashicha, so'z o'yini vositasi undagi birliklarning tashqi belgilarning o'xshashligi yoki bir xilligi natijasida, ma'lum bir birlikning mazmuni doirasining boshqasining mazmun doirasi bilan o'zaro semantik to'qnashuvda yuzaga kelishi mumkin. Semantika nuqtai nazardan kalambur bu "favqulodda nomutanosib bo'lgan turli manzaralar qorishmasining noan'anaviy uyushgan xolatda idrok etiluvchi" vositadir, shuningdek, so'z o'yinida esa "tasavvurlar qorishmasi o'rnida ularning bosqichma-boqich almashinuvi kuzitiladi" [7]. Tahlilimizdagi vositalar o'rtasidagi bunday semantik tafovutlarularning sintaktik tuzilishini belgilab bermoqda: agarda, so'z o'yinida "ketma-ketlikda idrok etiluvchi har bir mazmun doirasi o'zining alohida ifodasiga ega" bo'lsa, "kalamburda esa idrok etiluvchi turli mazmuniy doiralar bitta so'z ifodasida baravariga aralashtirilib yuboriladi" [7].

Yuqoridagi tadqiqotlarda kalambur va so'z o'yinini ajratishga oid keltirilgan (shakliy, semantik yoki sintaktik) mezonlar lisoniy o'yinlar hodisalarini tahlil etishda xizmat qilishi mumkin. Xususan, N.V.Yakimenko kalambur – bu so'z o'yining alohida bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi, chunki, so'z o'yinida "so'zga nisbatan har qanday fonetik-morfologik tajribalari amallariga imkon yaratilsa", kalamburda esa boshqa lisoniy o'yinlar ko'rinishlaridan ajratuvchi bosh xususiyatlaridan biri bu undagi "turli mazmun doiralari yani, ikki planlarning (reja) ishtiroki va yumoristik yoki satirik ta'siri" [8] dir. Tilshunos olimning ta'kidlashicha so'z o'yini tushunchasiga xos bo'lgan aynan shu xususiyatlar yani, tovushlardagi odatiy o'xshashliklar, qofiyadoshlikdagi omorfiya kabi hodisalar "kalambur" uchun istisno holat bo'lib hisoblanadi.

Hozirgacha lingvistika sohasida kalambur kabi stilistik vositasini o'rganishga oid alohida bir yondashuv ishlab chiqilmagan. Ma'lumki, 20-asrning ikkinchi yarmida jahon tilshunosligida kalambur muammosi ko'plab olimlarning e'tiborini jalb etgan va bu sohadagi izlanishlar mazkur vositaning shakllanishi va stilistik xususiyatlarini o'rganishdagi poydevorini tashkil eta olgan. Biroq 20 asrning oxirlari va hozirgi davrda kalambur vositasining boshqa ya'ni, vazifaviy jihatlari va tarjimai muammolarini o'rganishga bo'lgan intilishlar yuzaga kelmoqda. Xususan, O.E.Voronichev kalamburni tadqiq etishga bag'ishlagan ishlarida mazkur vositani unga yaqin bo'lgan hodisalardan ajratib uning vazifaviy-pragmatik aspektlarini o'rganadi va kalamburga oid quyidagicha ta'rifini keltiradi: kalambur bu – "...o'zida fonoassotsiativ aloqadorlikdagi asoslarga ega, keskin ziddiyatlar o'rtasidagi tafovutlar tebranishlari yoki mazmunlardagi o'zaro qarama-qarshi bo'lgan leksik dominantlarning (ko'p ma'noli, omonimik yoki paronimik so'zlar) semantik ta'siri maydonlarini mujassam etuvchi turli stilistik vositalar orqali ifodalanishi mumkin bo'lgan ekspressiv nutqning sinkretik hodisasidir" [9]

Shuningdek, V.K.Prixod'ko ham kalamburning tuzilishi va vazifalari muammolariga bag'ishlagan tadqiqot ishida vositaga oid quyidagicha ta'riflarini keltiradi: Kalambur bu - "ma'lum bir kontekstda ma'noviy o'yinlar va turli stilistik maqsadli ohangdosh so'zlardan, bitta so'zning ikki yoki undan ortiq mazmunlarning faollashuvi yoki turli so'zlarning o'xshash talaffuzlaridan atayin yoki beixtiyor ikki ma'nolilikni yoxud komik ta'sirni ta'minlash maqsadida qo'llaniluvchi nutq shaklidir" [5]. O'z izlanishlarida V.K.Prixodko rus badiiy adabiyoti materiallari misolida kalamburning asosiy ikkita, ya'ni, polisemantik (turli izohli va obrazli vositalar hamda nutq shakllariga asoslangan) va frazeologik (frazeologik birliklarga asoslangan) ko'rinishlarini belgilab bergan hamda kalambur birligi bilan kontekstning aloqadorligi masalalarini yoritishga harakat qilgan. Xususan, tilshunos olim ham o'rgangan kalamburlarining aksariyati turli stilistik vositalar bilan aloqadorlikda yuzaga keluvchi *konvergent* tabiatga ega ekanligini ta'kilaydi.

Kalamburni o'rganuvchi boshqa izlanuvchilar toifasi esa nafaqat vositaning turli diskurslardagi matniy vazifasini, balki kalambur tarjimai masalalariga ham e'tibor qaratadilar. Xususan, N.V.Yakimenko kalamburning tuzilishi, vazifasi, turlari, shuningdek, ingliz tilidagi kalamburlarning rus tiliga tarjimalarida berilishi masalalarini o'rgangan. O'z ilmiy ishida tadqiqotdchi o'sha davrga xos bo'lgan kalambur vositasining boshqa lisoniy o'yinlar turlaridan farqli uning yumoristik ta'sir va ikki mazmun maydonlariga ega bo'lgan so'z o'yining bir ko'rinishi sifatidagi qarashlardan kelib chiqib ish ko'rgan. Shu bilan bir qatorda

tadqiqotdchi kalambur – “ohangdosh va shakli bir xil yoki o‘xshash bitta so‘z, so‘zlar, so‘z bo‘laklari, ibora yoki gaplarning turli mazmunlarning komik tarzda qo‘llaniluvchi nutq ko‘rinishi” ekanligi va bu kabi matnlar o‘zining “yumoristik va satirik xususiyatlari bilan ajralib turadi” [7] degan xulosalarga ham kelgan. Shuningdek, N.V.Yakimenko ilmiy ishining asosiy maqsadi kalambur tuzilishi masalarini o‘rganishdan iborat bo‘lib, unda tilshunos olim kalamburdagi hamohang yoxud shakli bir xil yoki o‘xshash jihatlarining uzviyligiga asoslangan unsurlarini vositaning “yadro [8]”si deb belgilaydi. Xususan, kalamburga xos yadro tuzilishlarining quyidagicha uchta ehtimoliy ko‘rinishlarini ko‘rsatgan:

1. Shakli to‘liq mos keluvchi unsurlar: company - “rota” va company - “kompaniya, saf”;
2. Grafik jihatdan o‘xshash bo‘lmagan, ammo hamohang unsurlar: tale-tail, night-knight;
3. Ham talaffuzi, ham grafik jihatlarini farq etuvchi unsurlar: pullet-bullet.

Shuningdek, N.V.Yakimenko kalambur matni yadrosidagi mavjud unsurlarning barchasi ishtirok etishi yoki ularning ba’zilar implitsit holatda ham qatnashishi mumkinligini ta’kidlaydi. Masalan: Where did the King Arthur go for entertainment? To a nightclub - knight club.) Qirol Artur vaqtichog‘lik qilish uchun qayerga bordi? Tunggi klubga (ritsarlar klubiga, uyushmasiga)).

Xususan, mazkur tadqiqot ishida N.V.Yakimenko kalambur o‘girmasida mutarjim uchun asosiy muammo bo‘lib hisoblangan o‘giriluvchi tilda ingliz tilidagi kalamburiga mos ekvivalentining mavjud bo‘lmaganligi masalasi ham o‘rganilgan. Masalan, xuddi shu muammoga oid keyingi board – “doska, taxta” va board – “komissiya, muvaqqat, qo‘mita” kabi omonimlarida qurilgan kalamburi kontekstining rus tiliga amalga oshirilgan tarjimalarining quyidagicha tahlillarini keltirgan [7]. Ingliz tilidagi mazkur birlikning rus tilida (ma’noviy tovlanishlar va tafovutlarini teng qamrovli) ekvivalentining mavjud bo‘lmaganligi tufayli M.K.Sebrikova o‘z o‘girmasida uning so‘zma-so‘z tarjimasini keltiradi va N.V.Yakimenkoning fikricha, bu holat tarjima matnidagi “mantiqsiz kontekst”ning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan:

“- Поклонись комитету, - сказал Бембл. Оливер смахнул рукой две-три слезинки и, не видя другой доски, кроме стола, к счастью, догадался поклониться ему”.

Misol sifatida keltirilgan ingliz tilidagi kalambur kontekstining A.Kravtsova tomonidan amalga oshirilgan quyidagi tarjimasida esa asliyat matnidagi kalamburning stilistik xususiyatlari ko‘rinmay qolgan bo‘lsa-da, uning moddiy-mantiqiy uzviyliliklaridagi xosliklari asrab qolingaligi sabab tadqiqotchi tomonidan “ancha durustroq” bajarilgan o‘girma sifatida belgilaydi:

“- Поклонись совету, - сказал Бембл. Оливер смахнул две-три ещё не высохшие слезинки и, видя перед собой стол, по счастью, поклонился ему”.

Mazkur holatdagi asliyat kalamburi kontekstida vositaning vazifaviy xususiyatlardan ko‘ra uning moddiy-mantiqiy jihatlarini ustunlik qilganligi sabab mutarjimning rus tilidagi nokalambur tarzidagi tarjimasi amlaliyoti o‘zini oqlay olgan. N.V.Yakimenkoning fikricha, “agarda asliyat kalamburida vazifaviy xususiyatlari uning moddiy-mantiqiy jihatlaridan ustunlik qilgandagina tarjimada vositaning semantik asosini qurbon qilib vositaning shaklini ya’ni, kalamburning adekvat stilistik funksional xususiyatini ta’minlovchi xossalarini asrab qolishning imkoniyati bo‘lar edi” [8]. Shuningdek, bizningcha, yuqorida tahlillarga tortilgan asliyat kalamburi tarjima matnida uning semantik asosini o‘zgartirish yoki hamohanglikka asoslangan stilistik vositalar orqali izohlash, ya’ni kompensatsiya kabi usuli ham qo‘llanilishi imkoniyati mavjud.

A.S.Djanumov ham o‘z tadqiqotlarida kalambur tabiati va tarjimasi muammolarini o‘rgangan va olimning ta’kidlashicha: “kalambur tilning lug‘aviy vositasi emas” balki, “u muallifning shaxsiy mahsulidir”, hamda “mazkur vositaning asliyat tilining lug‘aviy zahirasida mavjud bo‘lmaganligi tarjima matnida aks ettirishda har bir mutarjimdan ijodiy yondashuvni talab etadi” [6]. Shuningdek, tilshunos olim kalambur tarjimasi amaliyotiga oid o‘zining tavsiyalarini bergan:

1. badiiy asarda kalamburni ajratib olish;
2. kalambur vazifasi doirasining konteksti chegaralarini belgilash;
3. kalamburning botinini mazmunini aniqlash bilan bir qatorda vosita tagmatnidagi birlik va unsurlarni qayta voqelantirish;
4. kalamburning funksional yuklamasini belgilash;
5. kalamburning turini aniqlash;
6. kalambur turi va kontekst xususiyatlaridan kelib chiqib tarjima usulini belgilash.

Shuningdek, A.S.Djanumov ma’lum bir asarning estetik va badiiy yaxlitligini ta’minlashdagi kalamburning katta ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek, kitobxonning badiiy asar g‘oyasini imkon qadar to‘laqonli idrok etishi uchun tarjimada mazkur stilistik vositaning *yumoristik polifunksional maqsadini* asrab qolish nechog‘lik muhim ekanligini ta’kidlaydi.

O‘z navbatida L.A.Sazonova ham rus badiiy adabiyoti misolida ijodkorlar tomonidan turg‘un birliklarning tarkibiy qismlardagi o‘zgartirishlari natijasida yaratilgan kalamburlar tarjimasi masalalarini

o'rgangan. Tilshunos olim kalamburning voqelanishi asosini tashkil etuvchi mexanizmlarning juda murakkabligini inobatga olganda mazkur vositaning boshqa bir tilga o'girish o'ta qiyin vazifa ekanligini ta'kidlaydi. Turg'un birliklar asosida qurilgan kalamburning tarjima amaliyoti masalalari borasidagi o'zining quyidagicha tarjima usullari variantlarini ko'rsatadi [8]. Ya'ni, olim tarjima tilida asliyat kalamburining ekvivalent izohini topish kabi tarjima usulini eng qulay vosita sifatida belgilaydi, ammo, tillardagi o'ziga xos tafovutlar tufayli mazkur usul doim ham ish bermasligini ta'kidlaydi. Shuning uchun, L.A.Sazonova kalambur tarjimasida ko'proq tasviriy tarjima usulidan foydalanish imkoniyatlarini ham o'rgangan. Ma'lumki, mazkur amaliyot jarayonida asliyat kalamburiga xos stilistik xossalarning tarjima matnida g'oyib bo'lishiga olib kelsa-da, biroq moddiy-mantiqiy mazmunining, ba'zida esa asliyat turg'un birligining pragmatik ta'sirining ham qisman asrab qolinishi mumkin. Shuningdek, asliyatdagi kalambur vositasini boshqa tilga umuman tarjima qilmaslik ya'ni, uni tushirib qoldirish kabi holatlari ham keng tarqalgan hodisadir. L.A.Sazonova kalambur tarjimasida "muloqot pragmatikasini asrab qolishdagi samarali imkoniyati va eng qulay tarjima usuli sifatida funksional yondashuvni belgilagan [7].

Ma'lumki, jahon tilshunosligi va adabiyotida olimlar kalambur hodisasini yumor doirasida o'rganganlar. Xususan, S.Attardo kalambur vositasini yumor va tilshunoslik fanlari nazariyalari nuqtai nazaridan kelib chiqib tadqiq etgan. S.Attardo o'z izlanishlarida kalamburning nafaqat shakliy balki mazkur vosita kontekstidagi unsurlarining o'zaro semantik uzviyliklari masalalarini ham o'rgangan. Zero, tilshunos olim kalambur birligi doirasida faollashuvchi turli mazmunlar ziddiyatlarining namoyon bo'lishini quyidagicha to'rt hil munosabatlar ko'rinishida izohlaydi: 1) o'zaro dahlsizlik; 2) uzviylik; 3) "Mazmun 2 ning Mazmun 1 ga ta'siri" (S2 forces connotation on S1), 4) "Mazmun 1 ning Mazmun 2 ga ta'siri" (S1 forces connotation on S2) [10].

Mazkur tushuntirishlarda kalambur kontekstining shartlanishidagi bitta yoki undan ortiq shaklan o'xshash birliklar asosida turlicha aloqadorlikdagi mazmunlarning voqelanishi ya'ni, bisotsiatsiya hodisasining namoyon bo'lishini kuzatilmogda. Albatta, kalambur tushunchasining asoslari negizida turuvchi kognitiv jarayonlarni o'rganmasdan turib vositaning mohiyatini anglash mushkul. Demak, kalamburning nafaqat shakli, leksik, stilistik xususiyatlari va ta'siri balki vositaning kognitiv asoslarini o'rganish ham alohida ahamiyatga egadir. Vaholanki, kalambur kontekstida voqelanuvchi ikki yoki undan ortiq turli semantik ma'noviy maydonlarining kognitiv asoslari vositaning bisotsiativ xususiyatlari, ya'ni kalambur kontekstida qatnashuvchi ma'lum bir unsurning turli mazmunlar o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Lug'atda berilishicha bisotsiatsiya bu ma'lum bir obekt yoki g'oya asosida idrokda birvarakayiga turli, o'zaro bog'liq bo'lmagan sohalar to'g'risida voqelanuvchi mental tasavvurlardir [11]. Xususan, A.Kestler bisotsiatsiya hodisasi ijodiy aktda turli shakllardagi (hazil, o'tkirlik yoki kalambur) yumoristik ta'sirning yaratilishda asosiy omil bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi. Shuningdek, tilshunos olimning e'tirof etishicha kalambur bu, "ikki mazmunga ega bo'lgan ma'lum bir fonetik shaklning bisotsiatsiyasi"dir [12]. A.Kestler kalambur asosini tashkil etuvchi bisotsiatsiyani, uning zaminida yuzaga keluvchi nafaqat alohida belgilar balki, yaxlit mazmun-mohiyatga ega ma'noviy maydonlarni voqelantiruvchi ancha keng hodisa sifatida talqin etishni ma'qullaydi.

Kalambur mohiyatini yanada chuqurroq o'rganishda unga xos kognitiv asoslar va vazifalariga oid vositaning *stilistik ta'siri* xususiyatlarini belgilashni taqozo etadi. Xususan, A.Kestler kalambur kontekstidagi unsurlarning o'zaro munosabatlaridagi kognitiv xosliklariga asoslanib, vositaning quyidagicha ta'siri belgilarini keltiradi: agarda unsurlar o'rtasidagi uzviyliklar to'qnashularvga asoslansa, bu jarayonning natijasi yumorning kelib chiqishiga sabab bo'ladi, sintezda esa – o'zaro tushunish bo'lib, qarama-qarshilikka asoslangan munosabatlarda – estetik kechinmalar kabi stilistik effektlar yaratiladi.

V.Z.Sannikov ham kalambur pragmatik imkoniyatlarini o'rganib ulardagi *stilistik ta'sirning* o'ziga xosliklarini asosiy ikki mezonlarga ajratib ko'rsatadi: [13]

1. kalamburning tarkibiy unsurlari o'rtasidagi semantik munosabatlariga ko'ra:

a) qo'shimcha ma'noviy tovlanishlar doirasi juda boy bo'lmagan hamohang so'zlar mazmunlarining yig'indisi "qo'shnilar" - kalamburlari turining yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin, masalan:

"На пикнике, под тенью ели

Мы пили более, чем ели";

b) to'qnashuvga asoslangan munosabatlar natijasida voqelangan kalamburlar bu "maska" kalamburlardir, masalan: "Хорошие фильмы нам дороги, но и плохие подчас дороговаты";

c) konteksti hisobida orttirilgan ma'lum bir qo'shimcha ma'noning ustunligi sezilgan vositalar bu "oila" kalamburlardir, masalan: "И в нелётную погоду можно вылететь со службы".

2) muallifning pragmatik mo'ljali ya'ni, kitobxonga maqsad etilgan pragmatik ta'siriga ko'ra kalamburlar quyidagicha stilistik ta'sir asoslarga ega bo'lishi mumkin: a) nutqdagi kuchli ta'sirchanlik -

“qo‘shnilar”; b) kitobxon taxminlarini chalg‘itish yoki komik shok holatiga tushirish orqali uni adashtirmoq - “maska”; c) komik ta’sir – “oila”.

Demak, kalamburning stilistik ta’siri mezonlari mazkur vositadagi tarkibiy unsurlarining o‘zaro semantik munosabatlari va muallifning pragmatik mo‘ljali kabi jihatlari ya’ni, kalambur kontekstining shartlanishidagi o‘ziga xosliklaridan kelib chiqib belgilash imkoniyatlari kuzatiladi. Kalambur matnida birliklarning turli rang-barang mazmunlari faollashib hamda ulardagi barcha ma’noviy tovlanishlaridagi tafovutlarning tatbiq etilishi uchun qulay kontekst sharoiti mavjuddir. Shuningdek, Shekspir dramalaridagi kalambur vazifalarini ham vosita kontekstining shartlanishi xususiyatlari asosida o‘rganish maqsadga muvofiq.

Ma’lumki, neytral kontekstda qatnashuvchi polisemantik birlikning alohida bir mazmuni yaqqolashadi. Kalambur kontekstida esa polisemantlarning ko‘p ma’nolilik xususiyati saqlanib qolinadi va bundan tashqari mazkur vosita tarkibiy unsurlarning mazmunlariga xos yoki xos bo‘lmagan kutilmaganda yangi, noan’anaviy ma’noviy tovlanishlarni qo‘zg‘atib ularni yanada rag‘bantiradi.

Binobarin, kognitiv leksika fani nazariyasiga oid leksik birliklar semantikasi ortida ma’lum bir belgilanuvchi voqelik lahzalari to‘g‘risidagi bilimlar yig‘indisi ya’ni, freymlar zohir bo‘lishi e’tirof etilmoqda. Shuningdek, kalamburning voqelanishi negizida hosil bo‘luvchi fragmentlar mundarijasi ham mazkur stilistik vosita kontekstida shartlanuvchi o‘ziga xos freymlar ifodasini tashkil etadi [4].

Aslida, freym hodisasi Marvin Minskiy tomonidan kashf etilgan bo‘lib, informatika fanida sun’iy intellektning yaratilishi xususiyatlarini o‘rganishda “stereotipga oid holatlar to‘g‘risidagi tizimli tushunchalar yig‘indisi” deb belgilangan [14]. Lingvistika fani sohasida esa Charlz Fillmor freym tushunchasini “bilimlarga oid o‘ziga xos yaxlit tizimi yoki tajribalarning uzviyligiga asoslangan sxemasi” sifatidagi ta’riflarini keltirgan [15]. Yoki, “freym bu tarkibiy qismlarga ajratilgan va mazkur unsurlar o‘rtasidagi munosabatlariga asoslanuvchi tizimlashtirilgan bilim birligi”dir [5]. Binobarin, freym tahlillari jarayonida so‘zlarda mujassam etilgan leksik mazmuni doirasidan tashqari ancha kengroq jihatlarni (ya’ni, madaniyat, dunyoqarash, umum - tanish tajribalar va standart obektlar yoki harakatlarga nisbatan bo‘lgan qarashlardagi o‘ziga xosliklar) o‘rganish imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, freymning kontekstual ifodasi (konfiguratsiya) va yumorning turli jihatlarni kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlarida E.V.Saligina freymnlarni “fokus” asosida ya’ni, undagi turli tarkibiy qismlarining faollashuvidagi *markaziy va periferiyadagi* unsurlarining shartlanishini ta’minlovchi murakkab dinamik qurilma tarzida namoyon bo‘lishini belgilaydi [16].

Shuningdek, E.V.Saligina yumoristik ta’sir nafaqat “kutilmaganda freymnlarning almashinuvi” (o‘zaro yaqin bo‘lmagan, tom ma’noda begona, noreal, qovushmaydigan, bir-biridan uzoq freymlar birlashuvi) balki, “noodatiy usulda terminallar/tushunchalar miqdorining kengaytirilishi evaziga qayta voqelantirish” orqali “alohida freymning namoyon etilishidagi o‘ziga xos usuli” yordamida yuzaga kelishini ta’kidlaydi. L.V.Orletskaya ham yumorga oid tadqiqotlarida freym tahlillarining asosiy jihati ma’lum bir kontekstdagi o‘zaro zid yoki bir-biridan uzoq munosabatda bo‘lgan freymnlarni tahlil etishdan iborat ekanligini aytadi [17]. Shuningdek, tilshunos olim “nutq vositalari orqali tasvirlanuvchi holat va belgilanuvchi holat o‘rtasidagi nomutanosibliklar”ni yumoristik ta’sirning yuzaga kelishidagi asosiy kognitiv mexanizmi sifatida belgilaydi. Ishimizda o‘rganganimizdek kalamburning *yumoristik ta’siri mazkur vosita effektining bosh stilistik omili* bo‘lib xisoblanadi. Binobarin, yuqorida E.V.Saligina va L.V.Orletskaya tomonidan yumorning yuzaga kelishidagi freym semantikasi nuqtai nazaridan keltirgan kognitiv asoslariga oid xulosalari kalamburga ham aynan xosdir. Shuningdek, kalamburning “ikki planli (rejali)” xususiyati vositaga xos kognitiv asoslarini tashkil etadi. Va, kalamburning bunday xususiyati nafaqat vosita kontekstida qatnashuvchi birliklarning turli ma’nolarining o‘zaro munosabatlari (bisotsiatsiya) balki, undagi bir nechta freymnlarning to‘qnashuvlari xosliklarida ham namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

Demak, Shekspir dramalaridagi kalamburlar tarjimalarini qiyosiy lingvopoetik tahlillarini amalga oshirishda hamda mazkur vositaga xos murakkab “ikki rejali” tuzilishini o‘rganishda freym tahlillari yordamida aniqlash maqsadga muvofiqdir. Chunki, kalamburni unga o‘xshash boshqa stilistik vositalar (so‘z o‘yini, zevgma, paronamaziya, kontaminatsiya, frazeologizmlarning ikki hil talqini) bilan o‘rtasidagi tafovutlarini aniqlash uchun nafaqat uning til xususiyatlarini balki, kalamburni tashkil etuvchi o‘ziga xos ichki kognitiv ifodalarini ham o‘rganishni taqozo etadi. Shuningdek, tadqiqotimizda ham Shekspir dramalaridagi kalamburni asliyat, o‘zbek va rus tili tarjimalaridagi qiyosiy lingvopoetik hamda lingvokognitiv tahlillari orqali uslubiy vositani struktur jihatdan o‘rganish hamda yumoristik xususiyatini tadqiq etish, dramaturg kalamburlarining turli ko‘rinishlaridagi tasnifi, ya’ni: omonimiya, polisemiya, miniatyura asosida yoki dialog, monolog hamda davomiy kalamburlar tarzida, shuningdek, alliteratsiya, xiazm, antiteza bilan stilistik-konvergent hodisa sifatida tahlil etdik.

Ma'lumki, lingvistika sohasida konvergentsiya (lot. convergo – “yaqin”, “yaqinlashtiraman”) hodisadan turli tillar tuzilishidagi mushtarakliklar yoki alohida bir tildagi o'ziga xos fonologik, leksik, stilistik hodisalari o'rtasidagi yaqin o'xshashliklarni belgilash maqsadida qo'llaniladi. O'z navbatida, M.Riffater “bir nechta mustaqil uslubiy vositalarning bir joyda uyushib kelishi”ni konvergentsiya hodisasi deb talqin etib, mazkur tushunchani stilistika faniga termin sifatida kiritgan olim bo'lib hisoblanadi [18]. Shuningdek, I.V.Arnol'dning fikricha “konvergentsiya bu nafaqat bitta kontekstagi turli stilistik vositalarning shartlanishi hodisasi bo'lib, balki, har bir vosita o'ziga xos dahlsizligini saqlagan holda yangi stilistik sifatidagi yanada murakkab uslubiy vositani kasb etishi”ni ta'kilaydi. N.S.Matorinaning fikricha konvergentsiya juda kuchli ta'sirga ega bo'lib, o'ziga xos semantik yoki grammatik qonuniyatlarni taqozo etadi, shuningdek, konvergentsiyaga kirishgan komponentlar (leksik, sintaktik, fonetik stilistik yoki izohli til vositalari) vosita mikrotekstida ma'lum darajada o'z avtonomligini yo'qotib umumiy ta'sir, yaxlit mazmun hamda obraz voqelantirishga yo'natirilgan bo'ladi [19]. N.S.Matorina konvergentsiya turli tartibdagi shakllarda namoyon (parallel, ketma-ket, bosqichma-bosqich) etilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Xususan, S.A.Kuz'menko konvergentsiya hodisasining pragmatik xususiyatlarini o'rganib, mazkur tushunchani “turli stilistik vositalarning yagona pragmatik vazifasiga asoslangan o'zaro munosabatlari orqali voqelanuvchi murakkab uslubiy vosita deb belgilaydi [18]. Shuningdek, olima konvergentsiyaning bitta yoki bir nechta gaplar yoxud butun matn doirasida ham shartlanishi mumkin bo'lgan murakkab, kuchli ta'sirga ega stilistik hodisa ekanligini e'tirof etadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, Shekspir dramalaridagi ma'lum yumoristik-pragmatik ta'sirga erishmoqlik maqsadida qo'llanilgan stilistik - konvergent kalamburlar kontekstini o'zbek va rus tarjimalarida aks ettirilishidagi o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etildi.

ADABIYOTLAR:

1. *Longman Dictionary of Contemporary English*. – Pearson, 2007. p. 150.
2. *Gr. Ritchie. The Linguistic Analysis of Jokes*. – London and New York: Routledge, 2014. p. 109.
3. *Гальперин И.П. Очерки по стилистике английского языка*. – М.: Изд-во литературы на иностранных языках, 1958. с. 47.
4. *Беляевская Е.Г. Моделирование стилистических приемов в дискурсе // Вестн. Моск. гос. лингвист. ун-та: вып. 17 (677). Сер. Языкознание*. – М.: МГЛУ, «Рема», 2013. с. 8.
5. *Приходько В.К. Каламбур и приемы его создания в произведениях Н.А. Тэффи: диссертация ... канд. филол. наук*. - Москва, 1998. с. 192.
6. *Джанумов А.С. Каламбур и его функционирование в двуязычной ситуации: диссертация ... канд. филол. наук*. – М., 1997. с. 5.
7. *Сазонова Л.А. Закономерности передачи каламбура при переводе художественной литературы: диссертация ... канд. филол. наук*. – М., 2004. с. 103.
8. *Якименко Н.В. Каламбур как лингвостилистический прием в английском языке и пути его воссоздания в переводе: диссертация ... канд. филол. наук*. - Киев, 1984. с. 15.
9. *Вороничев О.Е. Каламбур как феномен русской экспрессивной речи: диссертация ... доктора филол. наук*. – Москва, 2014. с. 465.
10. *Attardo S. Linguistic Theories of Humor*. – New York, Berlin: Mouton de Gruyter, 1994. с. 137.
11. *Merriam-Webster Online English Dictionary [Электронный ресурс]*. – Режим доступа: <http://merriam-webster.com>
12. *Koestler A. The Act of Creation*. – London: Hutchinson, 1964. p. 64.
13. *Санников В.З. Каламбур как семантический феномен // Вopr. Языкознания №3*. – М., 1995. с.59-62.
14. *Minsky M. A Framework for Representing Knowledge (Technical Report)*. – Cambridge: Massachusetts Institute of Technology, 1974. p. 56.
15. *Fillmore Ch. Frames and the Semantics of Understanding // Quaderni di Semantica Vol. VI № 2*, 1985. p. 122.
16. *Салыгина Э.В. Стилистика англоязычного газетного фельетона: когнитивный, прагматический и лингвостилистический аспекты: диссертация ... канд. филол. наук*. – М., 1993. с. 65.
17. *Орлецкая Л.В. Фразеологизмы как средство создания юмористического эффекта в тексте: диссертация ... канд. филол. наук*. – М., 1994. с. 42.
18. *Риффатер М. Критерии стилистического анализа // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. IX. Лингвостилистика*. – М., 1980. с. 88.
19. *Орлецкая Л.В. Фразеологизмы как средство создания юмористического эффекта в тексте: диссертация ... канд. филол. наук*. – М., 1994. с. 42.



Navoiy gulshani

“FIROQINGDA KO’ZUMDIN YIG’LAMOQ BO’LG’AYMI KAM BIR KUN”...

*Jumayeva Nozima Nurxon qizi,
Buxoro davlat universiteti Adabiyotshunoslik (o'zbek) yo'nalishi
1-bosqich magistranti*

Turkiy til va adabiyot rivojlanishida o‘zining yuksak hissasini qo‘shgan buyuk ijodkor Alisher Navoiy ijodini o‘rganish asrlar osha ilm ahlining muhim vazifalardan bo‘lib kelmoqda. 7 asr davomida butun Sharq va G‘arb olimlari tomonidan Navoiy ijodi keng o‘rganilmoqda. Shunday bo‘lsa-da, hali tadqiq qilinmagan, o‘rganilmagan masalalar talaygina. Shundan kelib chiqib aytish lozimki, Navoiy ijodi bitmas-tuganmas sarchashma va bu xazina hali necha asrlar davomida yosh avlod tarbiyasi uchun beminnat xizmat qiladi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning turkiy til rivojiga qo‘shgan hissasi o‘z davridayoq alohida e‘tirof etilgan. Bu jihatdan, Alisher Navoiyning ustози Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asaridagi quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: «...turkiy tilda hech kim Navoiydek ko‘p va xo‘p she‘r aytmagan hamda nazm gavharlarini sochmagan edi». Ijodkorning nafaqat turkiy tilda, balki forsiy tilda yozilgan asarlari ham o‘z davrida mashhur bo‘lgan. U zullisonayn ijodkor sifatida har ikkala tilda ham samarali ijod qilgan. Forsiy va turkiy tildagi ijodi haqida tarixchi olim Muhammad Haydar Mirzo o‘zining "Tarixi Rashidiy" asarida shunday fikrlarni keltirgan: «Undan avval va undan keyin hech kim turkiy tilda she‘rni undan ko‘proq va undan yuksakroq yozolgan emas. U forsiy she‘rni ham ko‘p yozgan». Shoir ijodida turfa mavzular qalamga olingan. Aytish mumkinki, oshiqona g‘azal ham Navoiy ijodida alohida mavqe egallaydi. Fikrimiz isboti sifatida “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi g‘azalni tahlilga tortamiz:

Firoqingda ko‘zumdin yig‘lamoq bo‘lg‘aymi kam bir kun,
Kulib kirgaymu vayron kulbam ichra ul sanam bir kun.

Maloyik, tarqashingkim, ul quyosh hajrinda qo‘rqarmen,
Teshib o‘tgay falakni ohim o‘tidin alam bir kun.

Harimi vaslig‘a mahramlar oxir shukur eting, kulmang,
Meni mahrum debkim, men ham erdim muhtaram bir kun.

Fasonam yozg‘uchi, bilkim, bitik uzra sochar quldek,
Kuyib sochilg‘usi qog‘azga ilgingdin qalam bir kun.

Emas g‘am shomi anjum, qatralar ohim tafidin bil,
Ne tong kun ko‘zgunin gar tiyra qilsa ushbu nam bir kun.

Eshittim, telba it ko‘yida qatl aylar emish, ayting
Kim, ul ko‘y itlaridin erdi bu devona ham bir kun.

Talab dashtida yillar po‘ya aylab, vahki, to yettim
Harimi vaslig‘a derkim, bo‘lur tavfi haram bir kun.

Ko‘nguldin tavba qaydin raf‘ qilmas xonaqah shayxi,
Magarkim, dayr piri zohir etkay bu karam bir kun.

Navoiy, ruhparvar nuktavu muhlik tajaruddin
Ajab, gar qo‘ymag‘ay ko‘kka Masihodek qadam bir kun.

Gʻazal mohiyatini batafsil anglash maqsadida dastlab izoh talab soʻzlar bilan baytlarning nasriy bayonini keltiramiz:

1-bayt:

Sening firoqing dastidan yigʻlamagan biror kunim boʻladimi,
Oʻsha sanam (yor) qachondir mening vayrona uyimga kulib kirib keladimi?

2-bayt:

Maloyik, yaʼni goʻzal farishta, agar sen ketib qolsang, sen- quyoshning hajringdan qoʻrqarman.
Mening oʻtli, alamli ohim falakni bir kun teshib oʻtadi.

3-bayt:

Mahramlar (hamdamlar, ulfatlar) haramingiz vasliga shukur qiling, meni yordan mahrum deb kulmang, men ham bir kun muhtaram (yuksak eʼzoz)ga ega boʻlaman.

4-bayt:

Fasonam (sarguzashtim, hikoyam)ni yozguvchi bilki, bitik (yozuv) bu ustiga xuddi kul sepilgani singari yoziladi. Barbir bir kun taqdirimni yozuvchi oʻsha Qalam ilgingdan (qoʻlingdan) kuyib qogʻozga sochiladi, yaʼni mening hikoyam tarixi qogʻozga bitiladi.

5-bayt:

Gʻam shomi (gʻamdan qorayib ketgan tun) da anjum (yulduzlar) yoʻq, har bir qatra (tomchi)lar mening ohimdan paydo boʻlgan, qachondir tong koʻzgusi(kunduzi)da ushbu namdan tiyra(koʻz yoshi) hosil boʻladi. Tun oshiqning ohlaridan, tongdagi shabada esa koʻz yoshlaridan hosil boʻlgan.

6-bayt:

Eshittimki, bir telba it ishq koʻyida qatl etilibdi, Kim ham bu kunda u itlar (ishq koʻyidagi itlar) kabi oshiqi devona boʻlar edi.

7-bayt:

Talab dashtiga yillar davomida qadam tashlab yetib bordim, Haram vasliga bir kuni tavf haram (haramni ziyorat qilish) boʻladi.

8-bayt:

Agar bir kuni dayr piri (mayxona boshligʻi) karam(olijanoblik, marhamat)ni zohir qilsa ham, xonaqoh shayxi koʻnglidagi tavbasini yoʻq qilmaydi.

9-bayt:

Navoiy, sen oʻzingning ruhing bilan shunchalik yolgʻiz qoldingki, (tajarrud), ajabki, xuddi Masihodek koʻkka ham qadam qoʻymading.

Gʻazalning gʻoyaviy-badiiy tahlili orqali baytlaridagi maʼno qatlamlarini anglashga harakat qilamiz. Tabiiyki, fikr ifodasida badiiy sanʼatlar ham taʼsirchanlikni taʼminlash uchun xizmat qilgan. Shu nuqtayi nazardan tahlillar davomida shoir mahoratini koʻrsatib turuvchi badiiy sanʼatlar ifodasiga ham eʼtibor qaratamiz:

Firoqingda koʻzumdin yigʻlamoq boʻlgʻaymi kam bir kun,

Kulib kirgaymu vayron kulbam ichra ul sanam bir kun.

Birinchi baytda oshiqning goʻzal yor firoqidan tinimsiz koʻz yosh toʻkishi va shu koʻz yosh toʻkishim biror kun kam boʻladimi, deya tajohulu orif vositasida kitobxonga murojaat qilmoqda. Baytning ikkinchi misrasida oshiqning oʻz “vayron kulbasi” sari ul sanam bir kun “kulib kirgaymu”, degan ilinj yoritiladi. Baytning birinchi misrasida hijron va ayriliq ifodasi berilsa, ikkinchi misrada oshiqning umidvorlik holati beriladi. Har ikkala misrada ham tajohulu orif fikr taʼsirchanligini taʼminlashga xizmat qilgan.

Ikkinchi baytda oshiqlik va hijron ifodasi yanada taʼsirchan ifodalanganligini koʻrish mumkin:

Maloyik, tarqashingkim, ul quyosh hajrinda qoʻrqarman,

Teshib oʻtgay falakni ohim oʻtidin alam bir kun.

Oshiq “ul quyosh” hajrida shunchalik oh chekadiki, ohining oʻti “falakni teshib oʻtishi”dan qoʻrqadi. Bunday maftunkor ifoda uchun muallif mubolagʻadan oʻrinli foydalangan. Yorning goʻzal jamoli taʼrifi uchun istiora asosida (quyosh) gi fikr ifodasi ham shoir mahoratini koʻrsatib turibdi. Shuningdek, maloyik deb farishtalarga murojaat qilish orqali nido sanʼatidan foydalanilgan.

Oshiq ruhiy holatining ifodasini navbatdagi baytda ham koʻrish mumkin:

Harimi vasligʻa mahramlar oxir shukur eting, kulmang,

Meni mahrum debkim, men ham erdim muhtaram bir kun.

Shoir 3-baytni ham bevosita undalma bilan boshlaydi, yaʼni harimi vasli mahramlariga murojaat qiladi va ularni oʻz hollariga shukur qilishga, ammo oʻzining holiga kulmaslikka chaqiradi. Yaʼni yor vaslidan mahrum boʻlsa-da, bir kun vaslga erishib, muhtaram boʻlishiga umid bogʻlaydi. Ijodkor mahrum va

muhtaram (benasib va qadrlı) soʻzlari orqali tazod sanʼati imkoniyatidan foydalanib, latofatli ifoda yaratgan, deyish mumkin.

Maʼlumki, fikr undalma bilan boshlansa, diqqatni qaratish, aniqlilik, taʼsirchanlik kabi jihatlarning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Alisher Navoiy ayni shu masalaga eʼtibor qaratib, mazkur gʻazalning koʻpgina baytlarini nido sanʼati bilan boshlaydi:

Fasonam yozgʻuchi, bilkim, bitik uzra sochar quldek,
Kuyib sochilgʻusi qogʻazga ilgingdin qalam bir kun.

4-bayt fasona yozgʻuchi (taqdir yozuvchi) ga murojaat bilan boshlangan. Baytdagi quldek sochar birikmasida tashxis sanʼati qoʻllangan, yaʼni insonning taqdiri yaratguvchi tomonidan bitilishi va har bir banda Haqning quli ekanligi aytilgan. Shuning uchun ham taqdir yozuvlari qulga oʻxshatilgan. Qalamning inson hayotini yozishdagi bir vosita ekanligi, oxir-oqibat umrning yakuni qalamning kuyib tugashiga oʻxshatish bilan yanada jonli tasvirlangan. Shuningdek, baytdagi tanosub sanʼati (qalam, bitik, qogʻaz) ham ayricha badiiylik ifodasiga xizmat qilgan.

Shoir oshiq holatini ifodalashda tabiat unsurlaridan ham oʻrinli foydalangan:

Emas gʻam shomi anjum, qatralar ohim tafidin bil,
Ne tong kun koʻzgun gar tiyra qilsa ushbu nam bir kun.

Eʼtibor qaratsak, Navoiy tunni oshiqning gʻamli ohidan paydo boʻlganini, ertalabki shabadalarni esa koʻz yoshlaridan yaralganini chiroyli dalil orqali tasvirlaydi. Ijodkor ushbu baytda husnu taʼlil sanʼatidan foydalanadi. Shom(tun) va kun soʻzlari zid maʼnoni ifodalash bilan birgalikda tanosib soʻzlar ham hisoblanadi.

Navbatdagi baytda talab vodiysi va uning oshiqni oʻz maqsadiga yetkazuvchi ekanligiga ishora qilingan:

Talab dashtida yillar poʻya aylab, vahki, to yettim
Harimi vasligʻa derkim, boʻlur tavfi haram bir kun.

Maʼlumki, “Lison ut-tayr” dostonida taʼriflangan 7 vodiyning birinchisi talab hisoblanadi. Bu vodiysiga qadam qoʻygan solik oshiqlikdan keladigan jami sinovlarga, mashaqqat va uqubatlarga tayyor turishi, maʼshuqa vasli yoʻlidagi qiyinchiliklarni baxt-u saodat deb qabul qilishi kerak. Shu bois Navoiy ham “Talab dashtida poʻya aylab”, deyish orqali bu vodiya talabgor ancha mashaqqatlarga bardoshli boʻlib, nihoyat “tavfi haram”, boʻlishi mumkinligiga ishora qiladi. Zero, bu vodiyaning maqsad Yaratganning vaslidir. Talab dashtining taʼrifidan soʻng, keyingi baytda tavba bilan bogʻliq mulohazalar berilgan bayt keltiriladi:

Koʻnguldin tavba qaydin rafʻ qilmas xonaqah shayxi,
Magarkim, dayr piri zohir etkay bu karam bir kun.

Darhaqiqat, tavba barcha amallarning, tasavvuf tariqatlarining ibtidosi sanaladi. Tavbani qattiq tutgan solikgina oʻz maqsudiga erishadi. Qolaversa, tavba ham shariatda, ham tariqatda eng asosiy masalalardan hisoblanadi. Zotan, tavba kamolotga, oliy axloqiy sifatlarga qaytish demakdir. Tavbani bob ul-abvob - eshiklarning eshigi ham deyilar, chunki tariqatga qadam qoʻygan odamning niyati va mohiyati, avvalo, shu tavbasida ayonlashadi [2,27]. Shu bois Alisher Navoiy “Koʻnguldin tavba qaydin rafʻ qilmas xonaqah shayxi”, deya tavbaning nechogʻli ahamiyatli amallardan ekanligiga urgʻu beradi.

Shoir maqtada gʻazalda keltirilgan fikrlarga xulosa yasaydi:

Navoiy, ruhparvar nuktavu muhlik tajaruddin
Ajab, gar qoʻymagʻay koʻkka Masihodek qadam bir kun.

Ishq va oshiqlik insonni “tajarud” (yolgʻiz) qiladi. Chunki uning fikri, xayoli oʻz maʼshuqasi bilan band, hech kim bilan ishi yoʻq, shu holati uni Masihodek koʻkka qadam qoʻydisa, ne ajab. Shoir oshiq ruhiy holati ifodasida talmeh (Masih) sanʼatidan foydalangan. Gʻazalda oshiqlikning ifodasi goʻzal tashbehlar, istiorau, mubolagʻalar orqali tasvirlangan.

Mazkur gʻazal aruzning hazaji musammani solim (mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun V---/V---/V---/V---) bahrída bitilgan:

Firoqingda/ koʻzumdin yigʻ/ lamoq boʻlgʻay/mu kam bir kun
V - - - / V - - - / V - - - / V - - -
Kulub kirgay/mu vayron kul/bam ichra ul/sanam bir kun.
V - - - / V - - - / V - - - / V - - -

Gʻazal anʼanaviy qofiyalanish tizimiga ega: a-a, b-a, d-a, e-a, f-a, g-a, h-a, j-a, k-a. Oʻzaro qofiyadosh soʻzlar: kam, sanam, alam, muhtaram, qalam, nam, ham, haram, karam, qadam. Sheʼrda qofiyaning muqayyad turidan foydalanilgan. “M” tovushi raviiy hisoblanadi. Qofiyadan keyin takrorlanib kelgan “bir kun” birikmasi radif sifatida qoʻllangan.

Xulosa qilib aytganda, "Gʻaroyib us-sigʻar" devoni tarkibiga kiritilgan "Firoqingda koʻzumdin yigʻlamoq boʻlgʻaymi kam bir kun" deb boshlanuvchi gʻazal oshiqona mavzuda yozilgan boʻlib, unda

orifona, ilohiy ishq taranumiga bog'langan o'rinlar ham mavjud. Buni Alloh vasliga yetishish yo'lidagi oshiq holi tasviriga bag'ishlangan baytlarda ko'rish mumkin. Ijodkorning badiiy san'atlar va so'z tanlashdagi mahorati g'azalning ma'no qatlami, g'oyaviy boyligi hamda umrboqiyiligiga xizmat qilgan. G'azalning qofiya tizimi hamda aruzning hazaj bahridan unumli foydalangani esa musiqiylik va ritmik jozibani yaratishda vosita bo'lgan, deyish mumkin. Zero, Husayn Boyqaro ta'kidlaganideki, «Aning nazmi vasfida til qosir va bayon ojiz turur».

ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. XX jildlik. 1- жилд. – Тошкент. «Фан», 1988-й
2. Алишер Навоий. «Ғаройиб ус – сизар». Мукаммал асарлар тўплами. 3-жилд. – Тошкент. «Фан», 1988-й
3. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев ва С. Иброҳимов. Тошкент: Ф.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1973-й.
4. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннаҳр – Ўзбекистон, 2009. – 448 б.

OAV VA MEDIA ORQALI XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH IMKONIYATI

Tursunova Shahnoza Bekchanovna,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali

O'zbek tili va ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

tursunovashahnoza534@gmail.com

Orcid: 0009-0008-9812-308X

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va keyinchalik noto'g'ri fikrlashga olib kelishi mumkin bo'lgan xavflarni ko'rib chiqamiz. Ushbu maqolada tasdiqlangan ommaviy axborot vositalari orqali xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha mumkin bo'lgan yechim ko'rsatilgan.*

***Kalit so'zlar:** internet, xavfsizlik, ommaviy axborot vositalari, aloqa, dezinformatsiya.*

ВОЗМОЖНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ СРЕДСТВ СМИ И МЕДИА

***Аннотация.** В этой статье мы рассмотрим опасности, которые могут возникнуть при использовании средств массовой информации и впоследствии привести к неправильному мышлению. В этой статье показано возможное решение для обеспечения безопасности с помощью аутентифицированных носителей.*

***Ключевые слова:** интернет, безопасность, СМИ, коммуникация, дезинформация.*

THE POSSIBILITY OF PROVIDING SECURITY THROUGH THE MEDIA

***Abstract.** This article examines the opportunities that can be seen and bought from misinformation. The material in this article provides possible solutions for providing support through information retrieval.*

***Keywords:** internet, security, media, communication, disinformation.*

Kirish. Jahonda mamlakatlar rivojlanish jarayonining jadallashuvi yoshlarning innovatsion tafakkurni shakllantirish, ularning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida ommaviy axborot vositalarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda ularning rolini oshirishga oid islohotlar olib borilmoqda. "Mamlakatimizda demokratik yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, ommaviy axborot vositalari faoliyati samaradorligini oshirish yo'lida davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan sohani qo'llab-quvvatlash, bu vakillarining mashaqqatli mehnatini har tomonlama rag'batlantirishga bundan buyon ham alohida e'tibor qaratiladi. Bu yo'lni davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri deb bilamiz va qat'iy davom ettiramiz" [1]. Shu nuqtayi nazardan, milliy ommaviy axborot vositalari va markazlarning mediamakondagi faoliyati, innovatsion tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini yaratish, insonparvarlik tamoyillarini targ'ib etishning ilmiy-rasional hamda konstruktiv yo'llarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi jamiyatda, har bir kishining hayotida gadjetlar muhim rol o'ynaydi, Internetning ta'siri qanchalik katta ekanligini sezamiz. Ushbu tizimning ixtirosi odamlarning hayotida haqiqiy inqilob bo'ldi va davlat taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida xizmat qildi. Endi tasavvur qilish qiyin, agar biz yuz yil oldin orqaga qaytsak nima bo'lar edi, chunki insoniyat gadjetlar va aloqaga juda bog'langan, bu odamlar o'rtasida hatto uzoq masofada ham aloqa o'rnatadi, tajriba almashish va ba'zi ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. Endi Internet kutubxona arxivlarini, ilgari kerakli ma'lumotni topish uchun qidirilgan ko'plab kitoblarni almashtirmoqda.

Uzoq masofali aloqalar paydo bo'lganidan so'ng, TV ko'rsatuvlari hayratlanarli tezlikda paydo bo'la boshladi va keyinchalik veb-sahifalar va boshqa turli manbalardan yangiliklarni topishingiz mumkin bo'lgan haftalik gazetani kutish o'rniga, jamiyat dunyoning har bir madaniy burchagida nima bo'layotganini tinglash, o'qish va ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ilmiy adabiyotlarda OAVni turli tipologik belgilari borligi qayd etiladi va ularni transmilliy, milliy, regional va mahalliy ko'rishlarga ajratishadi. Haqiqatan ham, mediamarkazlar ana shu ijtimoiy jug'rofiy, kibermakonda tarqalish belgilariga qarab joylashtirilgan, har bir mediamarkaz ma'lum bir jug'rofiy hududda, makonda, manzilda faoliyat olib boradi. Biroq ular axborotlar tarqatish erkinligidan kelib chiqib transmilliy axborotlardan ham foydalanishlari mumkin. Bu taqdirda hatto tuman gazetasi yoki viloyat televideniyesi global axborotlar bazasini yaratishga intiladi va ulardan foydalanadi.

OAVni auditoriyasiga muvofiq ham klassifikasiya qilish mumkin. Masalan, yoshlar uchun mo'ljallangan, maktab o'quvchilari, talabalar, keksalar, shifokorlar, olimlar, diplomatlar, vrachlar, yosh tadqiqotchilar, uy bekalari, oshpazlar uchun ham mo'ljallangan gazeta va jurnallar mavjud. Mazkur OAV aniq auditoriyaning qiziqishlaridan kelib chiqadi va ularning ma'naviy, axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. OAVni yozma, og'zaki ko'rgazmali, internet saytlari, demokratik xususiyati, xususiy yoki ijtimoiy ekanligi, axborotlarga ega bo'lish va ularni tarqatish sifati, nashr etilish belgilari kabilar orqali ham guruhlash mumkin. Ularni ichki funksiyalari va belgilarini tahlil qilish va ochib berish jurnalistikaning vazifasi hisoblanadi.

Natijalar va muhokama. Ommaviy axborot vositalari haqiqatan ham bizning dunyomizda juda muhim ahamiyatga ega bo'ldi, lekin o'z foydasini ko'zlab, ba'zida odam buni boshqalarga zararli bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa yo'llar bilan amalga oshirishga harakat qiladi. Internetning xavfliligi haqida gapirganda, birinchi navbatda ko'pchilikni yo'ldan ozdirishi mumkin bo'lgan dezinformatsiya haqida o'ylash kerak. Bunday holatning sababi yagona tasdiqlangan manba mavjud emasligi va odam haqiqiy haqiqatni topishni xohlashi bilan bog'liq bo'lib, bu ko'pincha e'tiborni jalb qilish va reytinglarni oshirish uchun aldashga olib kelishi mumkin. Bu haqiqatan ham xavfli bo'lishi mumkin, chunki bunday yangiliklarni o'qiydigan odam qo'rquvni qo'zg'atishi mumkin, bu o'quvchi va uning atrofida qilargalarga zarar etkazadi, chunki qo'rquv yuqumli narsa va ko'pincha ular undan xudbin maqsadlar uchun foydalanishga harakat qilishadi. [2]

Qo'rqinchli va noto'g'ri ma'lumotlarni ishlatish odamlar orasida qo'rquvga va mumkin bo'lgan radikal echimlarga olib keladi. Hech qanday mavzuni tushunmagan holda, ommaviy axborot vositalarida ma'lum bir reaksiya uchun yaratilgan maqolalarni topib, davlat ko'chalarda to'polonchilar ko'rish xavfiga duch keladi, ular nima uchun piket o'tkazganliklarini tushunishmaydi.

Ommaviy axborot vositalari fikrlar ko'pligining muhim vositasidir, chunki Internetdan (va boshqa ommaviy axborot vositalaridan) olingan ma'lumotlar asosida inson o'z pozitsiyasini belgilaydi va uni ba'zi manbalarga asoslanib oqilona taqdim etishi mumkin, ammo uning pozitsiyasi shubhali haqiqiylik va ba'zan targ'ibot nazariyasiga ega bo'lgan bitta manbadan iborat bo'lsa, bu ham fuqaroning o'zi uchun ham, davlat uchun ham xavfli bo'lishi mumkin.

Ushbu muammo, ayniqsa, Maxsus harbiy operatsiya (keyingi o'rinlarda SVO deb qisqartiriladi) boshlanganda, Dozhd kanali qiyin paytlarda fuqarolar aholisini adashtirganida va keyinchalik uning ishi to'xtatilganida aniq bo'ldi. Ushbu dastur o'z tinglovchilarini hokimiyatga qarshi qilib, vaziyatni juda radikal tarzda, to'g'ri aytganda, davlatga nisbatan ayblovchi tarzda tushuntirib berdi, bu esa maxsus rejim tufayli yo'l qo'yilmaydi va provokatsion edi.

Mediya orqali xavfsizlikni ta'minlash uchun qanday imkoniyat bo'lishi mumkin? Ommaviy axborot vositalari xavfsizlikka hissa qo'shishi mumkin, masalan, jamoatchilikni mumkin bo'lgan tahdidlar va xavf-xatarlar to'g'risida xabardor qilish, shuningdek, ehtiyot choralari va himoya qilish bo'yicha tavsiyalar haqida ma'lumot tarqatish orqali. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari dezinformatsiya manbai va xavfsizlik uchun tahdidga aylanishi mumkin, shuning uchun ommaviy axborot vositalaridan olingan axborotga tanqidiy munosabatda bo'lish va uning ishonchligini tekshirish muhimdir. [3]

XX asrning ikkinchi yarmi tezroq, keng ko'lamdagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarning rivojlanish davri sifatida, ular hayotning deyarli barcha jabhalariga va inson faoliyatiga kirib borishi, shuningdek, axborot makonining globallashuvi, butun jahon rivojiga ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatayotgan omil sifatida e'tirof etiladi. E'tiborli jihati, mamlakat ichidagi va tashqi dunyodagi faol axborot almashuviga odamlar ehtiyojining juda ortib borishidir. Axborot sohasining bunday tezlik bilan rivojlanishi, uning potentsiali va imkoniyatlarining o'sishi, uning jamoatchilik va davlat hayotidagi turli xil yo'nalishlarda keng tarzda ishlatilishi, yangi - XXI asrdagi odamzot taraqqiyotini aniqlab beruvchi muhim omillarning biri bo'la oladi.

G'arb mediaindustriyasining, mediamarkazlarining institutsional tizimi rang-barang va polifunksionaldir. Ularda xususiy va guruhli nashrlar, OAV muhim o'rin tutadi. Demokratik tamoyillarni o'z faoliyatiga asos qilib olgan bu mediamarkazlarning differensiallashuvi ko'zga tashlanadi.

Shu jumladan, AQSHda gazetalarni sotib olish boshqa Yevropa davlatlarinikiga qaraganda ancha arzon. Bugun o'rta hisobda bir kunda 49 million nusxada gazeta chop etiladi. Ular ichida eng mashhurlari

The New Times, USA Today, The Wall Street Journal, Los Angeles Times, Chicago Tribune, The Washington Post, Daily News, New York Post hisoblanadi. Ularning hajmi goho 100 betgacha boradi. Ba'zi paytlari, masalan, "Washington post" gazetasi 800, 1986- yil 7- dekabrda soni esa 1152 varaqqa yetgan. Ularda ilmiy axborotlardan tashqari ilm-fan, madaniyat va san'at, oilaviy hayot, ishlab chiqarish va savdo sotiq xususiyatiga ega reyklamalar muhim o'rin tutadi. Gazetalarning deyarli barchasi xususiylidir. Ular o'ziga zarur mablag'larni reklamalar orqali topishadi, shuning uchun ham reklamalar gazetalarning alohida faoliyatiga aylangan. Reklamalar ichida ilmiy-texnik kashfiyotlarga, innovatsion g'oyalarga oid axborotlar ham bor. Lekin bu reklamalar savdo sotiq, ya'ni ishlanmalarni sotish xarakteriga ega. Ayrim bir ma'lumotlarga ko'ra, AQSHdagi bunday reklamalar asosan The New Times va Washington Post gazetalari ko'proq e'lon qilinadi.[4]

Amerika mediaindustriyasi tizimida 123 ming gazeta 11 ming jurnal chop etiladi. Har kuni chop etiladigan gazetalari soni 1450 ta va ular 55 million nusxada chiqariladi. Haftalik gazetalari soni 6250 tani tashkil etadi. "Uoll Strit djornel" 2,1 million, "Yu Es Ey Tudey" 2 millionga yaqin, Nyu York tayms" 600,4 ming, "Washington post" 578,5 ming nusxada chop etiladi. "Uoll Strit djornel" va "Yu Es Ey Tudey" umumilliy nashrlar hisoblanadi. Ular AQSHning istagan bir joyidan obuna bo'lish va sotib olish mumkin.

AQSHdagi axborotlar agentligi (YUSIA) dunyodagi kuchli mediaindustriya markazlaridan biridir. U 1953 -yili tashkil etilgan bo'lib, 142 mamlakatda 190 ta bo'limlari mavjud. Unda 6300 xodim, jurnalist ishlaydi, ulardan 2,5 mingi chet ellardagi korrespondentlardir. Agentlik axborotlari kechayu kunduz ishlaydigan Woldnet telekompaniyasi orqali tarqatiladi. Bugun AQSHning 40 foizdan ziyod aholisi internet xabarlardan faol foydalanadi.

AQSHdagi mediamarkazlar va mediaxabarlar (mediaindustriyasi) kommertiya asosiga qurilgani bilan ajralib turadi. Mamlakatda davlat tomonidan idora etiladigan OAV yo'q. To'g'ri, ba'zi chet ellarga mediaxabarlar tarqatuvchi "Amerika ovozi", "Marti radiosi", "Marti televideniyesi" va YUSIA davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, ular hukumat qarorlari va tashqi siyosatining muhim jihatlari dunyoga tarqatishadi. AQSHda mediamarkazlar faoliyatini mediaxabarlar tarqatish jarayonlarini regulyatsiya qiluvchi maxsus qonunlar, demak, senzura yo'q, so'z erkinligi tamoyiliga amal qilgan holda har bir jamoa o'z nashriga ega bo'lishi mumkin. Nashr ishi uchun davlat organlari tomonidan ruxsat, litsenziya olish shart emas. Tahririyatning qiziqishi va nashr ishlarini olib borish uchun mablag'i bo'lsa, yetarli. Amerikada "qonunlar chiqaruvchi hokimiyat ijro hokimiyatini, sud hokimiyati ularning ikkalasini ham, matbuot esa ularning barchasini nazorat qiladi" degan tamoyil amal qiladi. Shuning uchun ham amerikaliklar mediaindustriyasini, OAV ni "to'rtinchi hokimiyat" deyishadi. [5]

Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik muloqotini rivojlantirishga yordam berishi va fuqarolar va hokimiyat organlari o'rtasida aloqa o'rnatishni osonlashtirishi mumkin, bu esa xavfsizlikni ta'minlash uchun ham muhimdir. Ammo shuni yodda tutish kerakki, ommaviy axborot vositalari adliya tizimi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarni almashtirishi mumkin emas va xavfsizlikni jamiyat va hukumatning barcha darajalarini o'z ichiga olgan keng ko'lamli choralar bilan ta'minlash kerak. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari noqonuniy axborot, kiber jinoyatchilik va onlayn ekstremizmga qarshi kurashish orqali ijtimoiy tarmoqlar va Internetdagi xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashi mumkin. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari o'zlarining nashrlari va musiqalari uchun javobgar ekanliklarini hisobga olish muhimdir.

Tajriba (tadqiqot) natijalari va ularning muhokamasi. OAV va keng jamoatchilik, ziyolilar, ayniqsa Axborot xizmatlari agentliklari bilan ijodiy hamkorlik har qanday muammoni operativ, sifatli va professional darajada yoritish imkonini beradi.

Ilg'or davlatlar tajribalarini o'rganishdan ma'lumki, OAV o'zining ilmiy, ma'rifiy funksiyalarini korporatsiyalar, mehnat jamoalari, muassasalar qoshidagi Axborot agentliklari orqali amalga oshiradi. Mazkur institutlarning gazetalari, jurnallar, radio, televideniye va internet bilan ijodiy aloqalarini o'rnatuvchi maxsus xodimlari bo'ladi, goho ular soni hatto 50 nafargacha boradi. Har bir xodimning o'z vazifasi bor, ya'ni biri gazeta jurnallarni, ikkinchisi radioni, uchinchisi teleko'rsatuvlarni, to'rtinchisi internetni kuzatib boradi, institut hayotiga taalluqli yoki u uchun zarur axborotlarni to'playdi, o'rganadi, rahbariyatga yetkazadi. Ayni paytda ular o'z axborotlarini, reklama yoki faoliyatiga oid yangiliklarni OAV orqali tarqatadi. Bugun respublikamizdagi qator yetakchi tashkilotlarda uchtadan shunday xodim faoliyat yuritmoqda [5]. Ayni paytda davlat organlariga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va OAV bilan davlat idoralari o'rtasidagi muloqotni uzluksiz jarayonga aylantirishga xizmat qilmoqda. Shu kunga qadar ochiq portalga 149 ta davlat idoralari tomonidan 11 mingdan ortiq ma'lumotlar to'plami joylashtirilgan bo'lib, ulardan foydalanuvchilar soni 7,5 million kishidan ortiq [6].

OAV so'z erkinligining ifodachisi. Barcha mediamarkazlar demokratik tamoyillar nuqtayi nazaridan baholanadi. AQSHdagi Xalqaro kommunikatsiya va tashqi aloqalar instituti mutaxassisi M.Sullivan fikriga

ko'ra: "Axborot xizmatiga hukumatning sadaqasi yoki uning ta'sirchanlik ko'rsatkichi sifatida emas, balki erkin jamiyat tabiatidan va davlatning fuqaroga munosabatidan kelib chiqadigan narsa sifatida qarash kerak.

Ommaviy axborot vositalari (mediamarkazlar)ning bosh funksiyasi jamiyat hayotida sodir bo'layotgan yangiliklar va o'zgarishlarni xalqqa, ommaga etkazish (mediatahlil)dir. Demokratik qadriyatlarni qaror toptirishni maqsad qilib qo'ygan har bir jamiyat, solum mediamarkazlar va mediaxborotlar imkoniyatlaridan foydalanishga intiladi. Chunki, demokratiya va hurfikrlik, ko'pfikrlik uyg'undir. Jamiyat hayotining barometri bo'lgan ijtimoiy kommunikasiya jarayonlari avvalo ommaviy axborot vositalari orqali kishilar ongiga, tasavvurlari va dunyoqarashiga ta'sir etadi, "ommaviy axborot madaniyatini", muhitini yaratadi [6].

Ommaviy axborot vositalarining o'ziga xos fundamental jihatlari mavjud. Ulardan biri axborot subyekti (jurnalist, publisist, muallif)ning mediamarkazlar faoliyatida, dasturlari va ko'rsatuvlarida avvalo ijodkor sifatida qatnashishidir. Ushbu subyektlar o'zining so'z va ijod erkinligi huquqlaridan kelib chiqib, mediamarkazlarda tadbirlar uyushtiradi, ommaviy auditoriyaga u yoki bu muammolar bo'yicha o'zining qarashlari va tavsiyalarini etkazadi. Ommaviy axborot vositalari, jurnalist faoliyati sinkretik xususiyatga ega, unda badiiy obrazlar yaratish va ijtimoiy fikrlarni shakllantirish, tarixiy tajribalarni qayta tiklash va ularni zamonaviy muammolar bilan uyg'unlashtirish, badiiy estetik mavzularni texnik vositalar bilan bezatish, obrazlar, simvollar va artefaktlar yaratish, individual rejalarni, metafizik mushohadalarni ommalashtirish, keng auditoriyaga etkazish, intellektual kuchlarning mediavositalar radio, televidenie, gazeta va jurnallarda, internet saytlarida chiqishini uyushtirish kabi imkoniyatlar mavjud [7].


Xulosa. Axborot texnologiyalarini yangilab, modernizasiyalab turish ilmiy-texnik taraqqiyot, axborot asrining talablaridan biridir. Axborot texnologiyalarining yangilanishi axborotlarning yangilanish qonuniyatlariga muvofiq kelishi zarur. Yangi-yangi axborotlar, yangi-yangi texnologiyalar yordamida tarqatilganida samara beradi, ommalashadi va ma'rifiy qiziqish uyg'otadi. Hozirgi ilmiy-texnik taraqqiyot davri, "to'rtinchi inqilob" (K.Shvabs) yangi axborotlarni tez tarqatadigan va ommalashtiradigan texnologiyalarni yaratayotgan ekan, bu jarayonlardan, imkoniyatlardan mediamarkazlar chekkada qola olmaydi. Bugun yaratilayotgan ilmiy-texnik kashfiyotlar bilimlarning intensivlashishi, chuqurlashishi mahsullaridir. Nanotexnologiya, internet saytlar, blogerlar, medialogalarning tibbiyot, savdo-sotiq, moliya, davlat xizmatlari, ijtimoiy kommunikasiya tizimlariga kirib kelayotgani axborot institutlari faoliyatini rang - baranglashtirib yubormoqda. Endi biz yangi yangi axborotlarga muhtoj bo'lgan holda, ularning tez va samarali ta'sirini ta'minlash haqida ham qayg'urishga majburmiz. Bu bizni innovatsion kashfiyotlarga intilib, ularni targ'ib etib yashashga undaydi.

Tavakkal qilib ishlash bozor iqtisodiyotining talablaridan biridir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlayotgan OAV ham tavakkal qilishga majbur. Axborotlar, mediaxizmatlar xavfsizligini ta'minlash kishining axborotlar olish huquqi va erkinliklari bilan bog'liq vazifadir. OAV tarqatadigan axborotlar kishilar o'rtasida nizolarni keltirib chiqarmasligi, adovat va boshqalarning insoniy sha'nini to'kishga qaratilmasligi kerak. Axborotlar, mediaxizmatlar xavfsizligi avvalo ob'ektiv axborotlar tarqatish, jamiyatda insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish bilan bog'liqdir.

Shunday ekan, ushbu global da'vatga biz o'z imkoniyatlarimiz, ilmiy salohiyatimiz va intellektual kuchimiz bilan javob berishimiz, inson kapitalidan samarali foydalangan holda mamlakatimizni yangi bosqichga olib chiqishimiz zarur. Mamlakatimizda ro'y berayotgan innovatsion o'zgarishlar shunchalik mahobatli va tezki, goho biz ularni ilg'ash va baholashga ham ulgur olmayapmiz. Bu o'rinda OAV va mediamarkazlar tarqatayotgan axborotlarga tayanishimiz obyektiv hol, zaruriyatdir.

АДАБИЁТЛАР:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021. – Б. 121.
2. Valakhonskaya J.M., Obrezkova V.A., Fedorenko S.P. The possibility of ensuring security through the media // Вестник науки №5 (74) том 2. С. 540 - 543. 2024 г.
3. Лапшин И.И. Философия изобретения в философии. – Москва: Республика, 1999. – С. 91
4. Калягин Б.А. Характерные черты современной прессы США // Вестник Моск. унта, 2016. №10 С. 37
5. Маркина Ю.В. Мировые транснациональные медиакорпорации сегмент глобализации информационной деятельности//Научные ведомости. Серия Гуманитарные науки. 2018. Том 37. С25-29;
6. Бадрийяр Ж. Общество потребления. – Москва: Изд. АСТ, 2020. – С. 138-149.
7. Маркина Ю. В. Мировые транснациональные медиа корпорации сегмент глобализации информационной деятельности // Научные ведомости. Серия Гуманитарные науки. – 2018. – Том 37. – С. 25-29.



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
27.12.2024 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.

Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara,
K.Murtazayev street, 344